

66.5(50z)

M 69

M.A. Sobirova, Z.T. Zam'onov,  
A.B. Niyozmatov, M.O. Xo'jayev

# **MILLIY G'OYA, MA'NAVIYATNING PEDAGOGIK ASOSLARI**



O'BEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA TA'LIM VAZIRLIGI

NIZOMIY NOMIDAGI  
TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

SOBIROVA MARHABO, ZAMONOV ZOKIR,  
NIYOZMATOV ANVAR, XO'JAYEV MUNIS



---

## MILLIY G'OYA, MA'NAVIYATNING PEDAGOGIK ASOSLARI

---



O'QUV QO'LLANMA

NIZOMIY NOMIDAGI  
TDPU  
AXBOROT-RESURS  
MARKAZI



932514

"Nodirabegim" nashriyoti  
Toshkent - 2022

**KBK: 66.5(O'zb)**

**M 50**

**UO'K: 323.1:37(575.1)(075.8)**

**ISBN 978-9943-7315-8-5**

Sobirova M.A., Zamonov Z.T., Niyozmatov A.B., Xo'jayev M.O.

Milliy g'oya, ma'naviyatning pedagogik asoslari. [Matn] : o'quv qo'llanma / M.A. Sobirova, Z.T. Zamonov, A.B. Niyozmatov, M.O. Xo'jayev. - Toshkent: Nodirabegim, 2022. – 210 b.

Ushbu o'quv qo'llanmada milliy g'oya, ma'naviyatning pedagogik asoslari hamda ushbu turkumga kiruvchi fanlarni o'qitishni ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishning nazariy va amaliy jihatlari olib berilgan.

O'quv qo'llanma "Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi" bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, undan mazkur mavzular bo'yicha ma'ruza, seminar va amaliy mashg'ulotlar jarayonida foydalanish mumkin.

#### **Tuzuvchilar:**

**Sobirova M.A.** – Nizomiy nomidagi TDPU "Ma'naviyat asoslari va huquqiy ta'lim" kafedrasi dotsenti, falsafa fanlari nomzodi.

**Zamonov Z.T.** – O'ZDJTU "Ijtimoiy fanlar" kafedrasi katta o'qituvchisi, falsafa doktori (PhD).

**Niyozmatov A.B.** – UrDU "Milliy g'oya ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi" kafedrasi o'qituvchisi.

**Xo'jayev M.O.** – Nizomiy nomidagi TDPU "Ma'naviyat asoslari va huquqiy ta'lim" kafedrasi dotsenti v.b., falsafa doktori(PhD).

#### **Taqrizchilar:**

**Xadjiyev U.Sh.** – UrDU Tarix fakulteti "Milliy g'oya ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi" kafedrasi katta o'qituvchisi, falsafa doktori (PhD).

**Shodiyev N.** – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruv akademiyasi "Ijtimoiy-siyosiy fanlar kafedrasi" katta o'qituvchisi, falsafa doktori (PhD).

**Xudoyqulov T.** – TDPU Shahrisabz filiali Pedagogika fakulteti "Gumanitar fanlar" kafedrasi mudiri, tarix fanlari nomzodi.

Mazkur o'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021-yil 18-avgustdagи 356-sonli buyrug'iga asosan nashrga tavsiya etilgan.

© M.A. Sobirova, Z.T. Zamonov, A.B. Niyozmatov, M.O. Xo'jayev.

© "Nodirabegim" nashriyoti, 2022.

## KIRISH

“Milliy g’oya, ma’naviyatning pedagogik asoslari” fanini “Milliy g’oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi” bakalavriyat ta’im yo’nalishlarida o’qitish belgilangan. Mazkur o’quv qo’llanmada fanning maqsadlari, vazifalari, tamoyillari, mazmun-mohiyati o’z ifodasini topgan bo’lib, unda milliy g’oya va ma’naviyat asoslari turkumiga kiruvchi fanlarni o’qitishning vositalari va usullari, ilg’or pedagogik texnologiyalar asosida darslarni tashkil etishning nazariy va amaliy jihatlari ochib berilgan.

Ushbu fanni o’qitishdan asosiy maqsad ham talabalarda milliy g’oya va ma’naviyat asoslari turkumiga kiruvchi fanlarni o’qitishning pedagogik asoslari, ushbu fanlarni o’qitish metodikasi, uning asosiy yo’nalishlari va vositalari, shakl va metodlari haqidagi dastlabki bilimlarni shakllantirishdan iborat.

Qolaversa, “Milliy g’oya, ma’naviyatning pedagogik asoslari” fani talaba-yoshlarda mustaqil dunyoqarashni; milliy g’oya targ’iboti va ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirishga mas’ullikni; hozirgi zamoning mafkuraviy manzarasi, ma’naviy tahdidlardan hushyor va ogoh bo’lish shartlari va mezonlari haqidagi hayotiy va haqqoniy tasavvurlarni hamda ma’naviy-mafkuraviy jarayonlarni tahlil qilish, baholash va ularga mustaqil yandashuvni shakllantirish va rivojlanirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, “Milliy g’oya, ma’naviyatning pedagogik asoslari” fanini o’qitish orqali talaba-yoshlarda quyidagi ko’nikma va kompetensiyalar shakllanadi:

- milliy g’oya va ma’naviyat asoslari turkumidagi fanlarni o’qitishning asosiy maqsad va vazifalari, milliy g’oya va ma’naviyat asoslari turkumiga kiruvchi fanlarning barkamol shaxsni tarbiyalashdagi o’rnii haqida tasavvur va bilim;
- milliy g’oya va ma’naviyatga oid manbalarni ilmiy o’rganish, o’qitish va targ’ib-tashviq qilishning pedagogik asoslari, O’zbekistonda ma’naviy-goyaviy ta’lim-tarbiya va targ’ibot-tashviqot institutsional tizimining rivojlanish xususiyatlariiga oid ma’lumotlarni saralash va qiyosiy tahlil qilish ko’nikmasi;
- ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga erkin munosabat bildirish, bunyodkor yoki vayronkor g’oyalarning xalqlar va davlatlar taraqqiyotiga ta’sirini mustaqil ravishda tahlil etish hamda ma’naviy-mafkuraviy jarayonlarga doir nazariy bilimlarni amaliy hayotda qo’llay olish kompetentligiga ega bo’lishadi.

**1-MAVZU:**  
**MILLIY G'OYA, MA'NAVİYATNING PEDAGOGİK ASOSLARI"**  
**FANINING MAQSAD VA VAZİFALARI**

**REJA:**

1. G'oya, mafkura, milliy g'oya tushunchalarining mohiyati. Mustaqillik sharoitida milliy g'oya va ma'naviyatga doir fanlarning ta'lif tizimiga joriy etilishi.
2. "Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi" bakalavriyat ta'lif yo'naliishida o'qitiladigan milliy g'oya va ma'naviyat asoslari turkumiga kiruvchi fanlar.
3. "Milliy g'oya, ma'naviyatning pedagogik asoslari" fanining predmeti, maqsad va vazifalari.

**Tayanch tushuncha va iboralar:** g'oya, milliy g'oya, milliy g'oya ta'lifi, milliy g'oya ta'lifining yuzaga kelishi, milliy g'oya ta'lifining mazmuni, milliy g'oya ta'lifini tizimi, milliy g'oya ta'lifining nazariy-huquqiy asoslari.

**1-masalaning bayoni:** Bugun biz bunday jamiyat qurishga intilmoqdamiz. Lekin, bu go'zal orzuga erishmoq uchun tinimsiz intilish, jamiyat hayotining barcha sohalarini takomillashtirish, umuminsoniy qadriyatlarni ijodiy o'rGANIB, o'z zaminimizga tatbiq etishimiz lozim.<sup>1</sup> Shu bilan birga, milliy o'ziga xosligimizni, asrlar sinovidan o'tgan an'analarimizni, hamisha iyomon-e'tiqod bilan yashash kabi hayotiy tamoyillarimizni ham saqlab, yuksaltirib borishimiz zarur. Bu jarayonda shubhasiz, millat ma'naviyatining ustuni bo'lgan milliy g'oya muhim ahamiyat kasb etadi.

Gap milliy g'oya haqida borar ekan, mazkur tushunchaning mazmun va mohiyatiga e'tibor qaratishdan oldin avvalo g'oya va mafkura tushunchalarining etimologiyasiga to'xtalib o'tish o'rini.

Inson o'zining beqiyos tafakkuri bilan vogelikni idrok etish mobaynida turli fikrlar, qarashlar, g'oyalalar va ta'lilmotlarni yaratadi. Lekin tafakkur yaratgan har qanday fikr yoki qarash, mulohaza yoki nuqtai nazar g'oya bo'la olmaydi. Faqat eng kuchli, ta'sirchan, zalvorli fikrlargina g'oya bo'la olishi mumkin. G'oyalarning oddiy fikrlardan farqi yana shundaki, ular garchi tafakkurda paydo bo'lsa-da, inson (va jamiyat) ruhiyatiga, hatto tub qatlamlariga ham singib boradi. G'oya shunday quvvatga egaki, u odamning ichki dunyosigacha kirib borib, uni

<sup>1</sup> Каримов И.А. Биз келажагимизни ўз қўнимиз билан қурамиз. 7-том. -Т.: Ўзбекистон, 1999-йил, 304-бет.

harakatga keltiruvchi, maqsad sari yetaklovchi ruhiy-aqliy kuchga aylanadi. Demak, yuqoridagi fikrlar va soha olimlarining yondashuvlaridan kelib chiqqan holda g'oyaga shunday ta'rif berish mumkin:

**G'oya** - bu voqelikni aks ettirish va ilmiy bilishning o'ziga xos shakllaridan biri bo'lib, inson tafakkurining mahsuli hamda inson va jamiyatni ma'lum bir maqsad sari yetaklovchi, ularni harakatga undovchi umumiyyatni fikrlar yig'indisidir.

G'oyalalar mohiyatan ikki turga bo'linadi: bunyodkor va vayronkor g'oyalar.

**Bunyodkor g'oya deb**, insonni ulug'laydigan, uning kuch-g'ayrati va salohiyatini oshirib, xalqi, Vatani, butun insoniyat uchun foydali ishlar qilishga safarbar etadigan, o'zida mehnat, taraqqiyot, do'stlik, tinchlik, adolat, halollik kabi ezgu maqsadlarni mujassam etadigan g'oyaga aytildi.

Bunyodkor g'oyalar har bir xalq, umuman, bashariyatning orzu-umidlarini, maqsad-muddaolarini ifodalaydi, erkin hayot va adolatlilik tuzumni tarannum ettiradi. Bu turkubdagi g'oyalar insonni ezgulikka, jamiyatni farovonlikka yetaklaydi. Masalan, Amir Temurning g'oyasi - tarqalib ketgan yurtni birlashtirish, bitta yaxlit davlat barpo etish, mamlakatni obod qilishdan iborat edi. Natijada Amir Temur bunyodkor g'oyasini amalga oshirib, o'z maqsadiga erishadi.

Bunyodkor g'oyalarga qarama qarshi bo'lgan, yovuzlik va jaholatni o'ziga mezon qilib olgan, inson va jamiyatni jaholat, tubanlik sari yetaklaydigan, insonlarni g'arazli niyat va qabih maqsadlarga da'vat etadigan, oxir oqibat xalqlar va davlatlarni tanazzul va halokatga mahkum etadigan g'oyalar majmui "Vayronkor g'oyalar" tushunchasida ifodalanadi.

**Vayronkor g'oya deb**, turli ta'sirchan vositalardan foydalanib, odamlarni soxta va puch maqsadlarga ergashtiruvchi, ularning kuch-qudratini buzg'unchilik va jinoyatga yo'naltiradigan, insoniyat uchun faqat kulfat keltiradigan g'oyaga aytildi.

Vayronkor g'oyalar hamda buzg'unchilik xatti-harakatlarining zamirida g'ayriinsoniy maqsadlar yotadi. Ular insonga, insoniyat erishgan yutuqlarga nafrat bilan qarashni, buzg'unchilikni rag'batlantiradi.

Hozirgi paytda jahon jamoatchiligi tomonidan keskin qoralanayotgan xalqaro terrorchilik va mafkuraviy xurujlar, diniy ekstremizm va jaholatparastlik singari illatlar ham vayronkorlik g'oyalariga asoslangan.

Inson tafakkurining mahsuli sifatida g'oya milliy-madaniy merosni, umuminsoniy qadriyatlarni, ijtimoiy-ma'naviy hayotni, tevarak olamni

o'rganish, bilish jarayonida vujudga keladi. Ijtimoiy ongning barcha shakllari ilm-fan, falsafa, din, san'at va badiiy adabiyot, axloq, siyosat va huquq muayyan bir g'oyalarni yaratadi, ularga tayanadi va ularni rivojlantiradi. Masmuni va namoyon bo'lish shakliga qarab, g'oyalarni bir qancha turlarga ajratish mumkin: ilmiy g'oyalalar; falsafiy g'oyalalar; diniy g'oyalalar; badiiy g'oyalalar; ijtimoiy-siyosiy g'oyalalar; milliy g'oyalalar; umuminsoniy g'oyalalar va h.k<sup>2</sup>.

*Mafkura* esa muayyan ijtimoiy guruh, ijtimoiy qatlam, millat, davlat, xalq va jamiyatning ehtiyojlari, maqsad-muddaołari, manfaatlari, orzu intilishlari hamda ularni amalga oshirish tamoyillarini o'zida mujassam etadigan g'oyalar tizimidir. Mafkura tushunchasi arabchadagi "muffakir" "muffakiratun" so'zlaridan olingan bo'lib, chuqur ma'noli, teran mazmunli fikr demakdir.

Mafkura tushunchasiga turli davrlarda faylasuf olimlar tomonidan berilgan ta'riflar shakl va mazmun jihatidan har xil. Mafkuraga jamiyatdagi muayyan siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, badiiy, falsafiy, ilmiy qarashlar, fikrlar va g'oyalalar majmuidir, - deb ta'rif beriladi.

Mafkurani ilmiy jihatdan o'rganganda u asosan uch tarkibiy qismdan tashkil topganligi ma'lum bo'ladi. Uning ushbu tarkibiy qismlari quyidagilar:

birinchisi, muayyan tizimga solingan (ilmiy, falsafiy, diniy va boshqa tomonidan asoslangan) g'oyalalar, kategoriyalar, tamoyillar majmui;

ikkinchisi, mafkuradagi g'oyalalar, kategoriyalar va tamoyillarni jamiyatga tatbiq etuvchi sub'ektiv omillar (mafkuraviy muassasalar va mafkurachi shaxslar);

uchinchisi, g'oya va kategoriyalarni jamiyatga tatbiq etish jarayonida qo'llanilgan yo'llar, usullar va vositalardir.

Qolaversa, mafkura targ'ibotini olib boradigan o'qituvchi va murabbiylar tom ma'noda mafkurachi shaxslar hisoblanadi. Bunday shaxslarga mafkura, uning tuzilishi, ishlash tamoyillari, keng omma (jumladan o'quvchilar)ga ta'sir etishning usul va vositalari, g'oyaviy raqiblar va ularning mafkuraviy yondashuvlari hamda boshqa ma'lumotlar to'la-to'kis beriladi. O'qituvchi darajasidagi shaxs albatta bunday ma'lumotlarni o'zlashtirishga qiyalmaydi, aksincha, ularni o'zlashtirishi shart hisoblanadi.

Mafkuraviy ishni tashkil etishda mafkuraviy bilimlarni to'g'ri berishni tashkillashtirish juda muhimdir<sup>3</sup>.

<sup>2</sup> Sobirova M.A. Tog'ayqulov T. "Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari" fanining nazariy asoslari va metodik masalalari" modulni bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. – T.: 2017.

<sup>3</sup> Маматкулов Д.М. Мафқура тушунчаси, унда ғоя ва категорияларнинг тутган ўрни. //Замонавий таълим, 2015, №11, 2-бет.

Yuqorida “g’oya”, “mafcura” tushunchalarining mazmun-mohiyatiga qisqacha to’xtalib o’tdik. Endi mamlakatimiz va xorij olimlarining tadqiqotlariga hamda falsafiy-qomusiy lug’atlarga asoslangan holda “milliy g’oya” tushunchasining mazmun va mohiyatini yoritishga harakat qilamiz.

“Milliy g’oya” tushunchasiga mamlakatimiz faylasuf olimlari tomonidan tayyorlangan “Falsafa: qomusiy lug’at”ida “millatning o’tmishi, buguni va istiqbolini o’zida mujassamlashtirgan, uning tub manfaatlari va maqsadlarini ifodalab, taraqqiyotga xizmat qiladigan ijtimoiy g’oya shakli”<sup>4</sup> degan ta’rif berilgan bo’lsa, “Ma’naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug’ati”da ushbu tushuncha “muayyan millat hayotiga mazmun baxsh etadigan, uni ezgu maqsad sari yetaklaydigan fikrlar majmui. U millatning o’tmishi, buguni va istiqbolini o’zida mujassamlashtiradi, uning tub manfaatlarini, maqsadlarini ifodalandi”<sup>5</sup> deb ta’riflangan. Shuningdek, “Milliy istiqlol g’oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar” konsepsiyasida milliy g’oyaga shunday ta’rif berilgan: “inson va jamiyat hayotiga ma’no-mazmun baxsh etadigan, uni ezgu maqsad sari yetaklaydigan fikrlar majmuidir”<sup>6</sup>.

Rossiyada nashr etilgan zamонавија falsafiy lug’atda “milliy g’oya” tushunchasi “milliy o’zlikni anglashning zamondan oldingi mavjudligida tizimli umumlashtirilishi” deb ta’riflanadi. Ushbu lug’atda keltirilishicha, milliy g’oya “Ko’pincha ijtimoiy-falsafiy yoki ijtimoiy-siyosiy matnlar, san’at asarlari ko’rinishida taqdim etiladi. Milliy g’oyaning mohiyati xalq etnosining mavjudligi muammosini tashkil qiladi”<sup>7</sup>.

“Milliy g’oya” tushunchasiga O’zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A. Karimov o’zining “Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch” nomli asarida quyidagicha ta’rif beradi: “Milliy g’oya deganda, ajdoddlardan avlodlarga o’tib, asrlar davomida e’zozlab kelinayotgan, shu yurtda yashayotgan har bir inson va butun xalqning qalbida chuqr ildiz otib, uning ma’naviy ehtiyoji va hayot talabiga aylanib ketgan, ta’bir joiz bo’lsa, har qaysi millatning eng ezgu orzu – intilishi va umid-maqsadlarini o’zimizga ta’savvur qiladigan bo’lsak, o’ylaymanki, bunday keng ma’noli tushunchaning mazmun-mohiyatini ifoda qilgan bo’lamiz”<sup>8</sup>.

<sup>4</sup> Фалсафа: қомусий луғат. – Тошкент: “Шарқ” нашриёт – матбаса акциядорлик компанияси бош таҳририяти, 2004. – 271-6.

<sup>5</sup> Маънавият: асосий тушунчалар изоҳли луғати. – Тошкент: Гафур Фулом номидаги нашриёт-матбас ижодий уйи, 2013. – 215-б.

<sup>6</sup> Миллий истиқлол гояси: асосий тушунча ва тамойиллар. – Тошкент: Ўзбекистон, 2000. – 9-б.

<sup>7</sup> Карапт: Современный философский словарь / под ред. В. Е. Кемерова. Лондон Франкфурт-на-Майне-Париж-Люксембург-М.-Минск: Панпринт, 1998, с. 557. (таржима музалифники).

<sup>8</sup> Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. – 71- б.

Sohaning yetuk olimlaridan biri professor S.Otamuratovning fikricha, "Milliy g'oya – milliy ongni uyg'otuvchi, millatning o'zligini anglatuvchi, o'ziga xoslikka, mentalitetga "qiyofa" baxsh etuvchi, milliy ruhiyat, g'urur, iftixor, e'tiqod va ma'sullik tuyg'ularini shakllantiruvchi fikrdir"<sup>9</sup>.

Mamlakatimiz yetuk olimlaridan yana biri, professor I.Ergashev fikricha, "Milliy g'oya jamiyatimiz o'tmishini bugungi kun va istiqbol bilan bog'lab turadi, fuqarolarni mushtarak maqsad va manfaatlar yo'lida birlariga hamjihat, hamkor bo'lib yashashga undaydi. Ayrim shaxs, guruh manfaati va maqsadlari bilan birga ijtimoiy umummilliy manfaatlar va maqsadlar birligidan ogoh etadi"<sup>10</sup>.

Bugungi kunda mamlakat miqyosida milliy g'oya masalasiga alohida urg'u berilayotganligi bejiz emas. Chunki, har bir jamiyat ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotini ta'minlovchi ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy omil sifatida namoyon bo'ladigan kuch – bu milliy g'oyadir. Shu bois mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoev tomonidan "oldimizga qo'ygan ulkan vazifalarni amalga oshirishda biz uchun kuch-qudrat manbai bo'ladigan milliy g'oyani rivojlantirishimiz zarur"<sup>11</sup> ligi bot-bot qayd etilmoqda.

Mustaqillik sharoitida milliy g'oya va ma'naviyatga doir fanlarning ta'lim tizimiga joriy etilishi ham bejiz emas. Zero, qyd etilganidek, milliy g'oya jamiyat ma'naviy hayotini yuksalib borish zamini bo'lish bilan birga, u ma'naviyatimizni ezgu maqsadlar yo'lida yengilmas kuchga aylanishini ta'minlab beradi.

Milliy g'oyasiz va yuksak ma'naviyatsiz odamlar, jamiyat va davlat yo'lini yo'qotadi. Milliy g'oya jamiyatni yuksaltirish va ma'naviy yetuklikka erishishi yo'lidagi, jamiyat a'zolarini oliv maqsadlar sari yetaklab boruvchi bayroq misolidir. Milliy g'oya xalqni, millatni birlashtiradi. Jamiyatning har bir a'zosini ma'naviy kamolotga erishishini ta'minlab beradi. Milliy g'oya jamiyatning har bir a'zosini yuksak ma'naviyat belgilaridan hisoblangan vatanparvarlik, fidoyilik singari fazilatlarini shakllantirib beradi.

Milliy g'oya jamiyatimiz a'zolarida, ayniqsa yoshlarda ma'naviy hayotni yuksaltirishga xizmat qiladigan fazilatlarni shakllantirib borish bilan birga, turli ijtimoiy guruhlar, tabaqalar o'rtaсидаги hamkorlikni, millatlararo totuvlikni va umumtaraqqiyot yo'lidagi jipslashuvni ta'minlab beradi. Milliy g'oya O'zbekistonda istiqomat qilayotgan barcha

<sup>9</sup> Отамуратов С. Миллий ривожланиш фалсафаси. –Тошкент: Академия, 2005. –24-6.

<sup>10</sup> Эргашев И. Ҳаётнинг ҳар они фалсафа. – Тошкент: Академия, 2011. –76-6.

<sup>11</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси// Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси//Халқ сўзи, 2018 йил 29 декабрь.

xalqlarning tilidan, e'tiqodidan, jinsidan qat'iy nazar barcha O'zbekistonliklarning manfaatlarini ifodalay bilishi kerak.

Sir emaski, bugungi kunda jamiyat a'zolarini, ayniqsa, O'zbekistonning kelajagi bo'lgan yoshlarni ongi va qalbini zaharlashga intilayotgan, jamiyatimizning ma'naviy hayotini parokandalik holatiga tushirishga harakat qilayotgan ma'naviy tahdidlar mavjud. Mana shunday ma'naviy tahdidlarning oldini olishda milliy g'oya katta rol o'ynaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 28-iyuldag'i "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bochqichga ko'tarish to'g'risida"gi PQ-3160-sonli Qarorida qayd etilganidek, "Bugungi kunda dunyoda globallashuv jarayonlari kuchayib, tinchlik va barqarorlikka qarshi yangi tahdid va xatarlar tobora ko'payib bormoqda. Bunday murakkab va tahlikali vaziyat sohada amalga oshirilgan ishlarni tanqidiy baholab, uning faoliyatini zamon talablari asosida takomillashtirishni taqozo etmoqda"<sup>12</sup>.

**2-masalaning bayoni:** Milliy g'oya faqatgina nazariy tafakkur natijasi emas, ular har bir shaxsning ma'naviy e'tiqodida, amaliy faoliyatida namoyon bo'lishi bilan birga, ma'naviy hayotni yuksaltiruvchi omil hamdir. Milliy g'oya ta'limi milliy tarbiya an'analariga katta e'tibor bergen holda yoshlar ma'naviyatini yuksaltirib, ulardag'i vatanparvarlik, milliy iftixor, millatparvar tuyg'usini qadriyat darajasiga ko'tarib beradi.

Milliy g'oya, ma'naviyat turkumiga kiruvchi fanlarning tub mohiyatida milliy ong, milliy o'zlikni anglash va milliy mentalitet yetakchi o'rinni egallaydi. Chunki, milliy ong bo'lmasa, u rivojlanmasa, millat o'zligini anglamasa, u kim, qayerdan kelib chiqqan, ildizlari nimalar bilan bog'liqligi kabi tuyg'ularga ega bo'lmasa va nimalarga qodirligini bilishga intilmasa, milliy goya ham sayozlashib boraveradi. Millat o'zining turmush va hayot kechirish jarayonida o'z millatiga xos bo'lgan udumlar, urf-odatlar, an'analar va qadriyatlarni o'zlashtirishga intilsa hamda unga amal qilsagina milliy g'oyalar uyg'onib, rivojlanib, takomillashtib boraveradi. Chunki, milliy ong va milliy o'zlikni anglash milliy g'oyaga turki beradi, uni shakllantiradi va milliy taraqqiyotga ruhiyat bag'ishlab "uni harakatga" keltiradi. Shuning bilan birga, milliy ong va o'zlikni anglashning rivojlanishi milliy g'oya imkoniyatlarini kengaytirib turadi.

Milliy g'oyaning ta'sir doirasi nihoyatda keng bo'lib, u millatning o'ziga xosligini saqlab turish, millat manfaatlari yo'lida millat vakillarini birlashtirish, yushtirish va taraqqiyot yo'nalishlarini belgilash kabilarga o'zining ta'sirini o'tkazib turadi.

<sup>12</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bochqichga ko'tarish to'g'risida"gi PQ-3160-son Qarori.//Xalq so'zi, 2018-yil, 30-iyul.



Millat g'oyasi shu xalqning tarixi va kelajagini birlashtiruvchi mushtarak maqsadlar majmuasidir. Chorak asrdan ziyodroq mustaqillikning qisqa davrida O'zbekistonda demokratik adolatli va huquqiy davlatchilikni shakkantirish, xalqimizning farovonligini oshirish, uning ma'naviy-ruhiy tiklanishi uchun zarur bo'lgan barcha shart-sharoitlar vujudga keltirildi. Bu jihatlar jamiyatda milliy o'zlikning tamal toshi mustahkam o'rashganligidan dalolat beradi. Misol uchun, "Ijtimoiy fikr" jamoatchilik fikrini o'rganish markazi tomonidan 1999-yildan beri ushbu yo'nالishda tadqiqot o'tkazilib, yurtdoshlarimizning fikr hamda qarashlaridagi o'zgarishlari tahlil qilib borilgan. So'rov so'nggi yillarda milliy o'zlik o'z xalqiga mansubligini ich-ichidan his qilish ekanligini anglab yetgan respondentlar soni o'sganini aniqladi (2015-yilda bu ko'rsatkich 22,7 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2017-yilda 33,1 foizga yetdi). Mazkur tadqiqotlar orqali jamiyat a'zolari o'z millati, jamiyati va tarixidan faxrlanish tuyg'usi barqaror o'sib borayotganini ko'rish mumkin. Bu jihatlar milliy masdkuraning milliy o'zlikni anglash va tarixiy tafakkur bilan uyg'unligini yaqqol namoyon etadi<sup>13</sup>.

Milliy g'oya milliy manfaatlarni amalga oshirish, milliy istiqbolini belgilash uchun muhim ahamiyatga egadir. Chunki u, millat vakili bo'lgan har bir shaxsning dunyoqarashi, kundalik faoliyatida o'z ifodasini topadi. Millat vakillarining aksariyat ko'pchilik qismini milliy g'oyasi mustahkam bo'lgan insonlar tashkil qilgan sharoitdagina milliy manfaatlar uchun umummilliy harakat vujudga keladi. Xuddi mana shu umummilliy harakatni vujudga keltirish – milliy g'oyaning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi; ikkinchidan, uning millat vakillarida vatanparvarlik, ona zaminning muqaddasligi tuyg'usini uyg'otish, uni ko'z qorachig'iday himoya qilish kerakligini tushunib yetishga ta'sirini o'tkazish; milliy g'oya har bir millat vakilida uning avlod-ajdodlari ana shu zaminda dunyoga kelgan, uning huzur-halovatidan bahramand bo'lgan, undan ilhom, zavq-shavq olgan va qo'nim topganligidan xabar berib turadi. Bu o'z navbatida o'z ona zaminiga mehr-muhabbatini mustahkamlaydi; uchinchidan, milliy g'oya tarixiy xotirani mustahkamlaydi va uning takrorlanmas imkoniyatlaridan manba sifatida turki (zaryad), ilhom olib turadi. Biz qancha umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi va umumbashariyatni birlashtiruvchanligi haqida gapirmaylik, baribir uning ildizlari, zaminlari millatning tarixiy xotirasi, merosi va asrlar davomida to'plagan hayotiy tajribalari bilan bog'liq ekanligini nazarda tutishimiz lozim bo'ladi. Xuddi mana shu jarayonda milliy g'oyaning o'rni, salohiyati, imkoniyati va yuksakligi namoyon bo'lib turadi.

<sup>13</sup> Qarang: Эшбоев Т. Тинчлик ва фаровонлик гарови. //Халқ сўзи, №114, 09.06.2017.

"Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi" bakalavriat yo'nalishining tashkil etilishidan ko'zlangan maqsad ham yoshlarni ana shunday ezgu g'oyalar bilan tarbiyalab voyaga yetkazishdir. Ushbu yo'nalishda "Milliy g'oya , ma'naviyatning pedagogik asoslari" fani bilan bir qatorda, "Milliy g'oya tarixi va nazariyasi", "Etnomadaniyat", "Globallahuv asoslari", "Geosiyosat asoslari", "Ma'naviyatshunoslik", "Milliy g'oya targ'iboti texnologiyalari", "Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish metodikasi", "Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi fanlarini o'qitish metodikasi", "Ma'naviy tarbiyaning tarixiy-nazariy asoslari", "Jahon siyosiy-mafkuraviy ta'limotlar tarixi", "Ekstremizm, terrorizmga qarshi kurashning ma'naviy-ma'rifiy asoslari", "Jamiyat va tarbiyaviy jarayonlar", "Tarbiya fanini o'qitish texnologiyasi" kabi milliy g'oya va ma'naviyatga oid fanlar o'qitiladi.

O'z o'rnida mazkur fanlar o'zining babs doirasiga, tamoyillari va qonuniyatlariga ega. Mohiyatan olib qaraganda bu fanlarning yuzaga kelishi yangi asr boshidagi zarurat edi. Chunki, milliy g'oya jamiyatimiz taraqqiyotining g'oyaviy tamoyillarini o'zida ifoda etsa, ma'naviyat mamlakatimiz mustaqilligining ma'naviy asoslari, tarixiy-ilmiy, falsafiy, dunyoviy va diniy, milliy hamda umumbashariy ildizlarini o'zida mujassam etadi.

**3-masalaning bayoni:** Bizga sir emaski, insoniyat tarixi – turli g'oyalar, nazariyalar, ta'limotlar, milliy g'oyalar tarixi bilan chambarchas bog'lanib ketgan. Negaki, ularda kishilarning asriy orzu-istiklari, niyatlar, maqsad-vazifalari o'z ifodasini topib kelgan. Azaldan turli g'oyalar, ta'limotlar, milliy g'oyalar muayyan bir millatning, davlatning, xalq va jamiyatning manfaatlарини himoya etib, ularni birlashtirib, ma'lum bir maqsad sari yo'naltirib kelgan. Uzoq o'tmishimizning Qanday bir davrini ko'zdan kechirmaylik, muayyan bir g'oya butun-butun xalqlarni, millatlarni birlashtirib, ma'lum bir maqsadlar sari etaklab kelganligining guvohi bo'lamiz.

Nainki sharq mamlakatlarida, balki butun dunyo tarixida o'chmas iz qoldirgan ko'plab allomalarimizning boy madaniy, ma'rifiy merosiga nazar tashlar ekanmiz, ularda ham ma'lum ma'noda qandaydir g'oyalar ilgari surilganligini teran anglab etamiz.

Qayd etilganidek, milliy g'oya va ma'naviyat asoslari turkumiga kiruvchi fanlar ham mustaqillik yillarida shakllangan, xalqimizning asriy orzu istaklarini, istiqlol tafakkurini o'zida mujassam eta olgan yangi fanlardir. Bu fanlar har birimizga yashashimizdan maqsad nima ekanligini, insonlik va insoniylikning mohiyatini, mustaqillikning hech bir tushuncha bilan almashtirib bo'lmas buyuk qadriyat ekanligini

anglashimizga; Vatan nima, kindik qonimiz tomgan tuproq nima, oila, mahalla qanday tushunchalar, hayotimizda ularning qanday o'rni bor, ozodlik nima, o'zgalarga qaram bo'lish nima - bularning barchasi haqida chuqurroq o'ylab ko'rishimizga, mushohada yuritishimizga imkon yaratadi, ko'mak beradi.

Har bir fanning predmeti, o'z oldiga qo'yan qo'yan maqsadi, ayni shu maqsaddan kelib chiqadigan vazifalari bo'lgani kabi, "Milliy g'oya, ma'naviyatning pedagogik asoslari" fanining ham o'z predmeti, maqsad va vazifalari mavjud.

Bu fanning asosiy kategoriyalari – bular: g'oya, mafkura, milliy g'oya, ma'naviyat, ma'naviy tarbiya, ma'naviy yetuklik, milliy g'oya va ma'naviyatga oid fanlar va shu kabi boshqa o'z mazmun-mohiyatiga ega bo'lgan tushunchalardir. Ya'ni, biz dars mashg'ulotlari davomida "G'oyaning o'zi nima?", "Mafkura tushunchasining mohiyatini biz qanday izohlaymiz?", "Milliy g'oya deganda nimani tushunamiz?", "Insoniyat tarixida g'oya va milliy g'oyalarning qanday ahamiyati bo'lgan?", "Ma'naviyat o'zi nima?", "Ma'naviy tarbiya deganda qanday tarbiya nazarda tutiladi?", "Ma'naviy yetuklik qanday ma'noni anglatadi?", "Milliy g'oya va ma'naviyatga oid fanlarning o'ziga xosligi nimada?", "Milliy g'oya va ma'naviyatning pedagogik asoslari deganda qanday asoslar nazarda tutiladi?" kabi savollarga javob topish asnosida mazkur fan doirasidagi bilim va ko'nikmalarni egallashga, ularni mustahkamlab borishga harakat qilamiz.

Demak, mazkur fanning predmetini – milliy g'oya va ma'naviyatning shakllanishi, ularning madaniy negizlari, ijtimoiy hayot, mehnat faoliyatida namoyon bo'lish shart-sharoitlari, omillari, tamoyillari, o'ziga xos qonuniyatlarini hamda ularning ilmiy-nazariy va pedagogik asoslarini o'rganish tashkil etadi.

Bugun barkamol avlodni tarbiyalash uchun ularning ijodiy qobiliyatini o'stirish, mustaqil fikrlash malakalarini rivojlantirish zarur bo'lganidek, o'z o'rnda pedagoglarda ham ta'lif-tarbiya jarayonini to'g'ri va muvaffaqiyatli tashkil etish mahoratini oshirish lozimligini hayotning o'zi taqozo etmoqda. Shu bois bugungi kunda ta'lifning barcha bosqichlari, xususan, umumta'lim maktablarida milliy g'oya va ma'naviyat asoslari turkumiga kiruvchi fanlarni o'qitishga muhim talablar qo'yilmoqda.

Demak, shulardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, milliy g'oya, ma'naviyatning pedagogik asoslari fanining o'qitilishidan ko'zlangan maqsad va vazifalar qamrovi juda keng. Jumladan:

- talabalar qalbida milliy tafakkur va sog'lom dunyoqarash asoslarini mustahkamlash, ularni ongli yashashga, o'z fikriga ega bo'lishga, ma'naviy tajovuzlarga qarshi sobit tura olishga qodir bo'lgan, irodali, fidoyi va vatanparvar insonlar etib tarbiyalash.

- xalqimizning ko'p asrlik ma'naviyati va milliy qadriyatlari, diniy qarashlari va hayotiy udumlariga, yoshlarimizning zaharlab, ma'naviy jihatdan qaram etishga qaratilgan mafkuraviy xatarlarga qarshi samarali kurash olib borishga talabalarni yo'naltirish;

- xalqaro maydonda mafkuraviy, g'oyaviy va informatsion kurashlar kuchayib borayotgan hozirgi murakkab tahlikali davrda talaba-yoshlarni turli mafkuraviy xurujlardan himoya qilish, ularning hayotga ongli munosabatini shakllantirish, yon-atrofda yuz berayotgan voqealarga daxldorlik hissini oshirish;

shuningdek, g'oyaviy-mafkuraviy ishlarga tizimli yondashish, birinchidan, shu sohadagi muammolarni ilmiy tahlil qilishning zaruriy sharti bo'lsa, ikkinchidan, bu - milliy mafkuraning nazariy-metodologik xarakteriga mos keladi.

Boshqacha aytganda, milliy mafkuraning o'zi, jamiyatimiz taraqqiyoti va manfaatlarini ifoda qiluvchi yaxlit sistemalashgan g'oyalar, nazariyalar tizimidan iborat bo'lib, uni ro'yobga chiqarish bilan bog'liq amaliy ishlar ham shunga muvofiq bo'lishi lozim.

Milliy g'oya va ma'naviyatga oid fanlarni o'qitishda har bir darsda tanlanadigan mavzuning ilmiy asoslanganligi, ya'ni darsdan ko'zlangan maqsad hamda ta'lim oluvchilar imkoniyatini hisobga olgan holda mavzu hajmini belgilash, uning murakkabligini aniqlash, o'tilgan mavzu bilan bog'lash, ta'lim oluvchilarga beriladigan topshiriq va mustaqil ishlarning ketma-ketligini aniqlash, darsda kerak bo'ladigan jihozlarni belgilash va qo'shimcha ko'rgazmali qurollar bilan boyitish, AKTdan foydalangan holda darsda muammoli vaziyatni yaratishga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq.

Shuningdek, dars mavzularini bayon etishda tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan muqaddas manbalarimizdan, ertak, rivoyat, hikoyat, maqol va hikmatlar, buyuk ajdodlarimizning boy meroslari, hozirgi zamon bolalar shoirlari va yozuvchilarining istiqlol davrida yaratgan asarlaridan unumli foydalinishga ham e'tibor qaratish maqsadga muvofiq.

Ushbu talablarni bajarish uchun mazkur fanlar o'qituvchilaridan tinmay ishlash va izlanish, zamon talabi va yangiliklariga moslashish, har bir darsni yaxshi, mazmunli va yodda qoladigan asar darajasiga olib chiqish talab etiladi

Aslida milliy g'oya va ma'naviyatga oid fanlarning asosiy vazifasi ham o'sib kelayotgan yosh avlodda yangicha dunyoqarash va mafkuraviy immunitet asoslari, mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish, yosh avlod qalbida g'oyaviy bo'shilq vujudga kelishiga yo'l qo'ymaslik, ularni ajdodlarimizning shonli hayoti, fidokorligi va qahramonligi ruhida tarbiyalashga qaratilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi qabul qilinganligining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i ma'ruzasida haqli tarzda ta'kidlanganidek, "... hozirgi vaqtida yoshlar tarbiyasi biz uchun o'z dolzarbliyi va ahamiyatini hech qachon yo'qotmaydigan masala bo'lib qolmoqda"<sup>14</sup>. Zero, Yangi O'zbekistonni barpo etishda yangicha dunyoqarashga ega bo'lgan, ma'naviy barkamol, ilm-ma'rifikatli, sog'lom fikrli yoshlarning sadoqati va mehnatlari yangi taraqqiyotni yuqori bosqichga ko'tarishga xizmat qiladi.

### **MAVZUNI O'ZLASHTIRISH YUZASIDAN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR:**

1. G'oya deganda nimani tushunasiz? Inson hayotida g'oyaning qanday ahamiyati bor?
2. Jamiyat hayotida g'oya qanday ahamiyat kasb etadi?
3. Bunyodkor va vayronkor g'oyalarni bir-biri bilan qiyoslang...
4. Mafkura tushunchasini siz qanday izohlaysiz?
5. Milliy g'oya tushunchasining mohiyatini yoriting...
6. Milliy g'oya, ma'naviyat turkumiga kiruvchi fanlarning tub mohiyatida qaysi omillar yetakchi o'r'in egallaydi?
7. "Milliy g'oya, ma'naviyatning pedagogik asoslari" fanining asosiy kategoriyalari qaysilar?
8. Fanning predmeti, maqsad va vazifalariga to'xtalib o'ting...

### **MAVZUGA OID ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bochqichga ko'tarish to'g'risida"gi PQ-3160-son Qarori. // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.09.2017 y., 06/17/5194/0032-son.
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси//Халқ сўзи, 2018 йил 29 декабрь.

<sup>14</sup> Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиети ва халқ фаровонлигининг гарови. / Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганинг 24 йиллигига багишланган тантанали маросимдаги маъруzasи. // "Халқ сўзи" газетаси, 2016 йил 8 декабрь.

3. Каримов И.А. Биз келажагимизни ўз қўлими билан қурамиз. 7-том. -Т.: Ўзбекистон, 1999-йил.
4. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008 йил.
5. Abu Nasr Forobiy “Fozil odamlar shahri” -T.: “G’afur G’ulom”, 1993 yil.
6. Миллий истиқбол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар. – Тошкент: Ўзбекистон, 2000 йил.
7. Миллий истиқбол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар. – Тошкент: Ўзбекистон, 2000 йил.
8. Фалсафа: қомусий луғат. –Тошкент: “Шарқ” нашриёт – матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти, 2004 йил.
9. Отамуратов С. Миллий ривожланиш фалсафаси. –Тошкент: Академия, 2005 йил.
10. Эргашев И. Ҳаётнинг ҳар они фалсафа. – Тошкент: Академия, 2011 йил.
11. Маънавият: асосий тушунчалар изоҳли луғати. – Тошкент: Faafur Fulom номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2013 йил.
12. Маматқулов Д.М. Мағкура тушунчаси, унда ғоя ва категорияларнинг тутган ўрни. //Замонавий таълим, 2015 йил, №11.
13. Sobirova M.A. Tog’ayqulov T. “Milliy g’oya va ma’naviyat asoslari” fanining nazariy asoslari va metodik masalalari” modulni bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. – T.: 2017.
14. Эшбоев Т. Тинчлик ва фаровонлик гарови.//Халқ сўзи, №114, 09.06.2017.
15. Современный философский словарь / под ред. В. Е. Кемерова. –Минск: Панпринт, 1998, с. 557.

#### ELEKTRON TA'LIM RESURSLARI:

1. <http://www.lex.uz/>
2. <http://www.gov.uz/>
3. <http://www.aza.uz/>
4. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
5. [www.edu.uz](http://www.edu.uz)
6. <http://www.uzedu.uz/>
7. [www.ma'naviyat.uz](http://www.ma'naviyat.uz)
8. [www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)

## 2-MAVZU:

### MILLIY G'OYA VA MA'NAVIYATGA OID FANLARNI O'QITISHNING NAZARIY-HUQUQIY VA PEDAGOGIK ASOSLARI

#### REJA:

1. Ma'naviyat tushunchasining mohiyati. Milliy g'oya va ma'naviyatga oid fanlarning mazmuni va tizimi.
2. Milliy g'oya va ma'naviyatning tarixiy ildizlari.
3. Milliy g'oya, ma'naviyatga oid fanlarni o'qitishning nazariy-pedagogik asoslari.

**Tayanch tushuncha va iboralar:** ma'naviyat, ma'naviyat ta'limi nazariyasi, inson qalbidagi ilohiy nur; insonning ichki-botiniy dunyosi; insonni jamiki boshqa mavjudotlardan ajratuvchi ijtimoiy hodisa; odamning ruhiy va aqliy olami majmui; aqliy zakovot va ruhiy-ma'naviy salohiyat; kuch bilim va tafakkurda, yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch.

**1-masalaning bayoni:** Insoniyat tarixi ma'naviyat – insonning xalqning, jamiyat va davlatning buyuk boyligi va kuch-qudrat manbai ekani ni, bu hayotda ma'naviyatsiz hech qachon odamiylik va mehr-oqibat, baxt va saodat bo'lmashligini yaqqol tasdiqlaydi.

Yer yuzida qancha inson, qancha taqdir bo'lsa, har birining o'z ma'naviy olami bor. Ma'naviyatni tushunish, anglash uchun avvalo insonni tushunish, anglash kerak. Shuning uchun ham o'zligini, insoniy qadr-qimmatini anglab yetgan har qanday odam bu haqda o'ylamasdan yashashini tasavvur qilish qiyin.

Aslida "Ma'naviyat" arabcha so'z bo'lib "ma'no" fe'lidan olingan: ruh, aql, ong, idrok, ruhiy holat, ichki kayfiyat, dadillik, jasorat, xususiyat, mohiyat, g'amxo'rlik, qayg'urish didi kabi bir necha ma'nolarni anglatadi.

"Ma'naviyat tushunchasiga turli davrlarda, turli mutafakkirlar, ko'plab faylasuf olimlar turlicha ta'rif berishgan. Jumladan, g'azal mulkining sultonni Alisher Navoiy o'z asarlarida odamlarni ikkiga, ya'ni – suvrat ahli va ma'ni ahliga bo'ladi. Yoki Mavlono Jaloliddin Rumiying olti kitobdan iborat dunyoga mashhur asari aynan "Masnaviyi ma'naviy", ya'ni "Ma'naviyat dostoni" deb nomlanadi<sup>15</sup>.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida ma'naviyatga shunday ta'rif beriladi: "Ma'naviyat insonni ruhan poklanish, qalban ulg'ayishga

<sup>15</sup> Куронов М. Бетакроримсан, ягонасан, она ватаним, Ўзбекистоним. – Тошкент.: "Маънавият", 2015. – Б.80.

chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir”<sup>16</sup>.

Ma'naviyatning beqiyos qudratini alohida e'tirof etgan holda, O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoev “agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir” deya ta'kidlaydi. O'zbekiston rahbari mamlakatda Uchinchı renesansni bonyod etishda kuchli iqtisodiyot bilan bir qatorda kuchli ma'naviyatga tayanish zaruriyatini ilgari surar ekan, mazkur tushunchaga shunday ta'rif beradi: “Biz uchun ma'naviyat – insonlar o'rtasidagi o'zaro ishonch, hurmat va e'tibor, xalq va davlat kelajagini birgalikda qurish yo'lidagi ezgu intilishlar, ibratli fazilatlar majmuasidir.

Boshqacha aytganda, ma'naviyat – jamiyatdagi barcha siyosiy-ijtimoiy munosabatlarning mazmuni va sifatini belgilaydigan poydevordir”<sup>17</sup>.

Faylasuf olim E.Yusupov ta'rificha, “Ma'naviyat – inson axloqi va odobi, bilimlari, iste'dodi, qobiliyati, amaliy malakalari, vijdoni, iymoni, e'tiqodi, dunyoqarashi, mafkuraviy qarashlarining bir-biri bilan uzviy bog'langan, jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta'sir etadigan mushtarak tizimdir”<sup>18</sup>. Shuningdek olimning “ma'naviyatning mohiyati va amaliy ahamiyati, ayniqsa jamiyat taraqqiyotining burilish davrlarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Davlatning kuchi va qudratini ma'naviy jihatdan barkamol bo'lgan kishilargina belgilaydi. Ma'naviyatga e'tibor bermagan mamlakatda katta iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy bo'hronlar sodir bo'ladi”<sup>19</sup> fikrlarida ma'naviyatning jamiyat taraqqiyotida hal qiluvchi kuchga ega ekanligiga alohida urg'u beriladi.

Bugun kun o'zbek falsafasi rivojiga o'ziga xos ulush qo'shib kelayotgan olimlardan biri I.Saifnazarov esa “ma'naviyat – inson o'zligida aks etgan barcha xayrli, ezgu orzu-intilishlar mujassami. Ma'naviyat – ezguliklar manbai. U jaholatning ziddidir. Chunki jaholat barcha yovuzliklar manbai”<sup>20</sup> deya ta'riflagan.

Ma'naviyatshunoslik sohasining jonkuyar olimlaridan biri A.Erkaev ta'rifiga ko'ra: “Ma'naviyat insoniylikka olib boradigan, insonni inson, millatni millat qiladigan ajoyib xislat va fazilatlarning yig'indisidir”<sup>21</sup>.

<sup>16</sup> Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T: Ma'naviyat, 2008. 19-bet.

<sup>17</sup> Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Т.: “O'zbekiston” нашриёти, 2021, 267-бет.

<sup>18</sup> Юсупов Э. Инсон камолотининг маънавий асослари. –Т.: “Университет”, 199, .34-бет.

<sup>19</sup> O'sha manba.

<sup>20</sup> Саифназаров И. Маънавий баркамоллик ва сиёсий маданийт. –Ташкент: “Илмий” 2001. 14-бет.

<sup>21</sup> Эркаев А. Эзгулик сари йўналтирилган ирова // Тафаккур, № 3, 1997.14-бет.

Keyingi yillarda mamlakatimizda nashr etilgan turli lug'atlar, ensiklopedik manbalarda ham mazkur tushunchaning mazmun-mohiyatiga alohida e'tibor qaratilgan. Jumladan, "Vatan tuyg'usi" kitobining mualliflari "Ma'naviyat – jamiyatning, millatning va yoki ayrim bir kishining ichki hayoti, ruhiy kechimnalari, aqliy qobiliyati, idrokini mujassamlashtiruvchi tushuncha"<sup>22</sup>, – deb ta'riflaganlar.

Shuningdek, "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi"da ma'naviyatga shunday ta'rif berilgan: "Ma'naviyat – inson ruhiy va aqliy olamini ifodalovchi tushuncha. U kishilarning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvurlarini o'z ichiga oladi"<sup>23</sup>. Ushbu ta'rifda ma'naviyat tushunchasini ko'proq insonning ruhiy va aqliy olamiga bog'lab qo'yish ustunlik qiladi.

Falsafa qomusiy lug'atida: "Ma'naviyat - insonlarning o'zaro munosabatlari, ularning hayotiy tajribalari davomida shakllangan va rivojlangan qadriyatlar tizimi"<sup>24</sup> – deb, Ma'naviyat asosiy tushunchalar izohli lug'atida: "Ma'naviyat – moddiy hayot bilan doimo yonma-yon yuradigan, inson, xalq va jamiyat hayotining ajralmas qismi bo'lgan ijtimoiy hodisa"<sup>25</sup> – deb, ta'kidlangan. Mazkur ikki ta'rifda ham ma'naviyat falsafiy kategoriyasining ko'proq amaliy jihatlariga e'tibor qaratilgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, ma'naviyat – **insonning ruhiyatini, uning o'z-o'zini anglashi, didi, farosati, adolat bilan razillikni, yaxshilik bilan yomonlikni, go'zallik bilan xunuklikni, vazminlik bilan johillikni ajrata bilish qobiliyatini, aql-zakovatini, yuksak maqsad va g'oyalarni qo'ya bilish, ularni amalga oshirish uchun harakat qilish va intilish salohiyatidir**, - deb ta'rif berish o'rinali deb hisoblaymiz.

Oliy ta'lif muassasalarida, xususan, "Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi" bakalavriat ta'lif yo'nalishida "Milliy g'oya, ma'naviyatning pedagogik asoslari" fanining o'qitilishi zaruriyati quyidagi omillar bilan belgilanadi:

birinchidan, ma'naviyat – inson va jamiyat madaniyatining negizi, inson va jamiyat hayoti ma'lum yo'nalishining bosh omili. U muayyan iqtisodiy-ijtimoiy hayot tizimining shakllanishi, o'zgarishi yoki inqirozga yuz tutishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Ma'naviyat boyib borsa, jamiyat

<sup>22</sup> Иброхимов А., Султонов Х., Жўраев Н. Ватан туйғуси. –Т.: Ўзбекистон, 1996, 111-бет.

<sup>23</sup> Ўзбекистон миллий энциклопедияси. –Тошкент.: "Давлат илмий нашриёти", 2003, №5, – Б.540.

<sup>24</sup> Фалсафа: Қомусий луғат. –Т.: "Шарқ", 2004, 225-бет.

<sup>25</sup> Маънавият асосий тушунчалар изоҳли луғати. –Т.: "Фафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи", 2009, 33-бет.

ravnaq etib boradi va, aksincha, ma'naviyat qashshoqlashsa, jamiyat bora-bora tanazzulga yuz tutadi. Mustaqillik yillarida milliy g'oya va ma'naviyatga oid fanlarning ta'lif tizimiga joriy etilishining boisi ham ana shunda;

*ikkinchidan*, mustaqillik jamiyatning barcha jabhalarida ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalarda jahon tajribasi va milliy o'zlikni anglash asosida chuqur islohotlarni amalga oshirishni tabiiy ravishda kun tartibiga qo'ydi. Bu eski ijtimoiy tizimdan yangisiga o'tish demakdir. U esa yengil kechmaydi. Yoshlar bu jarayonning mohiyatini to'g'ri anglamog'i, ijtimoiy faol bo'lmog'i uchun umuman tariximizni, xususan, ma'naviyat, madaniyat tarixini o'rganmog'i, bilmog'i lozim;

*uchinchidan*, mustaqillik biz uchun jahonga darvoza ochdi. O'zbekiston jahonni taniy boshlaganidek, jahon O'zbekistonni taniy boshladi. Ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'naviy aloqalar kengaydi. Yoshlarimiz xorijiy mamlakatlarda tahsil olmoqda, o'zga xalqlar madaniyati, udumi, an'analari bilan tanishmoqda. Bunday sharoitda o'z madaniy-ma'rifiy merosini yaxshi bilmaslik kechirilmas hol. Ular jahonni hayratga solgan ajdodlar merosini nafaqat bilishi, unga munosib voris bo'lmoqlari lozim;

to'rtinchidan, milliy g'oya va maskurani shakllantirish, g'oyaviy bo'shliqqa yo'l qo'ymaslik, yoshlarni millat va istiqlol manfaatlariga zid g'oyalar, qarashlar ta'siriga tushib qolishini oldini olish vazifasi milliy ozodlik g'oyalarini, buyuk mutafakkirlarimizning merosi va asarlarini atroficha bilishni talab etadi. "Millat dardiga darmon bo'lmoq" uchun (Amir Temur) "G'oyaga qarshi faqat g'oya, jaholatga qarshi faqat ma'rifat bilan bahsga kirishish, olishish mumkin".

Xo'sh, milliy g'oya va ma'naviyatga oid fanlarning ta'im tizimiga joriy etilishidan ko'zlangan maqsadlarni yana qanday izohlash mumkin?

**Birinchidan**, milliy g'oya, ma'naviyat tushunchalarining mazmun-mohiyatini pedagogik tamoyillar asosida yoritib boorish;

*ikkinchidan*, mamlakatimizning barcha ta'lif muassasalarida bilim olayotgan yosh avlodni faqat kasb-kori nuqtayi nazaridan tarbiyalash bilangina chegaralanmasdan, balki, ularning dunyoqarashi, ma'naviyati, tafakkuri, siyosiy yetukligi, axloqiy barkamolligi va ijtimoiy faolligini ham yuksaltirib boorish;

*uchinchidan*, ma'naviy-ma'rifiy, axloqiy jihatdan yetuk insonlar tarbiyasiga e'tiborni kuchaytirish va hk.

**2-masalaning bayoni:** Milliy g'oya va ma'naviyatning tarixiy ildizlari uzoq o'tmishta borib taqaladi. Aslida ma'naviyat ta'limi

mustaqillikdan so'ng joriy etilayotgan bo'lsa-da, insonlarning bilimi, ma'rifati va ma'naviyatini yuksaltirish masalasi kishilik jamiyat paydo bo'lganidan beri davom etmoqda. Dastlab og'zaki tarzda, so'ng yozuv paydo bo'lganidan boshlab turli manbalar asosida avloddan-avlodga o'tib kelmoqda.

Dastlabki yozma manbalarda, jumladan, "Avesto"da "ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal" zardushtiylik axloqining asosiy qoidasi bo'lsa, "Qur'oni karim" va Hadislarda yuksak ma'naviyat va ma'rifat, bilimlilik inson uchun qanchalik zarurligi alohida o'rin tutadi. Misol uchun, Markaziy Osiyo xalqlarining eng qadimiy yodgorliklaridan bo'lmish "Avesto"da insonlarning uyushib - jamoa bo'lib yashashi, ularning o'zaro munosabatlarining axloq va me'yorlarga asoslanganligi g'oyalari ilgari suriladi.

Buyuk allomalarimiz Abu Nasr Forobi, Abu Ali Ibn Sino, Imom Buxoriy, Bahouddin Naqshband, Ahmad Yassaviy, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, jadid ma'rifatparvarlik harakati namoyandalarini Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Alvoni, Abdurauf Fitrat, Cho'lpon kabi mutafakkir zotlarning asarlarida ma'naviyat, ma'rifat masalalari, komil insonni tarbiyalash haqida ajoyib fikrlar mavjud.

Xususan, Abu Rayhon Beruniyning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida adolatli jamiyat va uning amal qilish asoslarini shakllantirish haqidagi g'oyalarni ilgari surgan. Shuningdek, adolatli jamiyatni qurishda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarga tayanish lozimligi aytib o'tiladi.

Yana bir qomusiy olim Abu Ali ibn Sinoning fikricha, ijtimoiy munosabatlar odamlar o'rtasidagi tafovut va tengsizlik natijasidir. Ideal davlat qurish jamiyat aholisining ma'naviy-axloqiy ravnaqi bilan bog'liq. Uning fikricha, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarning yuksak qadrlanishi nafaqat har tomonlama farovonlikni, balki jamiyatda adolat va barqarorlikni ham ta'minlaydi. "Sen o'z qo'l ostingdagilarni turtib tashlama, ular bilan do'stona, hurmat-e'tiborga asoslangan munosabatni o'rnat. Zero, ular ham bu dunyoga inson sifatida kelganlar", deydi alloma.

Shuningdek, Amir Temur davlatchiligi ikki asosga o'rnatilgan edi: bu diniy va dunyoviylik. Diniy ahkomlar bir tomonidan, ikkinchi tomonda esa, kuch, adolat va qonun ustuvorligini kuzatish mumkin. Uning davlat boshqaruvida din, xususan, Qur'oni karim, hadislari, insonlarni bir-biriga yaqinlashtiruvchi, mehr-muhabbatli, sadoqatli, mehmondo'st bo'lishga chorlovchi axloqiy tamoyillar ustunlik qilgan.

Bundan ko'rindaniki, buyuk Temur adolatli va fozil boshqaruvgaga alohida e'tibor qaratgan. Amir Temur davri mafkurasining bunyodkorlik

kuchi hamda Sohibqironning bevosita amaliy sa'y-harakati va rahnamoligi tufayli mamlakatda fan, madaniyat, san'atning ko'p sohalari gurkirab taraqqiy topdi. Ma'naviyatda yuksalish bo'ldi<sup>26</sup>.

O'rta asr Sharq allomalari o'z asarlarida inson faoliyatining ikki turi haqida fikr yuritadilar. Bu – mehnat va bilish faoliyatidir. Ularning fikricha, "bilim – bu biluvchining qalbidagi bilinadigan timsoldir. Bilingki, fanni o'qitish va o'zlashtirishsiz bilim bo'lmaydi. O'qitish – bu qalbdan chiqadigan, qalb uchun dolzarb ichki bilishga asoslangan e'tiqod. Bilimlarni o'zlashtirish – bu bilim shakllarini qalbdan idrok etishdir. Bilingki, qalb bilish predmetlari shakllarini uch tomonlama qabul qiladi: birinchidan, his qilish orqali; ikkinchidan, dalillar orqali; uchinchidan, fikr yuritish va mushohada qilish orqali".

Kaykovusning "Qobusnoma" asarida bilimning foydasi haqida quyidagicha yoziladi: "Agar molsizlikdan qashshoq bo'lsang, aqldan boy bo'lmoqqa say ko'rguzgilki, mol bila boy bo'lg'onдан, aql bila boy bo'lg'on yaxshiroqdir. Neydinkim, aql bila mol jam etsa bo'lar, ammo mol bila aql o'rganib bo'lmas. Bilg'il, aql bir moldirki, uni o'g'ri ololmas, u o'tda yonmas, suvda oqmas".

Boburiylar sulolasidan bo'lgan Akbarshohning "Sulhi kull" siyosatida "Odamlarga – tinchlik, sultanatga – xavfsizlik, barcha imonu e'tiqodlarga barobar ehtirom", degan g'oya ilgari suriladi. Negaki, tinchlik va xavfsizlik hukm surgan joyda jamiyatda ezzulik bo'ladi va fuqarolar hayotida ijtimoiy, iqtisodiy hamda ma'naviy-ma'rifiy yuksalish kuzatiladi<sup>27</sup>.

Qolaversa, jadidlar o'z davrida o'qitish texnologiyasi, bolalarga mavjud bilimlarni qanday yetkazish masalasiga alohida e'tibor qaratadi. Xalq pedagogikasiga suyangan ilg'or ziyyolilar milliy an'ana va urfodatlarimizga mos keluvchi yangi usuldagagi jadid maktablari tashkil etish g'oyasini ilgari suradilar. Ayni paytda ular bu maktablar rus tuzem maktablaridan farq qilishi zarurligini ta'kidlaydilar. O'quvchining fikrashi, tafakkuri o'z ona tili orqali amalga oshirilishi kerakligi, shuningdek, diniy aqidalar qatorida dunyoviy fanlar ham o'qitilishi zarurligini uqtirishadi. Jumladan, Abdulla Avloniyning "Insonlarga eng muhim, ziyyoda sharaf, baland daraja beruvchi axloq tarbiyasidur". "Tarbiya ila dars orasida farq bor, dedik, chunki dars oluvchi – beruvchi, tarbiya oluvchi amal qiluvchi demakdur. Shuning uchun tarbiya qiluvchi muallimlarning o'zлари ilmlariga omil bo'lib, shogirdlarga ham bergen

<sup>26</sup> Фойибов Н. Амир Темур даври маънавияти. –Т.: Ф.Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашириёти, 2001, 28-бет.

<sup>27</sup> Zamonov Z. O'zbekiston ijtimoiy-siyosiy hayotida ma'naviy-axloqiy institutlarning o'rni. Dissertasiya. –Т.: 2019, 45- bet.

darslarni amal ila chokushtirib o'rgatmoqlari lozimdur" kabi fikrlari bularga misol bo'la oladi.

Milliy g'oya va ma'naviyatning yana bir ildizi, o'z chanqog'ini qondiradigan bulog'i - bu milliy-ma'naviy qadriyatlardir.

Shu o'rinda qadriyat tushunchasiga alohida to'xtalib o'tish joiz.

Qadriyat - tabiiy va ijtimoiy hayotda namoyon bo'ladijan, odamlar tomonidan qadrlanadigan ular uchun foydali ahamiyatli, moddiy-iqtisodiy, madaniy-ma'naviy, mafkuraviy, siyosiy huquqiy, diniy, milliy, ijtimoiy omillar yig'indisidir. U qadr-qimmat degan ma'noni anglatadi.

Ma'naviy qadriyatlarning tarkibiy asoslari quyidagilardan iborat:

**1. Axloqiy qadriyatlar:** axloqiy bilimlar malaka va ko'nikmalar, axloq qoidalari yordamida o'quvchining xulq-atvori, xatti-harakatlarini boshqarish tizimidir. Axloqiy madaniyat o'quvchining ko'p qirrali faoliyati davomida shakllanib va takomillashib boradi. Axloqiy madaniyat ko'rinishlari, qirralari, shakllari xilma-xil:

- ❖ Insonparvarlik, halollik, tashabbuskorlik, mehnatsevarlik;
- ❖ Erksevarlik, faollik, ijodkorlik haqiqatgo'ylik, mas'uliyatlilik;
- ❖ Sahiylik, kamtarlik, poklik va shu kabilar;

Axloqiy qadriyatda axloqiy odat, axloqiy bilim, axloqiy ishonch muhim o'rinni tutadi.

**2. Badiiy qadriyatlar:**

- xalq og'zaki ijodi (asotir, afsona, rivoyat, ertak, doston, maqol, matal, qo'shiq, latifa, lof, xalq dramasi, askiya);
- xalq tasviriy va amaliy san'ati (xalq yaratgan badiiy estetik san'at namunalari, xalq teatri, xalq musiqiy san'ati);
- ijtimoiy tarixiy taraqqiyot jarayonida paydo bo'lgan, rivojlangan, qadriyat darajasiga kutarilgan an'analar, urf-odatlar, rasm-rusumlar amaliy faoliyatidagi ilg'or tajribalar yig'indisidan iborat.

**3. Diniy qadriyatlar:** Din siyosat emas, lekin ma'naviy hayotning tarkibiy qismidir. Mustaqilligimizning ma'naviy zaminini qaror toptirishda diniy e'tiqodlar ham ma'lum ahamiyatga ega ekanligini unutmaslik kerak. Din ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, madaniyatning namoyon bo'lish shaklidir. Diniy qadriyatlar ko'plab millatlar, elatlari, xalqlarga taalluqli bo'lgan, ularni g'oyaviy jihatdan birlashtirgan diniy talablar, g'oyalar, rivoyatlar, amaliy marosimlar, bayramlar majmuasidan iboratdir.

**4. Milliy qadriyatlar:** bu alohida olingan xalq, millat va elatlarning o'z tarixiy taraqqiyoti davomida yaratadigan barcha moddiy va ma'naviy boyliklari, urf-odatlari, marosimlari, bayramlari va millatlarning o'zligini belgilaydigan boshqa o'ziga xos tomonlari yig'indisidan iboratdir. Bu

o'ziga xoslik moddiy, ma'naviy, ijtimoiy, oilaviy hayot, turmush tarzida namoyon bo'ladi.

O'rni kelganda milliy-ma'naviy qadriyatlar xususida ham to'xtalib otish lozimki, bu jamiyatda ma'naviy-asosiy sifatlar shakllanishiga asos bo'ladi.

Milliy-ma'naviy qadriyatlar – "milliylik", "ma'naviyat" va "qadriyat" tushunchalari kesishgan nuqtada jamlangan ijtimoiy hodisalarini o'z ichiga oladi. "Milliy ma'naviy qadriyatlar" tushunchasiga quyidagicha ta'rif berish mumkin: Muayyan millat vakillari uchun zarur va ahamiyatlari, aziz va ardoqli bo'lgan, manfaati va maqsadlariga xizmat qiladigan ma'naviy boyliklar, amallar va tamoyillar, g'oyalar va me'yorlar milliy ma'naviy qadriyatlardir.

Har bir xalqning o'zi uchun e'zozli, qimmatli bo'lgan ma'naviy boyliklari bo'ladi. Bular asrlar davomida avloddan-avlodga o'tib kelgan, hozirgi kunda ham o'zining ahamiyati va qadrini yo'qotmagan, shu xalqning iftixor manbaiga aylangan durdonalardir. Masalan, qirg'iz xalqi "Manas" dostoni bilan, misrliklar qadimiylar piramidalari, frantsuzlar Parijdagi Luvr saroyi, o'zbeklar Samarqandu Buxoro va Xiva bilan haqli ravishda faxrlanadilar. Millat va elatlarning o'ziga xos tarixiy merosi, san'ati va adabiyoti bilan bir qatorda ularning urf-odat va marosimlari, madaniy munosabat va axloqiy fazilatlari ham ma'naviy qadriyatlar tizimiga kiradi. Bular xalqning o'ziga xosligini saqlab qolishda, yosh avlodni tarbiyalashda, shaxsning ijtimoiylashuvida muhim rol o'ynaydi. Milliy qadriyatlar xalqning kundalik hayoti va turmush tarzida o'ziga xos mezon vazifasini o'taydi.

Bundan tashqari, xalq amaliy san'ati, xalq o'yinlari, rasm-rusumlari, urf-odatlari, marosimlari milliy qadriyatlarga kiradi.

Bulardan boshqa quyidagi qadriyatlar haqida gapirish mumkin:

5. **Tabiiy qadriyatlar** (yer-suv, havo, yer osti va usti boyliklari);
6. **Ijtimoiy qadriyatlar** (oila, millat, sinf va hokazo);
7. **Moddiy qadriyatlar;**
8. **Ma'naviy qadriyatlar;**
9. **Umuminsoniy qadriyatlar;**
10. **Oilaviy qadriyatlar;**
11. **Shaxsiy qadriyatlar.**

Bu qadriyatlarga hurmat, albatta, insonga ta'lim-tarbiya orqali shakllantiriladi va bu boradagi bilimlar milliy g'oya va ma'naviyat asoslari turkumiga kiruvchi fanlar orqali singdiriladi.

**3-masalaning bayoni:** Milliy g'oya, milliy tarbiya an'analariga katta e'tibor bergen holda jamiyat a'zolarining ma'naviyatini yuksaltirib,

ularda vatanparvarlik, milliy iftixor, millatparvarlik tuyg'usini iymon va e'tiqod darajasiga ko'tarib beradi.

Shu boisdan milliy g'oyani hayot talablari va bugungi taraqqiyotimizning muhim muammolari bilan birga o'rganish, uni yanada boyitish, takomillashtirish va tushuntirish, targ'ib etish, nihoyat, undagi bilim va qarashlar asosida yangicha e'tiqod va dunyoqarash asoslarini shakllantirish nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi<sup>28</sup>.

Zotan milliy g'oya har bir millatning tili, milliy merosi, qadriyatlar va urf-odatlariha hurmat bilan qarash, ularning millat ijtimoiy-ma'naviy kamolotini muhim omili deb bilishni shakllantirish vazifalarini ham biladi. Milliy g'oya elim, yurtim deb kuyinib yashaydigan fidoyi insonlarni voyaga yetkazish omillaridan biri hamdir.

Milliy g'oya har bir fuqaroni iymonli, insofli, halol, mehnatsevar, mehr-muruvvatli rahm-shafqatli, adolatparvar, axloqli, odobli bo'lishi, ma'naviy kamolotni hal qiluvchi omili deb biladi.

Milliy g'oya millatni ulug'lash, qadrlash millat manfaati yo'lida fidoyi bo'lish – insoniylik burchi ekanligini har bir fuqaroning ongi va qalbiga singdirib boradi.

Milliy g'oya va ma'naviyatga oid fanlarning o'qitilishi ma'naviy hayotni yuksaltirib borish, uni yanada kuchaytirish tarixiy zaruriyat ekanligini anglatadi. U tizim sifatida bir qator ijtimoiy-siyosiy institutlarni o'z ichiga qamrab oladi: oila, mahalla, ta'lim tizimi, OAV, davlat hamda nodavlat tashkilotlari va hk.

Milliy g'oya va ma'naviyatga doir fanlarning yuzaga kelishida "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun (1992-yil 2-iyul), O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi (1992 yil 8 dekabr), "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun (Yangi tahriri, 1997-yil 29-avgust) va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" (1997-yil 29-avgust), qolaversa, O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son Qonuni alohida o'rincutadi<sup>29</sup>.

1997-yil 29-avgustda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"da ham quyidagi tamoyillar, ya'ni ma'naviy qadriyatlar o'z ifodasini topgan edi: Ya'ni: 1-tamoyil: "Vatan – eng oliy makon. U menikidir!", 2-tamoyil: «Eng oliy qadriyat – inson», 3-tamoyil: "Mulkning eng oliy turi – intellektual mulk va inson faoliyatining eng oliy turi – intellektuallii mehnat", 4- tamoyil: "Vaqt – eng oliy boylik".

<sup>28</sup> Тоҳирин А., Собирова М., Замонов З. Миллий гоя туркумига кирувчи фанларни ўқитишда интерфаол таълим методларидан фойдаланиш бўйича услубий тавсиялар. Ўқув-услубий кўлланма. – Т.: 2017 йил, 7-бет.

<sup>29</sup> O'zbekiston Respublikasining Qonuni.Ta'lim to'g'risida// Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020-y., 03/20/637/1313-son.

Bu tamoyillar ta'lif-tarbiyaning o'ziga xos alohida qadriyat ekanligini ko'rsatib turibdi.

Shu bilan bir qatorda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 20-maydagi "Oliy ta'lif muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1533-son Qarori ham milliy g'oya va ma'naviyat rivojida muhim o'rinni tutadi. Shuningdek, mamlakatimizda milliy g'oya va ma'naviy sohasida olib borilayotgan islohotlar ham bu borada alohida ahamiyatga ega.

Jumladan, 1994-yil 23-aprelda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni asosida O'zbekistonda Respublika "Ma'naviyat va ma'rifat" jamoatchilik markazi tashkil etildi. Shu yili 8-iyunda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Respublika "Ma'naviyat va ma'rifat" jamoatchilik markazining faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi Qarori chiqdi.

1996-yil 9-sentabrda esa O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'naviyat va ma'rifat" jamoatchilik markazi faoliyatini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish to'g'risida"gi Farmoni, 1998-yil 24-iyulda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Ma'naviy-ma'rifiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish va uning samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, 1999-yil 3-sentabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Respublika Ma'naviyat va ma'rifat Kengashini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi Farmoni chiqdi<sup>30</sup>.

2001-yil 18-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar" fani boyicha ta'lif dasturlarini yaratish va respublika ta'lif tizimiga joriy etish to'g'risida"gi 1331-sonli Farmoyishi qabul qilindi.

Nihoyat, 2006-yildagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish to'g'risida"gi PQ-451-son Qarori<sup>31</sup> qabul qilinib, unga ko'ra Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashi huzuridagi Milliy g'oya va mafkura ilmiy targ'ibot markazi o'rniiga kengashning ilmiy-amaliy yo'nalishida faoliyat olib boradigan Milliy g'oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi, Respublika "Ma'naviyat va marifat" markazi o'rniiga Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining amaliy targ'ibot yo'nalishida faoliyat olib boradigan Respublika Ma'naviyat targ'ibot markazi tashkil etildi. Bu

30 Manba: [www.lex.uz](http://www.lex.uz).

31 Mazkur qaror O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 28-iyuldaggi PQ-3160-sonli «Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichiga ko'tarish to'g'risida»gi qaroriga asosan o'z kuchini yo'qotgan. Manba: [www.lex.uz](http://www.lex.uz).

nomdagi ma'naviy-axloqiy tashkilotlarning tashkil etilishi milliy g'oya va mafkura masalasi bilan bog'liq dolzarb muammolarni, bugungi davrdagi murakkab mafkuraviy jarayonlarni ilmiy hamda amaliy jihatdan atroflicha tahlil qilish va baholash, ularning aholi turli qatlamlariga ta'sirini o'rghanish, milliy manfaatlarimizga, hayot tarzimizga zid bo'lgan zararli g'oyalar va mafkuraviy xurujlarning mohiyatini ochib berish; millatlararo totuvlik, o'zaro mehr-oqibat muhitini mustahkamlash bo'yicha ma'naviy-ma'rifiy dasturlarni amalga oshirish<sup>32</sup> maqsadi qo'yildi.

2017-yil 28-iyulda esa O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'naviy-ma'rifiy ishlari samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bochqichga ko'tarish to'g'risida"gi PQ-3160-sonli qarori qabul qilindi. Ushbu qaror milliy g'oya va ma'naviyat asoslari turkumidagi fanlarni rivojlantirish va ularga nisbatan yangicha munosabatning shakllanishida muhim ahamiyat kasb etdi.

Bundan tashqari, 2017-yil 7-fevralda (PF-4947-sonli) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni asosida beshta ustuvor yo'nalishlari – davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirish; qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish; iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish; ijtimoiy sohani rivojlantirish; xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritishni bosqichma-bosqich amalga oshirish kontsepsiysi ishlab chiqildi<sup>33</sup>. Shuni ham alohida e'tiborga olish kerakki, Harakatlar strategiyasi besh bosqichda, yurtimizda yillarga beriladigan nomlardan kelib chiqib, har bir yil bo'yicha davlat dasturlari qabul qilinishini nazarda tutgan holda amalga oshirilishi belgilab qo'yildi.

Harakatlar strategiyasi xalqchilik, insonparvarlik, bag'rikenglik va ezungilik g'oyalariga tayanadi. Ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy jarayonlarni baholash va ularga yondashishga milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligining ustuvor ahamiyatga ega ekani haqidagi nazariyaga asoslanadi<sup>34</sup>.

<sup>32</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Milliy g'oya va ma'naviy-ma'rifiy ishlarning samaradorligini oshirish to'g'risida"gi Qarori. // "Ma'rifat" gazetası. 68-son, 2006-yil.

<sup>33</sup>O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 6-son, 70-modda.

<sup>34</sup> Harakatlar strategiyasi asosida jadal taraqqiyot va yangilanish sari./ Nashrga tayyorlovchilar: M.Bekmurodov, Q.Quronboyev, L.Tangriyev. -T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017, 9-bet.

Shuningdek, 2018-yil 27-iyunda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-3808-sonli qarori qabul qilindi. Mazkur qaror jamiyatda zamonaviy oila modeli hamda "Oila jamiyat va davlat himoyasida" konstitutsiyaviy printsipini to'liq ro'yobga chiqarish, oila institutini mustahkamlash sohasidagi islohotlarni samarali amalga oshirishni pirovard natijasini harakatga keltiruvchi ham amaliy, ham nazariy asosi bo'lib xizmat qildi.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni takomillashtirish bo'yicha yana bir hujjat 2019-yil 8-aprelda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan imzolangan "O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy g'oyani rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi №F-5465-sonli Farmoyish mamlakat taraqqiyotining keng qamrovli bugungi islohotlar bosqichida ma'naviy-ma'rifiy sohalardagi yangilanish jarayonlarida milliy g'oyaning ta'sirchanligini ta'minlashga to'siq bo'layotgan bir qator tizimli muammolarni bartaraf etish<sup>35</sup> bo'yicha aniq maqsadli va manzilli ishlarni amalga oshirishning huquqiy asosi bo'lди.

Tarixga nazar tashlasak, insoniyat tarixiy taraqqiyotining barcha bosqichlarida jamiyat hayoti va taraqqiyotida ma'naviy soha nihoyatda muhim o'rinn tutganligining guvohi bo'lismiz mumkin. Umuman olganda, insoniyat tarixi ma'naviyat – insonning, xalqning, jamiyat va davlatning buyuk boyligi va kuch-qudrat manbai ekanini, bu hayotda ma'naviyatsiz hech qachon odamiylik va mehr-oqibat, baxt va saodat bo'lmasligini yaqqol tasdiqlaydi.

Aslida dunyodagi har bir xalqning niyati, maqsadi, orzu-istiklari bo'ladi. Bu mubolag'a emas. Bu ehtiyoj asta-sekinlik bilan kattarib, ulug'lashib boraveradi. Bu ehtiyojlar orasida xalqning ma'naviy ehtiyoji eng kattasidir<sup>36</sup>.

Shuningdek, milliy g'oya, ma'naviyatga oid fanlarni o'qitishda xalqimizning asrlar davomida sayqallanib kelgan og'zaki ijodining pedagogik jihatlari va tamoyillaridan unumli foydalanish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, xalq og'zaki ijodining milli g'oya va ma'naviyatni targ'ib etishdagagi ta'sir kuchi unda xalqning o'zligi, milliy xarakter xususiyatlarining ochib berilishi bilan xarakterlanadi. Ularda xalqning g'oyaviy-siyosiy, axloqiy, badiiy-estetik, ekologik, iqtisodiy,

<sup>35</sup>Qarang: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-apreldagi "O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy g'oyani rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5465-son Farmoyishi. [Elektron manba]: [www.lex.uz](http://www.lex.uz).

<sup>36</sup> Qarang: Sobirova M. Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishning huquqiy asoslari fanidan O'UM. – T.: TDPU, 2020.

diniy, aqliy, jismoniy madaniyati mazmuni, ma'naviy talab va ehtiyojlari, orzu-umidlari, ta'lif-tarbiyaning shakl, usul va vositalari o'z ifodasini topgan.

## **MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR:**

1. Ma'naviyat tushunchasining mohiyatini izohlab bering?
2. Ma'naviyat tushunchasiga berilgan ta'riflarga misollar keltiring...
3. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida ma'naviyatga qanday ta'rif berilgan?
4. Ma'naviyatning shaxs, millat, jamiyat hayotida qanday o'rni bor?
5. "Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi" bakalavriat ta'lif yo'naliishida "Milliy g'oya, ma'naviyatning pedagogik asoslari" fanining o'qitilishi zaruriyati qanday omillar bilan belgilanadi?
6. Milliy g'oya va ma'naviyatga doir fanlarning yuzaga kelishida qaysi huquqiy asoslar alohida o'r'in tutadi?
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaysi qarori milliy g'oya va ma'naviyat asoslari turkumidagi fanlarni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etdi?
8. Ma'naviy-ma'rifiy ishlarning samaradorligini oshirish to'g'risida"gi qarori. // "Ma'rifikat" gazetasi. 68-son, 2006-yil.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Milliy g'oya va ma'naviy-ma'rifiy ishlarning samaradorligini oshirish to'g'risida"gi Qarori. // "Ma'rifikat" gazetasi. 68-son, 2006-yil.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 28-iyuldag'i PQ-3160-sonli "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida"gi qarori. // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 6-son, 70-modda.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-apreldagi "O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy g'oyani rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5465-son Farmoyishi. [Elektron manba]: [www.lex.uz](http://www.lex.uz).
4. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Т.: "O'zbekiston" нашриёти, 2021 йил.
5. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. -T.: Ma'naviyat, 2008 yil.

6. Иброҳимов А., Султонов Х., Жўраев Н. Ватан туйғуси. –Т.: Узбекистон, 1996 йил.
7. Эркаев А. Эзгулик сари йўналтирилган ирова // Тафаккур, №3, 1997 йил.
8. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. –Т.: Давлат илмий нашриёти, 2003 йил, №5.
9. Фалсафа: Қомусий луғат. –Т.: Шарқ, 2004 йил.
10. Юсупов Э. Инсон камолотининг маънавий асослари. –Т.: Университет, 1998 йил.
11. Фойибов Н. Амир Темур даври маънавияти. –Т.: F.Fулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2001 йил.
12. Саифназаров И. Маънавий баркамоллик ва сиёсий маданият. –Т.: Шарқ, 2001 йил.
13. Маънавият асосий тушунчалар изоҳли луғати. –Т.: Fafur Fулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2009 йил.
14. Қуронов М. Бетакроримсан, ягонасан, она ватаним, Ўзбекистоним. – Т.: Маънавият, 2015 йил.
15. Harakatlar strategiyasi asosida jadal taraqqiyot va yangilanish sari./Nashrnga tayyorlovchilar: M.Bekmurodov, Q.Quronboyev, L.Tangriyev. –T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017 yil.
16. Тоҳириён А., Собирова М., Замонов З. Миллий ғоя туркумига кирувчи фанларни ўқитишда интерфаол таълим методларидан фойдаланиш бўйича услубий тавсиялар. Ўкув-услубий қўлланма. – Т.: 2017 йил.
17. Zamonov Z. O'zbekiston ijtimoiy-siyosiy hayotida ma'naviy-axloqiy institatlarning o'rni. Dissertasiya. –T.: 2019 yil.
18. Sobirova M. Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishning huquqiy asoslari fanidan O'UM. – T.: TDPU, 2020 yil.

#### ELEKTRON TA'LIM RESURSLARI:

1. <http://www.lex.uz/>
2. <http://www.gov.uz/>
3. <http://www.uza.uz/>
4. [www.zijonet.uz](http://www.zijonet.uz)
5. [www.edu.uz](http://www.edu.uz)
6. <http://www.uzedu.uz/>
7. [www.ma'naviyat.uz](http://www.ma'naviyat.uz)
8. [www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)

### 3-MAVZU:

## MILLIY G'OYA VA MA'NAVİYATGA OID FANLARNI O'QITISHNING O'ZIGA XOS XUSUSİYATLARI

### REJA:

1. Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari turkumiga kiruvchi fanlarning o'ziga xos xususiyatlari.
2. Mustaqil O'zbekistonning Birinchi Prezidenti I.A.Karimov va Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ilgari surgan fikr va g'oyalarning ilmiy tavsifi.
3. Ma'naviy-mafkuraviy ishlarni milliy taraqqiyot tamoyillari va manfaatlari asosida (g'oyaviy-nazariy darajada) tizimli tashkil qilish zarurati.

**Tayanch tushuncha va iboralar:** Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari turkumiga kiruvchi fanlar, O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov va davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ilgari surgan fikr va g'oyalalar, ma'naviy-mafkuraviy ishlarni milliy taraqqiyot tamoyillari va manfaatlari asosida (g'oyaviy-nazariy darajada) tizimli tashkil qilish, madaniy-ma'rifiy yuksaklik, ijtimoiy-didaktik taraqqiyot, falsafiy-pedagogik o'sish, iymon-e'tiqodning butunligi, milliy axloq-odob moyorlariga to'la rioya qilish, ilm-ma'rifatli bo'lish, insonparvarlik, vatanparvarlik, xalqparvarlik, adolatparvarlik, milliy qadriyatlarga muhabbat, fidoyilik, mardlik, jasurlik, tashabbuskorlik.

**1-masalaning bayoni:** Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari turkumiga kiruvchi fanlarning o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Chunki, bu fanlar ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etayotgan xalqimizning maqsad-muddaołari va orzu-intilishlarini, bir so'z bilan aytganda, jamiyatimizning shakllanib kelayotgan milliy g'oyaning asosiy tushuncha va tamoyillarini fanning xususiyatlari nuqtai nazaridan chuqur va atroficha o'rgatadi. Hozirgi murakkab sharoitda xalqimiz, avvalo, o'sib-unib kelayotgan yosh avlodimiz ongi va qalbida mafkuraviy immunitetni hosil qilish muhim ahamiyatga ega. Bu ishni bamisolli yosh niholga mevali daraxt kurtagini payvand qiladigan usta bog'bondek noziklik va mehr bilan, oqilona yo'l bilan amalga oshirish lozim. Chunki "Xalqni buyuk keljak va ulug'vor maqsadlar sari birlashtirish, mamlakatimizda yashaydigan, millati, tili va dinidan qat'i nazar, har bir fuqaroning yagona Vatan baxt-saodati uchun doimo mas'uliyat sezib yashashiga chorlash, ajdodlarimizning bebaho merosi, milliy qadriyat va an'analarimizga

munosib bo'lishiga erishish, yuksak fazilatli va komil insonlarni tarbiyalash, ularni yaratuvchilik ishlariga da'vat qilish, shu muqaddas zamin uchun fidoyilikni hayot mezoniga aylantirish - milliy istiqlol mafkurasining bosh maqsadidir"<sup>37</sup>.

Mamlakatimizda huquqiy davlat, erkin fuqarolik jamiyat tamoyillariga asoslangan jamiyatni barpo etishda, bizga yet va begona mafkuralar tajovuziga qarshi tura oladigan, har tomonlama barkamol insonlarni voyaga yetkazish, g'oyaviy bo'shliq bo'lishiga yo'l qo'ymaslik va nihoyat, yurtning yuksak taraqqiyotini ta'minlash - milliy g'oya, ma'naviyat asoslari turkumiga kiruvchi fanlarni shakllantirish ehtiyojini yuzaga keltirdi. Bu fanlarni o'rganishni taqoza etadigan umumiyligi va o'ziga xos qonuniyatlar mavjud. Umumiyligi qonuniyatlar turli xalqlar, mamlakatlar, jamiyatlar hayotida amal qiladigan umumiyligi asosga ega bo'lgan ichki zaruriy bog'lanishlar bo'lib, u jamiyat va mafkuralar (g'oyalari)ning bir-birlari bilan uzviy bog'liqligi qonundir.

Jamiyat mafkurasiz, maqsadsiz yashay olmaydi. Demak, Birinchidan mafkura har qanday jamiyat hayotida zarur. Mafkura bo'lmasa, odam, jamiyat, davlat o'z yo'lini yo'qotishi muqarrar. Ikkinchidan, qayerdaki mafkuraviy bo'shliq vujudga kelsa, o'sha yerda begona mafkura hukmronlik qilishi ham tayin. Buni isboti uchun xoh tarixdan, xoh zamonamizdan ko'plab misollar keltirish qiyin emas<sup>38</sup>. U jamiyat oldidagi maqsadlar, uni amalga oshirish vositalaridir. Qolaversa, inson hayotida ma'naviy mezonlar ham muhim o'rinni tutadi. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov "Ma'naviyat – insoniyatning, xalqning, jamiyatning, davlatning kuch-quvvatidir", degan edi. Binobarin, jamiyatdfagi insonlarning ma'naviy dunyoqarashi va madaniyati qancha yuksak bo'lsa, Vatanimiz O'zbekiston shuncha tez mustahkamlanib boradi, boshqa ijtimoiy muammolarni hal qilish osonlashadi.

Misol uchun boshqa mamlakatlarga, xususan, Yaponiyaga nazar tashlasak, u qazilma boyliklari, yer-suvi bilan gullab yashayotgani yo'q. Yaponiya ma'rifati, aqli, tarixi bilan XX asrda ustuvor bo'lib turibdi. Ma'naviy qashshoq xalq hesh qachon boy bo'lmaydi. O'z huquqini bilmagan, o'z qonunlari kuchini anglab yetmagan va tushunishni istamagan insoning shon-shavkatni tuproq bilan tengdir.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov 1997-yil 29-avgustida Oliy Majlisining 9-sessiyasida "Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori" nutqida "har qaysi millat nafaqat

<sup>37</sup>Каримов И.А.. "Миллий истиқолол ёғаси: асосий тушунча ва тамоиллар" рисоласидаги сўзбоидан. Т.9. –Т.: Ўзбекистон, 2001 йил, 222-бет.

<sup>38</sup> Каримов И.А. Биз келажагимизни ўз қўнимиз билан қурамиз. Т.7. –Т.: Ўзбекистон, 1999 йил, 84-85-бетлар.

yer osti va yer usti tabiiy boyliklari bilan harbiy qudrati va ishlab chiqarish salohiyati bilan, balki bиринчи navbatda o'zining yuksak madaniyati va ma'naviyatni bilan kuchlidir", degan edi. Shu bois mamlakatimizning istiqlol yo'lidagi bиринчи qadamlaridanoq buyuk ma'naviyatimizni tiklash va yanada yuksaltirish milliy ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, uning milliy zaminini mustahkamlash, zamon talablari bilan uyg'unlashtirish asosida jahon andozalari va ko'nikmalari darajasiga chiqarish maqsadiga katta ahamiyat berib kelinmoqda.

Bu ma'naviy mezonlar kecha yoki bugun o'ylab topilgan emas. Ular insoniyatning ming yillik tarixi ota-bobolarimizning necha-necha avlodlari tajribasi davomida yuzaga kelgan. Ma'naviyat insonga ona suti, ota namunasi, ajdodlar o'giti bilan singib kelgan. Bu ajdodlarimizning boy ma'naviy-ma'rifiy merosida o'z ifodasini topgan. Jumladan, A.Avloniy o'zining "Turkiy Guliston yoxud axloq" asarida ma'naviyatni rivojlantirish masalalari, xususan, insonparvarlik, adolat, komillikkha erishish g'oyalarini ilgari surib: "Sadoqat gulshani salomat, bo'stoni najotdur. ...Sadoqat bir fayzi ma'naviyurki, u fayzdan hissasini olmak har bir kishining muqaddas vazifasidir, Adolat esa yaxshi xulqlarning foili, zulmning muqobilidur. Har bir millatning taraqqiy va taoliysi (yuksaklik, ko'tarilish), davlat va hukumatlarning uzun yashamog'i adolatga bog'liqdur"<sup>39</sup>, deydi. Ayni paytda mazkur ixtibosning keltirilishi ham milliy g'oya va ma'naviyat asoslari turkumiga kiruvchi fanlarning o'ziga xos xususiyatlari mavjudligini ko'rsatadi.

Ushbu fanlarning o'ziga xos xususiyatlari ega ekanligi ularning oliyanob maqsadlaridan biri - o'sib kelayotgan yosh avlodni milliy o'zlikni anglash tuyg'usi asosida tarbiyalash ekanligi bilan ham izohlanadi.

"Insoniyat jamiyat tarixiy taraqqiyoti o'z-o'zini anglash eng avvalo, insoniy mavjudlikning mohiyatini ma'naviy voqelik, sha'n, qadr-qimmat, obro'-e'tibor, or-nomus orqali namoyon bo'lishini ko'rsatadi. Hayotning ma'no-mazmuni, maqsadini tushunib yetish, o'zlikni anglashdan boshlanadi. O'zligini anglagan inson ma'naviy yuksalishga erishadi, har qanday sharoitda ezgulik sari harakat qiladi. Yuksak rivojlangan jamiyat esa o'zligini anglagan shaxslardan tarkib topadi. Inson ijtimoiy mavjudot sifatida talqin etilganda, uning mustaqil tafakkurga, e'tiqodga, buniyodkorlik qudratiga, o'zgalar va butun borliq oldidagi mas'uliyat tuyg'usiga ega ekanligi nazarda tutiladi. "Men kimman?", "Bu yorug' dunyoga nima uchun keldim?", "Menga ato etilgan

<sup>39</sup> Авлоний Абдулла. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. -Т.: Ўқитувчи, 1992 йил, 38-бет.

buyuk ne'mat - hayotimni nimalarga safarbar etmog'im lozim?". Inson borki, ertami-kechmi ana shu savollarga javob izlay boshlaydi, kamolot sari yo'l oladi. Bu yo'lни - o'zlikni anglash deb aytish mumkin. O'zligini anglagan yoki anglay boshlagan kishigina shaxs darajasiga ko'tariladi. Demak, o'zlikni anglash, avvalo har bir insonning shaxsi, alohida "meni" bilan bog'liq.

"Aslida milliy o'z-o'zini anglash millatning moddiy hamda ma'naviy manfaatlarini himoya qiluvchi va rivojlantiruvchi omil hisoblanadi. U faqat milliy manfaatlarni himoya qilish bilan cheklanmaydi, u millatni "harakat"ga keltiradi va birlashtirib turadi. Xususan, millat taraqqiyoti jarayonida iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy sohalarda yuzaga keladigan muammo-larni hal qilishda milliy o'z-o'zini anglash omili millatni jipslashtiradi va uni umummaqsadlar yo'lida harakatga keltiradi. U har qanday millat uchun zarur asosiy o'ziga xos belgilari tizimida yetakchi o'rinni egallaydi. Milliy o'z-o'zini anglash millat abadiyligini ta'minlashning eng muhim omilidir. Chunki bu salohiyat millatning o'ziga xosligini va manfaatlarini himoya qilib turadi"<sup>40</sup>.

**2-masalaning bayoni:** Aslida ma'naviyat milliy urf-odatlar, tarbiya an'analari, axloq-odob aqidalari, qadriyatları, din, e'tiqod, madaniy-ma'rifiy ijtimoiy-didaktik falsafiy pedagogik qarashlar ruhiy-psixologik jarayonlar va shu kabilar majmuasidir.

O'zbekistonning Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ilgari surgan fikr va g'oyalarning ilmiy tavsifi, nazariy-amaliy tadqiqot saboqlari natijasi o'laroq ma'naviyatning quyidagi tarkibiy qismlari aniqlandi:

- ❖ Madaniy-ma'rifiy yuksaklik;
- ❖ Ijtimoiy-didaktik taraqqiyot;
- ❖ Falsafiy-pedagogik o'sish;
- ❖ Ilymon-e'tiqodning butunligi;
- ❖ Milliy axloq-odob me'yorlariga to'la rioya qilish;
- ❖ Ilm-ma'rifatli bo'lish;
- ❖ Insonparvarlik, vatanparvarlik, xalqparvarlik, adolatparvarlik;
- ❖ Milliy qadriyatlarga muhabbat;
- ❖ Fidoyilik, mardlik jasurlik tashabbuskorlik;
- ❖ Poklanish;
- ❖ Islom diniga e'tiqod qilish;
- ❖ Vatan va xalq mustaqilligini doimiy himoya qilish va unga xizmat qilish;
- ❖ Ajdodlar va ularning merosiga chuqr hurmat va shu kabilar.

<sup>40</sup> Sobirova M., Holiqov E Etnomadaniyat. O'quv qo'llanma. – T.: 2019 "INNOVATSIYA-ZIYO", 214-bet.

O'zbekistonning Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ilgari surgan fikr va g'oyalarning ilmiy tavsifi, nazariy-amalii tadqiqot saboqlari natijasida milliy g'oya va ma'naviyat mustaqil fan sohalari sifatida shakllanib, ularning tarkibiy qismlari aniqlangan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning sa'y-yu harakatlari va amalii tashabbuslari bilan milliy g'oya, ma'naviyat va ma'rifat masalalari davlat siyosati darajasiga ko'tarilibgina qolmay, bu siyosatning uzviy-tarkibiy qismiga aylandi.

Sh.Mirziyoev asarlarida, ma'ruza va nutqlarida yangilanayotgan O'zbekistonda ma'naviyatdagi transformatsiyalar, Harakatlar strategiyasiga oid islohotlarda ma'naviy-ma'rifiy muammolar, yoshlarni ma'naviy yetuk inson etib tarbiyalashning muhim tashabbuslari ilgari surilganki, bu tashabbuslar Yangi O'zbekiston yoshlari manfaatlarini to'la-to'kis ifoda etmoqda.

Xususan, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev shunday e'tirof etadi - "Biz yoshlarga doir davlat siyosatini hech og'ishmasdan, qat'iyat bilan davom ettiramiz. Nafaqat davom ettiramiz, balki bu siyosatni eng ustuvor vazifamiz sifatida bugun zamon talab qilayotgan yuksak darajaga ko'taramiz"<sup>41</sup>. Bu tom ma'noda, yosh avlodni yuksak salohiyati, bilim va ma'rifat sohiblari etib tarbiyalash siyosati jamiyatimiz taraqqiyotining asosiy mantig'iga aylanganligidan darak beradi. Jumladan, mustaqil taraqqiyotimizni barqarorlashtirib borishdagi harakatlarini izchil davom ettirishda yoshlar manfaatlarining to'qnash keltirilishi, mustaqillik yillardan keyin yoshlarning ma'naviy salohiyatini oshirish va milliy go'yaga sodiqligini amalda ta'minlashga keng imkoniyatlar yaratdi.

Yana bir masala borki, bu ham yoshlar faoliyatida kitobxonlik orqali milliy g'oya va mafkurani qaror toptirish masalasi bilan bog'liq. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 12 yanvardagi "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida"gi F-4789-sonli farmoyishi ma'naviy tarbiya sohasida davr talablariga mos o'zgarishlarni ro'yobga chiqarishda zalvorli qadam bo'ldi. Chunki keksalar aytganidek "kitob ko'rgan", "oq qoran tanigan" avlod bilan milliy g'oya va ma'naviyat sohalarini yangi, sifat bosqichiga ko'tarish mumkin.

Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 28 iyulda qabul qilingan "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish

<sup>41</sup> Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birlgilidka barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq. -T.: O'zbekistan NMU, 2016 yil, 14-bet.

va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida"gi PQ-3160-sloni Qaroriga alohida to'xtalib o'tish joiz. Sababi, aynan ushbu qaror ma'naviy-ma'rifiy sohada yangicha tub burilish yasadi deyish mumkin. Mazkur qarorning 3-bandida "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashiga, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi Raisi, viloyatlar, Toshkent shahar hamda tumanlar (shaharlar) hokimlari tegishli ravishda hududiy kengashlarga jamoatchilik asosida raislik qiladilar"<sup>42</sup> deb belgilab qo'yildi va Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining raisi shaxsan Prezident ekanligi qayd etildi.

Bu o'zgarish bugun ma'naviy-ma'rifiy ishlar davlatimiz siyosatida yanada yuksak o'ringa ko'tarilganligigiga dalil bo'lishi bilan bir qatorda mamlakat Prezidentining xalq, millat ma'naviyati rivojiga o'zini shaxsan daxldor deb his etishining amaliy isbotidir.

Shu bilan birga, 2021 yilning 26 mart kuni "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" Prezident Qarorining qabul qilinishi ham ma'naviy-ma'rifiy ishlarning samarasi va ta'sirchanligini oshirish, ko'lami va miqyosini yanada kengaytirish, mamlakat aholisi, avvalo, yoshlar qalbida amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorlik hissini kuchaytirish, sohadagi ishlarni muvofiqlashtirishning yagona tizimini yaratish imkoniyatini bermoqda.

Ushbu qaror asosida "Ma'naviyat targ'ibotchisi" ta'lim muassasasi negizida Markaz huzurida Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar institutini tashkil etish orqali ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarga ilmiy asosda yondashuvga imkoniyat yaratishi bilan bir qatorda, soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash imkoniyatini ham yuzaga keltirdi. Oliy ta'lim muassasalarida yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektorlik lavozimining tashkil etilishi, 2021/2022 o'quv yilidan boshlab oliy ta'lim tizimining tegishli ta'lim yo'naliishlari o'quv rejalariga bakalavriat bosqichida "Ma'naviyatshunoslik", magistratura bosqichida "Kasbiy ma'naviyat" fanlari kiritilishini hamda magistratura ta'lim bosqichida "PR-menejer" mutaxassisligi bo'yicha kadrlar tayyorlanishini yo'lga qo'yilishi, barcha tuman va shaharlarda Ma'naviyat va ma'rifat maskanlarining tashkil etilishi yurtimizda huquqiy davlat, fuqarolik jamiyatini barpo etishda "Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari" degan hayotbaxsh g'oyaning ahamiyati tobora ortib borayotganligidan dalolat beradi.

<sup>42</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida// O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 6-son, 70-modda.

Bizga ma'lumki, ma'naviy yetuklik va iqtisodiy to'kislik bir-birini taqozo etadi. Bu ko'hna tarix isbotlagan haqiqat. Shu bois Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev 2021 yil 19 yanvar kuni o'tkazilgan ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishida: "Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lса, uning joni va ruhi ma'naviyatdir" deya alohida ta'kidladi. "Biz yangi O'zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz, - dedi Prezident, - Birinchisi - bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi - ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma'naviyat"<sup>43</sup>.

O'zbekiston rahbarining mazkur yig'ilishda ilgari surgan fikr va g'oyalarda ma'naviyatning o'ziga xos indikatorlari, ya'ni ma'naviyat darajasini belgilash mezonlari qanday bo'lishi kerakligi borasidagi yondashuvlar o'z ifodasini topib, ma'naviyat darajasini belgilovchi quyidagi mezonlar aniq belgilab berildi:

Birinchi mezon – huquq, ta'lim va ma'naviy tarbiya.

Ikkinci mezon — ma'naviyat institutlari tizimini rivojlantirish.

Uchinchi mezon — ma'naviyat targ'ibotchilarini tarbiyalash, ma'naviyat ta'limi tizimini shakllantirish.

To'rtinchi mezon — ma'naviyat targ'iboti ishlari monitoringi.

Beshinchi mezon — ma'naviyat va jahon hamjamiyati.

Jahon tarixiga nazar solsak, har bir xalq avvalo ma'naviy birlashushi, milliy g'oyasi bilan yuksalgan. Shu sababli ham bugun yangi hayot qurish, rivojlangan davlatlar qatoriga chiqish yo'lidan borayotgan mamlakatimizda ham milliy g'oya va ma'naviyat masalasi muhim ahamiyatga ega bo'lgan, dolzarb masalaga aylangan.

"Biz yaratayotgan yangi O'zbekistonning mafkurasi ezgulik, odamiylik, gumanizm g'oyasi bo'ladi. Biz mafkura deganda, avvalo, fikr tarbiyasini, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasini tushunamiz. Ular xalqimizning necha ming yillik hayotiy tushuncha va qadriyatlariga asoslangan", - dedi davlatimiz rahbari<sup>44</sup>.

**3-masalaning bayoni:** Inson mohiyati aqlda, aqlning mohiyati esa xarakterda namoyon bo'ladi, degan edi buyuk mutafakkirlardan biri. Demak, insonning insonligini ifoda etuvchi yagona mezon aql-idrok, ong va tafakkur darajasi bo'lса, ularning mohiyatini ochib beruvchi, miqyosi va ko'lamiga baho beruvchi bosh mezon xatti-harakati, hayotga va atrof-muhitga munosabati, o'z-o'zini boshqarishdagi ichki qudratdir. Ana shu

<sup>43</sup> Жамият ҳаётининг танаси иқтисодиёт бўлса, унинг жони ва руҳи мънавиятдир // Халқ сўзи 2021 йил 20 январ.

<sup>44</sup> Shu manba

ichki qudratga tayangan xalq Sharqning diyonat, or-nomus, sharm-hayo kabi fazilatlarni asrlar mobaynida oliy qadriyat sifatida avaylab-asrab kelmoqda. Ularni milliy g'oya orqali yoshlar ongi va qalbiga singdirishning ahamiyati nechog'li ekanligini anglash muhim. Bu har bir yoshga o'ziga xos mas'uliyat yuklaydi hamda shularga o'xshagan va shunga harakat qilayotgan yoshlarning yangi avlodи yetishib chiqishiga olib keladi.

XXI asrni axborot asri, axborot texnologiyalari asri deb atash tobora rasm bo'lmoqda. Chunki asrimizda inson eshitayotgan, ko'rayotgan barcha-barcha narsalar uning istaklarini, didini o'zgartirishga, fikriga ta'sir qilishga yo'naltirilgan. Hozirgi davrda inson ongi va qalbini egallash uchun kurash borayotgani hech kimga sir emas. Shuning uchun yot mafkuraviy ta'sirlarga qarshi kurashda uzilishlarga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Bunday sharoitda begona mafkuralarning qo'poruvchi ta'siriga qarshi doimiy va uzuksiz aksiltarg'ibotni tashkil etish muhim sanaladi. Chunki bunday mafkuraviy kurashni nafaqat mamlakatimiz ichkarisida, balki xalqaro maydonda ham olib borish talab etiladi.

Yoshlarda mehnatga ishtiyooq uyg'otish, tirishqoq va serg'ayrat shaxsni tarbiyalash, shaxsni o'zi ustida qunt bilan ishlashga o'rgatish, unda o'ziga ishonchni qaror toptirishdan jamiyat ham manfaatdor bo'ladi. Shuningdek, milliy g'ururi baland, mas'uliyat va burch hissiga ega, intizomli, demokratiyani hayot tarziga aylantirgan, kelajagi o'z qo'lida ekaniga ishongan mustaqil shaxsni tarbiyalashga ustuvorlik berish zarur. Inson mafkurani hayotdan uzulib qolgan, begona va mavhum narsa sifatida tushunmasligi kerak. Milliy g'oyani oddiy va yurakka yaqin g'oyalari orqali singdirish, ya'ni milliy g'oyaning inson ongidan o'r'in olishi bilan qanoatlanmay, balki uning qalbiga jo qilish zarur. Bu sohada amalga oshiriladigan ishlar o'zining samarasini berishi shubhasiz.

Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari turkumiga kiruvchi fanlarning o'qitilishini yanada takomillashtirish zarurligining sabablaridan biri, millat son jihatidan kattami yoki kichikmi bundan qat'i nazar, uning real subyekt, ma'lum moddiy va ma'naviy boyliklarni yaratuvchisi, iste'molchisi, boshqalarda uchramaydigan, o'ziga xos xususiyatlari mavjudligini va o'zining mustaqil o'rniiga ega bo'lishi kabi omillarni, ya'ni chinakam millat sifatidagi maqomini tiklash hayotiy ehtiyoj darajasiga ko'tarilgan edi. Uni hal etish millat va davlatning kelajagi uchun amaliy ahamiyatga egadir.

Ma'naviy-mafkuraviy ishlarni milliy taraqqiyot tamoyillari va manfaatlari asosida (g'oyaviy-nazariy darajada) tizimli tashkil qilish deganda, jamiyatdagi hayotiy talab, ehtiyoj, maqsad-tilishlarga muvofiq

rivojlanib boruvchi g'oyaviy-mafkuraviy jarayonlardan iborat o'ziga xos ijtimoiy-ma'naviy tartib - tizim yaratish tushuniladi. Zero, vogelikdagi o'z shakl-ko'rinish va mazmuniga, ma'lum o'zgarishlar xarakteriga, aniq makon va zamonda alohida o'rniغا ega bo'lgan har qanday narsa, hodisa, jarayonlarni muayyan tizimga solish mumkin.

Mazkur tizim milliy ma'naviy tiklanish va milliy g'oyani rivojlantirish kontseptsiyalariga muvofiq aniq tavsiflanadigan turli shakl-ko'rinishlarga, har xil daraja va ko'lamlarga ega bo'lgan o'ziga xos qism, element, bosqich, soha, yo'naliishlardan iborat mikrotizimlarni o'z ichiga oladi. Bu tizimlarning har biri shakli, mazmuni va maqsad-vazifalariga ko'ra, o'ziga xos bo'lib, tizim ichidagi va undan tashqaridagi tizimlar, masalan, jamiyat ijtimoiy hayotidagi boshqa jarayonlar, tuzulmalar bilan uzviy aloqadorlikda bo'ladi.

Chunonchi, ma'naviy hamda g'oyaviy-mafkuraviy tarbiya tizimi jamiyatdagи huquqiy, axloqiy, estetik, diniy, jismoniy va boshqa tarbiya sohalari - tizimlari bilan, yoki har qanday g'oyaviy-mafkuraviy jarayonlar jamiyatdagи ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy va boshqa omillar bilan uzviy bog'liqidir.

Ma'naviy-mafkuraviy ishlarni milliy taraqqiyot tamoyillari va manfaatlari asosida (g'oyaviy-nazariy darajada) tizimli tashkil qilish zarusati shundaki:

**Birinchidan:** ma'naviyat - insonning, xalqning, jamiyatning, davlatning kuch-qudratidir;

**Ikkinchidan:** jamiyatni ma'naviy yangilashdan bosh maqsad - yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq erkinligi va farovonligiga erishish va komil insonni tarbiyalash, ijtimoiy hamkorlik va millataro totuvlik, diniy bag'rikenglik kabi ko'p-ko'p muhim masalalardan iborat.

**Uchinchidan:** ma'naviyatni rivojlantirish millat va davlatning kelajagi uchun amaliy ahamiyatga ega;

**To'rtinchidan:** mustaqilknning uch tayanchi: mustaqil milliy siyosat, iqtisodiy qudrat va xalq ma'naviyati bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ularning o'zaro uyg'un rivoji ta'min etilsagina, O'zbekiston buyuk yurt sifatida jahon hamjamiatidan o'z munosib o'rnini egallay oladi.

Masalaning yana bir tomoni borki, jamiyatda ma'naviy komilllik mezoniga javob beradigan qarashlar shakllansa, inson va jamiyat ma'naviy barkamollik hamda ijtimoiy-iqtisodiy yuksaklikka erishadi.

Nazarimizda, agar milliy o'zlikni anglash, huquqiy madaniyat, qonunlarga itoatkorlik, davlat tuzumiga hurmat, demokratik qadriyatlarga sodiqlik, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda faollik bir tomonidan jamiyat ma'rifiy taraqqiyot yo'lidan borishini ta'minlaydigan omil bo'lsa,

ikkinchi tomondan esa, shaxs ma'naviy kamolotini yuzaga chiqaruvchi asosiy mezon hisoblanadi<sup>45</sup>.

Ma'naviy rivojlanish oqsagan joyda, ijtimoiy yangilanish, ijtimoiy taraqqiyot yuz bermaydi. Hatto, jamiyat o'zining ilgari erishgan taraqqiyot darajasini ham saqlab qola olmaydi. Inqirozga uchrab, keskin orqaga ketadi<sup>46</sup>, deydi faylasuf olim A.Erkayev.

## **MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR:**

1. Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari turkumiga kiruvchi fanlarning o'ziga xos xususiyatlarini izohlang...

2. O'zbekistonning Birinchi Prezidenti I.A.Karimov va davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ilgari surgan fikr va g'oyalarning ilmiy tavsifi, nazariy-amaliy tadqiqot saboqlari natijasi o'laroq ma'naviyatning qanday tarkibiy qismlari va mezonlari aniqlandi?

3. Ma'naviy-mafkuraviy ishlarni milliy taraqqiyot tamoyillari va manfaatlari asosida (g'oyaviy-nazariy darajada) sistemali tashkil qilish zaruratiniz siz qanday tushunasiz?

4. Madaniy-ma'rifiy yuksaklik deganda nimani tushunasiz?

5. Insonparvarlik, vatanparvarlik, xalqparvarlik, adolatparvarlik tushunchalarining mohiyatini izohlab bering...

6. Milliy qadriyatlarga muhabbat deganda nimani tushunasiz?

7. Fidoyilik, mardlik, jasurlik, tashabbuskorlik deganda-chi?

8. Vatan va xalq mustaqilligini doimiy himoya qilish va unga xizmat qilishni siz qanday tushunasiz?

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Ma'naviy-ma'rifiy ishlari samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida// O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 6-son, 70-modda.

2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq. -T.: O'zbekistan NMIU, 2016 yil.

3. Жамият ҳаётининг танаси иқтисодиёт бўлса, унинг жони ва руҳи маънавиятдир // Халқ сўзи 2021 йил 20 январ.

<sup>45</sup>Zamonov Z. O'zbekiston ijtimoiy-siyosiy hayotida ma'naviy-axloqiy institutlarning o'rni/ siyos.fan.b.fals.dok.ilmiy daraj. ... diss. -T.: 2019 yil. -B 48.

<sup>46</sup> Erkayev A. Milliy g'oya va ma'naviyat. -T.: "Ma'naviyat", 2002 yil, -B 186.

4. Каримов И.А. Биз келажагимизни ўз қўлимиз билан қурамиз. Т.7. -Т.: Ўзбекистон, 1999 йил.
5. Каримов И.А.“Миллий истиқтол ғояси: асосий тушунча ва тамоиллар” рисоласидаги сўзбошидан. Т.9. -Т.: Ўзбекистон, 2001 йил.
6. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. -T.: Ma'naviyat, 2008-yil.
7. Авлоний Абдулла. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. -Т.: Ўқитувчи, 1992 йил.
8. Erkayev A. Milliy g'oya va ma'naviyat. -T.: “Ma'naviyat”, 2002 yil.
9. Sharifxo'jayev M., Davronov Z. Ma'naviyat asoslari. -T.: Toshkent moliya instituti, 2005-yil.
10. Zamonov Z. O'zbekiston ijtimoiy-siyosiy hayotida ma'naviy-axloqiy institatlarning o'rni/ siyos.fan.b.fals.dok.ilmiy daraj... diss. -T.: 2019 yil.
11. Sobirova M., Holiqov E Etnomadaniyat. O'quv qo'llanma. – T.: “INNOVATSIYA-ZIYO”, 2019 yil.

#### **ELEKTRON TA'LIM RESURSLARI:**

1. <http://www.lex.uz/>
2. <http://www.gov.uz/>
3. <http://www.aza.uz/>
4. [www.zyonet.uz](http://www.zyonet.uz)
5. [www.edu.uz](http://www.edu.uz)
6. <http://www.uzedu.uz/>
7. [www.ma'naviyat.uz](http://www.ma'naviyat.uz)
8. [www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)

#### 4-MAVZU:

## MILLIY G'OYA VA MA'NAVİY TARBIYANING ASOSİY YO'NALİSHLARI

### REJA:

1. Milliy g'oya va ma'naviy tarbiyaning asosiy ustuvor yo'nalishlari.
2. Ma'naviy axloqiy g'oyalar, ularning mazmun va mohiyati.
3. Ta'lif-tarbiya uyg'unligi tamoyilining milliy g'oya tamoyillari va ma'naviy-axloqiy g'oyalar bilan hamohangligi.

### *Tayanch tushuncha va iboralar:*

*Milliy ong, milliy iftixor, milliy tafakkur, milliy g'oya ta'liming asosiy ustuvor yo'nalishlari, axloq, axloqiy ong, axloqiy hissiyot va axloqiy xattiharakatlar, axloq tuzilmasi, ma'naviy-axloqiy g'oyalar, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, ilm-fan yutuqlari va falsafiy tafakkur durdonalari, urf-odat, an'ana va marosimlar, ma'rifat, ta'lif-tarbiya, diniy qadriyatlar, axloqiy fazilatlar, madaniy yodgorliklar, qadimiy qo'lyozmalar, tarixiy meros va tarixiy xotira, milliy adabiyot asarlari.*

**1-masalaning bayoni:** Jamiyat taraqqiyotining har qanday bosqichlarida "inson sifati"ni, jamiyat xarakterini belgilaydigan g'oyaviy-mafkuraviy munosabatlar hal qiluvchi ahamiyat kasb etgan. Boshqacha aytganda, ijtimoiy munosabatlarning yo'nalishlari shu jarayonning xarakteriga mos kelgan. Shu jumladan, hozirgi davrda mafkuraviy jarayonlarning intensivlashib, universallashib va globallashib borishi bilan, "inson sifatlari"ni (jamiyat mazmunini belgilovchi ma'naviy-madaniy omillar tizimida) o'rganishda ideologiyaning ahamiyati o'zgacha xarakter kasb etmoqda.

Shaxsning "mafkuraviy sifati", xususan, g'oyalar haqidagi nazariy bilimlarining ilmiylik darajalari jamiyatni barqaror rivojlantirishdan iborat kundalik amaliy vazifalarni bajara bilish malakalariga mos keladi. Lekin, shu bilan birgalikda, g'oyaviy-mafkuraviy munosabatlarga doir yetarli nazariy bilimlarga, amaliy ko'nikmalarga ega bo'lgan shaxs yoki ijtimoiy birlıklarning "mafkuraviy sifatlari"ni yuqori, deb baholab bo'lmaydi.

Jamiyat va shaxs mafkuraviy sifatlarini o'rganadigan ideologiya paradigmalarining ilmiyigini, hayotiyigini belgilaydigan asosiy mezonlardidan biri - umuminsoniyat ehtiyojlari va manfaatlarini hisobga olgan holda, shaxsni o'zgartirish orqali jamiyatni o'zgartirishdir. Boshqacha aytganda, "mafkuraning hayotiyligi uning xalq, jamiyat turmushi va tafakkur tarziga nechog'li mos bo'lishi, eng muhimmi,

jamiyatning milliy manfaatlarini, orzu-intilishlarini qay darajada aks ettirishi bilan o'lchanadi. Faqat shunday mafkuragina hayot va davr sinovlariga bardosh beradi, odamlar unga ishonib, o'zining iymone-tiqodi sifatida qabul qiladi. Shundagina u eng zamonaviy quroldan ham ko'ra kuchli ruhiy-ma'naviy qudrat kasb etadi<sup>47</sup>.

Shu o'rinda milliy g'oya va ma'naviy tarbiyaning asosiy ustuvor yo'nalishlarini aniqlab olish zarur. Ularni shartli ravishda, boshqa yondashuvlar ham bo'lishi mumkinligini nazarda tutgan holda, quyidagi asosiy ustuvor yo'nalishlarga ajratish mumkin:

**1. Ma'naviy-axloqiy yo'nalish** – Milliy g'oya va ma'naviyat haqida ta'lim berish orqali yoshlarga axloqiy tarbiya ham berib boriladi. Zero, axloqiy tarbiya insonning shaxs bo'lib shakllantirishni ta'minlaydigan uzlusiz jarayonlardan biri. Unda individ axloqiy qadriyatlarni anglab yetadi, o'zida axloqiy fazilatlarni barqaror etadi, axloqiy tamoyillar va me'yorlar asosida yashashga o'rganadi.

Aslida axloqiy tarbiya insoniyat tarixi mobaynida ikki muhim masalaga javob izlaydi: bulardan biri – qanday yashamoq kerak, ikkinchisi – nima qilmog'-u, nima qilmaslik lozim. Ana shu savollarga javob izlash jarayoni axloqiy tarbiyaning amaliy ko'rinishidir. Axloqiy tarbiya inson farzandini takomilga, komillikka yetkazish yo'llaridan biri. Uning vositalari ko'p. Ana shu vositalardan biri milliy g'oya ta'limi tizimini yanada takomillashtirishdir.

Mustaqillikning dastlabki yillarda jamiyatning ma'naviy-axloqiy sifatlarini to'la qaror toptirishni o'z oldiga asosiy vazifa qilib qo'ygan milliy mafkuramizning bosh g'oyasi bo'lgan ozod va odob Vatan, erkin va farovon hayotni izchil amalga oshirishni ta'minlash orqali ma'naviy rivojlanish strategiyasi belgilab olindi.

Hozirgi globallashuv davrida milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan holda "Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari" deb nomlangan ezgu va oliyanob maqsadga erishishda ham avvalo ma'naviy-axloqiy muhitni shakllantirish va uning sezilarli ta'sirini oshirish talab etilmoqda.

Qolaversa, inson manfaatlaridan kelib chiqqan holda birdamlik, barqarorlashuv va tenglik asosida iqtisodiy islohatlarni amalga oshirishda ham ma'naviy-axloqiy tarbiya muhim ahamiyat kasb etadi.

**2. Ta'limiy, huquqiy-me'yoriy yo'nalish** – Milliy g'oya, ma'naviyat turkumiga kiruvchi fanlar orqali yosh avlodga insoniyat tarixi – g'oyalar tarixi ekanligi, insoniyatning tarixiy taraqqiyoti davomidagi barcha yirik

<sup>47</sup> Каримов И.А. Миллий истиқолол мафкураси – халқ эътиқоди ва буюк келажакка ишончдир. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт – пировард мақсадимиз. 8.Т. –Т.: Ўзбекистон, 2000, 491-бет.

voqealari hodi salarning tag-zamirida u yoki bu g'oya yotishi, muayyan ijtimoiy guruh, qatlam, millat, xalq, davlat yoki jamiyatning ehtiyojlari, maqsad-muddaolar, orzu-intilishlarini o'zida mujassam etuvchi g'oyalar tizimi sifatida namoyon bo'ladigan mafkura - istiqbolning yaratuvchisi ekanligi, bunyodkor va vayronkor g'oyalarning mohiyati, farqi, milliy g'oya, uning mazmuni haqida nazariy ta'lif berib borishda ta'limiylar, huquqiy-me'yoriy yo'nalish o'ziga xos o'rinni tutadi.

**3. Madaniy-ma'rifiy va iqtisodiy-siyosiy yo'nalish** - Keyingi yillarda mamlakatimizda madaniy-ma'rifiy va iqtisodiy-siyosiy sohalarda olib borilayotgan keng qamrovli islohotlar, bu sohada ko'zga tashlanayotgan muammolar, Yangi O'zbekistonni rivojlantirish va Uchinchi Renessans poydevorini qurishning ijtimoiy-ma'naviy jihatlari haqidagi bilim va tasavvurlari doirasini kengaytirishda bu yo'nalish ustuvor ahamiyatga ega.

**4. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar yo'nalishi** - Ma'naviyat, qadriyatlar va milliy g'oya - bular, jamiyat hayotining juda murakkab va serqirra, o'zaro uzviy aloqadorlikda bo'lgan sohalaridir. O'zbekiston xalqining milliy g'oyasi umuminsoniy va milliy qadriyatlarga tayanadi. Bu sohalarning biri ikkinchisini inkor etmaydi. Chunki, milliy va umuminsoniy qadriyatlar bir-biri bilan bevosita bog'liqdir. Ularning har ikkalasi bir-biriga ta'sir etadi, biri ikkinchisini to'ldiradi, mazmunan boyitadi.

Umuminsoniy qadriyatlar kishilarning talab va ehtiyojlari asosida aql-zakovat bilan yaratilgan, ularning tasavvurlari, tafakkurlari, kelajak orzu-istiklari, e'tiqodlari, axloq qoidalarini o'zida mujassam etgan, hayotda sayqal topgan ma'naviy boylik bo'lib, tarbiyaning tayanch vositalaridan hisoblanadi. Qolaversa, bunday qadriyatlar tarixiy taraqqiyot davomida sinovdan o'tgan, jamiyat taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega bo'lgan ijtimoiy hodisadir. Umuminsoniy qadriyat hayot uchun qimmatli, inson qalbida o'chmas iz qoldiradigan, insoniyat ijtimoiy manfaati, ehtiyoji uchun xizmat qiladigan, ularni ezgulikka yo'llaydigan ma'naviy boylikdir. Umuminsoniy ma'naviy boyliklarga ilm-fan, falsafiy tafakkur yutuqlari, adabiyot, me'morchilik, san'at asarlari, kashfiyat, ixtiolar, ma'naviy madaniyat durdonalari, hurfikrlilik, umuminsoniy axloqiy me'yorlar kiradi. Umuminsoniy qadriyat o'z ijobjiy ahamiyatini yo'qotmaydi. Inson ozodligi, Vatan, inson salomatligi, intellektual va aqliy mulklar, vaqt, har bir shaxsning yashash, bilim olish, mehnat qilish layoqatini yo'qotganda ijtimoiy himoyalash imkoniyatlari, adolat, mehnatsevarlik, ezgulik, yaxshilik, tinchtotuvlik, do'stlik, halollik, vatanparvarlik, ota-onani hurmat qilish, farzandlar haqida g'amxo'rlik,

vijdon, burch va majburiyatlarni bajarish kabi qadriyatlar umuminsoniy qadriyatlar sirasiga kiradi.

**2-masalaning bayoni:** Ma'naviy-axloqiy g'oyalar – milliy g'oya va ma'naviy tarbiyaning asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Agar axloq iborasining etimologiyasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, axloq – arabcha xulq so'zining ko'pchilik shaklidan, lotincha "mores" so'zidan olingan bo'lib, "odob, atvor, fe'l" degan ma'nolarni anglatadi. Shuningdek, rus tilidagi "moral" iborasi axloq degan ma'noni bildiradi.

"Axloq insonning eng yorqin, ko'zga yaqqol tashlanadigan, insonning qanday inson ekanligini aniq-ravshan ko'rsatib beradigan oliyjanob fazilatlardan biri. Axloqi yaxshi inson yaxshi hisoblanadi. Axloqi nobop insondan yaxshi insonlar nariroq yurishi ma'qul ko'rindi"<sup>48</sup>.

Axloq tuzilmasi uch omil – asosdan iborat. Ya'ni, u " axloqiy ong, hatti-harakatlar va axloqiy munosabatlar yig'indisi" dir. "Aynan ana shu uch ustun, rukn axloqning shakllanishi va rivojlanishiga asos bo'lgan.

Axloqiy ongsiz axloqiy xatti-harakatlar va axloqiy munosabatlar bo'lishi mumkin emas"<sup>49</sup>.

Insonning axloqiy hayoti, uning axloqiy tajribalari, axloqiy faoliyatlar ana shu uch omil asosida shakllanadi. Axloqiy kodekslar, me'yorlar va tamoyillar ana shu uch omil asosida ro'yobga chiqadi va ularga asoslanadi.

Asosiy axloqiy qadriyatlar, mushtarak axloqiy tushunchalar, ma'naviy-axloqiy g'oyalar barcha mintaqalar hamda millatlar uchun bir xil ma'no kasb etadi. Chunonchi, muhabbat, ezzulik va yovuzlik, yaxshilik va yomonlik, vijdon, burch, insonparvarlik, odamiylik, baxt, to'g'rilik, rostgo'ylik, saxiylik va baxillik singari fazilat hamda illatlar tom ma'noda umuminsoniy hodisadir.

Axloq bilan mafkura o'zaro aloqadorlikda bo'lib, jamiyat hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir majmua muayyan g'oyalar va qarashlar tizimidan iborat. Ma'naviy-axloqiy g'oyalarni o'zida mujassamlashtirgan kishilargina mafkurani yaratadilar va ommalashtiradilar.

Milliy mafkuramiz yuksak axloqiylikka asoslangan. U axloqiy prinsiplarga amal qilib, jamiyatimizda vatanparvarlik, millatparvarlik, ziyorilik tamoyillarini ustuvor bo'lib, har bir fuqaroni buyuk davlat yaratishda ishtirok etishga chorlaydi.

Ma'naviyat va axloq mushtarakligi jamiyat taraqqiyotining muhim jabhasini tashkil qilib, bu masala hozirda va o'tmishda ham turkiy xalqlar

<sup>48</sup> Холиков И., Собирова М., Рустамов М. Маънавиятнинг ахлоқий асослари. – Т.:ТДПУ, 2013 йил, 12-бет.

<sup>49</sup> Shu manba

diqqat markazida bo'lib kelgan. Bu, avvalo, ming yillik boy tariximizga, qadimiy an'analarimizga, milliy va diniy qadriyatlarimizga sodiqligimizning ramzi sifatida baholanishi kerak.

Sharqda azaldan demokratiyani rivojlantirish negizida inson axloqi, odobi, imon-e'tiqodi, mehr-muhabbat va ma'naviyatini yuksaltirish maqsadi yotgan. Bunday yondashuvni Markaziy osiyolik allomalar Abdurahmon Jomiy, Nizomiy Ganjaviy, Alisher Navoiy va boshqa mutafakkirlar asarlarida ham kuzatish mumkin. Ularning asarlarini o'rganish orqali ta'kidlash joizki, sharq donishmandlari, podshohdag'i ezgu xislatlar uning fuqarolarida ham shu zaylda shakllanadi, degan xulosaga kelganlar.

Sharqning yetakchi olimlariadolat, ezgu amallar va ma'naviy-axloqiy fazilatlarni barcha podshoh ham, fuqarolar ham o'zida shakllantirishi, ularga intilib va amal qilib yashashi zarur, degan fikrni ilgari surib bu maqsadlarni ijtimoiy-axloqiy me'yor darajasiga ko'taradilar. Ushbu me'yorlar Sharq xalqlarining mentaliteti, turmush tarzi va e'tiqodiga aylanganki, bugun ularsiz demokratik taraqqiyotni tasavvur qilish qiyin<sup>50</sup>.

Inson ijtimoiy hayotda yolg'iz yashay olmaydi, u jamiyat bilan aloqadorliklikda yashashga majbur, u jamiyatning, insonlarning uni qo'llab-quvvatlashiga doimo ehtiyoj sezib boraveradi. Insonlararo munosabatlar esa ezgulik g'oyalari bilan yo'g'rilgan bo'lishi lozim.

Ezgulik g'oyasi eng qadimiy dinlardan biri zardushtiylikning muqaddas kitobi "Avesto"da ham o'z ifodasini topgan. Unda yaxshilik bilan yomonlik, haq bilan haqsizlik, yorug'lik bilan zulmat o'rtasidagi kurash tasvirlanadi. Axura Mazda – yaxshilik hamda yomonlik - Axriman xudolari o'rtasida qattiq kurash ketadi. Axura Mazda dunyodagi butun mavjudotlarni yaratgan, u bunyodkorlik kuchiga ega. Axriman esa Axura Mazda buniyod qilgan narsalarni yo'q qilishga harakat qiladi. U vayronkorlik bilan mashg'ul bo'ladi. "Avesto"da yaxshilik yomonlik ustidan albatta g'alaba qozonadi, degan g'oya ilgari suriladi. Zardushtiylik uch asosiy axloqiy qoidaga tayanadi: "Ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal"<sup>51</sup>. Mana shu uchta qoidaga rioya qilgan odam kamolotga yetgan hisoblanadi.

Muqaddas islom dinimizda ham ijtimoiyadolat, mehr-muruvvat masalalariga katta e'tibor beriladi. Xususan, Qur'oni karimning bir necha suralarida yetim, beva-bechora, miskin, g'arib va muhtojlarga yaxshilik,

<sup>50</sup> Qarang: Мусаев Ф. Демократик давлат қуришнинг фалсафий-хуқуқий асослари/Ўзбекистон Республикаси ФА, И.М.Мўминов номидаги фалсафа ва хуқуқ институти.. -Т.: Ўзбекистон, 2007, 34-40-бетлар.

<sup>51</sup> Авесто. Яшт китоби. М.Исҳоқов таржимаси. -Т.: Шарқ, 2001, 8-бет.

xayr-ehson qilish ravo ko'riladi. "Allohga ibodat qilingizlar va Unga hech narsani sherik qilmangizlar! Ota-onalarga esa yaxshilik qilingizlar! Shuningdek, qarindoshlar, yetimlar, miskinlar, qarindosh qo'shni-yu begona qo'shni, yoningizdagi hamrohingiz, yo'lovchi (musofirga) va qo'l ostingizdagi (qaram)larga ham (yaxshilik qiling)! Albatta, Alloh kibrli va maqtanchoq kishilarni sevmaydi"<sup>52</sup>.

Sharqdagi ilk Uyg'onish davrining buyuk faylasufi, "ikkinci muallim" unvonini olgan mutafakkir Abu Nasr Forobiy asarlarining markazida inson masalasi turadi. Uning fazil jamoa, davlat va uning boshlig'i faoliyati, fazilat, kamolot, baxt-saodat tushunchalari bevosita fuqarolik jamiyatni g'oyasi,adolatlari jamiyatda baxtli insonning yashashi bilan uzviy bog'liqdir.

Forobiyning fikricha, inson turli axloqiy fazilatlar: sofkillik, xokisorlik, nafsni tiyish, o'zgalar to'g'risida g'amxo'rlik, saxiylik va boshqalarni egallab komillikka erishgandan so'ng baxt-saodatga sazovor bo'ladi. "Haqiqiy baxtga erishish maqsadida o'zaro yordam qiluvchi kishilarni birlashtirgan shahar - fazilatli shahardir, baxtga erishish maqsadida birlashgan kishilar jamoasi - fazilatli jamoadir"<sup>53</sup>, - deydi mutafakkir. Forobiyning asarlari markazida insonning fikr-o'yłari, orzu-umidlari turadi. Uningcha, inson zoti komil inson bo'lishi uchun boshqalar bilan muloqotda bo'lishi, ulardan yordam olishi, o'zi ham boshqalarga yordam berishi kerak. Zero, yakka odam boshqalarning ko'magisiz, moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlashisiz biror natija chiqarishi qiyin. Shunday qilib, moddiy ehtiyoj kishilarning birlashuviga, jamiyatni paydo bo'lishiga olib keldi. Mutafakkir kishilararo munosabatlarda insoniylikni boshqa axloqiy xislatlardan afzal ko'radi. "Odamlarga nisbatan ularni birlashtiruvchi boshlang'ich asos insoniylikdir, - degan edi Forobiy, - shuning uchun odamlar insoniyat turkumlariga kirganliklari uchun o'zaro tinchlikda yashamoqlari lozim"<sup>54</sup>.

Buyuk mutafakkir va tabib Abu Ali Ibn Sino ham jamiyatda insonlararo munosabatlarni o'rganar ekan, o'zining hayotiy xulosalari sifatida "Donishnama", "Ash-Shifo", "Kitob an-Najot" singari asarlarida ijobjiy fazilatlarni egallash, muhtojlarga yaxshilik qilish g'oyalarini ilgari suradi. Olimning fikricha, har bir mavjud narsa o'z mohiyatiga ko'ra kamolotga intiladi. Mana shu kamolotga intilishning o'zi mohiyatiga ko'ra yaxshilikdir. Ibn Sino "Ash-Shifo" asarida insonlararo munosabatlarga ta'rif berib, quyidagicha yozadi: "Do'stlik insonning shunday bir

<sup>52</sup> Куръони карим маъноларининг таржимаси. "Нисо" сураси. -Т.: ТИУ, 2001, 84 бет.

<sup>53</sup> Форобий. Фозил шаҳар аҳолиларининг фикрлари. Рисолалар. -Т.: Фан, 1975, 137-бет.

<sup>54</sup> Форобий. Фозил шаҳар аҳолиларининг фикрлари. Рисолалар. -Т.: Фан, 1975, 134-бет

holatidirki, bunda boshqa birovga yaxshilik istaladi, bunda inson yaxshilikni o'zi uchun istamaydi, balki o'sha boshqa uchungina istaydi<sup>55</sup>.

Qodiriya tariqati asoschisi, mutasavvuf Shayx Abdulqodir Giyoniyning yaxshilik, oliyhimmatlik to'g'risidagi aytgan fikrlari, ayniqsa, diqqatga sazovordir. Mutasavvifning "Devoni G'avsul A'zam", "Maktuboti Giyoniy", "Tuhfatul qodiriya", "Sirrul asror. Maktubot", "Qasidai g'avsiya" kabi asarlarida inson tarbiyasi, uning oliv darajaga erishuvli haqidagi fikrlari bayon qilingan. Alloma nazdida haqiqiy inson - faqirlik maqomidagi insondir. Buning mohiyati shundan iboratki, Giyoniy faqirlik deganda kambag'al va qashshoqni emas, balki boshqalardan mol-mulkini ayamaydigan, Alloh yo'lida saxovatpesha va mehr-muruvvatli kishilarni tushunadi. Bu yerda mol-mulk va boylik egasi qoralanmaydi, balki mol-mulkka berilmaslik, unga ruju qo'ymaslik nazarda tutiladi. Alloh bergen boylikni muhtojlarga sarflash lozimligi ma'qullanadi.

XIII asrda yashab, buyuk so'fiy shoir, faylasuf sifatida shuhrat qozongan Jaloliddin Rumiyning ijodi va dunyoqarashida ham inson masalasi yaqqol ko'zga tashlanadi. Uning asarlari, qarashlarida insonni komillik darajasiga ko'targan botini va ma'naviy ishq tarannum etiladi.

Mavlono Rumiyning fikricha, inson farishta va hayvon orasidagi vujud bo'lsa-da, yuksaklikka moyil. U o'qish, o'rganish, o'sish, ulg'ayishdan charchamaydi, o'zligidan kechib, Alloh sari, Haq sari intilaveradi. Rumiy insonlarga qarata:

Shafqatu marhamatda quyosh kabi bo'l!  
Boshqalarning aybini yashirishda tun kabi bo'l!  
Saxovat va jo'mardlikda oqar suv kabi bo'l!  
Shiddat va g'azabda o'lik kabi bo'l!  
Tavoze' va xokisorlikda tuproq kabi bo'l!<sup>56</sup> – deydi.

Ya'ni, inson qay bir maqsadni oldiga qo'ymasin, unda ulug'vorlikka erishishi, shuningdek, ilmi-yu amali bir-biriga zid bo'lmasligi kerak.

Buyuk shoir, mutafakkir alloma Alisher Navoiyning umuminsoniy mazmunga ega bo'lgan gumanistik qarashlari islam falsafasidan oziqlangan.

Allomaning fikricha, inson uchun komillikdan nishona fazilatlardan biri ehson qilishdir. Navoiy ehsonga – Insoniyat bog'ining eng go'zal daraxti va odamiylik xazinasining eng bebaho gavhari,<sup>57</sup> – deb baho beradi. Barcha yaxshiliklarning jami – ehsondir va barcha yaxshiliklar haqiqatan undandir, – deydi u.

<sup>55</sup> Ibn Sino. Ash-Shifo, al-Mantiq, al-Xitoba. – Qohira, 1954, 136-bet.

<sup>56</sup> Усмон Нурий Тўпбоз. Бир кўза сув. –Т.: Фан, 2007, 31-бет.

<sup>57</sup> Алишер Навоий. Маҳбуб ул-кулуб. –Т.:Faafur Fулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1983, 59-бет.

Navoiy saxovatni olijanoblikning bengisi, deb ta'riflaydi. Saxovatpesha insonga quyoshni ibrat qiladi. Ya'ni, himmat va saxovatni hayot dasturiga aylantirgan inson quyoshdan namuna olishi va uning yo'lini davom ettirishi lozim.

Umuman olganda, yaxshilik, oliyhimmatlilik, saxovatpeshalik, o'zgalarga mehr-muruvvatli bo'lish singari ezgu g'oyalar mutafakkirlarimiz, mutasavviflarimiz asarlari, pand nasihatlarining mazmun-mohiyatini tashkil etadi. Ma'naviy merosimiz durdona asarlari, buyuk allomalarimiz, mutafakkirlarimizning tajribalari fuqarolik jamiyatni a'zolarini tarbiyalaydigan yuksak qadriyatga aylanishi kerak. Chunki, faqat shu yo'l bilangina yangi avlodga mansub ijodiy ziylolilarni shakllantirishga erishish mumkin.

**3-masalaning bayoni:** Mamlakatimiz Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida ma'naviyat – insonning ulg'ayishi va kuch qudrat manbai ekanligi, shu sababligi, ma'naviyatni to'g'ri anglash zarurligi, uni shakllantiradigan asosiy mezonlar mavjudligi, ma'naviy va moddiy hayotining uyg'un bo'lishi hamda ta'lim va tarbiyaning uyg'unligi haqida ajoyib nazariy va amaliy fikrlar mavjud.

Aslida ta'lim va tarbiya uyg'unligi tamoyilining o'zi milliy g'oya tamoyillari bilan nihoyatda uyg'un.

Milliy g'oyamizning umumiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

- tarixiylik;
- zamonaviylik;
- umumbashariylik;
- mintaqaviylik;
- milliylik;
- ilmiylik, ya'ni dunyoviy bilimlar va qarashlarga asoslanganligi.

Milliy g'oyaning umumiy tamoyillaridan biri bo'lgan tarixiylik tamoyili ijtimoiy voqealar rivojining davomiyligini, tarix va bugun o'rtasida uzilish bo'lib qolmasligini e'tirof etadi. Zamonaviylik tamoyili esa uning davr ruhiga mos bo'lishi, o'zgarishlar jarayonining asosiy yo'nalishlari va davr yangiliklarini o'zida aks ettirish xususiyatiga asoslanadi. Umumbashariylik tamoyili dunyo davlatlarining hamkorligi, barcha xalqlar, millat va elatlarga xos rang-baranglikning uyg'unligi kabi omillarga asoslanadi. Umumbashariylik mamlakatlarning o'zaro tengligi, bir-birining ichki ishlariga aralashmaslik, xalqlarning o'z huquqini o'zi belgilash kabi tamoyillarga asoslanadi. Mintaqaviylik tamoyili muayyan hududni tarixiy makon tutgan bir necha millat va xalqlarning mushtarak va o'xshash etnik hududiy xususiyatlari, urf-odatlari va mentalitetiga

asoslanadi. Milliylik tamoyili xalqimizning milliy etnik qadriyatlarini, ma'naviy merosi va buyuk ajdodlarimiz yaratgan asarlar "Avesto", "Temur tuzuklari", "Zafarnoma" (Sharofiddin Ali Yazdiy), "Xamsa" (Alisher Navoiy), "Boburnoma" (Zahiriddin Muhammad Bobur) kabi ma'naviy, siyosiy, mafkuraviy qadriyatlarda o'z aksini topadi. Shu bilan birga, milliylik tamoyili turmush tarzimizda, ma'naviy qiyofamizda, o'zligimizni asrashda, milliy davlatchiligidan an'analarini tiklashga asoslanadi.

Mafkuraning ilmiylik tamoyili uning fan yutuqlari va xulosalari, ijtimoiy bashoratlarga, sotsiologik tadqiqotlarga asoslanganligida namoyon bo'ladi, dunyoviylik tamoyili esa mazmunan na diniy, na sinfiy, na partiyaviy, na millatchilik va na irqchilik g'oyalariiga asoslanadi, balki mamlakatning kelajakka ishonish ruhi, xalqning bag'rikengligi, ijtimoiy barqarorlik, tinchlik va kishilarning ma'naviy komilligi bilan bog'liq umuminsoniy dunyoviy g'oyalarga tayanadi.

Mafkuraning dunyoviy bilimlarga asoslanishi uning ikki mushtarak tamoyilini taqozo qiladi: Bu mafkurada nazariya va amaliyotning birligi tamoyilidir.

Milliy g'oya milliy va umuminsoniy tamoyillarga rioya qilgan holda shakllanadi va xalqimizning tabiati, irodasi, orzu-intilishlarini ifodalaydigan quyidagi milliy xususiyatlarni zamon talablari asosida yanada boyitishni nazarda tutadi:

- xalqimiz hayotida jamoa bo'lib yashash ruhining ustunligi;
- jamoa timsoli bo'lgan oila, mahalla, el-yurt tushunchalarining muqaddasligi;
- ota-onas, mahalla-kuy, umuman, jamoatga yuksak hurmat-e'tibor;
- millatning o'lmas ruhi bo'lgan ona tiliga muhabbat;
- kattaga hurmat va kichikka izzat;
- mehr-muhabbat, go'zallik va nafosat, hayot-abadiyligining ramzi - ayol zotiga ehtirom;
- sabr-bardosh va mehnatsevarlik;
- halollik, mehr-oqibat.

**Milliy g'yaning asosiy tamoyillari** deb, uning shakllanish xususiyatlari va amal qilish usullarini imkoniyatlari va yo'llarini belgilab beradigan yo'nalishlarga aytildi. Bunday yo'nalishlar ko'p va har biri keng qamrovlidir. Milliy g'oya quyidagi asosiy tamoyillarga ham asoslanadi:

- mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlash, uning hududiy yaxlitligi va sarhadlar daxlsizligini ta'minlashga yordam berish;

- qonun ustuvorligi, demokratiya va o'z-o'zini boshqarishning hayotda mustahkam o'rin egallayotganiga asoslanganlik;
- milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg'unligiga tayanish;
- xalqaro huquq qoidalariga mos kelishi;
- davlatning bosh islohotchi ekanligi va mamlakatda ijtimoiy barqarorlikning ta'minlanishi;
- jamiyat hayoti barcha sohalarining erkinlashuvi, islohotlarning tadrijiylik tamoyillariga xizmat qilishi.

O'zbekiston ota-bobolarimiz yashab o'tgan azaliy va muqaddas makon, insoniyat tafakkuri, fan va madaniyatning eng ko'hna o'choqlaridan birdir. Bu zaminda jahonni hayratga solgan buyuk sivilizatsiyaning ildizlari vujudga kelgan, insoniyat tarixining eng qadimgi davrlariga mansub qadriyat va an'analar shakllangan. Qadimgi yunon faylasufi Geraklit bu yurtni "falsafiy tafakkurning beshigidir", deb e'tirof etgan.

Zero, biz yuqorida ta'kidlagan ta'lism-tarbiyaning asosiy maqsadi va vazifasi komil inson tarbiyasidir. Ta'lism-tarbiya inson kamoloti va millat ravnaqining asosiy sharti va garovi, davlat va jamiyat nazoratidagi umummilliyl masaladir. Ta'lism va tarbiya bir-biridan ajratib bo'lmaydigan uyg'unlikda olib borilishi lozim.

Aynan mamlakatdagi ta'lism va tarbiya tizimi milliy g'oya hamda mafkura g'oyalarini hayotga tatbiq etishda muhim omil hisoblanadi. Negaki, yosh avlod aynan ta'lism muassasalarida to'plangan ijtimoiyma'naviy, ma'rifiy tajribaga boy milliy tamoyillarni ilmiy va tarbiyaviy asosda ta'lism tizimida o'zlashtirib. Aslida ham, ma'naviyatni ta'lism-tarbiyasiz insonga yetkazish, qaror toptirishning imkoniy yo'q. Ta'lism va tarbiyani uyg'unlikda olib borish iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy yuksalishga olib keladi<sup>58</sup>.

Ta'lism va tarbiyani mushtaraklikda olib borish inson shaxsiy-ma'naviy kamolotining o'sishiga ijobiy rol o'ynaydi. "Dars ila tarbiya orasida bir oz farq bo'lsa ham, ikkisi bir-biridan oyilmaydurgon, birining vujudi biriga boylangan jon ila tan kabitur<sup>59</sup>", deydi A.Avloniy. Zotan, mamlakatimizda milliy g'oya va ma'naviyatnng fan sifatida keng joriy etilishi ham ta'lism va tarbiyani uyg'unlikda tashkil etishda muhim omillardan biri bo'ldi.

Ta'lism-tarbiya uyg'unligi tamoyilining milliy g'oya va ma'naviy-axloqiy g'oyalar bilan hamohangligi yana shunda namoyon bo'ladiki, ta'lism-tarbiya ham, milliy g'oya va unga poydevor bo'lgan ma'naviy-

<sup>58</sup>Zamonov Z. O'zbekiston ijtimoiy-siyosiy hayotida ma'naviy-axloqiy institutlarning o'rni/ siyos.fan.b.fals.dok.ilmiy daraj. ... diss. -T: 2019, 68-bet.

<sup>59</sup> Абдулла Авлоний. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. -Т.: Ўқитувчи, 1992 йил, 15-16-бетлар.

axloqiy g'oyalalar ham shaxs ma'naviyati takomiliga yo'naltiriladi. Ma'naviyatli shaxs esa "jamiyat hayotidagi g'oyaviy, mafkuraviy, madaniy, diniy va axloqiy qarashlrni o'zida to'la-to'kis mujassam etgan bo'ladi.

Ma'naviyatli inson bu dunyoda hammavaqt halol va pok yashaydi va buni o'zining oliv maqsadi deb biladi. Bunday odam o'z manfaatini unutmagan holda doimo xalqi, jamiyati manfaatlarini ko'zlab halol ishlaydi, elim deb, yurtim deb yonib, tinib-tinchimay yashaydi. O'z kundalik hayotida Olloh bergen aql-idrok va tafakkurini ishlatib ish tutadi"<sup>60</sup>.

## **MAVZUNI O'ZLASHTIRISH YUZASIDAN**

### **SAVOL VA TOPSHIRIQLAR:**

1. Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning asosiy ustuvor yo'nalishlarini sanab bering...
2. Axloq tuzilmasi qanday tushunchalarni qamrab oladi?
3. Axloqiy qadriyatlarga misol keltiring...
4. Sharq va G'arbda axloqiy tamoyillarga munosabatni qiyosiy tahlil qiling...
5. Inson hayotida ma'naviy axloqiy g'oyalarning qanday ahamiyati bor?
6. Ma'naviy-axloqiy g'oyalarning jamiyat hayotida o'rni qanday?
7. Nima uchun bugungi kunda mamlakatimizda umuminsoniy va milliy qadriyatlar bilan boyitilgan ta'lim tizimini shakllantirish zarur?
8. Xalqimizning milliy ma'naviy qadriyatlarining tarkibiy qismlarini sanab bering.

### **MAVZUGA OID ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishi yangi bochqichga ko'tarish to'g'risida"gi PQ-3160-son Qarori//O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 6-son, 70-modda.
2. I.A.Karimov. Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. –T.: O'zbekiston, 2000. 8.T.
3. Karimov I. A.Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.: "Ma'naviyat" nashriyoti, 2008-yil.
4. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish – eng oliv saodatdir. –T.: O'zbekiston, 2015-yil.

<sup>60</sup> Холиков И., Собирова М., Рустамов М. Маънавиятнинг ахлоқий асослари. – Т.:ТДПУ, 2013 йил, 23-бет.

5. Ibn Sino. Ash-Shifo, al-Mantiq, al-Xitoba. -Qohira, 1954 yil.
6. Forobiy. Fozil shahar aholilarining fikrlari. Risolalar. -T.: Fan, 1975 yil.
7. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. -T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1983.
8. Ablulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. -T.: O'qituvchi, 1992 yil.
9. Avesto. Yasht kitobi. M.Ishoqov tarjimasi. -Toshkent: Sharq, 2001 yil.
- 10.Qur'oni karim ma'nolarining tarjimasi. "Niso" surasi. -T.: TIU, 2001 yil.
- 11.Milliy g'oya: asosiy tushuncha va tamoyillar. (darslik) -T.: "Akademiya", 2005-yil.
- 12.Musayev F. Demokratik davlat qurishning falsafiy-huquqiy asoslari/O'zbekiston Respublikasi FA, I.M.Mo'minov nomidagi falsafa va huquq instituti.. -T.: "O'zbekiston", 2007 yil.
- 13.Ma'naviyat asosiy tushunchalar izohli lug'ati. - T.: G'afur G'ulom, 2013 yil.
- 14.Otamurodov S. Globallashuv va miliy-ma'naviy xavfsizlik. -T.: O'zbekiston, 2013 yil.
- 15.Ulmon Nuriy To'pbosh. Bir ko'za suv. -T.: Fan, 2007 yil.
- 16.Холиков И., Собирова М., Рустамов М. Маънавиятнинг ахлоқий асослари. - Т.:ТДПУ, 2013 йил.
- 17.Zamonov Z. O'zbekiston ijtimoiy-siyosiy hayotida ma'naviy-axloqiy institutlarning o'rni/ Siyos.fan.b.fals.dok.ilmiy daraj. ...diss. -T.: 2019 yil.

#### ELEKTRON TA'LIM RESURSLARI:

1. <http://www.lex.uz/>
2. <http://www.gov.uz/>
3. <http://www.uza.uz/>
4. [www.zyonet.uz](http://www.zyonet.uz)
5. [www.edu.uz](http://www.edu.uz)
6. <http://www.uzedu.uz/>
7. [www.ma'naviyat.uz](http://www.ma'naviyat.uz)
8. [www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)

## 5-MAVZU:

### MILLIY G'OYA VA MA'NAVİYAT ASOSLARI FANLARINI O'QITISHDA SHAXS XUSUSIYATLARINI HISOBGA OLISH

#### REJA:

1. Dars davomida bugungi kunda erkin, mustaqil fikrlovchi shaxsni tarbiyalashning dolzarb muammolari.
2. Milliy g'oya va ma'naviyat ta'limdi shaxs manfaatlari ustuvorligi.
3. Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari darslarida fuqarolik burchiga itoatkorlikni shakllantirish masalalari.

#### *Tayanch tushuncha va iboralar:*

*Shaxs manfaatlari va erkinligi, shaxs manfaatlari va erkinligining ma'naviy jihatlari, shaxs qadr-qimmati, shaxs manfaatlarini himoya qilish, shaxs manfaatlariga oid bo'lgan maxsus qonunchilik tizimi, BMT, Yevropa Kengashi Bosh assambleyasi, YUNESKO, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti, Barkamol shaxsni tarbiyalash.*

**1-masalaning bayoni:** XXI asr bo'sag'asida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar rivojida inson aql-zakovati va ma'naviyati asosiy muvofiglashtiruvchi, rivojlantiruvchi omil va vosita ekanligi tobora namoyon bo'lmoqda. Shuning uchun insonparvarlik bozor iqtisodiyoti asosidagi huquqiy, demokratik davlat, erkin fuqarolik jamiyatni qurilishining bosh tamoyili sifatida qabul qilinmoqda.

Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 19-mayda qabul qilinib, Senat tomonidan 2020-yil 7-avgustda ma'qullangan O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunining 3-moddasida tarbiya "aniq maqsadli hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama kamol toptirishga, ularning ongini, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar va dunyoqarashini shakllantirishga qaratilgan tizimli jarayon", ta'lim esa "ta'lim oluvchilarga chuqur nazariy bilim, malakalar va amaliy ko'nikmalar berishga, shuningdek ularning umumta'lim va kasbiy bilim, malaka hamda ko'nikmalarini shakllantirishga, qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan tizimli jarayon"<sup>61</sup> deb belgilab qo'yilishi, ta'lim va tarbiyning davlatimiz ijtimoiy taraqqiyoti sohasida ustuvor, deb e'lon qilinishi milliy g'oya fani zimmasiga juda katta ma'suliyatli ulug'vor vazifalarni yuklaydi.

<sup>61</sup>O'zbekiston Respublikasining Qonuni.Ta'lim to'g'risida//Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020-y., 03/20/637/1313-son.

Mustaqillik yillarida ilmiy, ma'naviy, madaniy, diniy merosimizning qayta tiklanishi faqat shaxsiy, milliy manfaat kasb etib qolmasdan umumjahon ma'naviy, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Insonning dunyoga kelishi, faqat tug'ilishidan iborat tabiiy-biologik hodisa emas, balki tug'ilgandan keyin o'z zamonasining taraqqiyoti darajasiga ko'tarilishi, mavjud ijtimoiy-tarixiy tajribani egallashi, jamiyatda o'z o'rnni belgilab olishi, tarixiy jarayonining faol ishtirokchisiga aylanishi, ya'ni tarbiya olishi kerak.

Bu jarayonda katta avlod o'zining yashash, kurash va mehnat tajribasini, bilim va malakalarini kelajak avlodlarga bera boshlaydi, ya'ni yangi tug'ilgan go'dakning rivojlanishi, shakllanishi va voyaga yetishi jarayoniga rahbarlik qilinadi, hayoti davomida unga yo'l-yo'riq ko'rsatiladi.

Jamiyat rivojlangani sari yetuk, barkamol shaxslarni tarbiyalash ehtiyoji ham ortib borgan hamda o'zgarib, yangilanib boraveradi.

Bugun mamlakatimizdagi mustaqil, huquqiy-demokratik, erkin davlat, fuqarolik jamiyatini qurish yo'lidagi ulkan ishlar inson mohiyatini yangidan kashf qilishga, unga o'zligini anglash, o'z imkoniyatlari va intellektual aqliy salohiyatini ro'yobga chiqarishi uchun yangidan yangi shart-sharoitlar yaratib berishga yo'naltirilmoqda.

Bugungi demokratik jamiyatning tayanchi hisoblangan inson har narsadan ustun. "Hamma narsa inson uchun va uning manfaatlari uchun" degan tushuncha oliy qadriyat sifatida qaralmoqda. Insonlarning ijtimoiylashuvi jamiyat hayotining farovonligi va barqarorligi garovidir. Inson tabiat va jamiyat bag'rida inson sifatida shakllanadi va o'zligini namoyon qiladi. Ilm-fan va texnika insonning ma'naviy va moddiy ehtiyojlarini qondirish omili, muhim vositasi bo'lib xizmat qiladi. Inson yuksak ma'naviyat tufayligina o'z ehtiyojlarini madaniy shakllarda oqilona va to'laroq qondirish imkoniga ega bo'ladi.

Insonning o'zini-o'zi rivojlantirib borishi, jamiyatning faol a'zosi bo'lishi, millat taqdirini har narsadan ustun qo'yishi uning insonparvarligidan darak beradi. Insonparvarlik millat ruhiyatining ajralmas qismidir.

Insonlarning ustuvorligi uning moddiy va ma'naviy sifatlarni o'zida bir vaqtda namoyon qila olishidir. Inson jamiyat va davlatda barcha imkoniyatlarga ega, faqat bu imkoniyatlarni jamiyat rivoji yo'lida safarbar etsa, yurt obod bo'ladi, xalq turmushi farovonlashadi. Insonning insoniyligi ham uning ma'naviy fazilatlarni qay darajada o'zlashtirgani bilan o'chanadi.

Buyuk alloma G'azzoliyning fikricha, inson buyuk xilqat va uning oldida mudom xavf-xatar mavjud. U aytadiki, muammolarni, xavf-xatarlarni bartaraf etgan shaxsgina baxtlidir. Buyuk allomalarimiz insonlarga hayotning ma'nosi, insonning ilohiy mohiyatini bilishga intilish, halol mehnat qilib boshqalarga mehr-muruvvatli, rahm-shafqatli bo'lishni uqtirganlar<sup>62</sup>.

Demak, bugungi kunda erkin, mustaqil fikrlovchi shaxsn tarbiyalashning dolzARB vazifalarini quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Axloqiy tarbiyani tashkil etish jarayonida talabalarni ijtimoiy axloqiy me'yorlar mazmunidan xabardor etish, ularga axloqiy me'yorlarning ijtimoiy hayotdagi ahamiyatini tushuntirish, ulardan ijtimoiy axloqiy me'yorlar (talab)ga nisbatan hurmat hissini qaror toptirish asosida aqliy ong madaniyatini shakllantirish.

2. Aqliy tarbiyani yo'lga qo'yish chog'ida talabalarni ilm-fan, texnika va texnologiya borasida qo'lga kiritilayotgan yutuqlardan, yangilik va kashfiyotlardan boxabar etish, ularga ijtimoiy fanlar asoslari xususidagi bilimlarni berish tarzida ularda tafakkur qobiliyatini qaror toptirish, dunyoqarashini shakllantirish.

3. Jismoniy tarbiyani tashkil etish jarayonida talabalarda o'z sog'liqlarini saqlash va mustahkamlash, ularda yangi harakat turlari borasida ko'nikma va malakalarni hosil qilish, ularni maxsus bilimlar bilan qurollantirish.

4. Estetik tarbiyani olib borish jarayonida talabalarda estetik hiss tuyg'u, estetik didni tarbiyalash.

5. Ekologik tarbiyani olib borish chog'ida talabalarga ekologik bilimlarni berish asosida shaxs, jamiyat va tabiat biriligi hamda aloqadorligini tushuntirish.

6. Iqtisodiy tarbiyani tashkil etish jarayonida talabalarga iqtisodiy bilimlarni berish asosida mamlakat iqtisodiy barqarorligini ta'minlash, bozor infrastrukturasi qoidalariga amal qilish, iqtisodiy madaniyatni shakllantirish.

7. Huquqiy tarbiyani tashkil etish jarayonida talabalarga davlat Konstitusiyasi haqidagi ta'limotni, xususan, fuqarolik, oila, mehnat, xo'jalik, ma'muriy, sud ishlarini yuritish va boshqarish huquqlarining ma'nosini tushuntirish.

8. G'oyaviy va mafkuraviy bilim berish, talabalarda mafkuraviy faoliyat borasida ko'nikma va malakalarni qaror toptirish, mafkuraviy madaniyatini shakllantirish va hk.

<sup>62</sup> Ma'naviyat assoslari: O'rta umumta'lim maktablarining 10-11-sinflari va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari uchun darslik / V.Qo'chqorov, O.Mahmudov, Z.Zamonov. Ikkinchи nashr. -T.: Yangiyo'l Poligraf Servis, 2018, 74-75-betlar.

**2-masalaning bayoni:** Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari turkumiga kiruvchi fanlarni o'qitishda shaxs xususiyatlarini hisobga olish zaruriyatini tushunishdan oldin shaxs tushunchasi, uning manfaatlari va erkinligining mazmun va mohiyatini anglash kerak bo'ladi.

O'rni kelganda aytib o'tish lozimki, SHAXS – alohida kishi, ijtimoiy-axloqiy mohiyatni o'zida mujassamlashtirgan individ. Bu tushuncha barcha ijtimoiy-gumanitar fanlarda o'z predmeti nuqtayi nazaridan ishlataladi. Shaxs haqida xilma-xil talqinlar bor. Shaxs – biofiziologik, ijtimoiy, ma'naviy, axloqiy va estetik fazilat va xislatlarning yaxlit bir butunlikka aylanishi hamda munosabatlar tizimi bilan qamrab olinishidir. Shaxsning shakllanishida quyidagi omillar qatnashadi:

- 1) biologik (nasl);
- 2) tabiiy muhit;
- 3) madaniy muhit;
- 4) ijtimoiy tajriba;
- 5) odamlar bilan munosabat.

Shaxsning biofiziologik jihatni ovqatlanish, joylashish, jinsiy aloqalarga kirishish, bola tug'ilishi kabi individual faoliyati bilan bog'liq hodisalaridir. Shaxsning shakllanishiga tabiiy aloqador buyum va aloqalar olami fizik muhit, deb ataladi. Shaxs madaniylashgan jonzot; ijtimoiy-tarixiy tajribaga ega bo'lgan muayyan avlod vakili; odamlararo munosabatlar subyekti bo'lishi ham mumkin. Bu uch omil ham shaxs hayoti va faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Shaxs fenomeni inson olamining butun murakkabliklarini o'zida mujassam etadi. Uni har tomonlama o'rganish maqsadida turli davrlarda tadqiqot olib borilgan. Ayniqsa, Sharqda u yuksak axloqiy-ma'naviy me'yorlar orqali tushunilgan va oliy xilqat, bebaho qadriyat, deb hisoblangan. Inson shaxs sifatida komillikka intiladi, hayot mazmunini boyitadi, shu asosda kishilik jamiyatining go'zal va farovon bo'lishiga ehtiyoj sezadi.

Shaxsning hayot tarzi bevosita jamiyat hayotiga daxldor va hayot ne'matlaridan to'la foydalanishga haqdi. Shaxs tushunchasi inson tushunchasining yuksak ko'rinishi, oliy maqomidir. Har qanday odam tabiiy mavjudligi, yashash huquqi va hayot qadriyatiga ega bo'lgan jonzotdir. Biroq, u hamma vaqt ham to'la-qonli shaxs bo'lib yetilmasligi mumkin.

Shaxs manfaatlari va erkinligi – insonlarning o'z hayoti va faoliyatini amalga oshirishi bo'lib, u ozod shaxs sifatida mehnat qilish, bilim olish, o'zi istagan kasb, hunarni, diniy e'tiqod va boshqalarni ixtiyoriy tanlashi kabilarni o'z ichiga qamrab oladi. Qadimgi jamiyatlardan hozirgacha

erkinlik, ozodlik, tenglikni barcha insonlarning ijtimoiy mavqeい, dini, irqi, jinsi, millatidan qat'iy nazar qonun oldida teng huquqligini ta'minlash xalqning asosiy maqsadi bo'lib kelgan. Shaxs erkinligining tarkibiy qismlari: shaxsnинг daxlsizligi, qadr-qimmati, diniy e'tiqod, vijdon erkinligi, so'z erkinligi, ijod erkinligi, xususiy mulkka – egalik huquqi va boshqalardan iborat.

Shaxsning daxlsizligi qoidalari qadimgi va o'rta asrlarda cheklab kelingan. Insoniyat tarixida shaxs erkinligini ro'yobga chiqarishda AQSHda XVIII asr oxirida qabul qilingan "Inson huquqlari to'g'risida Bill" va fransuz inqilobi davrida qabul qilingan "Inson va grajdanlar huquqlari deklaratsiyasi" muhim o'rın tutadi. Bu borada BMT 1948-yilda qabul qilgan va uning Nizomiga kiritilgan "Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi" katta ahamiyat kasb etadi. Hozirgi davrdagi ilg'or, demokratik jamiyatlarning qonunlarida, xususan, O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasida ham shaxs erkinligi kafolatlangan. Shaxs erkinligiga daxlsiz qilib, moddiy va ma'naviy zarar yetkazgan, jabrzulm qilgan shaxslar qonuniy jazoga tortiladi. Sobiq sho'rolar davrida so'z erkinligi, diniy e'tiqod erkinligi, shaxsnинг milliy tuyg'ulari ta'qib qilinar, millatparvar odamlar «millatchi», «antisovet» deb jazoga tortilar edi. Nazariy-falsafiy jihatdan shaxs erkinligi har bir davrda nisbiy ma'noda amal qiladi. Tanazzulga uchrayotgan jamiyatlarda turli zo'ravonlik, nohaqliklar oqibatida shaxs erkinligining bузilishi, insonlarning qadr-qimmati yo'qolib borishiga sabab bo'ladi. Boshqa tarafdan shaxs erkinligi vatan, xalq, jamiyat oldidagi insoniy burchlar, mas'uliyatlarni inkor qilmasligi kerak. Shaxs erkinligidan ko'p foydalanuvchilar emas, balki vijdon, iymon, insof kabi burchlarni a'lo bajaruvchilar haqiqiy buyuk insonlardir. Burch va mas'uliyat shaxs erkinligini oqilona boshqarib turadi. Burch, mas'uliyat va majburiyatini yaxshi bilgan odamlarning el, yurt oldida obro'yi, qadr-qimmati ham oshib boradi. Bunday shaxslarni xalq e'zozlaydi. Shaxs erkinligini yuzaki, bирyoqlama tushungan odamlar barcha ishlarda faqat o'z manfaatini o'ylab, boshqalarni haq-huquqlarini toptashga urinadi. Davlat, qonun tomonidan Inson haq-huquqlarini himoya qilishi fuqarolarning ilm olish, mehnat qilish, jamiyat hayotida yuz berayotgan voqeа-hodisalar haqida erkin so'zlash, ijobiy yoki tanqidiy fikrni aytish, halol mehnat bilan topilgan mulkka egalik qilish huquqlaridan foydalanishga imkon beradi. Mustaqil O'zbekiston Konstitusiyasida shaxs erkinligini yuzaga chiqaruvchi barcha huquqlar kafolatlangan.

Xususan, Asosiy Qoninimizning Ikkinci bo'limi "Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari" deb nomlangan.

Unda, misol uchun 5-bob, 18-moddasida "O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar. Imtiyozlar faqat qonun bilan belgilanib qo'yiladi hamda ijtimoiy adolat printsiplariga mos bo'lishi shart" ekanligi belgilab qo'yilgan<sup>63</sup>.

Shaxs manfaatlari va erkinligining ma'naviy jihatlari shundaki, shaxs qadr-qimmatini himoya etish, uning erkin huquqini ta'minlash, uni tabiiy ofat, balki ijtimoiy institutlar tazyiqidan, hatto o'z havoi nafsi, tanazzulga olib boruvchi mayllardan himoya etish, turli-tuman ehtiyojlarining qondirilishi uchun sharoit yaratish, shaxs manfaatlarini himoya qilish - milliy va umumbashariy ma'naviyat tizimidagi eng oljanob vazifalardir.

Shaxs manfaatlari va erkinliklari, uning burch va majburiyatlar masalasi ma'naviyat asoslari turkumiga kiruvchi fanlarning eng muhim masalalaridan hisoblanadi.

Insoniyat o'z taraqqiyoti jarayonida shaxs manfaatlariga oid bo'lgan maxsus qonunchilik tizimini yaratgan. Bu tizim o'z taraqqiyotida uchta katta bosqichni bosib o'tgan. Birinchi bosqich 1789-yildagi Fransiya inqilobining Inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasi qabul qilinganidan boshlanib, 1-Jahon urushigacha bo'lgan (1914-y.) davrni o'z ichiga oladi. Bu davrda shaxs erkinligi va fuqarolar tengligi, shaxs daxlsizligi, xususiy mulkka egalik, saylash va saylanish kabi shaxsiy va siyosiy huquqlar bilan boshqa masalalar tartibga solingen. Ikkinci bosqichda (1914-1950-yillar) insonlarning turli g'oya va harakatlar ta'sirida mehnat qilish, dam olish, ijtimoiy yordam olish bilan bog'liq ijtimoiy-iqtisodiy huquqlariga oid qonunchilik rivojlangan. Uchinchi bosqich XX asrning 2-yarmidan bugungi kungacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bu davrda tinch yashash, atrof-muhit tozaligiga erishish, axborot olish huquqi bilan bog'liq masalalar faol muhokama qilinib, ularni hal etish yo'llari qidirilmoqda. Bu davrda inson huquqlari sohasida xalqaro qonunchilik tizimi shakllandi. BMT tomonidan yetmishga yaqin, Yevropa Kengashi Bosh Assambleyasi tomonidan bir yuz oltmishtdan ziyod, YUNESKO da yetmishdan ortiq, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti tomonidan o'ttizdan ko'proq inson huquqlariga taalluqli xalqaro konvensiyalar, deklaratsiyalar, paktlar qabul qilindi. Hozirgi paytda inson huquqlari bo'yicha 400 ga yaqin xalqaro hujjat mavjud.

O'zbekiston Respublikasida inson huquqlari oliy qadriyat deb tan olingan. Odamlardan qonunga xilof tarzda foydalanishga, ularning

<sup>63</sup> Elektron manba: <http://constitution.uz/oz/clause/index#section15>.

g'ayriqonuniy migratsiyasiga va savdosiga qarshi kurash yuzasidan davlatimiz tomonidan qator aniq chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Mazkur jinoyatning ijtimoiy xavfiliги haqida fikr yuritib, shuni ta'kidlash mumkinki, odamlar savdosi muammolari bo'yicha 1999-yil 28-iyulda Washingtonda bo'lib o'tgan Kongressda odamlar savdosiga qarshi umumjahon tashkiloti direktorining vakili Aniti Botti har yili bir davlatdan ikkinchi davlatga bir milliondan ortiq kishi olib chiqilishi to'g'risida fikr bildirgan edi. Uning bergan ma'lumotiga ko'ra, 1997-yilning o'zida Sharqiy Yevropa va MDH davlatlaridan Yevropa, Osiyo, Shimoliy Amerikaga 175000 nafar ayollar o'tkazilgan. Xuddi shunday ma'lumotlar Rossiya Federal xavfsizligi xizmatining hisob-kitobida tilga olingan bo'lib, odam savdosi bilan shug'ullanuvchi jinoiy uyushma har yili bir milliondan ortiq muhojirni noqonuniy yo'llar orqali boshqa davlat hududiga o'tkazish bilan bog'liq jinoiy faoliyatdan olinayotgan daromad 3,5 milliard AQSH dollaridan oshadi.

Ushbu jinoyatning yana bir xavfli jihatni shundaki, hozirgi davrda butun dunyoda, jumladan, Birlashgan Arab Amirliklari, Turkiya, Malayziya, Bahrayn, Tailand, Xitoy, Isroil, hatto, okean ortidagi davlatlarda ham odam savdosi bilan shug'ullanuvchi jinoiy uyushmalar yoki jinoiy guruhlarning qabih faoliyatini amalga oshirish uchun eng qulay yo'llar mavjud. Uyushma va jinoiy guruhlar o'z oldiga aldash yo'li bilan yollangan, keyinchalik sotib yuborilgan va sotib olingan insonlarni shahvoniy xizmatlar ko'rsatishda, og'ir ishlab chiqarishlarda, qishloq xo'jaligida tekinga ishlatishga majbur qilishni maqsad qilib qo'yadi.

Odam savdosi odamni olish-sotish, ya'ni uni sotuvchiga pul ko'rinishida ma'lum miqdordagi mablag' yoki boshqacha mulkiy ekvivalent (ko'char va ko'chmas mulklar, mulkiy xarakterdagи daromadlar, mulkiy yoki pul ko'rinishidagi qarzdan voz kechish va boshqalar) berish evaziga sotib oluvchi egaligiga topshirish hisoblanadi.

Odamlarni ekspluatatsiya qilish uchun ularni yollash jinoyatining tobora o'sib borayotganligi bir qator omillar bilan izohlanadiki, bular qatoriga savdo-iqtisodiy aloqalarning globallashuvi, ayollarning jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatining yomonlashuvi, mazkur jinoyat bilan bog'liq "biznes"ning serdaromadliligi, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi sustkashligi va ayrim hollarda mansabdor shaxslarning jinoyatchilarga hamtovoq bo'lish hollarini kiritish mumkin.

Albatta, davlatimiz bu muammoga befarq emas. Bunday qilmishni sodir etgan shaxslar jinoiy qonunchilikka muvofiq javobgarlikka tortiladilar. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 135-moddasida odamlardan shahvoniy yoki boshqa maqsadlarda foydalanish

uchun aldash yo'li bilan odam yollaganlik uchun jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan. Bundan tashqari, 2008-yil 18-aprelda "Odam savdosiga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni qabul qilindi.

Odam savdosiga qarshi kurashda ko'zlangan maqsadimizga erishish uchun mahalalarda turli uchrashuvlarni tashkil etish va ushbu turdag'i jinoyatlarning oqibatlari haqida mahalla ahlini, ayollarni, yoshlarni xabardor qilib borish, ta'lif muassasalarida o'quv kurslari tashkil etish, ommaviy axborot vositalarida shu mavzuda turkum maqolalar chop etish yaxshi samara beradi.

**3-masalaning bayoni:** Inson qalbiga yo'l, avvalo, ta'lif-tarbiyadan boshlanadi. Dunyo imoratlari ichida eng ulug'i mакtab bo'lsa, kasblarning ichida eng sharaflisi o'qituvchilik va murabbiylidir", - degan edi O'zbekistonning Birinchi Prezidenti I.A.Karimov.

Barkamol shaxsni tarbiyalash, eng oljanob, sharaflı ish. Lekin, bugungi o'quvchi-talaba yigirma-o'ttiz yil oldingi bolalar emas, balki ular bir necha tilni biladigan, internetdan foydalana oladigan, kompyuter bilan tillashadigan, dunyoning xohlagan burchagidagi ilmiy kutubxonalardan foydalanish imkoniyati yaratilgan sharoitdag'i yoshlardir. Demak, yoshlarga ta'lif-tarbiya haqida gapirganda juda ehtiyyotkorlik, bilimdonlik, hushmuomalalik bilan yondashish kerak bo'jadi. Aks holda, tarbiyachining o'zi o'quvchi-talaba oldida uyalib qolishi hech gap emas.

Qaysiki jamiyatda ilmsizlik, jaholat mavjud bo'lsa, u yerda muqaddas qadriyatlar zavol topadi, odamiylikning mazmun-mohiyatiga putur yetadi. Oqibatda bu jamiyat tanazzulga yuz tutadi. Shunday ekan, har bir odam, fursatni g'animat bilib, barkamol avlod tarbiyasi yo'lida ter to'kmoqligi hayotiy zaruriyatdir. Zulmatni ilm nuri yoritadi. Tafakkur nuri, o'z navbatida, jamiyat gullab-yashnashiga asos bo'lib xizmat qiladi. Faqat tafakkurgina o'z ortidan ham moddiy, ham ma'naviy boylikni ergashtira oladi. U poklik, ma'rifat bulog'i, xushxulqlik, go'zal odob manbayidir.

Ilm-fan rivoji tufayli ta'lif-tarbiya, odob-axloq tufayli esa fazil insonlar, bilimli, zukko surriyotlar voyaga yetadigan ma'rifatli jamiyat vujudga keladi. Bunday jamiyat ravnaq topadi, yuksaladi<sup>64</sup>.

XXI asr intelektual avlod asri. Ya'ni, ilm-fan, salohiyat, iste'dod, iqtidor yuzaga chiqadigan asr. Aqliy salohiyat rivojlanadigan, taraqqiyotni aqlli, bilimdon, zehnlilar, farosatlilar boshqaradigan davr.

<sup>64</sup> Ma'naviyat asosları: o'rta umumta'lif maktabalarining 10-11-sinflari va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lifi muassasalarini uchun darslik / V.Qo'chqorov, O.Mahmudov, Z.Zamonov. - Ikkinchi nashr. -T.: Yangiyo'l Poligraf Servis, 2018,50-bet.

XXI asrda ta'lim-tarbiyaga ham munosabat o'zgacha. Har bir sohada bo'lgani kabi, ta'lim-tarbiyaga ham turli innovatsiyalar kirib kelmoqda. Bu yangiliklar bizning qadimiy ta'lim-tarbiya sohasidagi an'analarimizni siqib chiqarmaydi, balki takomillashtirishga yordam beradi, xolos.

Barkamol shaxsni tarbiyalashda nimalarga e'tibor berish kerak? Buning uchun:

**Eng avvalo**, yoshlarga xalqimizning urf-odatlarini, milliy va umuminsoniy qadriyatlarimizni o'rgatish va unga amal qilishni bildirish kerak;

**Ikkinchidan**, yoshlarga o'tmish mutafakkirlar hayoti va ijodini, faoliyatini, qoldirgan ilmiy merosini o'rgatish zarur. "O'tmishimiz buyuk" degan gap me'daga tegadigan iboraga aylanib qolmasligi uchun bu mutafakkirlarning nega buyukligini nima uchun jahon xalqlari bugungi kunda ham e'zozlab o'qib o'rganayotganliklarini, kashfiyotlari nimalardan iboratligini, insoniyat uchun qanday ahamiyatlari ishlarni amalga oshirganligini o'rgatish kerak;

**Uchinchidan**, barkamol shaxs bo'lishi uchun yurtimiz tarixini, o'tmishini va bugunini mukammal bilishi shart;

**To'rtinchidan**, O'zbekistonda qanday muqaddas qadamjolar mavjud. Ular nima uchun muqaddasligini yoshlar bilishlari, o'rganishlari zarur;

**Beshinchidan**, yoshlar Farobi, Beruniy, Ibn Sino, Zamahshariy, Burxoniddin Marg'ioniy, Moturidiy, Ahmad Farg'oniy, Amir Temur, Alisher Navoiy, Xusayn Voiz Koshifiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi o'lmas mutafakkirlar asarlarini o'qigan, uqqan bo'lishlari kerak;

**Oltinchidan**, bugungi yoshlar Abdulla Qodiriyning "O'tgan kunlar", Oybekning "Navoiy", G'ofur G'ulomning "Shum bola", "Sen yetim emassan", Abdulla Qahhor, Xudoyberdi To'htaboyevning romanlari, hikoyalari, qissalarini, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Muhammad Yusuf, To'ra Sulaymon, Mahmud Toir, Tog'ay Murod kabi o'nlab ijodkorlar asarlari, "Alpomish", "Ravshan", "Kun tug'mish", "Go'ro'g'li" kabi dostonlarni o'qigan bo'lishlari zarur;

**Yettingchidan**, barkamol inson o'zi yashayotgan hududdagi teatrqa har xafizada hech bo'lmaganda bir marta borib turishi, oyda bitta badiiy asarni o'qigan bo'lishi kerak;

**Sakkizinchidan**, bugungi yoshlar "Axborot", "Davr", "Poytaxt", "Bu kun", "Zamon" kabi informatsion dasturlar, kunlik gazetalardagi axborot va yangiliklardan xabardor bo'lib borishlari kerak.

Demak, ta'lim - biror ma'lumotni kishilarga ma'lum bir tartibda berish va uni o'zlashtirish, qabul qilish jarayonidir, shuningdek, ta'lim -

axloqli, odobli shaxsga hunar o'rgatish, bilim berishni nazarda tutadi. Tarbiya esa, inson shaxsi ma'naviy qiyofasini shakllantirishga qaratilgan keng qamrovli tadbirlar tizimidir<sup>65</sup>. Tarbiya shaxsni ma'naviy qiyofasini shakllantirishga xizmat qilsa, ta'lim esa bilim, ko'nikma, malakani shaxs ongiga qaror toptirish orqali uni jamiyatda kompetent bo'lib yetishiga imkon yaratadigan, axloqni shakllantiradigan bilimlarni o'zida qamrab oladi.

Qolaversa, ta'lim tizimi ham milliy g'oya va ma'naviy tarbiyani hayotga tadbiq etishda asosiy muhim omildir. Zero, *birinchidan*, inson farzandi aynan ta'lim muassasalarida to'plangan ijtimoiy tajriba qadriyatlarni ilmiy asosda tizimli tarzda o'zlashtirib boradi. *Ikkinchidan*, ta'lim tizimi bosqichlari o'rtaсидаги o'zaro bog'liliklik tufayli g'oyaviy tarbiya jarayonida tadrijiylik ta'minlanadi. Natijada insonning bilim doirasi ham miqdoriy, ham sifatiy jihatdan boyib boradi. *Uchinchidan*, g'oyaviy bilimlar ta'lim jarayonining o'zida bevosita va to'g'ridan-to'g'ri o'zlashtiriladi.

Bularning barchasi yosh avlodni ma'naviyat chashmasi tomon yetaklaydi. O'z o'rnida "ma'naviyatli odam halollik va odamiylik bilan hyot kechiradi. Ana shunday oliyjanob fazilatlarga ega bo'lish va ularga amal qilib yashash – ma'naviyatli inson hayotining butun ma'no-mazmunini tashkil etadi"<sup>66</sup>.

## **MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR:**

1. Shaxs manfaatlari va erkinligining ma'naviy jihatlarini izohlang...
2. Insoniyat o'z taraqqiyoti jarayonida shaxs manfaatlariiga oid bo'lgan maxsus qonunchilik tizimini yaratgan. Ana tizim yaratilgan bosqichlarni sanab o'ting...
3. Shaxsga ta'rif bering...
4. Ma'naviyat asoslari ta'limida shaxs manfaatlari ustuvorligini izohlang...
5. "Odam savdosiga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni qachon qabul qilingan?

<sup>65</sup>Qarang: Ўзбекистонда маънавият соҳасидаги ислоҳотлар: ривожланиш босқичлари, эришилган натижалар ва истиқболи /ЎзР Президенти ҳузуридаги давлат ва жамият курилиши академияси; тузувчи муаллифлар: С. Отамуродов [ва бошқ.]. -Т.: Академия, 2011, 65-66 бетлар.

<sup>66</sup> Холиков И., Собирова М., Рустамов М. Маънавиятнинг ахлоқий асослари. – Т.:ТДПУ, 2013 йил, 23-бет.

6. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining qaysi moddalarida konstitusiyaviy normalarga rioya etish yuzasidan fuqarolarga qator burch va mas'uliyatlar yuklatilgan?

7. Nima uchun barkamol insonni shakllantirmasdan turib, jamiyatni hozirgi davr talabi darajasida rivojlantirib bo'lmaydi.

8. Barkamol shaxsni tarbiyalashda nimalarga etibor berish kerak?

#### **MAVZUGA OID ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. -T.: O'zbekiston, 2020 yil.

2. O'zbekiston Respublikasining Qonuni. Ta'lim to'g'risida//Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020-y., 03/20/637/1313-son.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqi/Xalq so'zi, 2017-yil 20-sentabr.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'nnaviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bochqichga ko'tarish to'g'risida"gi PQ-3160-son Qarori// O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 6-son, 70-modda.

5. O'zbekistonda ma'nnaviyat ohasidagi islohotlar: rivojlanish bosqichlari, erishilgan natijalar va istiqboli//O'zR Prezidenti huzuridagi davlat vajamiyat qurilishi akademiyasi; tuzuvchi mualliflar: S.Otamurodov [va boshq.]. -T.: Akademiya, 2011. -276 b.

6. Falsafa. Qomusiy lug'at. -T.: "O'zbekiston Faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2011-yil.

7. Холиқов И., Собирова М., Рустамов М. Маънавиятнинг ахлоқий асослари. - Т.:ТДПУ, 2013 йил.

8. Ma'nnaviyat asoslari: o'rta umumta'lim makkablarining 10-11-sinflari va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari uchun darslik / V.Qo'chqorov, O.Mahmudov, Z.Zamonov. Ikkinchi nashr. -T.: Yangiyo'l Poligraf Servis, 2018. -144 b.

#### **ELEKTRON TA'LIM RESURSLARI:**

1. [www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)
2. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
3. [www.edu.uz](http://www.edu.uz)
4. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
5. <http://constitution.uz>.

**6-MAVZU:**  
**MILLIY G'OYA VA MA'NAVIYAT ASOSLARI FANLARINI**  
**O'QITISHNING TURLI METODLARI**

**REJA:**

1. Milliy g'oya va ma'naviyatga oid fanlarni o'qitishda an'anaviy va noan'anaviy ta'limga modellaridan foydalanish.
2. Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari ta'limida qo'llaniladigan o'qitish metodlari tasnifi.
3. Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari darslarida test metodini qo'llashning mohiyati.

***Tayanch tushuncha va iboralar:***

*Ta'limga modellarini, an'anaviy va noan'anaviy ta'limga modellarini, an'anaviy dars, metodik usullar, "klaster", "aqliy hujum", "tanqidiy fikrlash", "menyular", "debatlar", "sinkveyn", "insert", "zig-zag", "qarorlar shajarasи", o'rganish metodlari, bilimlarni egallash, malaka va ko'nikmalarini shakllantirish.*

**1-masalaning bayoni:** Milliy g'oya va ma'naviyatga oid fanlarni o'qitishda odatda an'anaviy va noan'anaviy ta'limga modellaridan keng foydalaniladi.

**An'anaviy dars** - ("markazda o'qituvchi bo'lgan ta'limga modeli", deb ham atashadi) muayyan muddatga mo'ljallangan, ta'limga jarayoni ko'proq o'qituvchi shaxsiga qaratilgan, mavzuga kirish, yoritish, mustahkamlash va yakunlash bosqichlaridan iborat ta'limga modelidir.

An'anaviy darsning asosiy maqsadi dars mavzusining asosiy mazmuni, tushuncha va faktlarni o'qituvchi tomonidan o'quvchilarga yetkazish va tushuntirishdan iborat. Odatda, an'anaviy dars berishga passiv dars berish usuli sifatida qaraladi. Lekin darsda o'quvchilarning faol yoki nofaolligi darsni qanday o'tishga va uni rejalashtirishga bog'liq. An'anaviy darsning samaradorligini oshirish uchun dars jarayonini oqilona tashkil qilish, o'qituvchi tomonidan o'quvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta'limga jarayonida faolligini mutassil rag'batlantirib turish, o'quv materialining mazmunini ochishda baxs, munozara, aqliy hujum, kichik guruhlarda ishslash, turlicha baholash usullari va vositalarini o'z o'rniда qo'llash talab etiladi.

"Ta'kidlash joizki, - deb yozadi - metodist olim, adabiyotshunos B.To'xliyev - interfaol usullarni an'anaviy ta'limga metodlariga mutlaqo qarshi qo'yib bo'lmaydi. Ular bir-birini inkor etadigan, biri boshqasiga xalaqt beradigan emas, balki bir-birini to'ldiradigan ta'limga usullaridir.

O'qitish jarayonida yo an'anaviy, yoxud interaktiv metoddan birini tanlash kerak qabilida yondashish ma'rifiy jaholatdan boshqa narsa emas.

Ta'lim metodlari son-sanoqsiz va ularning har biri o'zi qo'llanilayotgan vaziyat uchun betakror ahamiyatga egadir"<sup>67</sup>.

#### **An'anaviy ta'lim modelining afzalliliklari:**

- Ma'lum ko'nikmalarga ega bo'lgan va aniq, ma'lum tushunchalarni, fanni o'rganishda foydali;
- O'qituvchi tomonidan o'qitish jarayoni muhiti yuqori darajada nazorat qilinadi;
- Vaqtadan unumli foydalaniлади;
- Aniq ilmiy bilimlarga tayanadi.

#### **An'anaviy ta'lim modelining kamchiliklari:**

- O'quvchilar passiv ishtirokchi bo'lib qoladilar;
- O'qituvchining to'la nazorati barcha o'quvchilar uchun motivatsiyani vujudga keltirmaydi;
- O'quvchilar o'qituvchi bilan bevosita muloqotga kirisha olmaydi;
- Eslab qolish darajasi hamma o'quvchilarda bir xil bo'lмаганligi sababli, sinf bo'yicha o'zlashtirish darajasi past bo'lib qolishi mumkin;
- Mustaqil o'rganish va yechimlar qabul qilish uchun sharoitlar yaratilmaydi.

#### **Noan'anaviy ta'lim modelining afzalliliklari:**

- O'qitish mazmunini yaxshi o'zlashtirishga olib kelishi;
- O'z vaqtida qayta aloqalarning ta'minlanishi;
- Tushunchalarni amaliyotda qo'llash uchun sharoitlar yaratilishi;
- Turli o'qitish usullarining taklif etilishi;
- Motivatsiyaning yuqori darajada bo'lishi;
- O'tilgan materialning yaxshi eslab qolinishi;
- Muloqotga kirishish ko'nikmasining takomillashishi;
- O'z-o'zini baholashning o'sishi;
- O'quvchilarning mavzu mazmuniga, o'qitish jarayoniga bo'lgan ijobjiy munosabati;
- O'quvchining mustaqil fikrlay olishi;
- Tanqidiy va mantiqiy fikrlashni rivojlantirishi;
- Muammolarni yechish ko'nikmalarining shakllanishi.

#### **Noan'anaviy ta'lim modelining kamchiliklari:**

- Ko'p vaqt talab etilishi;
- O'quvchilarni har doim ham keraklicha nazorat qilish imkoniyatining pastligi;

<sup>67</sup> Qarang: To'xliyev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. -T.: 2011, 120-bet.

- Juda murakkab mazmundagi material o'rganilayotganda ham o'qituvchi rolining past bo'lishi;

- O'qituvchining o'zidan ham yaxshi rivojlangan fikrlash qobiliyatiga va muammolarni yechish ko'nikmalariga ega bo'lishining talab etilishi.

"Ta'lif metodlari dastlab pedagog ongida muayyan yo'naliyhdagi faoliyatning umumlashma loyihasi tarzida namoyon bo'ladi. Mazkur loyiha amaliyotga o'qituvchi va o'quvchilar faoliyatining o'zaro tutashuvi, o'qitish va o'qishga qaratilgan aniq harakatlar, amallar yoki usullar majmuasi sifatida joriy etiladi. Metod boshqa shakllarda namoyon bo'lmaydi, buning boisi ta'lif metodi o'zida umumiyl holda faoliyatning didaktik modelini ifoda etadi"<sup>68</sup>.


Qayd etilayotgan tushuncha mohiyatini to'laqonli yorituvchi ta'rifni aniqlashga bo'lgan urinish bugun ham davom etyapti, yangi-yangi ta'riflar ilgari surilmoqda. Biroq, «ta'lif metodi» tushunchasi mohiyatini yoritishga nisbatan turlicha qarashlarning mavjudligiga qaramay, ularni o'zaro yaqinlashtiruvchi umumiylilik mavjud. Aksariyat mualliflar «ta'lif metodlari o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini tashkil etish usullari», degan qarashga yon bosadilar. Demak, ta'lif metodlari ta'lif jarayonida qo'llanilib, uning samarasini ta'minlovchi usullar majmuidir.

Ta'lif metodlari ta'lif maqsadini yoritishga xizmat qiladi, u yordamida ta'lif mazmunini o'zlashtirish yo'llari ifoda etiladi, o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro harakati, xususiyati aks ettiriladi.

Metod, bir tomondan, ta'lif maqsadiga erishish vositasи sifatida namoyon bo'lsa, boshqa tomondan, boshqariluvchan o'qish faoliyatini amalga oshirish sharti hisoblanadi.

Ta'lif metodlari doimo u yoki bu o'qish vositalari yordamida joriy etiladi, shu bois ularning o'zaro shartlanganligini ta'kidlash joiz.

Ta'lif metodi tuzilmasi chizmada quyidagicha namoyon bo'ladi (*M.N.Skatkin qarashlariga ko'ra*):




<sup>68</sup> Ларнер И.Я. Дидактические основы методов обучения. –Москва, Педагогика, 1981. – с. 35.

Chizmadan anglanib turibdiki, ta'lim metodi tuzilmasida quyidagilar ajralib turadi: maqsadli tarkib; faoliyatli tarkib; ta'lim vositalari.

Tabiiyki, umumiy holda erishilgan natija har doim ham o'qituvchining dars boshida belgilagan maqsadiga mos kelavermaydi. Ta'lim maqsadi o'qituvchi va o'quvchilar faoliyatasi asosida, shuningdek, ta'lim vositalari yordamida natijalanadi, ushbu jarayonda aniq maqsadga yo'naltirilgan mexanizm ishga tushadi.

Ta'lim tizimlari maqsadga erishish jarayonida bosh xalqa aynan qanday va qaysi mexanizm asosida hamda mavjud tarkibiy unsurlarni qanday ishga solish mumkinligini ifodalashga xizmat qiladi.

Ta'lim metodlari quyidagi asosiy funksiyalarni bajaradi:




#### Milliy g'oya ta'limidagi tarbiya metodlarining asosiy funksiyalari

Bu funksiyalar ta'lim metodini qo'llash jarayonida bir-biridan ajratilgan holda yoki ketma-ket joriy etilmaydi, aksincha, bir-biriga o'zaro singib ketadi. Misol uchun, tashxisli funksiya o'qituvchining bir qator metodlardan yaxlit foydalanishi evaziga bajariladi.

"Ta'lim metodi" atamasi bilan birga ko'p hollarda «metodik usul» (sinonimlari - pedagogik usul, didaktik usul) tushunchasi ham qo'llaniladi. U ta'lim metodining tarkibiy qismi, uning muhim unsuri, metodni joriy qilishdagi alohida qadam sifatida ta'riflanadi.

Har bir ta'lim metodi muayyan ta'lim usullarini chog'ishtirish orqali joriy etiladi. Metodik usullarni xilma-xilligi ularni tasniflashga imkon bermaydi, biroq o'qituvchi faoliyatida tez-tez qo'llaniladigan usullarni ajratib ko'rsatish mumkin:



### Metodik usullarning turlari

**2-masalaning bayoni:** Talaba-yoshlarga milliy g'oya tushunchalari uning bosh va asosiy g'oyalari tushunchalarini singdirish borasida interfaol usulblarni qo'llashning bir qancha turlari mavjud. Bunday usulblardan foydalanish o'qituvchidan o'z ustida ijodiy ishslash, yangiliklardan doimiy xabardor bo'lish bilan birga, talaba-yoshlar bilan yanada yaqinroq muloqotda bo'lish va talabalarning ijtimoiy faolligini oshirish uchun xizmat qiladi.

Shunday usullardan biri "klaster" usulidir. Bu usulning asosiy vazifasi talabalardan o'rganilayotgan pedagogik jarayonni, yangi mavzuni qismlarga ajratish orqali o'zlashtirishga yo'naltiradi. Mavzu boyicha fikr-mulohazalarni erkin bayon etish malakalarini oshirishga yordam beradi. Bu usulda biror-bir mavzu yoki matn tanlanib talaba-yoshlarning diqqatini aynan shu mavzuga qaratish yuzasidan markazga yoziladi. Talabalar mavzuga oid barcha fikrlarini markazining atrofiga joylashtiradi. Fikrlar bayon etilgandan keyin har bir fikr yoki so'zlarni toifalarga ajratib chiqadilar: Milliy istiqlol g'oyasi: bosh g'oyasi – ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot qurish; asosiy g'oyalari – vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi, komil inson, ijtimoiy hamkorlik, millatlararo hamjihatlik, diniy bag'rikenglik.

Amaliy mashg'ulot yoki seminar darsi davomida talabalarga topshiriq berish mumkin: milliy g'oyaning asosiy g'oyalariiga doir fikrlaringizni aytib bering. Shunga doir xalq maqollarini keltiring va ma'nosini izohlang.

Mavzu boyicha klaster usulidan foydalanish oxir-oqibatda yangi bilimlarni o'zlashtirish fikrlarning turli-tumanligini yaxlitlash asosida umumiy natija qo'lga kiritiladi.

Klaster usulidan foydalanish uchun guruuh talabalarini kichik ijodiy guruuhlarga ajratib amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Har bir guruuhda mavzuga oid darslik, o'quv qo'llanmalari, ma'ruba matnlari, mavzuga oid kartochka va manbalar bo'lishi mumkin.

Klaster usulidan foydalanishda quyidagilarga e'tibor beriladi.

1) Kichik guruuhlar soniga qarab chizma qog'ozlari doska taxtasiga osib qoyiladi va milliy g'oya tushunchasi o'qituvchi tomonidan yoziladi.

2) Mavzuga oid fikrlar qog'ozga yoziladi.

3) Asosiy tushuncha va fikrlar o'rtasidagi bog'liqlik chizmada ko'rsatiladi.

4) Talabalarning fikrlari umumlashtiriladi va yakuniy xulosa chiqariladi.

5) Dars jarayonida o'qituvchi talabalarning faoliyatini nazorat qilib boradi, ularning mavzuga oid tushunchalarini baholaydi.

Biz klaster usuli xususida to'xtaldik. Dars jarayonida interfaol usullarning "aqliy hujum", "tanqidiy fikrash", "menyular", "debatlar", "sinkveyn", "insert", "zig-zag", "qarorlar shajaras" kabi turlaridan va kompyuter texnologiyalaridan foydalanish orqali samarali natijalarga erishiladi. Jamiyatni axborotlashtirishdagi eng muhim yo'naliishlardan biri ta'lim tizimini axborotlashtirishdir. Bu esa jamiyatni axborotlashtirish jarayoni muvaffaqiyatli amalga oshishining asosiy shartidir. Ta'limni axborotlashtirish ta'lim jarayonida axborot texnologiyalarini qo'llash, uning faol metod va vositalaridan foydalanish, ta'lim-tarbiya jarayonining barcha bosqichlarini jadallashtirish, uning sifat va samaradorligini oshirish, yoshlarni axborotlashgan jamiyatning faol ishtirokchisi etib tarbiyalash masalalarini o'z ichiga qamrab oladi.

**O'rganish metodlari** bilim, malaka va ko'nikmalarni ijodiy egallahsga hamda metodik va g'oyaviy-siyosiy e'tiqodlarni ishlab chiqishga qaratilgan talabalarning ilmiy bilish faoliyati usuli sifatida belgilanadi.

O'qitish metodi "o'qitishning maqsadi-mazmuni, metodi, shakli, usullari" tizimida muhim o'r'in egallaydi.

Metod deganda, ta'limda maqsadga erishish, masalalarni hal qilish yo'llari, usullari tushuniladi. O'qitish metodi tarkibida usullar alohida ajralib turadi. **Usul** metodning unsuri bo'lib, uning tarkibiy qismi, metodni amalga oshirishda bir martagina qo'llanadi va alohida qadam hisoblanadi.

**O'qitish metodi** – murakkab, ko'p qirrali, ko'p sifatlarga ega bo'lgan ta'limdir. O'qitish metodida o'qitishning obyektiv qonuniyatları, maqsadları, mazmuni, tamoyillari, shakllari o'z aksini topadi. Metodlar boshqa didaktik kategoriyalarga dialektik bog'liq va biri boshqalarini taqozo qiladi, ya'ni o'qitishning maqsadi, mazmuni, shakli hosilasi sifatida metodlar didaktik kategoriyalarga aks ta'sir ko'rsatadi.

O'qitish metodlarining ko'p o'lchovliligi ularning ko'plab tasnifini keltirib chiqaradi.

O'qitish metodlari tasnifi - muayyan belgilar asosida tartibga solingen tizimdir. Eng asoslangan o'qitish metodlari tavsiflariga quyidagilar kiradi:

1. An'anaviy metod. Hozirgi davrda ulardan beshtasi inobatga olinadi: amaliy, ko'rgazmali, ifodali, kitob bilan ishslash va video metodlar.

2. Maqsadiga ko'ra metodlar tasnifi:

- bilimlarni egallash;
- malaka va ko'nikmalarni shakllantirish;
- bilimlarni qo'llash;
- ijodiy faoliyat;
- mustahkamlash metodlari;
- bilim, malaka va ko'nikmalarni tekshirish metodlari.

3. Idrok etish - bilish faoliyati xarakteriga ko'ra metodlar tasnifi:

▪ tushuntirish - illyustrativ (axborot - retseptiv). Ularning xarakterli xususiyatlari; bilimlar "tayyor holda" tavsiya etiladi; bu bilimlarni idrok qilish tashkil etiladi; bilimlar idrok (retsepsiya) qilinadi va tushunib olinadi, xotiraga joylashtiriladi;

▪ reproduktiv metod: bilimlar tayyor holda tavsiya etiladi, bilim nafaqat bayon qilinadi, balki tushuntiriladi; bilimlar ongli o'zlashtiriladi; ularning tushunilishi va eslab qolinishiga erishiladi hamda bilimlarning mustahkamligi tez-tez takrorlash yo'li bilan ta'minlanadi.

- muammoli bayon qilish metodi;
- qisman ijodiy (evristik) metod. Bilim tayyor holda tavsiya etilmaydi, balki u mustaqil ravishda egallanadi; yangi bilimlarni qidirish, izlash tashkil etiladi; bilish vazifalari bo'yicha mustaqil fikr yuritiladi, muammoli vazifalar yaratiladi va hal qilinadi;

▪ tadqiqiy metod. Bunda muammo belgilab olinadi, muammoning tadqiqoti jarayonida bilim egallanadi.

4. Didaktik maqsadi bo'yicha (T.I.Shukina, I.T.Ogorodnikov) quyidagilar farqlanadi:

- ilk bilimlarni o'zlashtirish metodlari;
- egallangan bilimlarni mustahkamlash va takomillashtirish metodlari.

5. Olinishi zarur bo'lgan natijani oldindan taxmin qilish (maqsadni amalga oshirishga erishish);

6. Ta'lim jarayonining yaxlitligini ta'minlash;

7. Muntazam tahlil qilib borish;

“Ma’naviyat asoslari” fanini o’qitish metodikasida o’qitish va o’rganish metodlari quyidagi guruhlardan iborat keng tarqalgan tasniflarga borib taqaladi.

1. Bilimlarni berish, idrok etish va o’zlashtirish hamda e’tiqodni shakllantirishni ta’minlovchi metodlar. Metodlarning bu guruhiga ma’ruza, talabalarning mustaqil ishlari, mustaqil tahsil olish bo'yicha ishlar, maslahatlar, ko’rsatma berish, ommaviy axborot, programmalashtirilgan materiallarni idrok etish va boshqalar kiradi.

2. Bilimlarni tadbiq etish va mustahkamlash, malaka va ko’nikmalarni hosil qilish hamda e’tiqodni chuqurlashtirish metodlari. Bu guruhga seminar, amaliy va laborotoriya mashg’ulotlari, nazorat ishlarini bajarish, o’quv va pedagogik amaliyot kiradi.

3. Bilimlar, e’tiqodlarni shakllantirish va talabalarning kasbiy tayyorgarligini aniqlash metodlari. Bu o’quv jarayonining reyting baholari, suhbat o’tkazish, kurs va diplom ishlari loyihalari hamda davlat attestatsiyasi natijalarini baholashdir. Didaktikaga oid adabiyotlarda o’qitish metodlarining quyidagi bog’liqliklari qayd qilinadi:

*birinchidan*, o’quv mashg’ulotlarining didaktik maqsadlari va vazifalariga bog’liq;

*ikkinchidan*, bayon qilinadigan materialning xarakteriga bog’liq;

*uchinchidan*, ta’lim oluvchilarning bilimi va rivojlanish darajasiga bog’liq;

*to’rtinchidan*, o’quv jarayonida o’rganilayotgan fan asoslarining muayyan (hozirgi) davrdagi metodlariga bog’liq;

*beshinchidan*, oliy o’quv yurti yoki kafedraning sharoitlariga bog’liq;

*oltinchidan*, o’quv jarayonining moddiy-texnik ta’moti bilan bog’liq;

*yettinchidan*, o’qituvchining pedagogik mahorati, uning tayyorgarligi va o’quv jarayonini tashkil etish darajasi hamda o’qituvchining hozirgi zamon metodlari bo'yicha bilimlariga bog’liq.

Shunday qilib, O’zbekiston Respublikasidagi oliy ta’limni isloh qilishning dolzarb vazifasi talabalarning o’quv – bilish faoliyatini jondantirish, o’quv jarayoniga yangi texnologiyalarni tadbiq etishga xizmat qiladigan o’qitishning shakl va metodlarini takomillashtirishdan iborat.

O’qituvchining pedagogik faoliyati tavsifida olimlar, odatda quyidagi komponentlarni farqlaydilar:

- tashkilotchilik
- ilmiy bilish;
- kommunikativlik.

**3-masalaning bayoni: Test** (ingl. – sinov, birinchi bor 1864-yilda Buyuk Britaniyada J.Fisher tomonidan o'quvchilarning bilim darajasini tekshirish uchun qo'llanilgan. Test sinovlarining nazariy asoslarini keyinchalik ingliz psixolog F.Gamelton ishlab chiqdi. Test sinovlari dastlab psixologiya fanlari doirasida rivojlandi. XX asr boshida esa test sinovlarini ishlab chiqishda psixologik va pedagogik yo'nalishlar bir-biridan mustaqil ajrala boshladи. Pedagogik test sinovlari birinchi marta Amerikalik psixolog E.Torndayk tomonidan ishlab chiqildi. Psixologiya va pedagogikada test sinovlarining rivojlanishi bilan matematik metodlar ham qo'llanila boshlandi. Bunday metodlar o'z navbatida testlarni ishlab chiqishga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.<sup>69</sup>

XIX asr oxiri XX asr boshlarida test sinovlariga talabalarning o'quv qobiliyatlarini baholash vositasi sifatida qarash ancha kuchaydi. Aynan shu davrdan boshlab test sinovlari ikki asosiy yo'nalish: aqliy (intellektual) rivojlanish darajasini aniqlash testlarini yaratish va qo'llash hamda o'quvchilarning o'qish qobiliyatları va bilimlarini baholashga mo'ljallangan pedagogik testlarni yaratish va qo'llash sohalari rivojlanma boshladи.

Test tuzuvchilar turli odamlarda reaksiya vaqtি bir xil emasligini aniqladilar, bu esa odamlarning aqliy (intellektual) qobiliyatlarini o'rganish zarurligi va turli darajadagi testlar yaratish usulida amaliy ishlar olib borish lozimligi to'g'risida xulosa chiqarishga olib keldi. Test sinovlarining asosiy maqsadi ham o'tilgan darslarni o'zlashtirish darajasi to'g'risida, ham navbatda o'rganilishi lozim bo'lgan dars hajmi to'g'risida o'qituvchiga axborot berish; o'qituvchiga o'qitish metodini tanlashda yordam berishdan iborat, deb hisoblangan. O'quvchilarning bilimlarini baholashning turli usullarini tahlil etib, testlarni guruhlarga ajratishga o'rganib ko'rilgan. CH.Grin (1926) o'zining "Test novogo tipa" (Yangi turdagи test) nomli monografiyasida ilgari yaratilgan va ishlatib ko'rilgan testlarning afzalliklari va kamchiliklarini tahlil qilib quyidagi tavsiyalarni berdi:

- test sinovlari uchun mo'ljallangan material hajmini aniq belgilash va uning tarkibidagi eng muhim qismlarini ajratib olish;
- mazkur material uchun test sinovlarining eng maqbul shaklini tajriba yo'li bilan aniqlash;
- o'quvchilarning test sinovlari vaqtida javob berishlari o'rtacha tezligi to'g'risidagi amaliy ma'lumotlarni e'tiborga olgan holda, test sinovlarining davom etish vaqtini belgilash;

<sup>69</sup> Корабоева З.Т. Педагогик технологиялар. Маъruzалар матни. –Т.: ТДПУ, 2006-йил.

- test sinovlardagi fikrlarni bayon qilinish tilining to'g'riligini va mantiqan muvofiqligini tekshirish;
- topshiriqlarni murakkabligi ortib borish tartibida joylashtirish, to'g'ri va noto'g'ri javoblarning doim bir navbatda almashinishiga yo'l qo'ymaslik.

Ma'naviyat asoslari fanini o'qitishda muhim vositalardan bo'lgan test nazoratining ijobiy jihatlari:

1. Savodli tuzilgan test obyektiv pedagogik o'lchash vositasini bo'lib, uning natijasi imtihon oluvchi o'qituvchiga bog'liq emas.

2. Pedagogik test o'quv materialining dasturiy mazmunini to'liq qamrab olishi mumkin.

3. Test nazoratida texnikani qo'llash oson, bu ma'lum bir materialni yoki butun bir fanni, nisbatan oz vaqt, kam kuch sarflab, ommaviy nazorat qilishga imkoniyat yaratadi. Bu uning muhim ustunliklaridan biridir.

Test usuli ham ayrim nuqsonlardan xoli emas. Masalan, test o'quvchining mustaqil fikrlash qobiliyatini qolipaydi, ya'ni cheklaydi; o'quvchi o'zining ruhiy kechinmalarini namoyon qila olmaydi; o'quvchining boshqa shaxsisi sifatlarini baholab bo'lmaydi.

Shunga qaramay, pedagogik testlarning ijobiy imkoniyatlari juda katta. Testdan to'g'ri va o'rini foydalanish ta'limgizning barcha bo'g'inalrida o'qish va o'qitish sifatini oshirishga xizmat qiladi, o'quvchining bilish faolligini oshiradi. Test topshiriqlariga qo'yiladigan didaktik talablar mavjud. Tuzilgan test topshiriqlarini hammasini ham birdek ishonchli, deb bo'lmaydi. Test savollari mukammal bo'lishi uchun ularni tuzishda bir qancha talablarga rioya qilishi zarur.

Bular quydagilardan iborat: test topshiriqlari mazmunining o'quv materialining maqsadga muvofiqligi; material ahamiyatliligi; ilmiy aniqlik; izchillik; to'kislik va uyg'unlik; o'zlashtirish darajasiga ko'ra tabaqalashtirish; samaradorlik; til ravonligi va aniqligi; bir ma'nolilik; qat'iy belgilangan vaqt; ixchamlik; murakkablik meyori; to'g'ri javobda qo'shimcha belgilarining mavjud emasligi; variativlik; shaklan va mazmunan o'zaro bog'liqlik.

### **MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR:**

1. An'anaviy dars deganda qanday darsni tushunasiz?
2. An'anaviy ta'limgiz modelining afzalliklari va kamchiliklari nimalardan iborat?
3. Noan'anaviy ta'limgiz modelini qanday izohlaysiz?

4. Noan'anaviy ta'lif modelining afzalliklari va kamchiliklari nimalardan iborat?
5. O'rganish metodlari haqida tushuncha bering...
6. O'qitish metodlari deganda nimani tushunasiz?
7. Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari ta'lifida qo'llaniladigan qanday o'qitish metodlarini bilasiz?
8. Test topshiriqlariga qanday didaktik talablar qo'yiladi?

#### **MAVZUGA OID ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lif to'g'risida"gi Qonuni. //Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. -T.: Sharq, 1997 yil.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 28-iyuldagagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida"gi PQ-3160-son Qarori//O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 6-som, 70-modda.
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. -T.: Ma'naviyat, 2008 yil.
4. Umarova N. Milliy istiqlol g'oyasini umumiyligida tizimida singdirish texnologiyasi. -T.: 2003 yil.
5. Ларнер И.Я. Дидактические основы методов обучения. - Москва, Педагогика, 1981 г.
6. Qoraboyeva Z.T. Pedagogik texnologiyalar. Ma'ruzalar matni. - T.: TDPU, 2006 yil.
7. Nazarov Q., Ergashev I. Milliy g'oya va rahbar mas'uliyati. -T.: Akademiya, 2007 yil.
6. Milliy g'oya: targ'ibot texnologiyalari va atamalar lug'ati (Mas'ul muharrir I.Ergashev). -T.: Akademiya, 2007 yil.
7. Sobirova M.A. Tog'ayqulov T. "Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari" fanining nazariy asoslari va metodik masalalari" moduli bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. - T.: 2017.

#### **ELEKTRON TA'LIM RESURSLARI:**

1. [www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)
2. [www.zijonet.uz](http://www.zijonet.uz)
3. [www.edu.uz](http://www.edu.uz)
4. [www.ma'naviyat.uz](http://www.ma'naviyat.uz)
5. [www.lex.uz](http://www.lex.uz).

## 7-MAVZU:

# MILLIY G'OYA VA MA'NAVİYAT ASOSLARI FANLARINI O'QITISHGA PEDAGOGIK TEKNOLOGİYALARNI JORİY QILISH

### REJA:

1. Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llashga qo'yiladigan talablar.
2. Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari ta'limi jarayonida pedagogik texnologiyalar orqali yoshlarda axborot xavfsizligini ta'minlash omillari.
3. Milliy g'oya ta'limi va ma'naviyat asoslarini olib borishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish orqali talaba yoshlarda ijodkorlikni, zamon bilan hamnafaslikni shakllantirish vazifalari.

### *Tayanch tushuncha va iboralar:*

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar, milliy g'oya ta'limini olib borishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llashga qo'yiladigan talablar, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llashning metodologik asoslari, mafkuraviy tarbiya izchilligi, ma'naviy-ma'rifiy ishlar, mediasavodhonlik, yoshlarda axborot xavfsizligini ta'minlovchi omillar, o'qitish jarayoni.

**1-masalaning bayoni:** Milliy g'oya ta'limini olib borishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llashga quyidagi talablar qo'yiladi:

1. Har bir guruhsda o'quvchi va talaba yoshlarga milliy g'oyani singdirishning mazmun va mohiyatini, yosh va intellektual xususiyatlarini hisobga olib yondashish.
2. O'quvchi va talaba yoshlarga e兹gulik bilan ijtimoiy faoliyotni uzviy ravishda mujassamlashtirilgan holda singdirish.
3. Milliy g'oyani singdirishning yo'naliishlari va bosqichlarini belgilash.
4. Milliy g'oyani singdirishning metod va shakllari hamda vositalar mehanizmini ishlab chiqish va amaliyatga joriy qilish.
5. O'quvchi va talaba yoshlarning ongi va shuriga milliy g'oyani singdirishda ijtimoiy tarbiyaning barcha omillari hamkorligidagi ishlarni amalga oshirish.
6. Darsdan tashqari mashg'ulotlarda milliy g'oyani singdirishga doir ilg'or pedagogik texnologiyalar hamda eng maqbul amaliy usullarni qo'llash.
7. O'quvchi va talaba yoshlarning ma'naviy-axloqiy sifatlari hamda dunyoqarashini boyitib borish bilan birga milliy mafkuraning mohiyati,

ijtimoiy taraqqiyot va shaxs kamolotini ta'minlashdagi o'rni, ahamiyati, milliy g'oyani o'rganish zaruratini doimiy ravishda, maqsadga muvofiq yoritib borish.

8. Milliy g'oya asosida o'quvchi va talaba yoshlar ma'naviyatini shakllantirishni aniq maqsadga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat negizida tashkil etish.

9. Fanni o'qitish va tarbiyaviy ishlarning uzviyligi-uzluksizligini ta'minlash.

10. O'qitish jarayonida berilayotgan bilimlar va keltirilayotgan faktlarning aniqligiga rioya qilish.

11. Nazariy bilimlar va hayotiy misollarning o'zaro mosligi, ularning bir-birini to'ldirishiga e'tibor berish.

12. Fanlararo aloqa tamoyiliga rioya qilish, tushunchalarni sodda, aniq berish, ularni o'rganuvchilarining yoshi, dunyoqarashi, ruhiyatiga mosligini ta'minlash.

13. O'quv dasturi, qo'llanma va darsliklarning bir-biriga mos bo'lishini ta'minlash.

14. Dasturda belgilangan mavzular va ularga ajratilgan soatlarning o'quv qo'llanmalari va darsliklarga mos kelishi hamda to'la yoritilishini ta'minlash.

15. O'qituvchining dasturda belgilangan mavzular bo'yicha qo'shimcha ilmiy-metodik materiallarga ega bo'lishi, o'z ustida muntazam ishlashini ta'minlash.

16. Dastur vazifalarini to'liq amalgalash oshirish uchun zarur bo'lgan metodik tavsiya, amaliy mashg'ulotlar, referatlar, mustaqil ishlar uchun mavzular, savollar, tayanch iboralar lug'ati, qo'shimcha adabiyotlar va yordamchi manbalarni takomillashtirish.

Milliy g'oya ta'lmini olib borishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llashda quyidagilar **metodologik asosi** bo'lib xizmat qilishi lozim:

1. Birinchi Prezident I.A.Karimov va davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning milliy g'oyani shakllantirishga doir nutqlari va asarlarini o'rganish va ulardan ta'lum-tarbiya jarayonida keng foydalananish.

2. Milliy g'oyani singdirish jarayonida tarixiy boy ma'naviy merosimizga doir bilimlar berishga e'tibor qaratish.

3. Xalq pedagogikasi va buyuk allomalarimizning falsafiy qarashlari va mulohazalarini o'rganish.

4. Mustaqillikka erishgandan keyingi o'tgan davr mobaynida barcha sohalarda (ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy-madaniy) amalgalash oshirilgan ulkan o'zgarishlar haqida tushunchalar berish.

O'quvchi va talaba yoshlar qalbiga milliy g'oyani singdirishda pedagogik hamkorlik texnologiyalarini yaratish zarur. Bunda birqalikdagi harakat, tarqatma material, mustaqil ish, trening, o'yinlar, stsenariy, ishontirish va h.k.larni amalga oshirish tavsiya etiladi.

**2-masalaning bayoni:** Yoshlar o'rtasida tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda davlat va jamoat tashkilotlari hamkorligi imkoniyatlaridan foydalanish zarur. Yoshlar o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni olib borishda tarbiya ta'sirchanligini oshirish yo'llari va vositalarini qo'llash samara beradi.

Maktab, litsey, kollej, institut va universitetlarda mafkuraviy tarbiya izchilligini ta'minlash zarur. Mafkuraviy tarbiya yoshlar tarbiyasida ulug'vor maqsad va vazifalarni o'z oldiga qo'yadi. Shuning uchun bu sohadagi mas'ul xodimlar o'quvchi va talaba yoshlarni mafkuraviy tarbiyalash mazmuni va o'ziga xos jihatlari, mafkuraviy tarbiyaning uslub va vositalari, mafkuraviy tarbiyaning milliy va xorijiy tajribalari haqida tushunchalarga ega bo'lishlari lozim.

Professor-o'qituvchilar ma'naviy-ma'rifiy ishlarni kuchaytirish yo'llari, o'quvchi va talabalarning yoshiga mos ravishda milliy g'oyani singdirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari haqida chuqur bilimga ega bo'lishi talab etiladi.

Milliy g'oyani yoshlar ongiga singdirishda, ularning ishonch va e'tiqodiga aylantirishga yangicha uslub, yondashuv va texnologiyalarni qo'llash muhim.

Milliy g'oyanining yoshlar ongiga singdirishida erkin mavzular tanlash va taqdimotini o'tkazishga e'tibor qaratish lozim. Milliy g'oyani targ'ib etishda roliklar, videokliplar, ijtimoiy reklamalar, "Virtual sayohatlar", "multimediya" dasturlaridan foydalanish lozim.

Mamlakatimizning boy tarixiy-ma'naviy merosidan, tarixiy obidalari, muzeylardan foydalanishga ham e'tibor qaratish kerak. Fidoyi insonlar hayoti, dunyoning axborot maydonida bo'layotgan o'zgarishlar, OAV, internet ma'lumotlari haqida to'g'ri tushunchalar shakllantirilishi talablarda to'g'ri xulosalar chiqara olish ko'nikmalarini shakllantirishga zamin yaratib beradi.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlarda o'quvchi va talaba yoshlar da mustaqil fikrlay olish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan bahs, munozaralarga alohida e'tibor berish maqsadga muvofiq. Mavzularni iloji boricha hayot bilan bog'lab tashkil qilish yaxshi samara beradi.

Yoshlarni milliy g'oya va mafkura ruhida tarbiyalashga qaratilgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirdarda Konstitutsiya va qonunlar targ'ibotini amalga oshirish usullaridan keng foydalanish zarur.

Respublikamizda bevosita fuqarolik jamiyati asoslarini mustahkamlashga qaratilgan qonunlar qabul qilingan. Ammo mazkur qonunlarni yoshlar tomonidan anglash va hayotda qo'llay olish ko'nikmalarini hozircha ko'ngildagidek emas. Bu esa, yoshlarning qonunlar to'g'risida bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini izchil rivojlanтирishni talab etadi.

Fuqarolik jamiyati asoslarining pirovard maqsadi – inson hayotini muayyan ma'naviy mezonlarga muvofiqlashtirish, har bir shaxsning insoniy potensialini yuzaga chiqazishdan iboratdir. Zero, inson omilini faollashtirishda kishilarning huquqiyongi va huquqiy bilimlarining roli katta. Ya'ni, huquqiy madaniyati yuksak bo'lgan jamiyat mustahkam bo'ladi va millat birligi kuchayadi.

Har qanday jaholatdan insonni ma'rifat qutqaradi. Shuni hisobga olib, yoshlarga "Jaholatga qarshi ma'rifat" tamoyili mohiyatini tushuntira borish lozim.

Yoshlarga ma'naviy-ma'rifiy ishlarda diniy ekstremizm, terrorizmga qarshi kurashning xalqaro siyosiy-huquqiy asoslari to'g'risida tushunchalar berib borish zarur. Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma'naviy-ma'rifiy asoslarini tushuntirish va diniy-ma'rifiy targ'ibot ishlariga ustoz-murabbiylarni keng jalb etish lozim.

Bunda yoshlar tarbiyasiga ta'sir etayotgan ijobiy (oliy ta'lim mazmuni, ma'naviy-ma'rifiy ishlar, OAV, oila, davlat va jamoatchilik tashkilotlari, san'at, madaniyat va h.k.) va ayrim salbiy (diniy ekstremizm, terrorizm mafkurasi, missionerlik, prozelitizm, loqaydlik, befarqlik, tarbiyaviy ishlarda uchrayotgan kamchiliklar va h.k.) omillar ochib berilishi, ulardan ogohlantirish zarur.

Ijobiy omillar samaradorligini oshirish, faoliyatini muvofiqlashtirish, salbiy omillar ta'sirini bartaraf etishning yo'naliishlari, metod va vositalaridan ma'naviy-ma'rifiy ishlarda samarali foydalanish lozim.

Yoshlarni ogohlilik, hushyorlik va g'oyaviy kurashchanlik ruhida tarbiyalash, axloqsizlik g'oyasini yoyib, xalqni ma'naviy jihatdan buzishga intilayotgan qora kuchlarga qarshi kurashda yoshlar faolligini oshirish bo'yicha o'tkaziladigan diniy-ma'rifiy kurashda yoshlar faolligini oshirish bo'yicha o'tkaziladigan diniy-ma'rifiy tadbirlarga diniy idoralar vakillarini jalb etish muhim ahamiyatga ega.

Chunki, yoshlarni begona mafkura: diniy ekstremizm va terrorizm mafkurasi tazyiqlaridan himoya qilishda dinshunos olimlar va din ulamolari bilan hamkorlikda ishlarni tashkil etish samarali usul hisoblanadi.

Diniy ekstremizm tahdididan yoshlarni himoya qilishda professor-o'qituvchi, tarbiyachi-pedagoglarning asosiy vazifalari borki, ular bevosita yoshlarni bu yovuz kuchlarning g'oyalariga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirishga e'tibor qaratib borishlari talab etiladi. Chunki, bugungi kunda din niqobi ostidagi har qanday ekstremistik ko'rinishlarga qarshi kurashmog'imiz dolzARB masaladir. Masalan, umumlashgan tushunchada "terror" degani u yoki bu ko'rinishda siyosiy maqsadlarga erishish uchun kurash vositasi bo'lib, unda hech bir gunohsiz kishilar terrorning nishoni bo'lishadi. Demak, terror begunoh odamlarga qarshi zo'ravonlikni anglatadi, uni ma'naviy jihatdan hech qachon oqlab bo'lmaydi. Bunga 2005-yil Andijon shahrida ro'y bergan voqealar yaqqol misoldir.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlardan natijalarini sarhisob qilish, erishilgan yutuqlarni va kamchiliklarni aniqlab, tahlil qilib borish lozim. Ma'naviy-ma'rifiy ishlardan tizimli rejalashtirilib amalga oshirilsa va baholansa, istiqboldagi vazifalarni aniq belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yoshlarda axborot xavfsizligini ta'minlovchi omillarga quyidagilar kiradi:

- Ta'lIM va tarbiyaning davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi;
- Mehnat bozorini kadrlar bilan ta'minlashdagi davlat siyosati;
- Davlat boshqaruvida yoshlardan ishtirokini keng ta'minlanishi;
- Ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning mazmun-mohiyati yoshlardan muammosini bartaraf etishga qaratilganligini kiritish mumkin.

Yoshlarga tegishli muammolarni bosqichma-bosqich hal etilishi, mehnatni to'g'ri taqsimlash, mahsulot ishlab chiqarish, mehnat bozorini yengillashtirish muammolarining birin-ketin bartaraf etish natijasida yoshlarning siyosiy va ijtimoiy faolligi oshmoqda.

Globalizatsiya sharoitida axborot xurujiga qarshi kurashishda, uni bartaraf etishda ta'lIM-tarbiya jarayonining omil sifatida o'rni beqiyos bo'lib, asosiy vositalardan biri sifatida namoyon bo'ladi:

- yoshlarning onggi, tafakkuri, dunyoqarashi shakllanadi hamda shaxs sifatidagi o'rni ortadi;
- yoshlarga Vatan tuyg'usi, mehr-oqibat, tarixiy xotira, ma'naviyat va ma'rifat singdiriladi;
- yoshlarda xavf-xatarga qarshi kurashish sezgilari va ko'nikmalar shakllantiriladi.

Istiqlolning saqlovchilari deb baholanayotgan yosh avlodning tarbiyasi, ularning ma'naviy salohiyatini yanada oshirish bugun davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Zamonaviy bilimlar bilan bir qatorda, mustaqilligimizni asrovchi ma'naviy dastur vazifasini bajaruvchi milliy

g'oyani, avvalo, bilish, uning targ'ibotida barchaning ma'sulligini ta'minlash - davrning ustuvor maqsadlaridan biri hisoblanadi. Bir jamiyatda uning manfaatlari uchun xizmat qiladigan g'oyaning yo'qligi shu davlatning boshqaga qaramligining bosh omili bo'lsa, g'oya bo'lsa-da, ammo uning atrofida hech kim birlashmasa, bu jamiyat undanda ko'proq qaramlikka mubtalodir. O'zbekiston deb atalgan davlatning manfaatlarini o'zida mujassam etgan milliy g'oyani ta'sir doirasini aynan yoshlar orasida oshirishning asosiy omillaridan biri bugun "sovuz urush"lar ta'siri kamayishi bilan paydo bo'layotgan "mafcura poligon"laridan himoyalanish orqali millat hamjihatligiga va taraqqiyotiga erishish bilan bog'liqdir. Bunday kurash maydonida O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek, "G'oyaga qarshi faqat g'oya, fikrga qarshi fikr, jaholatga qarshi faqat ma'rifat bilan bahsga kirishish, olishish mumkin"<sup>70</sup>.

**3-masalaning bayoni:** Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari ta'limi mamlakatimizning mana shu mintaqada, yon-atrofdagi davlatlar orasida va jahon miqyosida o'ziga munosib o'rnini, yana ham aniqroq aytadigan bo'lsak, o'zining imkoniyatini to'g'ri va xolisona anglab, shu asosda izchil harakat qilishi uchun xizmat etishi zarur.

Milliy g'oya va ma'naviyat vositasida el-yurt birlashadi, o'z oldiga buyuk maqsadlar qo'yadi va ularni ado etishga qodir bo'ladi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish borasidagi ishlarni izchil davom ettirish, ta'lim-tarbiya tizimini zamon talablari asosida, muttasil takomillashtirib borish vazifasi ham yangi jamiyatni barpo etishda muhim o'rinni tutadi.

Chunki ta'lim-tarbiya ong mahsuli, lekin ayni vaqtida ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan omildir. Binobarin, ta'lim-tarbiya tizimini o'zgartirmasdan turib, ongni o'zgartirmasdan turib esa biz ko'zlagan oliy maqsad – ozod va obod jamiyatni barpo etib bo'lmaydi.

Bugun xalqaro hayot, kishilik taraqqiyoti shunday bosqichga kirdganki, endi unda harbiy qudrat emas, intellektual salohiyat, aql-idrok, fikr, ilg'or texnologiyalar hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Bizning siyosatimizning bosh yo'nalishini O'zbekiston xavfsizligi tashkil etadi. Albatta, hozirgi turmushimiz biz orzu etgan darajada emasdir, ammo shunday murakkab bir vaziyatda odamlar omonligi, mamlakatimiz tinchligini ta'minlashga erishayotganimiz, bizning eng katta yutug'imizdir.

<sup>70</sup> Каримов И.А. Жамиятимиз мафкураси халқни-халқ, миллатни-миллат қилишга хизмат этсин. –Т.: Ўзбекистон, 1998, 1-бет.

Buning uchun milliy g'oya va ma'naviyatni yoshlar qalbi va ongiga singdirishda va jamiyatning barcha jabhalarini qamrab olishda, ta'litarbiya, targ'ibot va tashviqotning samarali usullaridan foydalanilmoqda. Bu hol ta'lim tizimini jahon andozalari darajasiga ko'tarish uchun olib borilayotgan harakatlarda yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Axborot texnologiyalarining oxirgi yillardagi tez rivojlanishi bizga yangi va noyob bo'lgan imkoniyatni, ya'ni, o'quv jarayonlarida elektron darsliklar va multimedia mahsulotlaridan foydalanish imkoniyatlarini bermoqda.

O'quv dasturlarida multimediadan foydalanish kompyuterlarning analitik imkoniyatlarini o'rgatilayotgan fan mavzularining har tomonlama mazmunli va obrazli qilib tasvirlash imkoniyati bilan to'ldiradi.

Media madaniyat ommaviy axborot vositalari (avvalo, televideniye, keyin matbuot, radio, internet) ta'sirida shakllangan madaniyat. U insonning axborotga bo'lgan ehtiyojini ta'minlaydi, odamlarning qiziqishlarini boshqaradi, o'ziga mehrigiyodek jalb qiladi, ta'sirchanlikning turli-tuman ko'rinishlarini, usul va vositalarini ishga soladi.

Bugun yoshlar ong-tafakkurini media madaniyat boshqaradigan bo'ldi. Birgina misol: hozir kerakmi-yo'qmi, ishlatish uchun ehtiyoji bormi-yo'qmi, bundan qat'i nazar, har bir yosh avlod qo'lida zamonaviy mobil telefonni bo'lishini xohlaydi. Kerakmi-yo'qmi kimlar bilandir tinmay gaplashishi, yozishishi, axborot almashishi lozim. Zamon odamlarni ongi va qalbini egallash uchun keskin kurashga kirgan ekanmi, bunda media madaniyat asosiy o'rinni tutishi tabiiy. Media madaniyat jamiyatimizga o'simlikka yopishgan chirmovuq kabi yopishdi. Undan begona bo'lishning hech iloji yo'q. Endi yoshlarning media madaniyatga kirib kelishi va unga bog'lanishi jarayonini oqilona boshqarish talab etilmoqda.

Media madaniyat tushunchasi "ommaviy madaniyat" tushunchasidan farq qiladi. Media madaniyat – globallashuv jarayonining hosilasi. Shuning uchun, xuddi globallashuvning o'zi kabi, uning ijobjiy tarafi ham, salbiy tomoni ham bor. Ijobjiy tomonini qabul qilib, rivojlantirib, salbiy tomonidan ehtirot bo'lishimiz, o'zimizni uning ayanchli oqibatlaridan asrashimiz zarur.

Turli xil axborotlarni izlab topish va uni tasarruf etish imkoniyatlari kengayib borayotgan hozirgi davrda yoshlarning huquqiy madaniyatini shakllantirish, ularni turli oqimlardan himoya qilish, internet tarmogi'ni orqali kirib kelayotgan turli xil axborot xurujlaridan ogoh etish bugungi kunning asosiy vazifasiga aylanib ulgurdi. Bugungi globallashuv davri yosh avloddan ijtimoiy faoliyotni talab qilish bilan bir qatorda, yoshlarning

ma'naviy-axloqiy kamolotini har qachongidan ko'ra dolzarb darajaga ko'tarmoqda.

Zero, media madaniyatga ega bo'lib borish ma'naviy qadriyatlar va axloq normalarini o'zlashtirish asosida insonlarning bir-biriga, oilasiga, jamoasiga, Vataniga va butun insoniyat taqdiriga insonparvarlik munosabatlarini namoyon qiladi va jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta'sirini ko'rsatadi.

Ma'lumki, o'quvchi birinchi marta eshitgan axborotining faqatgina chorak qismini o'zlashtiradi. Agarda o'quvchining o'quv jarayonida interaktiv multimedia texnologiyasi yordamida faol ishtiroti ta'minlansa, u holda yangi mavzuni o'zlashtirish 75 foizni tashkil etishi mumkin. Interaktiv multimedia o'quvchiga katta emotsiyal - estetik ta'sir ko'rsatishi sababli multimedia dasturlari sifatiga katta talablar qo'yilishi lozim, chunki estetik jihatdan zaif bo'lgan multimedia mahsuloti o'quv jarayonining samarasini kamaytiradi va ba'zi hollarda salbiy ta'sir ko'rsatishi ham mumkin.

Ijodiy va ta'sirchanlik nuqtayi nazaridan multimediani yangi san'at turi deb hisoblash, shuningdek, multimedia san'at nazariyasi va multimedia pedagogikasini yaratish lozim.

Dars berayotgan o'qituvchi pedagogik texnologiyani yaxshi bilishi zarur. Chunki pedagogik texnologiya - bu o'qituvchining o'qitish vositalari yordamida o'quvchilarga muayyan sharoitda ta'sir ko'rsatish va aks ta'sir mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxs sifatlarining jadal shakllanishini kafolatlaydigan jarayondir.

Pedagogik texnologiya o'qitish jarayonlarining o'zaro bog'liq qismlarini tashkiliy jihatdan tartibga keltirish bosqichlarini ko'rish, ularni joriy etish shartlarini aniqlash, mavjud imkoniyatlarni hisobga olgan holda belgilangan maqsadga erishishni ta'minlaydi.

Pedagogik texnologiya o'qituvchining kasbiy faoliyatini yangilovchi va ta'limda yakuniy natijani kafolatlaydigan muolajalar yig'indisidir.

Bu tizimga uzluksiz ravishda ijtimoiy buyurtma o'z ta'mirini o'tkazadi va ta'lim-tarbiya maqsadini umumiy holda belgilab beradi.

Maqsad esa pedagogik tizimining qolgan elementlarini o'z navbatida yangilash zarurligini keltirib chiqaradi.

Demak, ta'lim-tarbiyaning maqsadi butunlay yangilanar ekan, shunga mos holda mazmunning ham, pedagogik jarayonning ham yangilanishi tabiiyidir.

Pedagogik tajribalarni o'rgatishdan maqsad, o'qituvchilarning serqirra va murakkab faoliyatidagi yangiliklarni aniqlash bilan birgalikda

ilmiy tadqiqot metodi sifatida nazaroya va amaliyot birligini ta'minlashga qaratiladi, yo'naltiriladi.

Ilg'or pedagogik tajriba shunday amaliyotki, u har doim o'ziga yangilik elementlarini, ijodkorlik namunalarini, novatorlik faoliyat qirralarini mujassamlantiradi, uning asosiy ko'rsatkichi natijaviylik, ya'ni ta'limgartibiya sohasida yillar davomida erishilgan ilg'or samara hisoblanadi. Pedagogik tajribani o'rganish sermashaqqat mehnat talab qiladi va o'ziga xos metod (so'rovnama, suhbat, hujjat o'rganish) va shakllarga (pedagogik o'qish, pedagogik ilmiy guruh)ga ega.

Pedagogik texnologiya bugun paydo bo'lgan yangilik yoki yo'nalish emas, u har doim o'qituvchi va o'quvchi faoliyatida o'z aksini topadi. O'qitish jarayoni ma'lum bosqichlar, amallar, usullar, harakatlardan tashkil topgan pedagogik jarayon hisoblanadi.

Shunga mos holda ma'lum pedagogik tizim mavjud bo'ladi. Dars o'tishda belgilangan maqsadni o'quvchi ongiga, qalbiga singdirishda har xil metodlardan foydalanish zarur bo'ladi. Demak, o'quvchilarning darsga, fanga qiziqishini oshirish, xotiralarini yanada o'tkirroq qilib charxlash lozim.

Darsni faqat auditoriyada o'tish shart emas, balki uni joylarda ham o'tish mumkin. Masalan muzeylarga, o'lkashunoslik muzeylariga, tarixiy joylarga, teatr, kinolarga borish, tadbirlar o'tkazish bilan ham maqsadga erishishimiz mumkin. Davra suhbatlari, munozaralar, uchrashuvlar tashkil etilishi mumkin. Savolnomalar tuzish va unga javob olish ham katta natija beradi.

### **MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR:**

1. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar deganda nimani tushunasiz?
2. Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llashga qanday talablar qo'yilgan?
3. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llashning metodologik asoslari nimalardan iborat?
4. Mafkuraviy tarbiya izchilligini siz qanday izohlaysiz?
5. Yoshlarda axborot xavfsizligini ta'minlovchi omillar nimalardan iborat?
6. Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari ta'limdi qo'llaniladigan qanday zamonaviy pedagogik texnologiyalarni bilasiz?
7. Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari ta'lmini tashkil etishda mediasavodxonlikka bo'lgan talab qay darajada?
8. O'qitish jarayonini siz qanday izohlaysiz?

## **MAVZUGA OID ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasining Qonuni. Ta'lim to'g'risida. //Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020-yil, 03/20/637/1313-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. Milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish chora tadbirdiari to'g'risida// "Xalq so'zi" 2006-yil 25-avgust soni.
3. Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni - xalq, millatni - millat qilishga xizmat etsin. -T.: O'zbekiston, 1998 yil.
4. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. -T.: Ma'naviyat, 2008 yil.
5. Umarova N. Milliy istiqlol g'oyasini umumiyligi ta'limgizda singdirish texnologiyasi. -T.: 2003 yil.
6. Nazarov Q., Ergashev I. Milliy g'oya va rahbar mas'uliyati. -T.: Akademiya, 2007 yil.
7. Milliy g'oya: targ'ibot texnologiyalari va atamalar lug'ati (Mas'ul muharrir I.Ergashev). -T.: Akademiya, 2007 yil.
8. Sobirova M.A. Tog'ayqulov T. "Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari" fanining nazariy asoslari va metodik masalalari" moduli bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. - T.: 2017 yil.
9. 10-11-sinf o'quvchilari uchun yaratilgan "Ma'naviyat asoslari" darsligi. -T.: "Yangi asr avlodii". 2018 yil.

## **ELEKTRON TA'LIM RESURSLARI:**

1. <http://www.lex.uz/>
2. <http://www.gov.uz/>
3. <http://www.uza.uz/>
4. [www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)
5. [www.edu.uz](http://www.edu.uz)
6. <http://www.uzedu.uz/>
7. [www.ma'naviyat.uz](http://www.ma'naviyat.uz)
8. [www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)

## **8-MAVZU:**

### **MILLIY G'OYA VA MA'NAVİYAT ASOSLARI FANLARINI O'QITUSHDA TURLI VOSITALARDAN FOYDALANISH**

#### **REJA:**

1. Milliy g'oya va ma'naviyatga oid fanlarni o'qitishda qo'llaniladigan vositalar tasnifi.
2. O'quv adabiyotlarining ta'limda foydalilanadigan asosiy vositalardan biri ekanligi, adabiyot turlari: darsliklar, ilmiy asarlar, ilmiy-ommabop asarlar.
3. Kitob – eng yaxshi vosita.

#### **Tayanch tushuncha va iboralar:**

*O'qitish vositalari, natural (tabiiy) obektlar, o'quv modellari, mulyajlar, maketlar, jadvallar, ekran va ekran-tovushlik o'qitish vositalari, transporantlar, o'quv kinofilmlari, o'quv asboblari, moslamalari, laboratoriya asoslari, trenajorlar, darslik va o'quv qo'llanmalar, o'quv adabiyotlari, an'anaviy (bosma) o'quv adabiyotlari, elektron o'quv adabiyotlari, darslik, elektron darslik, lug'at, izohli lug'at, ma'lumotlar to'plami, ma'ruzalar to'plami, uslubiy ko'rsatma, uslubiy qo'llanma, sharh, dayjest, o'quv qo'llanma.*

**1-masalaning bayoni:** O'qitish vositalari bu moddiy olam, tevarak-atrof va tabiiy obyektlar, shuningdek, inson tomonidan o'quv-tarbiyaviy jarayonda axborot olish, pedagog va o'qituvchilar faoliyatida o'z oldiga qo'ygan va o'qitish, tarbiyalash va rivojlanish uchun qo'llaniladigan quroq sifatida yaratilgan sun'iy obyektlar hisoblanadi.

O'qitish vositalari, shu bilan birga, ularning mazmun, uslub va tashkiliy shakkiali loyihalashtirilgan o'quv-tarbiyaviy jarayonning tarkibiy bo'limalardan biridir. Mazkur holat har bir o'quv-tarbiya muassasasining eng muhim tarkibiy xususiyatidir. Milliy g'oya ta'limi jarayonida qo'llaniladigan turli – xil moddiy o'qitish vostilari hozirgi paytda joriy qilingan tizimlarning harakatlanishi, qayta qurilishi va bir-biri bilan bog'liqligini nazarda tutgan holda boshqa tarkibiy qismlarga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Xususan, yangi axborot texnologiya vositalarining yetarli darajada keng qo'llanilishi ma'lum jarayonni loyihalashtiradi, tadqiqot olib borishda an'anaviy dars bilan chegaralanib qolmasdan, ta'lim oluvchilarning turli mustaqil faoliyatini (yakka tartibda yoki guruh bo'lib) nazarda tutgan uslublarni o'qitish mazmuni va maqsadi u yoki bu o'zgartirishlarni inobatga olib kiritish samarali natijalar beradi. Aynan yangi vositalar va texnikaviy yutuqlarning paydo

bo'lishi o'quv dasturlariga ta'lim oluvchilar ongiga oldin yetib borishi qiyin bo'lgan mavzularni kiritish imkoniyatini yaratadi. O'qitish vositalarini quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Natural (tabiiy) obyektlar. Tabiiy obyektlar sirasiga jonli va jonsiz tabiat obyektlari kiradi, ta'lim oluvchilar ular bilan mashg'ulotlarda tarqatma yoki namoyish qilinadigan materiallar shaklda tanishadilar. Ko'rgazmачilik - tabiiy obyektlarni tanlab olish yoki tabiiy obyektlarni o'z ichiga tarkibiy qism qilib kiritgan turli qo'llanmalarni loyihalashga qo'yiladigan asosiy talablardan biri.

Shu maqsadda o'rganilayotgan tushunchalarning mazmunini ochib berish uchun kerak bo'lgan ayrim tipik belgilarni aniq ifodalashga yordam beradigan obyektlar ajratib olinadi. Natural obyektlarning qo'lyozmaligini kuchaytirish uchun turli kodlash usullari qo'llaniladi: rangli, raqamli, harfli. Tabiiy obyektlarni o'qitish jarayonida ular bilan ishslash usulqlaridan asosiyları kuzatish va tajriba o'tkazish hisoblanadi. Ko'rgazmali qo'llanmalar sifatida ishlatiladigan tabiiy obyektlar, avvalo, uning jihoz va moslamalariga maxsus ishlov berish zarur: ularni kesish, ayrim belgilarga maxsus rang berish qopqoqlarning qobig'ida ko'rish tuynuklarini ochish, ichki bo'shliqlarni yoritish, lampa signal beruvchi o'rnatish va hokazo.

2. O'quv modellari, mulyajlar, maketlar. Modellar tabiiy obyektlarning sun'iy ko'rinishi bo'lib, ularning muhim sifatlari, aloqalari va munosabatlarini qayta takrorlaydigan o'quv ko'rgazmali qo'llanmalar hisoblanadi. Orginal obyekt (mikro va makro obyektlar) xususiyatlarini ko'rsatishda shartlilik (ramziylik)ka amal qilinadi, razmerni kattalashtirish yoki kengaytirish orqali obyekt qurilmasi sxema tarzida aks ettiriladi. Modellarning eng keng tarqalgan tipik turlari bu moddiy (predmet) modellardir. Modellar o'z hajmiga ega yoki tekis modellarga bo'linadi. Ularning oralig'ida relief jadvallar joylashgan. Hajmga ega modellar tarkibiy qismlarga bo'linishi mumkin (rezets, mufta va o'zagi (atom yig'indisi bilan), qismlarga bo'linmaydigan, qimirlamaydigan, (belgilash komplekti) va harakatlanuvchi (ichki yonish dvigateli, nasos) bo'ladilar. Hajmga ega bo'lgan modellar sirasiga mulyaj va maketlar kiradi. Ular ham umumta'lum ham texnika fanlarini o'qitish jarayonida qo'llaniladi. Mulyaj (maket)lar deya biz shunday obyektlarni aytamizki, ular moddiy obyektlarga aynan o'xshatib yaratilgan qo'llanmalardir.

Mulyaj va maketlar atrof-muhit hodisalarini predmetlarning tashqi belgi va xususiyatlarini o'rganishda qo'llaniladi. Modellar o'rganilayotgan obyektlarning ichki qurilmasi va harakatlanish tamoyili, mashina va mexanizmlarning kinematikasini o'rganilayotgan vaziyatlarda boshqa

aloqalar va munosabatlar mazmunining ham o'rganilishiga imkoniyat beradi.

Ta'lif oluvchilarga taqdim etiladigan model va mulyaj (maketlar)lar ham xuddi tabiiy obyektlar singari demonstratsion va tarqatma qo'llanmalarga bo'linadi.

3. Turli xil modellarni loyihalashtirishda bu turdag'i o'qitish vositalarining funksiya va didaktik imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda umumiy pedagogik-ergonomik talablarni ilgari surish mumkin, ya'ni, axborotlashgan, o'quv jadvalini faoliyatning aniq usullariga adekvantlik (o'rganish, qabul qilish plakat, sxema, diagramma, grafik va boshqalar) aniq bir tushuncha, ko'nikma va bilimlarni shakllantirishda qo'llaniladigan tekis moddiy o'qitish vositasidir. O'quv jadvali aniq va ko'rgazmali holda o'rganilayotgan obyekt haqida ilmiy axborot beradi.

1. Jadvallar turli xil bo'ladi. Kompozitsion - rasm va fotosuratlar;

Grafikli: (chizma, diagramma, sxema va boshqalar);

Belgili - ramziy formula, harf va so'zlar bilan ifodalanuvchi. So'nggi paytda elektrlashgan jadvallar keng qo'llanilmoqda, ya'ni, stendlar, xavfsizlikka oid texnikalar.

O'qitish vositalari orasida oxirgi paytda eng ko'p qo'llanilayotgan vositalar - bu plakatlardir. Plakatlar - quyidagi talablarga javob berishi shart.

- plakatning mazmuni o'rganilayotgan mavzuga oid bo'lishi;
- plakatda ifoda etilgan chizma yetarli darajada katta va uzoqdan ham ko'ra olish imkonini berishi kerak;
- plakatdagi obyektlar tabiiy holatlarida ko'rsatishi shart;
- plakatda tasvirlangan chizmalarining qismlari mashtab mutanosibligi asosida berilishi kerak;
- eng e'tiborga loyiq qismlar alohida (boshqa) rang bilan ajratib ko'rsatilishi lozim.

5. Ekran va ekran - tovushlik o'qitish vositalari. Hozirgi zamonda juda keng tarqalgan o'qitish vositalaridandir. Bu o'qitish vositalariga qo'yilgan talablar eng avvalo ularning mavzuga oid, ikkinchidan, sifatli bo'lishidir.

Diopozitiv (slayd) - bu harakatlanmaydigan o'qitish ekran vositasi. Diopozitiv aks etgan chizma va rasmlar odatda plakatdagidan yaxshi qabul qilinadi.

Diopozitiv - bu juda qulay o'qitish vositasi, chunki o'qituvchi yordamida materialning qismini, yoki bir kadrni alohida ko'rsatish mumkin. Har bir kadr to'liq bir informatsiyaga ega. Diofilm ham harakatlanmaydigan ekran vositasidir. Bu qo'llanmalarning uslubiy

g'oyasi mualliflarining kadrlar ketma-ketligini ta'minlanishiga e'tibor berishlaridir. Kadrlarning ketma-ketligi o'zgarsa informatsiyaning qabul qilinishida mazmun buzilishi ro'y beradi. Diafilmlarni qo'llashdagi qiyinchilik - ulardag'i axborotning ko'pligi va ularning qabul qilib olish uchun vaqtning yetmasligidir.

Bu qiyinchilik darsda diofilmlarning ayrim fragmmentlarini (bo'laklarini) ko'rsatish orqali yengillashtiriladi.

6. Transporantlar - bu ham harakatlanmaydigan ekran qo'llanmasi. Transporantlarning grafproyektor yordamida ko'rsatilishi va xonani qorong'ilatish shart emasligi bu o'qitish vositasining muhim jihatidir. Transporantlar sindoskasi ham o'rnni bosadigan vositadir. O'qituvchi ta'lim oluvchilarga yuzlangan holda, o'tilayotgan mavzu yoki chizmalarni ekranga proeksiya qilish orqali tushuntirishi mumkin. Bu orada o'qituvchi chizmalar mazmuniga kerakli o'zgartirish yoki to'ldirishlar kiritish mumkin. Bundan tashqari, transporantlarda informatsiyani taqdim etishda bir kadrning o'rniغا ikkinchisiga qo'yish juda qulaydir. Transparantlar odatda 6-8 kadrdan iborat seriyalardan iborat bo'lib, u o'qituvchi tomonidan ham yasalishi mumkin.

7. O'quv kinofilmlari yaqindagina eng samarali o'qitish vositasi deb etirof etilgandi. Uning ko'rgazmalikligi quyidagi juda boy didaktik imkoniyatlardan kelib chiqadi; katta hajmli informatsiyaning ixchamlantirilishi, fan va texnika tarixiga sayohat qilish, jarayonni tezlanish yoki sekinlashtirish, nihoyat, uni to'xtatish, lirivintikatsiya yoki modellashtirish, zavoddagi moslama va apparatlarining ichki tuzilishini kuzatish. Yangi texnologiyasini boshqarish bilan tanishtirish, fan arboblari faoliyati haqida ma'lumot berish ilmiy - tekshirish laboratoriyasiga "kirish", turli vazifalarni qo'yish, ularni ijobjiy hal etish, hamda qiyoslash o'quv filmlari yordamida amalga oshar edi.

So'nggi yillarda o'quv filmlari ishlab chiqarilmay qo'ydi. Ularni o'rnni o'quv video yozuvi, informatsiyani aks ettiruvchi ekran - tovushli vositalari kino, radio, televiziniya, videofilm va diopozitivlarni kuzatishimiz mumkin.

Video yozuvini qancha lozim bo'lsa, shuncha marta takrorlanish mumkin, vaqt ko'rsatkichi asosida kerakli informatsiyani yozish mumkin. Videokamera yordamida yozib olish juda katta imkoniyatni ochib beradi. Kelajakda o'qituvchilarni tayyorlash va ular malakasini oshirish maqsadiga xizmat qiluvchi video yozuvi tizimlari ishlab chiqiladi.

O'quv materialini mustaqil o'rganishda o'quv yozuvlari katta ahamiyatga ega.

O'quv asboblari, moslamalari, laboratoriya asoslari tizimning o'ta ahamiyatli bo'lgan qismini tashkil qiladi. Eng, avvalo, u yoki bu asbob nima uchun xizmat qilishini aniqlaylik.

8. Trenajorlar – texnika vositalarining alohida guruhiga kiradi. Trenajorlar mehnat ishlab chiqarish sharoitlarini imitatsiya (o'xshatish) qiladi.

Trenajorlar uch guruhga bo'linadi:

– Avtomobil va ximiyaviy ishlab chiqarish texnologiyasini trenajorlari (modellashtirish yordamida o'rganiladi).

– Aniq bir intellektual faoliyat bilan bog'liq bo'lgan trenajorlar. Masalan: trenajor imitorlar, stanoklarni naladka qilish imkonini beruvchi trenajorlar.

– Biror bir harakatlanish ko'nikmasini hosil qilish uchun trenajorlarning alohida turi qo'llaniladi. Masalan: metalni aralash, detallarning figurali qilib yasalishi uchun xizmat qiluvchi trenajorlar.

**2-masalaning bayoni:** Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari ta'limining vositalariga, **birinchidan**, O'zbekiston Prezidenti asarlari kiradi. Chunki, mamlakatimizda xalqimiz ma'naviyatini tiklashda Birinchi Prezident I.A.Karimov va Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyevning asar va ma'ruzalarida zamonaviy milliy ma'naviyatimizning asoslari ishlab chiqilgan hamda bugungi shiddatli islohotlar davrida ma'naviyatni rivojlantirishning yetarli mexanizmi ilgari surilgan. Bu asarlarda milliy ma'naviy tiklanish va ma'naviyatni rivojlantirish g'oyalariga asoslangan ma'naviyat tushunchasiga ta'rif berilgan.

Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari ta'limi vositalariga, **ikkinchidan**, darslik va o'quv qo'llanmalar kiradi. O'quvchilarning ijodiy izlanishi, qo'shimcha bilim olishga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishda, ijodiy foydalanishda darsliklar muhim ahamiyat kasb etadi. Darslikdan foydalanish, u bilan ishlash yo'llarida modul ta'lim texnologiyalaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bunda mavzu, tugallangan fikrni qismlargacha, qism esa blok modullarga ajratiladi.

Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari ta'limining *eng muhim xususiyatlardan biri* o'quvchilarning bilish faoliyatini rivojlantirishdir. O'quvchi va talaba yoshlarning jonli bilish faoliyati uchun quyidagilar xosdir: bilimga va o'quv maqsadlariga bo'lgan chuqur, har tomonlama qiziqish; aqliy, jismoniy va intellektual kuchlarni faol namoyon qilish; diqqat, xotira, iroda va boshqa ruhiy sifatlarni to'plash. Bilish faolligi jarayonida quyidagi 4 shakl ajratiladi:

- reproduktiv faollik. Bunda tayyor bilimlarni egallahsga tayyorgarlik, qizg'in qayta ishlash faoliyati amal qiladi;

- applikativ faollik – unga qizg'in tanlov-yaratish faoliyatiga tayyorlik xarakterlidir;
- izohlashdagi faollik – ma'no-mazmunni qizg'in izohlash, tushuntirish va ochib berishga tayyorlik;
- produktiv (samarali) faollik – unga yangilikni qizg'in ijod qilishga tayyorlik xarakterlidir.

Hech kimga sir emaski, axborot-kommunikatsion texnologiyalar hayotimizning barcha jahbalariga kirib kelmoqda. Texnologiyalarga asoslangan o'quv jarayonini tashkil qilishda **yana bir vosita** elektron darsliklar muhim o'rin tutadi. Ma'lumki, elektron darslik deganda, ilgarilari oddiy matn fayli tushunilar edi. Hozirgi kunda elektron darslik deganda, oddiy elektron nusxa emas, balki rangli rasmlar, turli xil testlar, jadvallar, lavhalar, ovoz, video – ko'rgazmalarnig zamonaviy tartibi, texnikasi tushuniladi. Shuning uchun ham elektron darsliklar masofaviy o'qitish tizimining asosi bo'lib xizmat qiladi.

Ma'naviyat asoslari darslarida qo'llanalidagan **samarali vositalar sirasiga** video – ko'rgazmalarni ham kiritish mumkin.

Video – ko'rgazmalarning qulayliklari:

- o'quv dasturi asosida o'rganilishi kerak bo'lgan materiallarni o'quvchilarga ixcham, qulay ko'rinishda taqdim etish;
- texnik vositalarning o'quvchi bilan interfaol usullarda muloqotda bo'la olishi;
- o'quvchilarning o'quv materiallarini mustaqil ravishda o'rganishi va olgan bilimlarini test sinovlari asosida sinab ko'rishi mumkinligi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi Muvofiqlashtiruvchi Kengashining 2011-yil 29-martdagи yig'ilish bayoni bilan tasdiqlangan "Uzluksiz ta'lim tizimi uchun o'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish konsepsiyasi"ning 3.2.-bandida uzluksiz ta'lim tizimida o'qitiladigan ijtimoiy-gumanitar fanlar majmuasiga mos o'quv adabiyotlarining turlari turkum fanlar kesimida ko'rsatib o'tilgan.

Jumladan:

Ta'lim-tarbiyaviy mashg'ulotlar uchun:

- tarbiyachilar va ota-onalar uchun qo'llanmalar;
- qo'rgazmali qurollar;
- didaktik ta'limiy o'yinlar.

Umumta'lim fanlari uchun:

- asosiy darsliklarga o'quv metodik qo'llanmalar;
- metodik tavsiyanoma va ko'rsatmalar;
- kompyuterli mashg'ulot va o'yinlar;
- kerakli ma'lumotlar to'plami;

- ma'lumotlar banki va lug'atlar.

AL: umumta'lim va chuqurlashtirib o'qitiladigan fanlar hamda KHK: umumtalim, umumkasbiy va maxsus fanlar uchun:

- asosiy darsliklar, o'quv va metodik qo'llanmalar;
- ma'ruzalar matni;
- metodik tavsiynomda va ko'rsatmalar;
- ma'lumotlar to'plami va banki, lug'atlar.

Umumta'lim, umumkasbiy, maxsus va qo'shimcha fanlar uchun:

- darsliklar, o'quv va metodik qo'llanmalar;
- ma'ruzalar kursi;
- ma'ruzalar matni;
- metodik tavsiyanoma va ko'rsatmalar;
- ma'lumotlar to'plami va banki;
- lug'atlar va dayjest.

Umumiyl metodologik va maxsus fanlar hamda ilmiy faoliyat uchun:

- darsliklar, o'quv va metodik qo'llanmalar;
- ma'ruzalar kursi;
- ma'ruzalar matni;
- metodik tavsiyanoma va ko'rsatmalar;
- ma'lumotlar to'plami va banki;
- lug'atlar va dayjest;
- ilmiy-ommabop adabiyotlar.

Ilmiy metodologik va maxsus fanlar hamda ilmiy faoliyat uchun:

- tegishli sohalarga oid umumiyl adabiyotlar;
- o'quv va metodik adabiyotlar;
- ilmiy-ommabop adabiyotlar.

Umumiyl metodologik va maxsus fanlar uchun:

- tegishli sohalarga oid o'quv va umumiyl adabiyotlar;
- ilmiy-metodik va ilmiy-nazariy adabiyotlar.

"Uzluksiz ta'lim tizimi uchun o'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish konsepsiysi"da o'quv adabiyotlarining quyidagi shakl va turlari ko'rsatib o'tilgan:

#### *O'quv adabiyotlarining shakllari:*

**O'quv adabiyotlari** – muayyan ta'lim turi (yo'nalishi yoki mutaxassisligi) o'quv rejasida qayd etilgan fanlar bo'yicha tegishli o'quv dasturlari asosida zarur bilimlar majmuasi keltirilgan, o'zlashtirish uslublari va didaktikasi yoritilgan (shu jumladan, xorijiy tarjimalar) manba bo'lib, ikki xil shaklda tayyorlanadi:

**An'anaviy (bosma) o'quv adabiyotlar** – ta'lim oluvchilarning yoshi va psixo-fiziologik xususiyatlari, ma'lumotlar hajmi, shriftlari, qog'oz

sifati, muqova turi va boshqa ko'rsatkichlarni hisobga olgan holda qog'ozda chop etiladigan manba;

**Elektron o'quv adabiyotlar** – zamonaviy axborot texnologiyalari asosida ma'lumotlarni jamlash, tasvirlash, yangilash, saqlash, bilimlarni interaktiv usulda taqdim etish va nazorat qilish imkoniyatlariga ega bo'lgan manba.

### O'quv adabiyotlarning turlari:

Uzluksiz ta'lim tizimi o'quv-tarbiyaviy jarayonida o'quv adabiyotlarning quyidagi turlari qo'llaniladi: darslik, o'quv qo'llanma, lug'at, izohli lug'at, ma'lumotlar to'plami, ma'ruzalar kursi, ma'ruzalar to'plami, metodik ko'rsatmalar, metodik qo'llanmalar, ma'lumotlar banki, dayjest, sharh va boshqalar.

**Darslik** – davlat ta'lim standartida belgilangan asosiy o'quv materialini qamrab olgan holda, bilimlarni talabalar tomonidan mustaqil o'zlashtirib olishga, ularda ko'nikma va malakalarni shakllantirishga, kerakli o'quv materialini mustaqil izlash va topishga, hamda amaliy faoliyatda qo'llashni o'rgatish hamda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

Har bir ta'lim turining maqsad va vazifalarini qamrab olgan, bilim oluvchilarning yoshi va boshqa xususiyatlarini hisobga olgan o'z darsliklari bo'ladi. Darslikda nazariy ma'lumotlardan tashqari, amaliy-tajriba va sinov mashqlari bo'yicha zarur ko'rsatmalar beriladi.

**O'quv qo'llanma** – darslikni qisman to'ldiruvchi, muayyan fan dasturi bo'yicha tuzilgan va fan asoslarining chuqur o'zlashtirilishini ta'minlovchi, ayrim bob va bo'limlarni keng tarzda yoritishga yoki amaliy mashq va mashg'ulotlar yechimiga mo'ljallangan nashr.

O'quv qo'llanmada muayyan mavzular darslikka nisbatan kengroq yoritiladi. Masalan, "Mexanika" fizika fanining mexanika qismiga bag'ishlangan o'quv qo'llanma. "Fizikadan masalalar to'plami" – fizika fani bo'yicha masala va mashqlar yechishga mo'ljallangan o'quv qo'llanma va hokazo.

**Lug'at** – aniq bir tartibda joylashgan so'zlar (yoki so'z birikmasi va hokazo) to'plami, ularning mazmuni, ishlatalishi, kelib chiqishi, boshqa tildagi tarjimasini to'g'risida ma'lumot beruvchi yoki so'zning tushunchasi, u bilan belgilanuvchi predmetlar haqida axborot beruvchi nashr.

**Izohli lug'at** – so'zlarning mazmunini izohlaydigan, har bir so'zning grammatik, etimologik va stilistik tavsifi berilgan, ularni qo'llashga oid misollar va boshqa ma'lumotlar keltirilgan, qo'shimcha adabiyot sifatida foydalilaniladigan nashr.

**Ma'lumotlar to'plami** – foydalanishga qulay shaklda yaratilgan muayyan fanni yoki ta'lif yo'nalishini o'zlashtirish uchun zarur bo'lgan, isbot talab qilmaydigan ma'lumotlar, ilmiy ko'rsatkich va o'lchamlar, turli belgi va raqamlardan, ilmiy, ijtimoiy-siyosiy, amaliy, iqtisodiy, madaniy va boshqa sohalardagi qisqa ma'lumotlardan tashkil topgan nashr.

Ma'lumotlar to'plamida bir qator muhim ilmiy-amaliy masalalarni yechish namunalari keltirilishi mumkin.

**Ma'ruzalar kursi** – fanning o'quv dasturi bo'yicha undagi barcha mavzularning asosiy mazmuni qisqa yoritilgan, birlamchi yangi bilimlarni olishga qaratilgan, foydalaniladigan asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar ko'rsatilgan, o'z-o'zini nazorat qilishga oid savollar turkumi, mavzuga tegishli tayanch atama va iboralar keltirilgan nashr, leksiyalar kursining nomi tegishli fan nomi bilan atalgan.

**Ma'ruzalar to'plami** – muayyan fanning o'quv dasturi bo'yicha undagi ayrim mavzularning asosiy mazmuni qisqa yoritilgan, birlamchi yangi bilimlarni olishga qaratilgan, foydalaniladigan asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar ko'rsatilgan, o'z-o'zini nazorat qilishga oid savollar turkumi, mavzuga tegishli tayanch atama va iboralar keltirilgan, davriy ravishda ilmiy-tadqiqot izlanishlar asosida yangilanib turiladigan, ta'lif muassasalarining ilmiy (pedagogik) kengashi tavsiyasi bo'yicha chiqariladigan kichik adadli tarqatma material.

**Uslubiy ko'rsatma** – muayyan fanning o'quv dasturi bo'yicha kurs ishlari (loyihalari), laboratoriya va amaliy ishlarni bajarish tartibi aniq va batafsil ifodalangan hamda ushbu fan bo'yicha talabalarda zarur amaliy ko'nikmalar hosil qilishga mo'ljallangan, ta'lif muassasalarining ilmiy (pedagogik) kengashi tavsiyasi asosida nashr etiladigan kichik adadli tarqatma material.

**Uslubiy qo'llanma** – o'qituvchilar (professor-o'qituvchilar) va bilim oluvchilar uchun mo'ljallangan bo'lib, unda bir darsning maqsadi, dars o'tish vositalari va ulardan foydalanish usullari, darsning mazmuni, amaliy mashg'ulotlar, qo'shimcha topshiriqlar va boshqalar haqida tavsiyalar bayon qilinadigan, ta'lif muassasalarining ilmiy (pedagogik) kengashi tavsiyasi asosida chop etiladigan nashr.

**Sharh** – jamiyat taraqqiyoti uchun muhim ahamiyat kasb etadigan meyoriy-huquqiy hujjalarni, shuningdek, bahsga loyiq asarlarni, g'oyalarni, fikrlarni va ta'riflarni izohlovchi, muayyan masalalar yechimini ko'rsatuvchi, keng ommaga mo'ljallangan qo'shimcha adabiyot sifatida foydalaniladigan nashr.

**Dayjest** so'zining umumiy mazmuni qandaydir sohalar, mavzular, jarayonlarga tegishli yoki ularda bo'layotgan o'zgarishlar, voqealar,

tadbirlarga oid hujjatlar, maqolalar, yangiliklar to'g'risida qisqacha ma'lumotlar to'plamidir. Ta'lim sohasiga tegishli dayjest ta'lim tizimiga tegishli hujjatlar, maqolalar, yangiliklar yuzasidan qisqacha ma'lumotlar to'plami hisoblanadi<sup>71</sup>.

Dayjest – ilmiy, ilmiy-uslubiy, o'quv, davriy adabiyotlar, hukumat va turli tashkilotlar faoliyatiga tegishli qonunlar, qarorlar, nizomlar mazmunining qisqacha bayoni va sharhi keltirilgan, sohalarga oid ma'lumotlar to'plami sifatida foydalaniladigan doimiy nashr.

Qolaversa, Masalan, oliv ta'lim muassasalariga o'qishga kirish, talabalar safidan chetlatish yoki o'qishni ko'chirish bo'yicha me'yoriy-huquqiy hujjatlar, qabul qilingan yangilik va o'zgartishlar yuzasidan me'yoriy-huquqiy hujjatlar bo'yicha qisqacha ma'lumotlar to'plamidir.

**Elektron darslik** – kompyuter texnologiyasiga asoslangan o'quv uslubini qo'llashga, mustaqil ta'lim olishga hamda fanga oid o'quv materiallar, ilmiy ma'lumotlarning har tomonlama samarali o'zlashtirishga mo'ljallangan bo'lib:

- o'quv va ilmiy materiallar faqat verbal (matn) shaklda;
- o'quv materiallar verbal (matn) va ikki o'lchamli grafik shaklda;
- multimedia (ko'p axborotli) qo'llanmalar, ya'ni ma'lumot uch o'lchamli grafik ko'rinishda, ovozli, video, animatsiya va qisman verbal (matn) shaklda;
- taktil (his qilinuvchi, seziladigan) xususiyatlari, o'quvchini "ekran olamida" stereo nusxasi tasvirlangan real olamga kirishi va undagi obyektlarga nisbatan harakatlanish tasavvurini yaratadigan shaklda ifodalanadi.

**Ma'lumotlar banki** – axborot texnologiyalarning imkoniyati va vositalari asosida yaratilgan. Statik va dinamik rejimda tuzilgan, tovush va rangli tasvirlar bilan ta'minlangan, katta hajmdagi axborotlarni o'z ichiga qamrab olgan va ularni turli ko'rinishda (jadval, diagramma, histogramma, matn, rasm va hokazo) bera oladigan, o'quv jarayonida bilim oluvchilar tomonidan o'z ustida mustaqil ishlashi va o'z bilimlarini nazorat qilishi uchun qo'llaniladigan, doimiy ravishda to'ldirib boriladigan, keng doirada foydalanishga mo'ljallangan, tegishli vakolatli davlat tashkilotida qayd etilgan sohalar bo'yicha ma'lumotlar to'plami.

**Metodik tavsiyalar** – ta'lim va tarbiyaning samarali usullarini amalda tafbiq etish bo'yicha qisqa va aniq bayon etilgan takliflar majmuidan iborat metodik nashr. Metodik tavsiyalarda o'quv jarayoniga o'qitishning interaktiv usullari, pedagogik texnologiyalardan amalda foydalanish bo'yicha tavsiyalar nazariy jihatdan emas, balki ko'proq

<sup>71</sup> Elektron manba: [http://marifat.uz/marifat/v\\_pomosh\\_uchitelu-marifat/savol/1213.htm](http://marifat.uz/marifat/v_pomosh_uchitelu-marifat/savol/1213.htm).

amaliy namunalar asosida bosqichma-bosqich berilishi maqsadga muvofig.

**Monografiya** – ilmiy tadqiqotlar natijalari asosida yaratilgan bosma nashr. Monografiya (mono... va ... grafiya) – muayyan mavzu yoki muammoni, biror olim yoki yozuvchi hayoti va faoliyatini atroflicha, chuqur tadqiq etuvchi ilmiy asar. Monografiyada yoritilayotgan masala bo'yicha mavjud adabiyot umumlashtiriladi va tahlil etiladi, fanni rivojlantirishda yordam beradigan faraz va xulosalar ilgari suriladi<sup>72</sup>.

**Elektron nashr (EN)** – bu grafikli, matnli, raqamli, nutqli, musiqali, videofoto va boshqa axborot obyektlaridan iborat bo'lgan jamlanmasi hisoblanadi. Elektron nashr magnitli (magnit tasmalarda, magnit disklarda), optik (CD-ROM, CD-I, CDQ, CD-R, CD-RW, DVD) elektron axborot tashuvchi vositalarida hamda kompyuter tarmog'ida taqdim etilishi mumkin.

U shuningdek, qog'ozda chop etilgan o'quv materiallarining elektron varianti bo'lib, ulardan farqlanuvchi ayrim afzalliklari quyidagilar: – kompyuterda yoki tashqi magnitli ma'lumot tashuvchida saqlanishdagi ixchamliligi, tezkor ravishda o'zgartirishlar kiritish yoki uzoq masofalarga elektron pochta yordamida uzatish imkoniyatlari muvjudligi; – chop etish qurilmasi orqali tezda qog'ozga materialning o'tish imkoniyati mavjudligi inobatga olish lozim bo'ladi.

**Elektron darslik** – o'qituvchi uchun turli xil ko'rinishdagi va shakldagi dars jarayonlarini tashkillashtirish hamda ularni o'tkazishi uchun kerak bo'ladigan didaktik, metodik, ilmiy va axborot ma'lumotlarni, foydalanuvchiga esa mavzularni mustaqil o'rganishi va o'qituvchi rahbarligida o'tkaziladigan darsga tayyorlanishi hamda kerakli qo'shimcha ma'lumotlarni olishi uchun zaruriy bo'lgan o'quv materiallarni o'z ichiga qamrab oлgan elektron manba.

Elektron darslik o'zida nazariy axborot va amaliy topshiriqlarni, foto va audiomateriallarini jamlaydi. Elektron darslik — bu talabalarda o'zlashtirishi uchun hamda ko'nikma va malakalar orttirishida zarur bo'lgan bilimlar bayon etilgan o'quv nashrini elektron shaklda taqdim etuvchi, tuzilmaviy hamda tizimli materialga ega bo'lgan vositadir. Unda o'quv materiali mantiqiy bayon etilishi, yuqori darajada texnik jihozlanishi hamda badiiy jihatdan bezatilganligi bilan o'ziga xosdir. Elektron darslik qog'ozli darslikka nisbatan quyidagi qator afzalliklarga ega:

- foydalanishda oddiyligi va qulayligi;

<sup>72</sup> Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. Биринчи жилд. –Т.: О'МЕ, 2000-йил.

- elektron darslik resurslarini yangilab borish imkoniyatining mavjudligi;
- ta'lim jarayonini avtomatlashtirish va ta'lim xizmatlarini taqdim etish tezligini oshirish;
- axborotlarning to'liqligidan iborat.

Elektron darslik yaratish o'quv materialini yanada chuqurlashtirib o'r ganish va uni kelgusida amaliy faoliyatda qo'llash zarurati bilan bog'liq. Elektron darslik ustida o'qituvchi bilan hamkorlikda ish lash talabalarga mustaqil ish lash va o'zini namoyon etish, tashkilotchilik qobiliyatini tarbiyalashga yordam beradi, talabaga bo'lajak mutaxassislik bo'yicha salohiyatli shaxs bo'lishiga imkon beradi. Bu talabalar shaxsini takomillashtirish, ijodiy tafakkuri va qobiliyatini shakllantirishni ta'minlovchi optimal sharoit yaratadi. Axborot jamiyati sharoitlarida ta'lim sohasida rivojlanishning zamonaviy odimlari, masalan, talabalar mustaqil ishlari sonining o'sib borishi, innovatsion texnologiyalardan foydalanish talabalardan muntazam ravishda, bilimlari sifati va darajasini oshirishni talab etadi<sup>73</sup>.

**Elektron o'quv nashri** – ta'lim oluvchilar tomonidan bilimlar, ko'nikmalar va mahoratlarni ijodiy va faol egallashlarini ta'minlaydigan ilmiy amaliy bilim sohasiga mos ravishdagi tizimlashtirilgan o'quv materialga ega bo'lgan elektron nashr.

**Elektron lug'at** – an'anaviy «qog'ozli» lug'atga mos keluvchi elektron axborot manbai. Kompyuter versiyada so'z yoki so'zlar guruhiga maxsus ajratilgan ko'rsatma bilan istalgan dasturdan chiqarilishi mumkin. An'anaviy lug'atlardan farqli ravishda elektron lug'at matn va grafikaviy tasvirlar bilan bir qatorda video va animatsion lavhalar, tovush, musiqa va boshqalar bilan birga media-obyektlarning butun spektrlarini o'z ichiga olishi mumkin.

**Elektron uslubiy qo'llanma** – pedagogik tajribani umumlashtirish va uzatish hamda ta'lim faoliyatining yangi modellarini shakllantirish va tarqatish shakli. Elektron uslubiy qo'llanmada pedagogik tajriba mashg'ulotlarning raqamlashtirilgan video-lavhalari, elektron yoki unga o'girilgan shaklda yaratilgan o'quvchilar ishlarini darslar bo'yicha rejulashtirilgan shaklida ko'rsatiladi.

**Elektron o'quv qo'llanma** – fanning o'quv hajmini qisman yoki to'liq qamragan va axborotning adaptatsiya blokini o'z ichiga olgan bo'lib, masofaviy o'qitish va mustaqil o'rganish uchun mo'ljalangan.

<sup>73</sup> Elektron manba: <http://uz.infocom.uz/?s=elektron+darslik+nima>.

**Elektron ma'ruza** – interaktiv elementlar va giperuzatishlarni qo'llab, o'quv fani ma'ruza materialini namoyish qiluvchi multimedik tizim.

**Uchinchi masalaning bayoni:** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yilning 12-yanvarida "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida" farmoyish chiqardi. Bu hujjat mamlakatimizda kechayotgan ma'naviy-ma'rifiy jarayonlar, uning tashkiliy takomili va rivoji borasidagi ishlarni izchillashtirishni nazarda tutadi.

Shu bilan birga, u xalqning ezgu maqsadlarga uyg'un g'oyalarining tarannumi sifatida ham e'tiborga molik. Nomlarini biz hamisha e'zoz bilan tilga oladigan buyuk ajdodlarimiz o'zлari erishgan oliy maqomga faqat kitob, ma'rifat orqaligina musharraf bo'lib, dovruq taratganlar. Hazrat Alisher Navoiy salaflari fikrlariga tayanib bir muhim ma'lumotni keltiradi. Unga ko'ra, kitob ishiga miloddan avval Erondagi peshdodiylar sulolasining uchinchi hukmroni afsonaviy Tahmuras davrida asos solingan. Bundan shunday xulosa chiqarish mumkinki, kitobxonlik Sharq xalqlariga qadim-qadimdan xos bo'lgan ezgu fazilat, mo'tabar qadriyatdir.

Haqiqatdan, xalqimiz kitobxonlikni azaldan go'zal fazilat deb biladi. "Madrasa ko'rgan", "mактаб ko'rgan" kabi ziyolilik, o'qимishlilikni anglatuvchi iboralar qatorida "kitob ko'rgan" degan baho odamning bilimdonligini, ko'p narsadan boxabarligini anglatgan. Lekin so'nggi yillarda kitob va kitobxonlik borasidagi qarashlariga ko'ra, garchi buni o'zлari tan olmasalar-da, odamlar uch toifaga ajralib qolgandek. Bir turkum kishilarimiz o'zлari o'qigan kitoblarga haddan tashqari berilib, atrofdagi boshqa narsalarni unutib qo'yish darajasiga etganlar. Ikkinci toifa uchun kitob umrini o'tab bo'lgan vosita, shuning uchun uni mutlaqo keraksiz, deb hisoblaydi. Uchinchi toifadagilargina kitobni inson ma'naviy olamini boyitish bilan birga jamiyat hayotini go'zallashtirishga, moddiy, tabiiy borliqning taraqqiyisiga xizmat qiluvchi zarur omil, deb biladilar.

Bundan birinchi va uchinchi toifalarni bir xil baholab bo'lmasligi ko'rinish turibdi. Ularning birinchisini "kitobparastlik" deb atash mumkin. Kitobparastlik insонning ma'naviy kamoliga ijobiy ta'sir ko'rsatishi qiyin. Chunki kitob va hayot munosabatini tahlil etolmagan kishining real hayotdan uzoqlashib qolishi kuzatiladi. Qolaversa, hozirda turli aloqa vositalari orqali nomaqbul kitoblar oqimi ham shu qadar ko'pkı, kishilarni ular orasidan tanlab o'qish mahoratini oshirish ham muhim masala. Nomaqbul deb atayotganimiz shunchaki mazmuni sayoz kitoblar

jaholatni kuchaytiradi. Boshqa har qanday ma'rifat unga begona bo'lib ko'rindi, uni qabul qila olmay qoladi. Bunday holni ma'rifatparvar ajdodimiz Munavvarqori Abdurashidxonov "jahli murakkab" deb atagan edi. Bu jaholatning davosi ham albatta kitob, ya'ni bunday kishiga ko'broq kitobni ko'proq o'qitishdir. Ikkinci toifadagi kishilarni "kitobbezorilar" deb atash mumkin. Bu toifadagi aksariyat kishilar moddiy jihatdan o'zlariga to'q, to'la ta'minlangan bo'ladilar. Baribir, ular ham hayotda o'z ideallariga ega. Lekin, afsuski, ko'pincha ularga ideal bo'lgan shaxslar ma'rifatdan begona bo'lib, o'z atrofidagilarga kitob o'qimasdan ham hayotda ko'p narsaga erishish mumkinligini uqtiradilar. Kitob o'qiydigan, ko'p narsaga muhtoj bo'lib yurgan odamlarning ustidan kuladilar. Ularning ba'zilari odamlarning ma'naviy tabaqlanishini, insoniy qadriyatlarni tan olmaydilar. O'zlarining ta'birlari bilan aytganda, ular kitob o'qiy boshlasalar, uyqulari keladi. Ba'zan martabaliroq ziyoli odam oldida kitobbezori ekanliklari bilinib qolsa, kitob o'qib o'tirishdan ko'ra kitobxon odamlar bilan o'tirib suhbatlashishni ma'qul ko'rishlarini aytadilar. Lekin bunga ham aksar vaqt o'zlar amal qilmaydilar. Shunday bo'lsa-da, kitobbezorilik tuzalmas illat emas. Qalblariga yo'l topilsa, ular o'z qarashlaridan juda tez voz kechib, ma'rifat yo'liga kirishlari mumkin. Uchinchi toifa kitobxonlik haqiqiy ziyolilikdir. Fan, ma'rifat, madaniyat va ishlab chiqarishning taraqqiyot sari harakati faqat ana shu toifaning hissasiga to'g'ri keladi. Garchi buning hammasi inson tabiatiga bog'liq hodisalar bo'lsa-da, tuyg'ular, kayfiyatlar almashinuvi orqali uning munosabat o'zgartirish imkoniyatini hisobga olib, shaxs takomilini yuksaltirish tadbirlariga har doim ehtiyoj saqlanib qoladi. Prezidentimizning yuqorida nomi keltirilgan farmoyishi ana shunday ehtiyojlarni qondirish maqsadida chiqarildi. Farmoyish mazmun-mohiyati barcha fuqarolarimizning kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish uchun bajarilishi lozim vazifalarni nazarda tutib, yoshlarimizning barkamol avlod bo'lib tarbiyalanishlari uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni yanada kengaytirish va yuksaltirishni alohida vazifa qilib qo'yadi.

Unda muhim masalalar qatorida sohadagi mavjud muammolarni samarali hal etishga qaratilgan dastur ishlab chiqish ko'zda tutilgani g'oyatda ahamiyatlidir. Ishonchimiz komilki, ushbu farmoyish ijrosi doirasida tayyorlanadigan dastur turli yot g'oyalar, "ommaviy madaniyat" niqobidagi nomaqbul xatti-harakatlar, internet tizimidagi tahdidlar xavfiga qarshi tura oladigan avlodni tarbiyalashga, tarbiyaning barqaror rivojiga xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasi Birinchi

Prezidenti I.A.Karimov aytganidek, "fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat" bilan kurashishda qo'l keladi.

## **MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR:**

1. O'qitish vositalari deganda nimani tushunasiz?
2. Natural (tabiiy) ob'yektlarga nimalar kiradi?
3. O'quv kinofilmlari nima uchun zarur?
4. O'quv asboblari, moslamalarning o'quv vositalari sifatida qanday o'rni bor?
5. O'quv adabiyotlari deganda, qanday adabiyotlarni tushunasiz?
6. Qanday adabiyotlar an'anaviy (bosma) o'quv adabiyotlari, deb ataladi?
7. Qanday adabiyotlar elektron o'quv adabiyotlar, deb ataladi?
8. Darslik, o'quv qo'llanma elektron darslik, lug'at, izohli lug'at, ma'lumotlar to'plami, ma'ruzalar kursi, ma'ruzalar to'plami, uslubiy ko'rsatma, uslubiy qo'llanma kabi o'quv adabiyotlari bir-biridan nimasi bilan farq qiladi?

## **MAVZUGA OID ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasining Qonuni. Ta'lrim to'g'risida. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020-y., 03/20/637/1313-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida"gi farmoyishi. 2017-yil 12-yanvar.// O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 38-son, 1029-modda.
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. -T.: Ma'naviyat, 2008 yil.
4. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. Birinchi jild.-T.: O'ME, 2 000-yil.
10. Sobirova M.A. Tog'ayqulov T. "Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari" fanining nazariy asoslari va metodik masalalari" moduli bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. - T.: 2017 yil.

## **ELEKTRON TA'LIM RESURSLARI:**

1. [www.ma'rifat.uz](http://www.ma'rifat.uz)
2. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
3. [www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)
4. [www.ma'naviyat.uz](http://www.ma'naviyat.uz)

**9-MAVZU:**  
**MILLIY G'OYA VA MA'NAVIYAT ASOSLARI FANLARINI**  
**O'QITISHDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARIDAN**  
**FOYDALANISH**

**REJA:**

1. Ommaviy axborot vositalari va ularning turlari.
2. Talaba yoshlar g'oyaviy dunyoqarashini o'stirishda ommaviy axborot vositalarining o'rni.
3. Milliy g'oya va ma'naviyat assoslari fanlarini o'qitishda ommaviy axborot vositalaridan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari.

***Tayanch tushuncha va iboralar:***

*Ommaviy axborot vositalari, "Jurnalistik faoliyatni himoya qilish to'g'risida"gi, "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi (yangi tahrirda), "Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida"gi qonunlar, ommaviy kommunikatsiyalar, mediata'l'm texnologiyalari, mediakompaniyalar, internet tizimi, internetning paydo bo'lishi, ommaviy nazorat, "ommaviy madaniyat", axborot xurugi, axborot xurujiga qarshi kurashish, informatsion-psixologik xavfsizlik, axborot makoni, globallashuv, axborot oqimi.*

**1-masalaning bayoni:** Milliy g'oya aholining keng qatlami orasida targ'ibot va tashviqot ishlarni takomilda shubhasiz ommaviy axborot vositalari (OAV) yetakchi o'rinni egallaydi. Huquqiy demokratik davlat, fuqarolik jamiyati qurishda ommaviy axborot vositalarining o'rni va roli benihoya katta. Sho'rolar davrida O'zbekistonda faoliyat ko'rsatgan ommaviy axborot vositalari o'z milliy zamindan uzilgan edi. U o'zbek xalqiga, O'zbekistonga xizmat qilmas edi. Ommaviy axborot sho'rolar zamirida kommunistik mafkura dastyori sifatida mehnatkashlar ommasi ongi va dunyoqarashida tobelik, qaramlik va qullik g'oyalarini targ'ib qilar edi. O'zbekiston o'z milliy mustaqilligini qo'lga kiritgandan so'ng, ijtimoiy hayotning boshqa sohalarida bo'lgani singari ommaviy axborot vositalari oldiga tub sifat o'zgarishlar davri boshlandi. U o'zining milliy zaminiga ega bo'ldi. Mamlakat ijtimoiy siyosiy hayotida ro'y bergen tub sifat o'zgarishlari ommaviy axborot vositalari oldiga ham mutlaqo yangi talablarni qo'ydi. U ham bo'lsa, mamlakat fuqarolari o'rtasida keng qamrovli milliy g'oyalarini targ'ibot qilish asosida ularni kelajagi buyuk O'zbekistonni yaratishdek, shuningdek, uni doimo himoya qilishdek, davlat oldida fuqarolarni mas'uliyatini oshirishdek ishlarga ommaviy

safarbar etishdan iborat edi. Bu ulug'vor va oliyjanob vazifalarni amalgga oshirish uchun ommaviy axborot vositalarining huquqiy asoslari yaratish talab qilinar edi. Shu bois, O'zbekistonda ommaviy axborot vositalarining mustaqil respublika mezonlariga javob bera oladigan yuridik maqomlarini belgilab beruvchi hujjatlar majmuasi qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi bosh Qomusining 67-moddasida: "Ommaviy axborot vositalari erkendir va to'l qonunga muvofiq ishlaydilar. Ular axborotning to'g'riliqi uchun belgilangan tartibda javob beradilar. Senzuraga yo'l qo'yilmaydi."<sup>74</sup> Bugun jamiyatimizning ommaviy axborot vositalarisiz tasavvur qila olmaymiz. Jamiyatdagi ijtimoiy, siyosiy jarayonlardagi yetakchi o'rinni egallashini hisobga olgan holda, bugun OAV hatto "to'rtinchi hokimiyat" darajasiga ko'tarildi. Mamlakatimizda erkin faoliyatga asoslangan OAV shakllantirildi va uning faoliyatini takomillashtirish va rivojlantirish maqsadida, avvalo, huquqiy kafolatlarni yaratishga kirishildi. 1997-yilda qabul qilingan "Jurnalistik faoliyatni himoya qilish to'g'risida"gi, "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi (yangi tahrirda), "Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida"gi qonunlar yuqorida fikrimizning amaliy tasdig'idir. 1999-yil O'zbekiston jahon tillari universitetida Xalqaro jurnalistika fakultetining tashkil etilishi o'zbek jurnalistikasi tarixida muhim voqeа hisoblanadi.

Matbuot jamiyatni demokratlashtirish va kelajagi buyuk O'zbekistonni taraqqiy etishining, milliy g'oya va milliy manfaatlar tashviqotining o'tkiz quroli ekanligi isbot talab qilmaydigan haqiqatdir.

Bugun biz nafaqat jamiyat, balki hech birimizning hayotimizni OAVsiz tasavvur ham qila olmaydigan darajaga yetdik. O'zbekistonning Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek: "Demokratik jarayonlarni chuqurlashtirish, aholining siyosiy faolligini oshirish, fuqarolarning mamlakatimiz siyosiy va ijtimoiy hayotidagi amaliy ishtiroki haqida so'z yuritar ekanmiz, albatta, axborot erkinligini ta'minlamasdan, ommaviy axborot vositalarini odamlar o'z fikr va g'oyalalarini, sodir bo'layotgan voqealarga o'z munosabati va pozitsiyasini erkin ifoda etadigan minbarga aylantirmsandan turib, bu maqsadlarga erishib bo'lmasligini yaxshi tasavvur etamiz".

Jamiyatimizda demokratik qadriyatlarni qaror toptirish, fuqarolarimizning axborot sohasidagi konstitutsiyaviy huquqlarini ta'minlash, dunyoda va mamlakatimizda sodir bo'layotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, voqeа-hodisalar haqida tezkor va haqqoniy

<sup>74</sup> O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. -T.: O'zbekiston, 2020, 4-bet.

ma'lumotlar yetkazish borasida siz, matbuot ahlining fidokorona mehnat qilayotganingizni xalqimiz yaxshi biladi va yuksak qadrlaydi.

"Sizlar kabi ming-minglab oljanob kasb egalarining sa'y-harakatlari, iste'dod va mahorati bilan mamlakatimiz ommaviy axborot vositalari xalqimiz hayotiga, uning quvонch va tashvishlariga tobora yaqin bo'lib, O'zbekistonning yangi, demokratik qiyofasini shakllantirishda g'oyat muhim rol o'ynamoqda.

...Bugun biz dunyodagi uzoq-yaqin davlatlar bilan hamkorlikni mustahkamlab, yurtimizdagi demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirishga intilar ekanmiz, boshqa sohalar qatori ommaviy axborot vositalari faoliyati bo'yicha ham hali ko'p ish qilishimiz kerakligini yaxshi tushunamiz. Ommaviy axborot vositalari so'zda emas, amalda "to'rtinchi hokimiyat" darajasiga ko'tarilishi zarur. Bu - zamon talabi, islohotlarimiz talabi"<sup>75</sup>, deya ta'kidlaydi Prezident Sh.Mirziyoyev.

Ommaviy kommunikatsiyalar keng quloch yozgan bir paytda taqdim etilayotgan xabarlarni qabul qilish, to'g'ri baholash, uning tezligi, aniqligi, xolisligi va haqqoniyligini tahlil qila olish ko'nkmalariga ehtiyoj ham kuchayib boraveradi. Zero, bunday malaka yetishmagan joyda tushunmovchilik, ziddiyatlarning kelib chiqishi turgan gap.

Ommaviy axborot vositalarining jamiyatda tutgan o'rni va roli haqidagi baxs-munozaralar hamon davom etib kelmoqda. Bu esa mediaindustriya va uning ishlab chiqarayotgan mahsuloti yo'naltirilgan omma o'rtasida ma'lum bir ziddiyat borligidan dalolat beradi. Zero, mediabiznesning muvaffaqiyati shu mahsulotning xolisligi, haqqoniyligi asosiga tiklanadi. Fikri-yodi passiv va boshqarish oson bo'lgan auditoriya e'tiborini qozonish bilan band bo'lib qolib, ko'pchilik zamonaviy mediatashkilotlar iste'molchilari bilan o'zaro munosabatlarida yuzaga kelgan muammolarni bartaraf etishning boshqa, samarali yo'llarini izlashga hafsalasizlik qilmoqdalar. Bu esa OAVning obro'-e'tibori, kelgusidagi faoliyatiga jiddiy putur yetkazishi turgan gap.

Bunday paytda kommunikatsiyalar marketingining samarali quroli vazifasini OAVning mediatashkilotlar iste'molchilari bilan etib kelmoqda. U turli auditoriyalar bilan faol ishslashning har xil usul va shakllarini qo'llash orqali ishlab chiqarishning an'anaviy menedjmenti ish qurollari bilan uyg'unlashib ketadi va OAV ijtimoiy aloqalari usullaridan biriga aylanadi.

Shunisi e'tiborga sazovorki, mediatashkilotlar iste'molchilari bilan yondashilganda, mediakorxonaning obro'si, iqtisodiy ko'rsatkichlari sezilarli darajada ko'tariladi. Shu bilan bir vaqtida aholining

<sup>75</sup> Узбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Матбуот ва оммавий ахборот воситалари ходимлари куни муносабати билан соҳа вакилларига йўллаган табригидан (2018-йил 27-июн)//Халқ сўзи, 2017-йил, 28-июн.

mediasavodxonligini oshirishga ham xizmat qiladi. Va bu ham oxir-oqibat iqtisodiy yuksalishga olib keladi.

Ijtimoiy faol mediakompaniyalarning shu taxlit mediatashkilotlari amaliyotlariga ijtimoiy piarning bir ko'rinishi deb ham, jurnalistikaning o'quvchi, tomoshabin, tinglovchi mediasavodxonligi darajasini ko'tarishga qaratilgan vazifasi deb ham baho berish mumkin.

Piarning mumtoz nazariyalaridan birida shunday deyiladi:

Jamoatchilik bilan aloqalar – boshqaruvning alohida vazifasi bo'lib, u:

- tashkilot va jamoatchilik o'rtasida munosabatlar bardavomligini ta'minlash, hamkorlikni yo'lga qo'yishda vositachilik qiladi;

- tashkilot rahbariyatining jamoatchilik fikridan xabardor bo'lib turishi va vaqtida munosabat bildirishiga ko'maklashadi;

- rahbariyatga har qanday o'zgarishlarga tayyor turish va ulardan imkon qadar samarali foydalanishga yordam beradi;

- jamoatchilik manfaatlariga xizmat qilishdek asosiy vazifani aniqlaydi va e'tiborni shunga qaratadi;

- muomala-munosabatlarning axloqiy meyorlariga amal qilingan tadqiqot va kashfiyotlardan faoliyatining asosiy vositasi sifatida foydalanadi.

OAV mediatashkilot texnologiyalari jamoatchilik bilan aloqalar kabi mediamakon subyektlari o'rtasidagi munosabatlarni uyg'unlashtirishga, informatsion shaffoflik va ishonch o'rnatishga xizmat qiladi.

Mediatashkilot nuqtayi nazaridan jurnalistlar va auditoriyalarning o'zaro ta'sir shakllarining hammasini ikki kategoriya: o'zaro ta'sirning bilvosita va bevosita turlariga ajratish mumkin.

OAVda fuqarolik jamiyatni vakillarining tashabbusi bilan asarlar va ta'lismi dasturlarining nashr qilinishi, muharririyatning auditoriya bilan aloqasini qo'llab-quvvatlash maqsadida ma'lumot yig'ish, baholash va tekshirish bo'yicha jurnalistlarning tahririyat doirasidagi faoliyatlarini haqida tushuntirishlar beradigan bo'lim va ruknlar tashkil qilish va hokazolar o'zaro ta'sirning bilvosita turiga kiradi. Bular vaqtli matbuotda chiqadigan maqola, ruknlar, maxsus sonlar, nashrlar, teledastur va radioeshittirishlar, sayt, blog va elektron sahifalardagi sharh va tahliliy materiallardan iborat bo'lib, ulardan jurnalistika va mediatashkilot muammolari xususida ma'lumot olish, mediatanqid masalalari, shuningdek, zamonaviy OAV taraqqiyoti imkoniyatlari xususidagi mulohaza, munozaralarni kuzatish mumkin.

**2-masalaning bayoni:** Ayniqsa, bugungi kunda jamiyatning har bir oilasi va a'zosi OAVsiz hayotini tasavvur eta olmasligi va hech

bo'limganda u bilan bog'liq ravishda yashayotgan bir davrda bu haqiqat yanada oydinlashadi. Bugun ommaviy axborot vositalarini "to'rtinchı hokimiyat" sifatida talqin etilishining boisi demokratik davlatlarda hokimiyat bo'linishining uch tamoyili amal qilsa-da, ularning faoliyatlarini takomillashtirish va ularni xalq bilan bog'lashning asosiy vositachisi bo'lgan ommaviy axborot vositalaridir. Bugun bu yo'nalish katta ahamiyatga ega bo'lib bormoqda.

Ayni paytda respublikamizda 1500 dan ziyod ommaviy axborot vositasi faoliyat yuritayotganligi jamiyat axborotlashuvida OAV faollashayotganligini ko'rsatadi.

Ayni shu masalada Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev fikr bildirar ekan, shunday dedi: "Birgina O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi tarkibidagi telekanallarning bir sutka davomidagi umumiy efir vaqt 616 soatni tashkil etmoqda. Holbuki, mustaqillikdan oldin bu raqam boryo'g'i 48 soatga teng edi, xolos.

...Eng tezkor axborot vositasi – Internet hayotimizga tobora chuqur kirib borayotganini alohida qayd etish lozim. Hozirgi vaqtda global tarmoqda Uz domenli veb-saytlar, axborot portallari soni 400 dan oshib ketgani, ularning aksariyati xorijiy tillarda faoliyat ko'rsatayotgani, ushbu yo'nalishda yangi ijodiy avlod – Internet jurnalistlari shakllanib borayotgani e'tiborga sazovordir"<sup>76</sup>.

Bu o'rinda milliy targ'ibotda ommaviy axborot vositalarining o'rnini alohida ta'kidlab o'tish lozim.

Birinchidan, ommaviy axborot vositalarini ma'lumotlarni tezkorlik bilan yetkazish imkoniyatiga ega.

Ikkinchidan, bugun insonlarning hayotining barcha jabhalariga kirib borishga ulgurdi, o'ziga xos tarzda ma'lumotlar manbasiga aylanib qoldi.

Ommaviy axborot vositalarining asosiy "talabgorlari" yoshlar qatlami bo'lib, ayni ommaviy axborot vositalarining turli ko'rinishlari orqali milliy targ'ibotni yoshga mos tarzdagi ko'rsatuvlar, radioeshittirishlar tarzida yetkazib berilsa, ayni maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bugun globallashuv davrining yana bir yirik kashfiyoti sifatida baholanayotgan – Internet tizimining yaratilishi OAV yaratilishi tarixida ulkan tarixiy burilishni yasadi va dunyo mamlakatlari o'rtasidagi "chegaralar yanada yaqinlashdi". Ushbu tizim bo'yicha dunyoning istalgan mamlakati bilan uning maxsus saytlari orqali aloqa qilish,

<sup>76</sup> Qarang: Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Матбуот ва оммавий ахборот воситалари ходимлари куни муносабati билан соҳа вакилларига ўйллаган табригидан (2018-йил 27-июн)//Халқ сўзи, 2017-йил, 28-июн.

shuningdek, axborotlarni uzatish va qabul qilish imkoniyatiga ega bo'lindi. Zero, faqatgina Internetning o'zi fan va texnika, siyosat, iqtisod rivojida, umuminsoniy va milliy madaniyatning o'zaro ta'sirida, yagona axborot tizimini yaratish sohasida insoniyat uchun yangi imkoniyatlarni ochib berdi. Internetning paydo bo'lishi XX asrning 60-yillarning oxiri va 70-yillar boshlariga to'g'ri keladi. Oqibatda, internet ilmiy, tijorat va notijorat tashkilotlari, mustaqil matbaa va ommaviy axborot vositalari foydalanadigan global tarmoqqa aylandi. 1991-yilda Angliya va Norvegiya ulangan internetga, 1992-yilda AQSH birlashdi. 1996-yilning o'zida 50 million abonentlar qatoriga O'zbekiston ham a'zo bo'lib kirdi. 2000-yilda uning a'zolari soni 90 millionga yetdi. Internet boy axborot manbayi va unga xohlagan paytda, har qanday vaziyatda murojaat qilsa bo'ladi. Unda reklamalar, tijorat takliflari va e'lonlari, TV va radio dasturlari, yirik gazeta va jurnallarning elektron nusxalari e'lon qilinadi. Ammo masalaning yana bir muhim, o'tkir jihatni borki, bugun bu jarayon nosog'lom "axborot xurujlari" bilan ham bog'liqidir. Bugungi kunda jamiyatga jiddiy xavf tug'dirayotgan yot g'oyalardan biri terrorizmning asosiy quroli ham yadro quroli emas, balki internet bo'lib qolayotganligi fikrimizning isbotidir. Yana masalaning asosiy tomonlaridan biri, internetda axborotlarning tez tarqatish xususiyatiga ega ekanligi terroristlarning asosiy manbasiga aylanib qoldi.

Axborotlar chegara bilmas ekan, ommaviy axborot vositalari ayni paytda insoniyat uchun katta imkoniyatlar manbasi bo'lish bilan bir qatorda, uning tom ma'nodagi "kushandasasi" hamdir. Bugun biz bunga dunyoning ko'plab mamlakatlaridagi terroristik va buzg'unchilik harakatlaridan oldin tarqatilgan internet ma'lumotlari misolida ko'rishimiz mumkin. Ispaniyada 2003-yildagi, Angliya metrosidagi 2005-yildagi, Rossiyada 2006-yildagi terroristik xatti-harakatlar oldindan turli paytlarda, aniqlab bo'lmas portallar orqali ma'lumot sifatida tarqatilgan. Bundan tashqari, "ommaviy madaniyat"ning kirib kelishi uchun asosiy yo'lak hamdir.

Globallashuv jarayonlari ilm, fan- texnika, iqtisodiyot va boshqa sohalar bilan bir qatorda, davlat boshqaruvini demokratlashtirish masalasiga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Globallashuv jarayonlari natijasida milliy o'zlikka xavf soluvchi multimadaniyat kirib keldi. Endilikda uning ta'siri ostida har bir millatga xos bo'lgan xususiyatlar umumiyligi madaniyat bilan qorishib ketmoqda. Eng achinarlisi, uning ta'siriga yoshlar tushib qolmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizda jamiyatning ma'naviy-axloqiy yuksalishi, fuqarolar, xususan, yosh avlodning ma'naviy-axloqiy kamoloti

masalasiga katta e'tibor qaratilib, bu yo'nalishdagi ishlarning ko'lamini yanada kengaytirishda aniq maqsad va vazifalar belgilandi. Davlat va jamiyatning uzviy hamkorligida ishlab chiqilgan bu yo'nalishdagi dasturlar, chora-tadbirlar natijasida, avvalo, o'zlikni anglash, tarixiy va milliy qadriyatlar, qadimiy urf-odat va an'analarimizni tiklash va ularni yanada boyitish, ajdodlarimiz ruhiga hurmat va ehtirom ko'rsatish, tarixiy obidalar va qadamjolarning qayta tiklanishi va, eng muhimmi, milliy istiqlol g'oyasiga asos solinishidek qator ijobiy ishlar amalga oshirildi<sup>77</sup>.

Globallashuv – dunyo xalqlari o'rtaсидаги муносабатлар тизими екан, унинг тузилмаси турли муносабатлар асосига қурилади. Оммавија ахборот вositалари targ'ibotlarni турли yo'sinda amalgaga oshirishi mumkin bo'lib, ularda reklama va e'lonlar асосиyl rol o'ynaydi. Reklama va e'lonlarda ma'lum bir mahsulotni taqdimoti orqali асосиyl yetakchi davlatga xos va mos bo'lgan g'oya targ'ib etiladi. Aynan оммавија ахборот vositалари paydo bo'lгunga qadar dastlab, turli e'lonlar g'oyalarning targ'iboti sifatida xizmat qilgan bo'lib, Italiya fashizmining "otasi" Benito Mussolini o'z fashistik g'oyalarini targ'ibotini, avvalo, odamlar gavjum to'planadigan joylarga tarqatilagan e'lonlar асосида amalgaga oshirgan. Germaniya "dahosi" (fyureri) deb ta'riflangan Gitler esa, dastlab o'z tashviqotini kambag'allar yashaydigan va yig'iladigan manzillarda e'lon tarqatish bilan fashistik g'oyalarning dastlabki "izdoshlari"ga ega bo'lgan edi. Chunki, bu paytda kambag'allar aholining ko'p qismini tashkil qilar va yangi ахборотларга muhtoj ham edi. Bugun оммавија ахборот voositalari "ommaviy madaniyat"ning асосиyl ko'rinishlaridan biri bo'lgan turli xil kinofilmilar va seriallar bilan o'z mijozlariga ega bo'lmoqda. Bu o'rinda o'zining shaxsiy manfaatlarini ko'zlayotgan kuchlar nisbati haqida jiddiy o'ylab ko'rish lozim. Chunki aynan оммавија ахборот vositalarining turli ko'rinishlari orqali jamiyatga "yot unsurlar"ning kirib kelishi ham tezlashadi. Shu maqsadda turli xil kinofilm va seriallar, g'arb ko'rsatuvlarini taqdim etayotgan telekompaniyalar faoliyatini yanada takomillashtirish va оммавија назоратни kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Auditoriya va OAVning o'zaro bevosita ta'siri mediata'limning ko'pqirrali tashkiliy shakl va texnologiyalari orqali taqdim etilishi mumkin, bunda har xil auditoriya guruhlari va jurnalistlar ta'lim faoliyati jarayonida, shuningdek, haqiqiy ijodiy loyihalarda har qanday vositachilarsiz aloqaga kirishadilar. Bu holatda nafaqat erkin jurnalistlar, balki muharririyatlar, nashriyot uylari, mediasoldinglar,

<sup>77</sup> Ma'naviyat asoslari: O'rta umumta'lim mакtablarining 10-11-sinflari va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari uchun darslik / V.Qo'chqorov, O.Mahmudov, Z.Zamonov. – Ikkinci nashr. – Toshkent: Yangiyo'l Poligraf Servis, 2018, 132-bet.

mediakompaniyalar mediata'lism faoliyatining subyekti sifatida namoyon bo'ladilar.

Auditoriya bilan bevosita munosabat o'rnatishning turli shakllaridan birdek samarali foydalanish mumkin. Bular:

Yakka tartibdag'i ish(muharririyat topshirig'i, murabbiylilik, kuratorlik, mediamatn tayyorlash jarayonida o'rgatish, stajirovka va amaliyotlar);

Guruh bilan ishslash shakllari (boshlovchilar uchun master-klasslar, kurslar, mакtablar, muharririyatlar qoshidagi studiyalar, seminar va treninglar).

Ilova ko'rinishidagi sahifa, ruknlar nashr etish, teleko'rsatuв va radioeshittirishlar tayyorlash, saytlarda tematik bo'limlar tashkil qilish;

Ommaviy tadbirlar (festival, slyot, forum, konferensiya, ijtimoiy aksiyalar, ko'rgazma, tanlov va boshqalar).

OAV mediata'lism texnologiyalari: jurnalistlar, shuningdek, medianing boshqa mutaxassislari bilan muloqot (ijodiy uchrashuvlar, ommaviy baxslar, mediaklub va boshqalar); media mahsulot ishlab chiqarishda ishtirok etish; o'z shaxsiy informatsion mahsulotini yaratish (bular havaskorlik gazeta, jurnallari, foto-video materiallar, blog va internet sahifalar bo'lishi mumkin); festival, slyot, forumlardagi o'yinlarni o'z ichiga oladi. Bularning har biridan alohida, yoki uyg'unlikda foydalanish mumkin. OAV olib boradigan mediata'lism faoliyatining asosiy natijasi auditoriya mediafaolligi namoyon bo'lishining muhim shakllaridan biri bo'lgan mediamahsulotda ko'rindi.

OAVning mediata'lism sohasidagi faoliyati bir ikkita aksiya va tadbirlar bilan cheklanib qolmasligi kerak. U izchillik bilan rivojlantirib borilsagina kasbning o'ziga xosliklaridan xabardor, birlamchi jurnalistik malakaga ega bo'lgan, ongli, taqdim etilayotgan imkoniyatlardan to'g'ri va samarali foydalana oladigan mediasavodxon auditoriyani tarbiyalashga hissa qo'shgan bo'ladi.

Fuqarolik jamiyatni institutlari tizimida ommaviy axborot vositalarining o'rni va rolini yanada mustahkamlash, ularni yanada erkinlashtirish, nodavlat matbuot nashrlari faoliyatini jonlantirish, internet global tarmog'iga kirish imkoniyatlarini kengaytirish, jamiyatimizda yuz berayotgan voqealarni o'quvchiga ochiq, oshkora va xolis yetkazishni davrning, hayotning o'zi taqozo etmoqda.

Demokratiya ochiqlik va oshkoraliyti, davlat siyosati va xalq o'rtasida doimiy aloqaning mavjudligini talab qiladigan bo'lsa, o'z navbatida, ochiqlik, oshkoraliyti va hatto demokratiyaning o'zini ham erkin va mustaqil matbuotsiz, axborot vositalarisiz tasavvur qilib

bo'lmaydi. Demokratik tizimning eng muhim tarkibiy qismlaridan bo'lgan parlament, siyosiy partiyalar, ijro hokimiyatidan tortib, mustaqil sud tizimi kabilar bilan bir qatorda turadigan OAVlar bejiz "to'rtinchi hokimiyat" sifatida baholanmaydi<sup>78</sup>.

Zero, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan va olib boriladigan axborot siyosati "mavjud barcha OAVlar uchun imkoniyatlar kengayishini, ularning bosimlardan himoyalanishi, ular faoliyatiga aralashmaslikni ta'minlashga yo'naltirilgan bo'lishi lozim". Biroq, bunda qonun amal qilishini qo'llab-quvvatlash tamoyili, jumladan, ularning iqtisodiy faoliyatini va ochiqligi tartibga solinishini ham nazarda tutishi lozim. Ushbu siyosat "yagona axborot makoni shakllanishini, inson va fuqaroning axborot olish huquq va erkinligini amalga oshirishning davlat tomonidan kafolatlanishi bir tekis olib borilishini, hududiy matbuotlarga moddiy yordam ko'rsatilishini o'z ichiga oladi"<sup>79</sup>.

"2017–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'naliishi bo'yicha Harakatlar Strategiyasi"da jamoatchilik bilan muloqot, fuqarolarning davlat boshqaruvi ishidagi faol ishtirokini ta'minlash va jamoatchilik nazoratini o'rnatishda OAV rolini oshirish alohida ta'kidlangan. OAV o'z vazifasi nuqtai nazaridan jamiyatda umumiyligi kayfiyatni shakllantiruvchi eng sog'lom g'oyalar atrofida aholini birlashtiruvchi, yo'naltiruvchi kuch hisoblanadi. Uning aholi qatlaming barcha yo'nalishlariga kirib borishi, qamrab olishi muhim ahamiyatga ega. Ikkinchisi tomonidan so'zning qudrati va jozibasini to'la namoyon etmog'i lozim. Bunda jurnalist mahorati, matbuot xodimlarining kasbiy, ijodiy mahorati mshim ahamiyatga ega. Demakki, matbuotning hozirjavobligi, prinsipialligi, islohotlar jarayonini butun mohiyati bilan tushunib targ'ib eta olishi odamlar siyosiy ongini yuksaltirishda eng muhim vosita hisoblanadi<sup>80</sup>.

Ommaviy axborot vositalari insoniyat hayotining ajralmas qismiga aylanib ulgurdi. Yangilikka intilish, uni tasarruf etish, bevosita ishtirokchisiga aylanish esa umuminsoniy ehtiyoj, hatto maqsad sifatida namoyon bo'layotir. Biroq, global mashhuv shiddati va tahdidi bizdan doimo hushyor yashashni, umumbashari ma'naviyatga faqat va faqat

<sup>78</sup> Mamatov G'. Axborotlashgan jamiyatda jamoatchilik nazorati va davlat axborot siyosatining uyg'unligi (O'zbekiston Respublikasi misolida) Siyos.fan.bo'yicha falsafa doktori. Dissertyasiya. –T.: 2020, 71-bet.

<sup>79</sup> Мезенцев Д.Ф., Материал в разделе Государственная информационная политика и ее реализация в процессе формирования гражданского общества//Роль СМИ в формировании гражданского общества. – М.: Хроникер, 2006, –с тр.17.

<sup>80</sup> Mamatov G'. Axborotlashgan jamiyatda jamoatchilik nazorati va davlat axborot siyosatining uyg'unligi (O'zbekiston Respublikasi misolida) Siyos.fan.bo'yicha falsafa doktori. Dissertyasiya avtoreferati. –T.: 2020, 13-bet.

umummilliy qarashlar tizimi orqali bog'lanishni talab qilayotgani ham sir emas. ZOTAN, Birinchi Prezidentimizning "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida ta'kidlanganidek, bugun inson ma'naviyatiga qarshi yo'naltirilgan arzimas bo'lib tuyuladigan kichkina xabar ham axborot olamidagi globallashuv shiddatidan kuch olib, ko'zga ko'rinxaymaydigan, lekin zararini hech narsa bilan qoplab bo'lmaydigan ulkan ziyan yetkazishi mumkin.

So'nggi paytlarda har xil g'arazli kuchlarning "ommaviy madaniyat" niqobi ostida xatarli g'oyalarni yoshlar ongiga singdirishga urinishlari kuchaymoqda. Bunday jirkanch «madaniyat» ta'siriga duchor bo'lgan o'smir loqayd, yengil-yelpi hayotga oshno, yurt ravnaqi va xalq tinchligiga befarq kimsa bo'lib voyaga yetadi. Shuningdek, "ommaviy madaniyat" jamiyatda buzg'unchilik va zo'ravonlikni targ'ib etish hamda bolalarga go'yo istagan ishini qilish – "erkinlik berish" kabi bema'ni odatlarni yoyish bilan ularni manqurtga aylantirib, ma'naviyatini og'ir inqirozga duchor qiladi.

Dunyoda kechayotgan murakkab jarayonlar yoshlar tarbiyasiga yanada e'tiborliroq bo'lishni talab etmoqda. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida ta'kidlanganidek, "Agarki biz bunday xatarlarga qarshi o'z vaqtida qat'iyat va izchillik bilan kurash olib bormasak, turli zararli oqimlar bizning yurtimizga ham shiddat bilan yopirilib kirishi, yoshlarimizni o'z girdobiga tortib ketishini, oqibatda, ularning ota-onasi, el-yurt oldidagi burchi va mas'uliyatini o'ylamaydigan, faqat bir kunlik hayot bilan yashaydigan xudpisand kimsalarga aylanib qolishi mumkinligini tasavvur qilish qiyin emas".

Odob-axloq, hayo-ibo, or-nomus va diyonat kabi fazilatlar azaldan xalqimiz ma'naviy olamining ajralmas qismi sanalgan. Bugungi globallashuv sharoitida «ommaviy madaniyat» niqobi ostida yoshlarimizga turli yot g'oyalarni, ma'naviy tubanliklarni targ'ib etishga urinayotgan qabih niyatli kimsalar aynan ana shunday qadriyatlarimizga bolta urishga urinayotgani sir emas.

Ba'zan matbuot do'konlari oldida yoshlarga ham ko'zimiz tushadi. Aksariyatining qo'lida «ma'naviy dam oldiradigan» nashrlar. Qiziqib ko'rsangiz, birinchi sahifasidanoq muhim ijtimoiy-siyosiy voqealar o'rniqa siyqasi chiqqan "shou-biznes yulduzlar" ning suratlari bilan boshlanadi. Ularning hayotidagi o'zgarishlar, sensatsiyalar; hikoya, qissa, hatto roman janri ostida siyqa, badiiy did, uslub va konsepsiya talablariga javob bermaydigan, shahvoni yirsni hamda boshqa ongosti hislarini qo'zg'ashga mo'ljallab qoralangan quruq syujetlar; dunyo ilm-fani yo insoniyat taraqqiyotiga hissa qo'shgan insonlar faoliyati qolib, uch-to'rtta

ashula xirgoysi qilib, "mega yulduz"ga aylangan xonandalar hayotidagi ikir-chikirlar; barkamol avlod qalbida milliy qadriyatlarga hurmat uyg'otadigan mukammal maqolalar emas, to'y-hashamlardagi har xil maishiy kelishmovchiliklar; savodli o'quvchini qizg'in bahs-munozaraga chorlaydigan fikrlar o'rniga, ismi betayin «oshiq-ma'shuqlar»ning «oh-voh»lari, «muhabbat» iztiroblari; milliy ruhiyat tahlili turganda, turfa irim-sirimlar haqidagi maqolalar peshma-pesh chop etilayotgani ajablanarli holdir.

G'arb matbuoti bosib o'tib ketgan halokatli yo'lga, ularning "kissasidan tushib qolgan" qarashlarga biz o'rnak deb qarayapmizmi yoki iibrat?

Avvalo, auditoriyani kengaytirishning shunday qing'ir yo'lini tanlagan "qalam ahli" kim va nima uchun xizmat qilayotganini oydinlashtirib olishi kerak. Bu murakkab jarayonga imkon qadar tezroq bosib o'tilishi shart bo'lgan bosqich sifatida qarash lozim. O'zbek milliy jurnalistikasida ikir-chikir «turmush chorrahalar-yu» oilaviy mojarolardan saviyaliroq, xalq sifatida o'z o'rnimizni mustahkamlaydigan, milliy qadriyatlarimiz va xarakterimiz tarannum etilgan sof publisistik materiallar yetakchi o'rinni egallashi zarur. Shuningdek, barcha nashrlar yagona umummilliy maqsadga - yoshlarni ongida milliy immunitetni shakllantirish va mustahkamlashga xizmat qilishi shart, deb yozadi jurnalist Umid Yoqubov.

O'zbekiston xalq shoiri Sirojiddin Sayyid bir she'rida shunday yozadi: "Millat gazetadan boshlanar asli, gazeta rost yozsa – millat rost yashar".

Darhaqiqat, inson va jamiyat o'rtasidagi muhim bir vosita bo'lgan matbuot nashrlari hamisha hayot, yurt va millat ko'zgusi bo'lib kelgan. Ta'bir joiz bo'lsa, matbuotning qandayligiga qarab, xalqning kimligini baholash mumkin.

Bugungi kunda ommaviy kommunikatsiya vositalari orqali amalga oshirilayotgan ma'naviy tahdidlarga yolg'on axborot tarqatish, ijtimoiy ongni manipulyatsiya qilish, milliy-ma'naviy qadriyatlarni yemirish, mentalitetga yot qadriyatlarni targ'ib qilish, xalqning tarixiy xotirasiga putur yetkazish, kiberterrorizm kabilarni kiritish mumkin.

Bir qator rivojlangan mamlakatlarda nosog'lom axborot oqimlarining oldini olish, bartaraf etish va unga qarshi kurashishning o'ziga xos qonunchilik tizimi yaratilgan. Jumladan, bu borada xalqaro amaliyotdagi "Kiber jinoyatlar to'g'risida"gi konvensiya, "Voyaga yetmaganlar uchun xavfsiz internet va onlayn resurslarni joriy qilish to'g'risida"gi Yevropa Ittifoqi Parlamenti Assambleyasining tavsiyalari, "Bola huquqlari to'g'risida"gi BMT konvensiyasi, Germaniyaning "Yoshlarni himoyalash

to'g'risida"gi, Litvaning "Voyaga yetmaganlarni ommaviy axborotning salbiy ta'siridan himoyalash to'g'risida"gi va Rossiyaning "Bolalarni sog'lig'i va rivojlanishiga ziyon yetkazuvchi axborotdan himoyalash to'g'risida"gi qonunlarini misol qilib keltirish mumkin.

**3-masalaning bayoni:** Shuni alohida ta'kidlash lozimki, har millat an'anaviy taraqqiyot zaminlariga ega bo'lib, bu o'rinda albatta zamonaviylikni ham inkor etmasligi lozim. An'anaviylik va zamonaviylik o'rtasidagi ko'prik vazifasini bajarishi lozim bo'lgan jamiyat ijtimoiy institutlaridan biri ham aynan ommaviy axborot vositalaridir. Ammo ommaviy axborot vositalari faqatgina o'z "mijozlari"ga ega bo'lish maqsadida an'anaviylikka eskilik sarqiti sifatida qarash, yangi zamonaviy ko'rinishga ega bo'lgan manbalardan ko'proq foydalanish holatlari, afsuski hozirgi kunda uchrab turibdi. Milliy g'oya ta'limida o'z navbatida, ommaviy axborot vositalari oldiga katta va o'z o'rnila ma'suliyatli vazifalarini yuklaydi. Faqatgina ko'rsatishning o'zi yetarli emas, balki, turli tushuntirish ishlarini ommalashtirish, unga fuqarolarni jalb qilish orqali tashviqotni yanada kuchaytirish, tutruqsiz g'arb kliplarining o'rniga milliylik ruhi bilan sug'orilgan ko'rsatuvlarni namoyish etish, astasekinlik bilan hammabop teledasturlar tizimini yaratib borish ommaviy axborot vositalarining milliy g'oya targ'ibotidagi muhim jihatlardan biri hisoblanadi.

Axborot xurujiga qarshi kurashish – davlat tomonidan maxsus metod (siyosiy, iqtisodiy, diplomatik, harbiy va h.k.)lar, usullar vositasida, ichki va tashqi axborot makonida o'z manfaatlarini himoyalashning majmuaviy tizimidir.

Informatsion-psixologik xavfsizlikni ta'minlash quyidagi asosiy sohalarda olib borilishi kerak:

- Siyosiy (davlatning ichki va tashqi siyosat) faoliyatida;
- Diplomatik (xalqaro va davlatlararo) munosabatlarda;
- Davlatning siyosiy ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarida;
- Harbiy (mudofaa tizimining mustahkamlanishi).

Davlatlarning milliy manfaatlariga jiddiy xuruj sifatida namoyon bo'layotgan omillardan biri – global axborot xuruji eng yuqori darajani tashkil qiladi. Xalqaro axborot makonidan o'zaro kurashuvchi manbalar o'zaro vaqtincha birikib, muayyan davlatga qarshi axborot xurujini tashkil etishadi. Asosiy maqsad, xuruj ta'siri ostiga olingan davlatning ichki axborot makonini tanazzulga uchratish, xalqaro axborot makonida o'sha davlatni o'z pozitsiyasini mahrum qilishdir.

1998-yilda texnika fanlari doktori S.Rastorguyev o'zining "Axborot urushi"<sup>81</sup> nomli kitobida S.Nilusning "Sion donishmandlari yig'ilishi protokollari" nomli hujjatni informatsion-texnologik nuqtai nazaridan tahlil qilgan. Chunki, mazkur hujjatda axborot urushining barcha yo'nalishlari, omillari aniq va qisqa yo'nalishda ko'rsatilgan:

- Boshqaruv tizimi (hokimiyat tarmoqlarini nazorat qilish);
- Aholini fikrini o'zgartirish vositalari (OAV yordamida);
- Terrorizm (davlatni tahlikaga solib, maqsadga erishish);
- Iqtisodiy xuruj, iqtisodiy boshqaruv vositalari;
- Iqtisodiy dastur (iqtisodiy tanazzulga yoki qaramlikka olish);
- Umumxalq ovoz berishlari va h. (siyosiy jarayonni buzish)

Mazkur hujjatdagi ma'lumotlar metodik xarakterga ega bo'lib, ular shunday tuzilganki, axborot xurujining mazmun-mohiyatini anglay oladigan har qanday shaxs uni faoliyatida ishlatsi mumkin.

Xalqaro axborot makonida hali ham amaliy ustunlik AQSH rahbarligidagi yetakchi harbiy mamlakatlari tomonida bo'lib, ularning bugungi kundagi asosiy maqsadlari quyidagilar bilan bog'liqdir:

- Global informatsion muhitni o'z qo'llariga olish, to'liq nazorat hamda gegemonlik o'rnatish, Hindiston, Xitoy, Rossiya kabi harbiy kuch-qudrat va strategik maqomga ega davlatlarni siqib chiqarish;
- Eron, MDH davlatlarini, shimoliy Koreya kabi o'z tamoyiliga ega davlatlarning xalqaro axborot maydonida o'z o'rnnini topishga yo'l qo'ymaslikdan iboratdir.

Mustaqillikka erishgan mamlakatlar, jumladan, O'zbekiston uchun ham bunday xavflarni bartaraf etish masalasi jiddiy g'oyaviy muammolar doirasiga kiradi. G'oyaviy-mafkuraviy jarayonlar murakkablashib borayotgan, uning yangi usullari o'ylab topilayotgan hozirgi kunda ushbu tahdid va ta'sirlarga faqat kuchli g'oya, o'zlikni anglash, sog'lom g'oyalardan iborat mafkuragina qarshi tura oladi.

O'zbekistonda senzuraning man qilinishi bilan ommaviy axborot vositalarining erkin faoliyati uchun zarur shart-sharoitlar shakllandi.

Mazkur masalaning jamiyatimiz taraqqiyotida tutgan o'rni haqida to'xtalib, O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov shunday degan edi: "Hozirgi kunda kommunikatsiya va kompyuter texnologiyalari asrida, internet kundan-kunga hayotimizning barcha jabhalariga yanada chuqur va keng kirib borayotgan bir paytda, odamlarning ongi va tafakkuri uchun kurash hal qiluvchi ahamiyat kasb etayotgan bir vaziyatda bu masalalarning jamiyatimiz uchun naqadar

<sup>81</sup> Qarang: Расторгуев С. Информационная война. – М.: Радио и связь, 1998 г. –С. 139-140.

dolzarb va ustuvor bo'lib borayotgani haqida gapirib o'tirishning xojati yo'q".

Axborot makoni globallashuvning hozirgi bosqichida internetning milliy va xalqaro kompaniyalar, davriy matbuot, TV va radio bilan munosabatlari yanada kengayib, boyib bormoqda. Demak, ommaviy axborot vositalarini faoliyatini yanada liberallashtirish orqali milliy g'oya targ'ibotining kuchaytirish, uning mazmunini oshirish – davr talabi iisoblanadi.

Mamlakatimizda yoshlarni turli axborot xurujlaridan himoya qilishga qaratilgan mustahkam qonunchilik bazasi yaratilgan. Xususan, "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida"gi Qonunning 6-moddasida qayd etilganidek, "O'zbekiston Respublikasida yoshlar orasida odob-axloqni buzishga, shu jumladan, zo'ravonlikni, hayosizlikni va shafqatsizlikni tashviqot qilishga qaratilgan har qanday xatti-harakatlar man etiladi". E'tirof etish o'rinniki, ayni paytda bu boradagi qonunchilik tizimi davr ruhiga mos tarzda takomillashib, yangi qonun hujjatlari bilan yanada boyib bormoqda. Zero, axborot makonida tahdidlar bor ekan, milliy axborot makoniga chegara qo'yib bo'lmasligini nazarda tutgan holda yoshlarga sog'lom axborot muhitini yaratib berish, vayronkorlik va buzg'unchilik mazmunidagi axborot oqimini cheklash, yosh avlod ma'naviy olamining daxlsizligini asrash dolzarb vazifadir.

Shuning uchun xalqaro amaliyotda axborot sohasini tartibga soluvchi huquqiy hujjatlarni chuqur tahlil etgan holda O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 8-sentabrda "Balalarni ularning sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to'g'risida"gi O'RQ-444-soni Qonuni qabul qilindi. Mazkur qonunning maqsadi voyaga yetmaganlarni psixologik, jismoniy, ma'naviy va axloqiy rivojiga zarar yetkazuvchi axborotlardan himoyalash, ularning sog'lom ulg'ayishi va komil inson bo'lib voyaga yetishlari uchun qulay muhit yaratishdan iboratdir. Unda axborot materiallarini yoshlar o'rtasida tarqatish mumkinligini baholovchi ekspertizani tashkil qilish, zararli axborotlar tarqalishiga cheklolvar joriy qilish kabi vazifalar belgilangan.


Tinimsiz axborot oqimi vujudga keltirayotgan muhitda milliy qadriyatlar, azaliy an'analar zavol topishining oldini olish maqsadida axborot xavfsizligini ta'minlash kerak. Xorij telekanallarida nima namoyish etilsa yoki internetda nima targ'ib qilinsa, barchasini qabul qilaverish aslo mumkin emas. Biz ular orasidan imon-e'tiqodimiz, an'ana va qadriyatlarimizga mos keladiganlarinigina saralab olmog'imiz lozim.

Yer yuzidagi axborot almashinuvi mislsiz tezlashgan hozirgi sharoitda G'arbdagi "markazlar" bundan foydalanib, boshqa davlatlar va xalqlar o'rtaida G'arb hayotining buzg'unchi "g'oyalari"ni, jumladan, "ommaviy madaniyat" ta'sirini "erkinlik shabadalari" tarzida yoyishga harakat qilayotgani hech kimga sir emas.

Tahlillarga ko'ra ayni paytda global tarmoqda o'z joniga qasd qilishni targ'ib qiluvchi 9 ming, hayosiz mazmunga ega 4 mingdan ziyod saytlar mavjud ekan. Hozir dunyodagi 42 foiz bolalar va o'smirlar onlaysiz mazmundagi saytlar ta'siriga tushmoqda. Shuningdek, kompyuter o'yinlarining 49 foizi zo'ravonlik va yovuzlik, 41 foizi esa o'ta jangari ruhda ekani ham uning oqibatida yuzaga keladigan ma'naviy zararni yanada yaxshi tasavvur qilish imkonini beradi.


Bugungi kunda yurtimizda ham aloqa va telekommunikatsiya sohasida olib borilayotgan tizimli islohotlar, texnologik modernizatsiya tufayli o'ziga xos zamonaviy axborot makoni rivojlanib bormoqda. Bu borada, ayniqsa, sog'lom dunyoqarash va mustaqil tafakkurga ega yoshlarni voyaga yetkazish maqsadida ma'naviyat, san'at va ma'rifat maskanlari, kutubxonalar, axborot-resurs markazlarining tarbiyaviy ahamiyatini yanada yuksaltirish, ular faoliyatida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Bugun mamlakatimizda yuzlab internet kafe, internet provayder, axborot-kutubxona muassasasi, davlat axborot resursi hamda "Ziyonet" yoshlar axborot portalı faoliyat yuritmoqda. Albatta, bu boradagi yutuqlarimizni xolis baholagan holda, fikrimizcha, sohadagi ayrim masalalarni hal etishga ham jiddiy e'tibor qaratishimiz lozim.



O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi tomonidan O'zbekistonning mobil aloqa abonentlari soni haqidagi ma'lumotlar e'lon qilinadi.

Xususan, 2018-yilga kelib mamlakatimizda internet-foydalanuvchilari soni 20 millionni tashkil etdi va bir yil mobaynida 5,3 mln. foydalanuvchig a o'sdi (o'sish 36%). Shu bilan birga, O'zbekistondan xalqaro tarmoqlarga umumiylanish tezligi 104,1 Gbit /s.ni tashkil etdi, ushbu ko'rsatkichning bir yil mobaynidagi o'sishi esa 58 foizdan orttdi.



Axborot texnologiyalari keskin rivojlanib borayotgan sharoitda axborot xavfsizligi shaxs, jamiyat, davlatning milliy manfaatlarni ta'minlashda katta ahamiyatga ega.

Ma'lumki, har bir axborot tagida manfaat yotadi. Ammo axborotdan milliy va xalqaro manfaatlarga zid kelgan holda foydalanish jinoyat hisoblanadi. Bugungi kunda esa axborot dunyoning ayrim mamlakatlari hamda xalqaro terroristik tashkilotlari qo'lida asosiy va dahshatli quroq vositasiga aylanib bormoqda. Buning asosiy sababi – axborotning odamlar e'tiboriga eng qulay, eng tezkor va eng samarali yetib borishidadir.

Jamiyatimiz hayotining deyarli barcha sohalarini, shu jumladan, ta'lim sohasidagi taraqqiyotini internet, televideniye, radio va ommaviy nashrlarsiz tasavvur qila olmaymiz.

Dunyoda yuz berayotgan turli voqealar va ma'naviyatimizga zid bo'lgan ma'lumotlar axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, internet va ommaviy axborot vositalari orqali kirib kelmoqda. Ba'zi yoshlar bu ma'lumotlarga o'zlarini bilmagan holda ishonishmoqda, bu esa ularning ongiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Yoshlarimizning media -savodxonligini oshirishda ommaviy -axborot vositalarining roli kattadir. Ular orqali turli xil ko'rsatuvlar tashkil etib borish, dunyoda ro'y berayotgan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar haqidagi fikrlarini o'rganish, tahlil qilish yoshlarni to'g'ri yo'naltirib borish ning eng samarali yo'lidir<sup>82</sup>.

Mutaxassislarning qayd etishicha, shuningdek, yosh avlodning mafkuraviy immuniteti, ma'naviy-axloqiy tarbiyasini yanada yuksaltirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqib, ularni amalga oshirishda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, fuqarolik jamiyatni institutlari, jamoat tashkilotlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, ota-onalar va ayniqsa pedagoglarni keng jalb qilish maqsadga muvofiq. "Chunki, ma'rifatparvar ota-bobolarimiz singari hozirgi avlod vakillari ham agarki dunyo imoratlari ichida eng ulug'I mакtab bo'lsa, kasblarning ichida eng sharaflisi o'qituvchilik va murabbiylik ekanini dil-dildan yaxhshi bilishadi va shunga yarasha qilishga hammavaqt hozir-u nozirdirlar"<sup>83</sup>.

Internet tarmog'ini milliy qadriyat va an'analarimizni o'zida aks ettiruvchi veb-sahifalar bilan boyitish ham bugun oldimizda turgan asosiy vazifalardan biridir. Ta'lim muassasalarini internet tarmog'iga ulashda veb-sahifalardan foydalanishni tartibga solish, o'qituvchilarni zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi eng so'nggi yutuqlar bilan tanishtirib borish, o'quvchilarning zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi bilimlarini oshirishga qaratilgan to'garaklarni tashkil qilish lozim. Bunday tahdidlarga qarshi albatta har tomonlama chuqur o'ylangan, ilmiy-amaliy asosda tashkil etilgan, uzlusiz tarzdda muntazam ravishda olib boriladigan ma'naviy -ma'rifiy tarbiya orqali javob berishimiz mumkin.

## **MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR:**

1. Ommaviy axborot vositalari deganda nimani tushunasiz?
2. Mamlakatimiz qonunchiligidagi ommaviy axborot vositalari faoliyati bilan bog'liq qanday qonunlarni bilasizz?
3. Ommaviy axborot vositalarining ahamiyati nimada?

<sup>82</sup> Ma'naviyat asoslari: O'rta umumta'lim maktablarining 10-11-sinflari va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarini uchun darslik / V.Qo'chqorov, O.Mahmudov, Z.Zamonov. -Ikkinchini nashr. - Toshkent: Yangiyo'l Poligraf Servis, 2018,135-bet.

<sup>83</sup> Холиков И., Собирова М., Рустамов М. Маънавиятнинг ахлоқий асослари. – Т.:ТДПУ, 2013 ийл, 154-бет.

4. Qanday texnologiyalar mediata'limga texnologiyalari, deb ataladi va bugungi kunda ularning qanday ahamiyati bor?
5. Internet qanday tizim va u qachon paydo bo'lgan?
6. "Ommaviy madaniyat" nima va u qanday salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin?
7. Qanday xurujlar axborot xurujlarim deb ataladi?
8. Informatsion-psixologik xavfsizlik nima va uni qanday ta'minlash mumkin?

#### **MAVZUGA OID ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiysi. -T.: O'zbekiston, 2020 yil.
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Матбуот ва оммавий ахборот воситалари ходимлари куни муносабати билан соҳа вакилларига йўллаган табригидан (2018-йил 27-июн)//Халқ сўзи, 2017-йил, 28-июн.
3. Расторгуев С.Информационная война. – М.: Радио и связь, 1998 г.
4. Мезенцев Д.Ф., Материал в разделе Государственная информационная политика и ее реализация в процессе формирования гражданского общества//Роль СМИ в формировании гражданского общества. – М.: Хроникер, 2006.
5. Холиқов И., Собирова М., Рустамов М. Маънавиятнинг ахлоқий асослари. – Т.:ТДПУ, 2013 йил.
6. Ma'naviyat asoslari: O'rta umumta'limga muktabalarining 10-11-sinflari va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari uchun darslik / V.Qo'chqorov, O.Mahmudov, Z.Zamonov. – Ikkinchini nashr. –Toshkent: Yangiyo'l Poligraf Servis, 2018 yil.
7. Mamatov G'. Axborotlashgan jamiyatda jamoatchilik nazorati va davlat axborot siyosating uyg'unligi (O'zbekiston Respublikasi misolida) Siyos.fan.bo'yicha falsafa doktori. Dissertyasiya avtoreferati. -T.: 2020 yil.

#### **ELEKTRON TA'LIM RESURSLARI:**

1. [www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)
2. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
3. [www.edu.uz](http://www.edu.uz)
4. [www.ma'naviyat.uz](http://www.ma'naviyat.uz)
5. [www.aza.uz](http://www.aza.uz)

## 10-MAVZU:

# MILLIY G'OYA VA MA'NAVİYATGA OID FANLARNI O'QITISHDA XALQ OG'ZAKI İJODI NAMUNALARİ, TARİXİY BITİKLAR, ALLOMALAR MEROSI, BADIİY ADABIYOTLARDAN FOYDALANISH

### REJA:

1. Milliy g'oya va ma'naviyatga oid fanlarni o'qitishda xalq og'zaki ijodi namunalaridan foydalanish.
2. Milliy g'oya va ma'naviyatga oid fanlarni o'qitishda tarixiy bitiklardan foydalanishning ahamiyati.
3. Dars jarayonida allomalar merosi, badiiy adabiyotlardan foydalanish.

### *Tayanch tushuncha va iboralar:*

O'zbek xalq og'zaki, o'zbek xlaq pedagogikasi, epik ijod namunasi, qahramonlik, ishqiy-romantik, tarixiy dostonlar, lirik, marosim, mavsum qo'shiqlari; "Yor-yorlar"; "Allalar", yig'i-yo'qlovlari; sog'im, yanchik, bayram-sayllar qo'shiqlari; tarbiyalanuvchilar folklorlari namunalarini, ertak, maqollar, matallar, hikmatlar, qayroqi so'zlar, aforistik iboralar, asotirlar, afsona va rivoyatlar, tarixiy bitiklar, "O'zbekiston obidalariagi bitiklar" kitoblar turkumi, allomalar merosi, badiiy adabiyotlar va hk.

**1-masalaning bayoni:** O'zbek xalq og'zaki ijodi o'zbek xalqi paydo bo'lgan va yashab kelayotgan butun davrni o'z ichiga oladi. Jumladan, ijtimoiy va maishiy-axloqni hayotning barcha tomonlarini, xalq og'zaki ijodi, qadrshunoslik, udumshunoslik va marosimshunoslikning yetakchi yo'nalishlarini, diniy-axloqiy ta'lomitni o'z ichiga oladi.

O'zbek xalq og'zaki ijodi o'zbek xalq pedagogikasining tarkibiy qismi hisoblanadi. O'zbek xalq pedagogikasi - bu dono xalqimizning ta'lim-tarbiya, axloq, odob, insoniy qadriyatlar va uning ma'naviy ustuvorligi, imon-e'tiqodi, butunligi sohasidagi dunyoqarashi, ommaviy faoliyati, usul-metodlari, an'analari, tajriba-xulosalarining lo'nda, bag'oyat teran, donishmandnoma tarzda ifodalananishidir.

Umuman, o'zbek xalq pedagogikasi xalqimizning asrlar osha o'z hayotiy tajribalari, farzandlar kamolati borasida tutgan udumlari, sa'y-harakatlari, yo'l-yo'riqlari, aql-zakovatlari natijasida yaratilgan meroslar majmuasidir.

Hozirgi kunning eng dolzarb muammolaridan biri ta'lim tizimiga "O'zbek xalq pedagogikasi" an'analarini kiritishdir. Chunki, bu milliy

istiqlol masifikasini yaratishda asos bo'lib xizmat qiladi. Bunga erishish uchun:

1. Yosh avlodni milliy odob-axloq tarbiyasida folklor, shuningdek, qadimiy qadriyatlarimizda ifodalangan milliy va umumbashariy xislat va fazilatlar asosida tarbiyalashga erishish;
2. Ta'lif tizimini mukammallashtirish;
3. Xalq og'zaki ijodining barcha shakllaridan ta'lif tizimining barcha bo'g'inlarida unumli foydalanish;
4. O'zbek xalq pedagogikasining xalq an'anaviy sporti, jismoniy tarbiya va folklor o'yinlarining, jumladan bayram-sayllarining, yoshlar jismoniy, aqliy, axloqiy tarbiyasi, baquvvatligi, chaqqonligi, epchilligini ta'minlash uchun xizmat qiladigan an'analardan to'g'ri va oqilona foydalana bilishdir.

Hozirgi kunda ta'lif tizimida "O'zbek xalq pedagogikasi" namunalardan keng foydalanish insonni har tomonlama kamol toptirish, ma'naviyatimizning ustivorligi, iymon-e'tiqodlarimizning butun bo'lishi qadrli qadriyatlarimizning garoovidir.

Xalq og'zaki ijodi - bu yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash va tarbiya usullari, insoniy qadriyatlar va yurtsevarlik tarbiyasi bo'lib, do'st-birodarlik, ahillik, mehnatsevarlik, kasb-hunarga muhabbat; yaxshilik va yomonlikning oqibati; halollik, to'g'rilik, olijanoblik tarbiyasi; adolat, insof va insofsizlik, do'st-birodarlik, og'a-inichilik va qon-qardoshchilikning ahamiyati; botirlik va qo'rqaqlik, odob va odobsizlik, mehmon va mehmondo'stlik, saxiylik, baxillik va kamtarlik, sabr-qanoat va sabrsizlikning oqibati; qadr va qadrsizlik, muhabbat, vafo va bevafolik, tajribakorlik, kaltabinlik va ishonchsizlik, or-nomus va nomussizlik, samimiylilik va nosamimiylilik, andisha va andishasizlik, farosat va farosatsizlik, tejamkorlik va isrofarchilik, reja va rejasizlik, me'yor va me'yorsizlik, mas'uliyat va mas'ulyatsizlik, vaqt va fursat, foyda va zarar, tabiatni e'zozlash, dehqonchilik va chorvachilik qadriyatlari: kattaga hurmat, yoshga mehr-shafqat, yo'l va yo'ldosh, sevinch va g'am, to'y va motam, farzand va farzandsizlik, kiyinish, so'zlash, yurish-turish, salomlashish, ko'cha odobi, ovqatlanish madaniyati kabi udumlar, rasm-rusmlar, odatlar, marosimlar, an'analardan iboratdir.

Xalq pedagogikasining asosini tashkil etadigan xalq og'zaki ijodi bir qancha janrlarni o'z ichiga olinadi.

1. Epik ijod namunasi - bu qahramonlik, ishqiy-romantik, tarixiy dostonlar bo'lib, ular ishq-muhabbat, vafo qanday bo'lishligi, o'zligini tanish, or-nomus, burchni anglash, iymon-e'tiqodli bo'lish, inson va

hayvonot dunyosi, qiyinchiliklar va mushkul ahvollarni mardona yenga olish, qat'iyatlik, iroda, matonat kabi xislatlardan iboratdir.

2. Qo'shiqlar – lirik, marosim, mavsum qo'shiqlari; "Yor-yorlar"; "Allalar", yig'iyo'qlovlari; sog'im, o'lim, yanchik, bayram-sayllar qo'shiqlari; tarbiyalanuvchilar folklorlari namunalari va boshqalardan iborat bo'lib, ular go'zallik, samimiyat, mehr-shavqat, orzu-umid, quvonch-shodlik, g'am-g'ussa kabi tuyg'ularini tarannum etish orqali kishilarda chuqur insoniy tuyg'ularini o'stiradi. Insonlarda hayotga, tabiatga, insonga cheksiz muhabbatni kamol toptiradi.

3. Ertak – bu orqali kishilar sirli-sehrali olam bilan tanishadi hamda unga oid bilimi, tushunchalari boyiydi, yaxshi odamlardagi yaxshi xislatlar, yomonlardagi badxulqlar bilan xabardor bo'lib, yaxshilikka mehri tobulanadi, yomonlikka nafrat ortadi.

4. Maqollar, matallar, hikmatlar, qayroqi so'zlar, aforistik iboralar – bular xalq donishmadchiligining yuksak badiiy timsoli bo'lib, ular qisqa, sodda ammo har birining ma'nolari juda keng bo'ladi.

5. Asotirlar, afsona va rivoyatlar – bular donolar donoligi, ibratli, tabiatni asrab-avaylash, qadriga yetish, saqlash, chiroyiga chiroy qo'shishga bo'lgan ishtiyoqni o'stirish va hk.

Ma'naviyat qadim zamonlardan inson dunyoqarashini, xattiharakatini, jamiyatda tutgan o'rnnini, xalqqa, vatanga, atrofidagi odamlarga bo'lgan munosabatini boshqaruvchi omil hisoblanadi. Ma'naviy qashshoq kimsa hayotda ro'y berayotgan voqealarga larga loqayd bo'ladi. Loqaydlik esa tuzatib bo'lmas oqibatlargal olib keladi. Ma'naviy qashshoq odam uchun Vatan, xalq, oila kabi muqaddas tushunchalar yot. Shuning uchun keksa avlod, avvalo, farzandning ma'naviy dunyosini shakllantirish chorasini rejalashtirgan. Aslini olganda, xalq dostonlari, ertaklari, qo'shiqlari, maqollari va boshqa o'nlab janrdagi asarlar yosh avlodning ma'naviyatini boyitish, uni haqiqiy inson darajasiga yetishini ta'minlash maqsadini nazarda tutgan holda yaratilgan. O'tgan asrgacha bugungi kundagi matbuot, o'quv dargohlari, madaniyat markazlari, radio, televidenie, internet kabi ta'lim, ma'rifat tizimi bo'limgan. Bu vazifalarni bajarish, asosan, xalq og'zaki ijodi zimmasiga yuklatilgan. Natijada, xalq og'zaki ijodi xalq pedagogikasi zaminini tashkil etgan. Odatda, xalqning mustaqilligi, uning ravnaqi badiiy adabiyot bilan uzviy bog'lanadi. Og'zaki ijod esa, badiiy adabiyotning ajralmas qismidir. Shuning uchun xalq ustidan hukm yuritishga harakat qilgan hokimiyat, avvalo, uning adabiyotini boshqarishga uringan. Sobiq sho'ro tuzumi sharoitida xalq bayrami – Navro'z, "Algomish", "Ravshan" dostonlarimiz taqiqqa uchragan. Folklor ekspeditsiyasiga xalq og'zaki ijodi asarlarini yozib olish

maqsadida chiqqanimizda islom diniga oid asarlarni yozib olish ma'qul ko'rilmas edi. Bu harakatlarning hammasi og'zaki adabiyotimizni yo'q qilish niyatini amalgalashish choralar edi, xolos.

1991-yil 1-sentyabrda O'zbekiston mustaqil Respublika deb e'lon qilindi. Yurtimiz ijtimoiy hayotidagi bu o'zgarishni o'zbek xalqi o'nlab yillar davomida orziqib kutgan edi. Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridan otmish qadriyatlarni qaytadan tiklash, odamlar qalbida tutqunlikda yotgan madaniy merosimizga keng yo'l ochish siyosatini amalgalashish oshirdi. Dunyo ilmi taraqqiyotiga munosib hissa qo'shgan buyuk allomalarimiz nomlari, ularning kashfiyotlari haqidagi ma'lumotlar qatori turli munosabatlar bilan urf-odatlar, rasm-rusumlar ham tilga olina boshlandi. Bu tadbirlar har bir o'zbek qalbida milliy g'urur tuyg'usini uyg'otish maqsadini nazarda tutdi.

Aslida, o'zbeklarning dunyoda ilg'or, benazir madaniyatga ega bo'lgan xalq ekanligini tasdiqlovchi fikrlar mustabid tuzum paytida ham aytildi. Ammo bunday hur gaplarning mualliflari qatag'on qilingan edilar. Ularning ko'pchiligi sirli vaziyatlarda hayotdan ko'z yumdilar. Fitrat, Cho'lpon, Qodiriy, Otajon Hoshim, Sulaymon Xo'ja va boshqalar esa o'ylab topilgan yolg'on jinoyatlarda ayblanib otildilar. Ayrimlari – Usmon Nosir, keyinchalik Mirtemir, Maqsud Shayxzoda, Said Ahmad, Shukrullo, Shuhrat kabilar uzoq muddatga qamoqqa olindilar. Ammo erkinlikni, o'tmishdagi xalq allomalarining kashfiyotlarini targ'ib etuvchi asarlar tizimi murakkab vaziyatda ham to'xtab qolmadidi. XX asrning 60-70-yillari adabiy hayotga yosh ijodkorlar sifatida kirib kelgan Erkin Vohidov, Abdulla Oripov kabi shoirlar "O'zbegim", "O'zbekiston" kabi poetik asarlar yaratdilarki, bu davrda yashagan yurtdoshlarimiz O'zbekiston qadimdan ilm-ma'rifat, kashfiyotlar va qadriyatlarni ekaniga komil ishonch bildira boshladilar. Xalqimizning haqiqiy farzandlari sa'y-harakati bilan "Xalq og'zaki ijodi" turkumida "Algomish" dostoni, Ergash Jumanbulbul, Fozil shoir, Po'lkan, Islom shoir, Bola baxshi ijro etgan epos namunalari, xalq qo'shiqlari, ertaklari, askiya, latifa, topishmoqlarning nashr qilinishi nur ustiga nur bo'ldi.

Shuningdek, o'tgan asrning 50-yillarida Ibrohim Mo'minov, Vohid Zohidov, Parso Shamsiev, Solih Mutallibov, Hodi Zarif kabi taniqli ziyorolar turli sabab va vajlar bilan Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'oti-t-turk" (Solih Mutallibov), Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" (Qayum Karimov), Navoiyning "Xamsa", Boburning "Boburnoma" (Parso Shamsiev) kabi bir qator asarlarini nashrga tayyorladilar va chop etdilar. Qizig'i shundaki, bizning olimlarimiz mumtoz adabiyot namunalaridan sobiq sho'ro tuzumi siyosatiga mos kelmaydigan o'rirlarni atayin keskin

tanqid qilishar, boylar va yo'qsillar madaniyati haqida siyosatbop gaplarni topishar, ammo asarlarni to'liq nashr qilishdek oliy niyatlariga ham erishar edilar.

Tabiiyki, "Sobiq sho'ro tuzumi davrida bevosita xalq orasida hukmron siyosatni tanqid qiluvchi xalq og'zaki ijodi asarlari yaratilmadimi?" – degan savol tug'iladi. Gap shundaki, xalq og'zaki ijodi asarlari yozib olinmasa, ularning ommalashuvi uchun sharoit bo'lmasa, vaqt o'tishi bilan bu asarlar o'z-o'zidan g'oyib bo'ladi: aytuvchining yodidan ko'tariladi, taqdir taqozosi bilan aytuvchi vafot etadi va hokazo. Ularni yozib olish esa hamisha ham amalga oshavermaydi. Bugungi kunda o'sha paytda dohiy deb tan olingen tarixiy shaxslar haqida o'nlab latifalar to'qilganini, maqtalayotgan kolxozlar, besh yilliklarning asl qiyofasi qo'shiqlarda tanqid qilinganini e'tirof etish mumkin, xolos. Jumladan, o'z paytida Otajon Hoshim tomonidan yozib olingen qo'shiqlarda kolxozi tuzumiga, hamma ekin maydonlariga faqat paxta ekish siyosatiga salbiy munosabat bildirilgan namunalar borligi haqidagi xotiralar mavjud, xolos. Afsuski, taqdir taqozosi, turli sabablar bilan bu yozuvlar yo'qolgan.

Mustaqillik, umuman, xalq qadriyatlariga, xususan, xalq og'zaki ijodiga bo'lgan munosabatda keskin ijobiy o'zgarish yasadi. O'zbekistonning birinchi Prezidenti I. A. Karimovning "O'zbekiston buyuk keljak sari" asaridagi "Mustaqil O'zbekistonni rivojlantirishning ma'naviy-axloqiy negizlari" deb atalgan bo'limda: "O'zbekistonni yangilash va rivojlantirishning yo'li to'rtta asosiy negizga asoslanadi", - deyilgan. "Bu negizlar:

- umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik;
- xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish;
- insonning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi;
- vatanparvarlik" – deb belgilab qo'yilgan.

Yuqorida qayd etilgan to'rt negizning har biri yo bevosita, yo bavosita xalq og'zaki ijodi, ajdodlarimizning bizga qoldirgan ma'naviy boyligi – pand, o'gitlari, el-yurt qadrini e'zozlash, millatimiz g'ururini himoya qilishdek oliy tuyg'ular bilan bog'lanadi. Haqiqatan ham, umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, avvalo, milliy qadriyatlarga sadoqat mezoni bilan o'lchanadi. Zero o'z qadrini bilmagan farzand o'zganing qadriga yetmaydi. Xalqimiz og'zaki ijodidagi asarlarda esa aynan ana shu g'oya o'z ifodasini topgan<sup>84</sup>.

<sup>84</sup> O'zbek xalq og'zaki ijodi – xalq og'zaki ijodi va qadriyatlari davlat maqomida. Manba: <http://e-adabiyot.uz/kitoblar/qollanmalar/867-uzbek-xalq-ogzaki-ijodi.html?start=2>.

**2-masalaning bayoni:** Milliy g'oya va ma'naviyatga oid fanlarni o'qitishda tarixiy bitiklardan foydalanish ham beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Vaqt nafaqat mahobatli binolari, balki nafis xattotlik yozuvlari bitilgan bejirim naqsh va bezaklari bilan ham kishini maftun etadigan o'rta asr arxitekturasining hayratomuz dunyosini biz uchun asrabavaylab kelmoqda.

Bu qadimiy bitiklarda buyuk ajodolarimizning qanday donishmandlik sirlari yashiringan? O'zbekiston olimlarining ilmiy tadqiqotlari samarasida iste'dodli ustalar tomonidan bajarilgan va tinchlik, ma'rifat hamda bunyodkorlikka da'vet etuvchi ushbu qadimiy yozuvlar mazmun-mohiyati olib berilmoxda.

Ko'plab mutaxassislar asrlar davomida bu yozuvlarni tushunishga uringan, ularni to'g'ri o'qish haqida ilmiy bahs-munozaralar hamon davom etmoqda. Biroq, qadimgi O'zbekiston zaminida joylashgan tarixiy yodgorliklar epigrafikasi va bu boradagi tegishli nashrlar hali ham to'liq o'rganilgani yo'q. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, mazkur yodgorliklarni o'rganish va o'qish imkoniyati paydo bo'ldi.

Bir guruh olimlar turli davrlarda vayron qilingan epigrafiya yozuvlarini bir necha yillar davomida mashaqqat bilan tadqiq etib, ularning ma'nosini o'rgandi. Ushbu yozuvlar "Uzbekistan Today" axborot agentligi tomonidan tayyorlanib, o'zbek, rus va ingliz tillarida chop etilgan "O'zbekiston obidalaridagi bitiklar" kitoblar turkumida jamlandi. Loyiha mamlakatimiz Birinchi Prezidentining 2011-yil 6-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining yigirma yilligini nishonlashga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida"gi Qarori va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 17-iyun hamda 2012-yil 1-apreldagi qarorlari ijrosi doirasida amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston epigrafik yodgorliklari noyobligi va ko'pligi bo'yicha nafaqat Markaziy Osiyo, balki butun dunyoda alohida o'rin tutadi. Ularning aksariyati puxta o'rganishni talab etadigan san'at, madaniyat, umuman, jahon sivilizatsiyasining durdonalari hisoblanadi. Bu ishlarga Toshkent davlat sharqshunoslik instituti huzuridagi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharq qo'lyozmalari markazi, Bahouddin Naqshband yodgorlik majmuasi markazi, mahalliy o'lakashunos mutaxassislar jalg etildi. Viloyat hokimliklarining har tomonlama yordami bilan olti yilda turkumning birinchi kitoblarini nashr etish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi.

Olimlarning ma'lumotiga ko'ra, Amir Temur davrida bunyod etilgan yodgorliklarda bitilgan yozuvlarning atigi 10 foizi o'rganilgan va qisman chop etilgan.

Shu nuqtayi nazardan, "O'zbekiston obidalaridagi bitiklar" o'ziga xos loyiha hisoblanadi. Qolaversa, bugungi kunda mamlakatimiz hududida joylashgan barcha arxitektura yodgorliklari epigrafikasi kompleks ravishda o'rganilib, umumlashtirilmogda.

2016-yil 17-oktyabr kuni poytaxtimizda O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 25 yilligi va "Uzbekistan Today" axborot agentligining 10 yilligiga bag'ishlangan "Uzoq o'tmishdan maktublar: O'zbekiston obidalaridagi bitiklarda ta'lim, ma'rifat, tinchlik va bunyodkorlik" mavzusidagi davra suhbat doirasida "O'zbekiston obidalaridagi bitiklar" loyihasining taqdimoti o'tkazildi. Tadbir "Uzbekistan Today" axborot agentligi, YUNESKOning mamlakatimizdagい vakolatxonasi, O'zbekiston elektron ommaviy axborot vositalari milliy assotsiatsiyasi, Bahouddin Naqshband yodgorlik majmuasi markazi, Toshkent davlat sharqshunoslik instituti huzuridagi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharq qo'lyozmalari markazi tomonidan qator hamkorlar ko'magida tashkil etildi. Unda mamlakatimiz olimlari, davlat va jamoat tashkilotlari, YEXHT, YUNISEF, "Mintaqaviy muloqot" xalqaro nohukumat tashkiloti, YUNESKO, Jahan sog'liqni saqlash tashkiloti va boshqa xalqaro tashkilotlar, shuningdek, O'zbekistonda akkreditatsiyadan o'tgan diplomatik korpus vakillari ishtirok etdi. Davra suhbatida loyihaning dastlabki natijalari – Qoraqalpog'iston Respublikasi, Andijon, Buxoro, Qashqadaryo, Navoiy, Namangan, Surxondaryo, Farg'on'a, Xorazm viloyatlari va Toshkent shahridagi arxitektura yodgorliklarida bitilgan epigrafik yozuvlarga bag'ishlangan 12 kitob-albom, shuningdek, Samarqand viloyatining tarixiy me'morlik majmualari – Registon va Shohi Zindaga bag'ishlangan ikki fotoalbum taqdim etildi.

O'zbekiston olimlari 1,5 mingdan ziyod epigrafika yodgorliklaridagi (ularning aksariyati birinchi marta) yozuvlarni o'rganib, tarjima qilgani ta'kidlandi. Ularning 200 dan ortig'i she'rlar, o'gitlar, hikmatli gaplar, yuzdan ziyodi usta va xattotlar nomlari, 300 diniy va 150 bag'ishlov matnlari, 150 xronogramma, 100 tarixiy sana, hukmdorlarning 100 farmoyishi va boshqalardan iborat.

Ijodiy guruh Samarqanddagi Shohi Zinda, Amir Temur maqbarasi va jome' masjidi, Bibixonim masjidi, Registon ansambl singari dunyoga mashhur me'moriy yodgorliklarda bitilgan yozuvlarni o'rgandi va ma'nosini tafsir qildi. Bundan tashqari, ular Xiva yodgorliklarining

epigrafik bitiklari va 13 me'moriy majmua yozuvlari, jumladan, Pahlavon Mahmud qabr toshidagi matnlarni ham o'qib-o'rganishdi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi arxitektura epigrafikasiga bag'ishlangan albomda ilk bor Norinjon boba majmuasining tarjima qilingan epigrafik materiali to'liq nashr etildi. Qadimgi Mizzdakxon shaharchasi hududida joylashgan va islom olamida mashhur Mazlumxon-suluv maqbarasining bugungi kungacha saqlanib qolgan epigrafik materiallari tarjimasi to'liq hajmda taqdim etildi.

Shahrisabzning alohida albom shaklida nashr etilgan arxitektura epigrafikasi nafaqat Markaziy Osiyo, balki butun Sharq mintaqasi tarixini o'rganish nuqtayi nazaridan g'oyat qiziqarlidir. Yozma yodgorliklarning noyob namunalaridan iborat ushbu bitiklar muhim voqealar, tarixiy shaxslar haqida ma'lumotlarni o'zida mujassam etgan.

"O'zbekiston obidalardagi bitiklar. Surxondaryo" albomi mashhur muhaddis va tasavvuf shayxi Hakim Termizi maqbarasi va qabr toshidagi, Jarqo'rg'on minorasi, So'fi Olloyor majmuasi va boshqa yodgorliklardagi bitiklarning to'liq tafsirini o'z ichiga olgan.

Namangandagi tarixiy yodgorliklarga bag'ishlangan kitobda Hoji Amin, Mulla Qирг'из, Mavlaviy Namangoniy va boshqa ulug'lar abadiy qo'nim topgan maskanlardagi bitiklar to'liq tafsir etilgan. Albomda nodir yozma manbalar – ko'plab mashhur shayx va ilohiyot olimlari haqida noyob ma'lumotlar va ularning vafot etgan sanalari bitilgan epitafiyalar taqdim etilgan.

Andijon epigrafikasiga bag'ishlangan albomda Andijonda e'tiborga sazovor yodgorliklar unchalik ko'p emasligi va ularning aksariyati saqlanmagani haqidagi fikrlar noto'g'riliqi isbotlangan. Unda Jome', Gumbaz yodgorliklari, Mirzaqul bo'lish, Otaqo'zi madrasalari, Qutayba ibn Muslim maqbarasi va boshqa noyob yodgorliklar keltirilgan.

Buxoro, Farg'ona, Navoiy viloyatlari va Toshkent shahriga bag'ishlangan, ko'plab qiziqarli va qimmatbaho ma'lumotlarni o'z ichiga olgan albomlar ham katta qiziqish uyg'otadi.

Vaholanki, xalqning buyuk kelajak va ulug'ver maqsadlari sari birlashtirish, mamlakatimizda yashaydigan millati, tili va dinidan qa'ti nazar, har bir fuqaroning yagona baxt-saodati uchun doimo fidoiylik ma'suliyatini his etib yashashga chorlash, ajdodlarimizning bebaho yuksak fazilatli va komil insonlarni tarbiyalash, ularni yaratuvchanlik ishlariga dav'at qilish, shu muqaddas zamin uchun fidoiylikni xayotimizga aylantirish – milliy istiqlol mafkurasining bosh maqsadi ekanligi alohida ta'kidlangan.

**3-masalaning bayoni:** Jamiyat taraqqiyotidagi har qanday o'zgarishlar, yangiliklar, ayniqsa, insoniyat rivojiga katta turtki beradigan jarayonlar, kashfiyotlar o'z-o'zidan yuz bermaydi. Buning uchun, avvalo, asriy an'analar, tegishli shart-sharoit, tafakkur maktabi, madaniyema'naviy muhit mavjud bo'lmos'h kerak.

Ana shunday ezgu maqsad va tafakkur bilan yashagan xalqimiz jahon taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan. Sharq-u G'arbni o'zaro bog'lagan, buyuk sivilizatsiyalar tutashgan yurtimiz hududida ilm-fan, madaniyat azaldan rivojlangan. Ayniqsa, o'rta asrlarda ona zaminimizdan minglab olim-u shoirlar, buyuk mutafakkirlar yetishib chiqqan. Ularning matematika, fizika, kimyo, astronomiya, etnografiya, tibbiyot, tarix, adabiyot, axloq, falsafa kabi ko'plab sohalarga oid asarlari, Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent, Shahrisabz, Termiz va boshqa shaharlardagi qadimiy obidalar butun bashariyatning ma'naviy mulki hisoblanadi.

O'sha davrdagi eng buyuk mutafakkir olimlardan biri Muhammad Muso Xorazmiydir. Bugun butun dunyo foydalanadigan hisob-kitob amallari, zamonaviy texnologiyalar faoliyati ana shu bobokalonimiz yaratgan qoidalarga asoslanadi.

Butun dunyo Xorazmiyning ilm-fan rivoji yo'lidagi hissasini yuksak qadrlaydi, uni voyaga yetkazgan zaminga alohida ehtirom bilan qaraydi.

Ahmad Farg'oniyning "Astronomiya asoslari" nomli asari o'n ikkinchi asrda lotin va ivrit tillariga tarjima qilingani, keyinchalik Italiya, Germaniya, Fransiya, Gollandiya va AQSh kabi ko'plab mamlakatlarda qayta-qayta chop etilgani uning naqadar ulkan ahamiyatga egaligini ko'rsatadi.

Allomaning Yer sharsimon shaklda ekanligi borasidagi qarashlarini oradan sakkiz yuz yil o'tib amalda isbotlagan mashhur sayyoh Xristofor Kolumb "Yer meridianining bir darajasi miqdori haqidagi al-Farg'oniy hisoblarining to'g'riligiga to'la ishonch hosil qildim", deya dastxat qoldirgan. O'n oltinchi asrda Oydagi kraterlardan biriga bobokalonimiz nomi berilgan.

YUNESKO qaroriga muvofiq 1998-yilda Ahmad Farg'oniy tavalludining 1200-yilligi xalqaro miqyosda nishonlandi. Bu buyuk ajdodimizning jahon sivilizatsiyasi rivojiga qo'shgan ulkan hissasi, xalqimiz ilmiy salohiyatining yana bir e'tirofi bo'ldi. Davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan Quva va Farg'ona shaharlarda mutafakkir haykallari buniyod etildi, Farg'ona davlat universitetiga Ahmad Farg'oniy nomi berildi.

O'rta asrlarda Sharq ilm-fani rivojida Xorazm Ma'mun akademiyasi alohida o'rin tutgan. Ulkan kutubxona, madrasa, tarjimon va xattotlar

maktabi kabi tuzilmalarga ega bo'lgan bu dargohda yuzdan ortiq allomalar, iste'dodli talabalar ilmiy izlanishlar olib borgan. Abu Nasr ibn Iroq, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Xo'jandiy, Ahmad ibn Muhammad Xorazmiy va Ahmad ibn Hamid Naysaburiy kabi qomusiy olimlarning umumbashariy tafakkur rivojiga qo'shgan hissasi beqiyosdir.

Ibn Sino nomi dunyo fani va madaniyati tarixiga zarhal harflar bilan bitilgan. Doimo yashil bo'lib turuvchi tropik o'simlik "Avitsenniya" deb atalgan. Ko'plab mamlakatlarda ko'chalar, o'quv va tibbiyot muassasalariga uning nomi qo'yilgan, alloma sharafiga medal va mukofotlar ta'sis etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov 1998-yil 6-noyabrda YUNESKOning xalqaro Abu Ali ibn Sino oltin medali bilan taqdirlandi. Bu oliy mukofot xalqimizning umumbashariy sivilizatsiya taraqqiyotiga qo'shgan hissasi va xizmatining tan olinishi, davlatimiz tomonidan tarixiy, madaniy, ma'naviy merosni asrab-avaylash, sog'lom va barkamol avlodni voyaga yetkazish borasida amalga oshirilgan ishlarning munosib bahosi bo'ldi.

YUNESKO shafeligida Xorazm Ma'mun akademiyasining 1000-yilligi nishonlangani, uning faoliyati qayta tashkil etilgani mamlakatimizda ajoddar xotirasiga, ilm-fan rivojiga qaratilayotgan e'tiborning yorqin namunasidir. Hozir bu qadimiy va navqiron ilm maskanida Xorazm tarixi, uning o'ziga xos madaniyati, ekologiyasi, yer va suv resurslarini o'rganish bo'yicha ilmiy izlanishlar davom ettirilmoqda.

Mirzo Ulug'bek yurtimizning bir qator shaharlarida madrasalar qurdirgan, Samarqandda o'ziga xos ilmiy muhit, hozirgi tilda aytganda, akademiya tashkil etgan. U yerda 200 dan ortiq olim faoliyat yuritgan.

Falakiyot ilmining nazariy va amaliy masalalari to'la qamrab olingan Ulug'bekning "Zij"i o'rta asrlardayoq Osiyo va Yevropa mamlakatlarida keng tarqagan. Yevropalik astronom olimlar uni lotin, fransuz, ingлиз tillariga tarjima qilgan, sharhlar bitgan.

"Ziji Ulug'bek", "Ziji jadidi Ko'ragoniy" nomlari bilan shuhrat qozongan bu asarda 2018 yulduzning o'rni va holati aniqlab berilgan. Yulduzlarning balandligi va ular orasidagi masofa, quyosh va oyning harakati, ularning tutilish vaqtłari bayon qilingan. Bu hisob-kitoblar zamonaviy texnologiyalar orqali aniqlangan kuzatuv natijalaridan deyarli farq qilmaydi. Masalan, Ulug'bek hisobi bo'yicha bir yil 365 kun 6 soat 10 daqiqa 8 soniyani tashkil etadi. Bugungi kunda bir yil 365 kun 6 soat 9 daqiqa 6 soniyaga teng.

"Bu haqda so'z yuritar ekanmiz, beixtiyor 1996-yili Parijda YUNESKOning o'sha paytdagi Bosh direktori Federiko Mayor janoblari

bilan bo'lgan bir suhbat yodimga tushadi, - deb yozadi Birinchi Prezidentimiz o'zining "Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch" asarida. - O'shanda janob Federiko Mayor Ulug'bekning ilmiy merosini yuksak baholab, uning yulduzlar harakatiga oid hisob-kitoblari bugungi kunda kompyuter yordamida tekshirib ko'rulganda atigi bir necha daqiqaga farq qilishi aniqlandi, degan gapni aytib qoldi. Shunda men unga qarab, yo'q janob Federiko Mayor, Ulug'bek xato qilgan bo'lishi mumkin emas, balki kompyuterlar xato qilgan bo'lishi mumkin, degan edim".

Istiqlol yillarda Mirzo Ulug'bekning hayoti va faoliyatini o'rganish borasida ulkan ishlar amalga oshirildi. Mamlakat rahbari tashabbusi bilan 1994-yil mamlakatimizda Ulug'bek yili, deb e'lon qilindi. O'sha yili Mirzo Ulug'bek tavalludining 600-yilligi xalqaro miqyosda keng nishonlandi. Parij shahridagi YUNESKO qarorgohida buyuk allomaning ilmiy merosi va uning ahamiyatiga bag'ishlangan xalqaro anjuman o'tkazildi.

Mirzo Ulug'bek siymosi xalqimiz hayotining ajralmas qismiga aylanib qolgan. Yurtimizda Ulug'bek nomi berilgan tuman, ma'naviyat maskanlari, mahallalar, ko'chalar ko'p. Ota-onalar ezgu niyatlar bilan farzandlariga Ulug'bekning muborak ismini qo'yishadi. Bularning barchasi xalqimizning buyuk allomaga cheksiz hurmatidan darak beradi.

Qolaversa, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-sentyabrdagi "Mirzo Ulug'bek nomidagi ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktab-internati" hamda "Astronomiya va aeronavtika" bog'ini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-3275-sonli hamda Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-noyabrdagi 935-sonli qarorlari bilan Mirzo Ulug'bek nomidagi fizika, matematika, astronomiya va informatika fanlariga ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktab-internati tashkil etilgan.

Mazkur maktab o'quvchilariga innovatsion usullarda dars o'tish maqsadida aerokosmik texnologiyalar xonasi tashkil etilib, zamonaviy VR BOX, HOLOMAX, QBOX uskunalarini o'rnatilgan. Maktab binosining tom qismida o'rnatilgan teleskopda o'quvchilar osmon jismlarini kuzatishi mumkin.

"Bu maktabni Mirzo Ulug'bek nomi bilan tashkil etganimiz bejiz emas. Bundan faxrlanishingiz, buyuk bobomizga munosib bo'lishingiz kerak. Buning uchun juda katta intilish, qunt, mehnat zarur. Vatanimizga kerakli, yetuk mutaxassislar bo'lib yetishishingiz uchun hamma sharoitni yaratib beramiz", - dedi Prezident Shavkat Mirziyoyev.

Ahamiyatli tomoni, butun dunyoda buyuk ajdodlarimizning so'nmas dahosiga hurmat-ehtirom, ularning boy ilmiy merosini o'rganishga

qiziqish hamisha yuqori bo'lgan. Buning tasdig'ini turli mamlakatlarda ularning hayoti va faoliyati haqida ilmiy va badiiy asarlar yaratilgani, ulug' ajdodlarimiz xotirasiga yodgorliklar barpo etilganida ham ko'rish mumkin. Belgiya va Latviyada Ibn Sinoga, Latviyada Mirzo Ulug'bekka, Yaponiya, Rossiya va Ozarbayjonda Alisher Navoiyga, Misrda Ahmad Farg'oniyga o'rnatilgan haykallar xalqimiz tarixiga chuqur hurmat ifodasidir.

2014-yil 15-may kuni "O'rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojidagi roli va ahamiyati" mavzusidagi xalqaro konferensiyaning Samarqand shahrida o'tkazilishi bejiz emas. Zero, bu shahar jahon sivilizatsiyasining qadimiy o'choqlaridan biridir. Bu yerdagi obidalar, madaniy yodgorliklar ajdodlarimiz dahosidan, olis va buyuk o'tmishdan so'zlaydi. Samarqandning go'zal va so'lom tabiatni, qadimiy va zamonaviy inshootlari butun dunyoni o'ziga maftun etib keladi.

Samarqand tuprog'inining har bir zarrasida ulug' bir hikmat bor, har bir ko'chasi, maydon va xiyobonida salobat, fayz-u tarovat bor. Bu qadimiy va hamisha navqiron shaharning har bir g'ishtida bunyodkor xalqimizning buyuk iste'dodi va mahorati, boqiy qadriyatlari mujassam.

Istiqlol yillarida Samarqand o'zgacha tarovat va mahobat kasb etmoqda. Sohibqiron Amir Temur tavalludining 660-yilligi, Mirzo Ulug'bek tavalludining 600-yilligi munosabati bilan Samarqandda ulkan bunyodkorlik ishlari amalga oshirildi. Shahar markazida Sohibqiron bobomizning salobatli haykali qad rostladi. Ulug'bek rasadxonasi va madrasasi qayta ta'mirlandi.

Prezident farmoniga muvofiq 1996-yil 18-oktabr kuni Samarqand shahri Amir Temur ordeni bilan mukofotlandi. Shundan buyon bu kun yurtimizda Samarqand kuni sifatida nishonlab kelinmoqda.

Samarqand tarixini o'rganish istiqlol yillarida izchillik kasb etdi. Xususan, Afrosiyob tepaliklarida olib borilgan keng ko'lamli arxeologik tadqiqotlarda shahar arkining eng quyi qatlamlari o'rganildi. Eramizdan avvalgi VIII-VII asrlarda bunyod etilgan bu devor Markaziy Osiyodagi eng qadimiy mudofaa istehkomi hisoblanadi. Bu yerdan topilgan ko'hna buyumlar Fransiya ilmiy tadqiqotlar milliy markaziga qarashli laboratoriyyada tadqiq qilindi. Tahlillar Afrosiyob ashyolari 2750-yillik tarixiga ega ekanini ko'rsatdi.

YUNESKO Bosh konferensiyasi qaroriga muvofiq, 2007-yilda Samarqand shahrining 2750-yilligi keng nishonlandi. Ushbu qutlug' to'y arafasida boqiy shahar yanada go'zallahdi. O'nlab ijtimoiy-maishiy inshootlar, ko'r kam bog'lar, xiyobonlar barpo etildi.

Amir Temur maqbarasi, Registon maydoni, Bibixonim va Shohi Zinda yodgorliklari hamda Ulug'bek rasadxonasini bir-biriga bog'lovchi kichik halqa yo'lining qurilishi shahar ahli va sayyohlar uchun yana bir qulaylik yaratdi.

Bugungi kunda Samarqandning asl tarixiy qiyofasini tiklash, iqtisodiy salohiyatini yuksaltirish borasida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Shahar aholisi va mehmonlarga har tomonlama munosib sharoit yaratish maqsadida barpo etilgan magistral yo'llar, bog'-u xiyobonlar, ta'lim muassasalari va sport maydonchalari, tibbiyot maskanlari va mehmonxonalar qadim shahar ko'rkiga ko'rк qo'shmoqda.

### **MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR:**

1. O'zbek xalq pedagogikasi deganda nimani tushunasiz?
2. Xalq og'zaki ijodi haqida nimalarni bilasiz?
3. Xalq og'zaki ijodi qanday janrlarni o'z ichiga oladi?
4. Bizga ma'lumki, O'zbekiston epigrafik yodgorliklari noyobligi va ko'pligi bo'yicha nafaqat Markaziy Osiyo, balki butun dunyoda alohida o'rin tutadi. Ularning aksariyati puxta o'rganishni talab etadigan san'at, madaniyat, umuman, jahon sivilizatsiyasining durdonalari hisoblanadi. Bu ishlarga qanday ilmiy muassasalar jalb etilgan?
5. Olimlarning ma'lumotiga ko'ra, Amir Temur davrida bunyod etilgan yodgorliklarda bitilgan yozuvlarning atigi qancha foizi o'rganilgan va qisman chop etilgan?
6. O'rta asrlarda ona zaminimizdan yetishib chiqqan minglab olim-u shoirlar, buyuk mutafakkirlardan kimlarni bilasiz?
7. Qachon mamlakatimizda Ulug'bek yili, deb e'lon qilindi?
8. Qachon va qayerda "O'rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojidagi roli va ahamiyati" mavzusidagi xalqaro konferensiya o'tkazildi?

### **MAVZUGA OID ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'grisida"gi Qarori. 2017-yil 24-may// O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 21-son, 389-modda.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida O'zbekistondagi Islom madaniyati

markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. 2017-yil 23-iyun.//Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 16.07.2021-y., 07/21/5186/0683-son.

3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. -T.: Ma'naviyat, 2008 yil.

4. Milliy g'oya: targ'ibot texnologiyalari va atamalar lug'ati (Mas'ul muharrir I.Ergashev). -T.: Akademiya, 2007 yil.

5. Otamurodov S. Globallashuv va milliy-ma'naviy xavfsizlik. -T.: O'zbekiston, 2013 yil.

6. Холиков И., Собирова М., Рустамов М. Маънавиятнинг ахлоқий асослари. – Т.:ТДПУ, 2013 йил.

7. Ma'naviyat asoslari: O'rta umumta'lim maktablarining 10-11-sinflari va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari uchun darslik / V.Qo'chqorov, O.Mahmudov, Z.Zamonov. – Ikkinchchi nashr. – Toshkent: Yangiyo'l Poligraf Servis, 2018 yil.

8. Sobirova M., Holiqov E Etnomadaniyat. O'quv qo'llanma. – T.: "INNOVATSIYA-ZIYO", 2019 yil.

#### ELEKTRON TA'LIM RESURSLARI:

1. <http://www.lex.uz/>
2. <http://www.gov.uz/>
3. <http://www.uza.uz/>
4. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
5. [www.edu.uz](http://www.edu.uz)
6. <http://www.uzedu.uz/>
7. [www.ma'naviyat.uz](http://www.ma'naviyat.uz)
8. [www.tdpu.Uz](http://www.tdpu.Uz)
9. [www.e-adabiyot.uz](http://www.e-adabiyot.uz)

## 11-MAVZU:

### MILLIY G'OYA VA MA'NAVIYATGA OID FANLAINI O'QITISHDA AUDITORIYADAN TASHQARI ISHLAR VA ULARNING TURLARI

#### REJA:

1. Bugungi kunda auditoriyadan tashqarida talabalar ma'naviyatini rivojlantirish zaruriyati.
2. Auditoriyadan tashqari mashg'ulot jarayonida talabalarning ma'naviyatini rivojlantirish imkoniyatlari.
3. Auditoriyadan tashqari mashg'ulotlardan kutiladigan natijalar va xulosalar.

#### **Tayanch tushuncha va iboralar:**

*Auditoriyadan tashqari ishlar, talabalar ma'naviyatini rivojlantirish, ma'naviy ehtiyoj, ma'naviy burch, ma'naviy fazilat, ma'naviy meros, ma'naviy vorislik, OTMda o'quv-tarbiya ishi, auditoriya mashg'ulotlari, fan dasturlari, vaqt me'yorlari, ma'naviy-ma'rifiy ommaviy tadbirlar, integratsiyalash jarayoni, talabalarning ma'naviyatini rivojlantirishning texnologik modeli, ma'naviy tarbiya.*

**1-masalaning bayoni:** Sir emaski, globallashuv va ma'naviy tahidilar keskin tus olgan bugungi kunda talaba-yoshlar ma'naviyatini rivojlantirish har qachongidan ko'ra dolzarb bo'lgan ijtimoiy zaruriyatga aylangan.

Talabalarning ma'naviyatini rivojlantirish samaradorligiga ularga ma'naviy ehtiyoj, ma'naviy burch, ma'naviy fazilat, ma'naviy meros, ma'naviy vorislik kabi ijobiy hamda ma'naviy tahdid, ma'naviy zaiflik, ma'naviy tubanlik kabi salbiy omillar ta'sir ko'rsatadi.

Oliy ta'lim muassasasida talabalarni ma'naviy rivojlantirishning sifat va samaradorligi ko'p jihatdan murakkab va ko'p qirrali o'quv-tarbiya jarayonining auditoriya mashg'ulot (ma'ruza, seminar, amaliy va laboratoriya)lari va auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarining bu sohadagi imkoniyatlaridan oqilona foydalanishga bog'liq. Ammo, OTMda o'quv-tarbiya ishining auditoriya mashg'ulotlari fan dasturlari, vaqt me'yorlari va avvaldan belgilab qo'yilgan mashg'ulotlar shakl, metodlari bilan chegaralangan. Garchi auditoriya mashg'ulotlarida ham tarbiyaviy maqsadni amalga oshirishga harakat qilinsa ham, biroq asosiy e'tibor o'quv maqsadlariga erishishga qaratiladi. Shu boisdan ham u hamma vaqt ham talabalarning ma'naviy istak-xohishlari va ehtiyojlarini to'liq qanoatlantira olish, ularning ma'naviy-axloqiy va ma'rifiy sohalarda jonli muloqotga erkin kirishishlari, emotsional sifatlarini tarkib toptirish, o'z shaxsiy nuqtayi nazarlarini himoya qilish kabilarga to'liq imkon bermaydi.

Auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarda talabalarning ma'naviyatini rivojlantirish jarayoni ham o'z navbatida murakkab va ko'p qirrali bo'lib, u o'quv rejasidagi ijtimoiy-gumanitar, umumkasbiy va mutaxassislik fanlari bloklari bo'yicha auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar mazmuni va shakl, metodlarini o'zaro bog'liqlikda o'rgangan taqdirdagina samarali kechishi mumkin.

Auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar va ma'naviy-ma'rifiy ommaviy tadbirlar tizimi tarkibiy qismlarini integratsiyalash jarayoni murakkab ko'rinishga ega, rivojlanuvchi obyekt bo'lib, u ko'p o'lchovli yondashuvni qo'llashga zarurat tug'dirdi. Integratsiya jarayonini hosil qilishning nazariy asosi sifatida auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar va tadbirlar orqali talabalarning ma'naviyatini rivojlantirish muammosini hal qilishda tizimli va faoliyatli yondashuv hamda pedagogik integratsiyaning nazariy asoslari xizmat qiladi.

Komil Xorazmiy kasb-hunar, ilm-ma'rifikat inson axloqiy kamoloti, ijtimoiy-ma'naviy hayotning rivoji uchun xizmat qilishini ta'kidlaydi. U avvalo yosh avlodning aqliy va ma'rifiy tarbiyasiga, ma'naviyatini yuksaltirishga katta ahamiyat berib, ularni dunyoviy bilimlarni egallashga da'vat etadi. Faqat rivojlangan fan va madaniyat inson tafakkurining kamol topishini ta'minlashiga ishonadi. Xorazmiy insondagi ma'rifikat tug'yonini eskirmaydigan, eng go'zal insoniy fazilat deb biladi. Bu fazilatlarga ega bo'lganlar obro'-e'tiborli, komil insonlardir. Chunki ma'nан barkamol shaxs o'z xalqi, yurti uchun jonini fido qila oladigan kamolot sohibidir<sup>85</sup>.

**2-masalaning bayoni:** Auditoriyadan tashqari, mashg'ulotlar jarayonida talabalarning ma'naviyatini rivojlantirishda mutaxassislar tomonidan ishlab chiqilib, tavsiya etilgan quyidagi texnologik model ham muhim ahamiyatga ega:

Bosqich-lari	Mazmuni	Shakl, metod va usullari
Ma'naviy ehtiyoj	Talabalarda ma'naviy ehtiyojni qaror toptirish, ularda ma'naviy boyliklarni o'zlashtirishga qiziqish va xohish istakni rivojlantirish	Diagnostik metodlar (anketa, savol-javob, mavzuli suhbat), debat, o'z-o'zini tahlil etish, o'z-o'zini anglash
Ma'naviy ma'rifikat	Talabalarning ma'naviy ma'rifikat tarixini, ularning rivojlanish qonuniyatlarini mukammal	Anjuman-ma'ruza, trening, amaliy mashg'ulotlar, ko'rik-

<sup>85</sup> Миллий истиқбол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар. (дарслик) –Т.: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти, 2003-йил.

	o'zlashtirishlariga erishish	tanlovlari, shou-texnologiya
Ma'naviy faoliyat	Talabalarda tashabbuskorlik, tashkilotchilik, liderlik qobiliyati hamda maqsad sari intilish kabi fazilatlarni rivojlantirish	O'yinlar, turli bosqichdagi talabalarning ochiq muloqoti, ko'rsatuv va filmlar muhokamasi
Ma'naviy qiyofa	Talabalarda ma'naviy boyliklarni o'zlashtirish va yaratish, voqeahodisalarini ekspertizadan o'tkazish salohiyati hamda vogelikka daxldorlik tuyg'usini rivojlantirish	Keys-stadi (aniq vaziyatlarni hal etish), o'zaro hamkorlikdagi faoliyat, korreksion ish metodlari

Talabalarning pedagogika oliy ta'lim muassasasidagi tahsilining intihosi yuksak ma'naviy qiyofaning shakllanishi bilan belgilanadi. Ana shu sababli texnologiyaning to'rtinchı bosqichi «ma'naviy qiyofa», deb nomlanadi. Mazkur bosqichda talabalarda ma'naviy sifatlarning to'liq rivojlanganligini diagnostika qilish va korreksiyalashga alohida e'tibor qaratiladi. Texnologiyaning to'rtinchı bosqichida, asosan, auditoriyadan tashqari ishlar jarayonida talabalarning individual faoliyatini o'rganish va tahlil etish, ularning malakaviy amaliyot davomida ziyolilik sifatlarining namoyon bo'lishini tashxis etish va muntazam tuzatib borish kabi jihatlarga alohida e'tibor qaratiladi.

Tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish mazkur jarayonni loyihalashdan boshlanib, dastlab talabalarda tarkib toptirilishi lozim bo'lgan qiziqish, ehtiyoj va motivlarni aniqlab olishdan boshlanadi, ya'ni talabalarda tarbiyaviy tadbirlarda ishtirok etishga ichki kuch va imkoniyatlarini tarkib toptirishni taqozo etadi.

Talabalarda ma'naviyatni rivojlantirishga qaratilgan tarbiyaviy tadbirlar samaradorligiga erishish mumkin bo'lgan natijalar bilan erishilgan natija o'rtasidagi munosabatlarning ifodalanishi, tarbiyaviy jarayonda natijaviylikni ta'minlanishi uchun quyidagi shartlarning bajarilishi zaruriyatini taqozo etadi: ma'naviy ehtiyojning ahamiyati va zaruriyatining anglab yetilishi, tarbiya jarayoni hamda tarbiyaviy munosabatlар jarayonida motivlarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish, talabalarda yuksak ma'naviy fazilatlarni egallashga bo'lgan ijobjiy motivlarni rivojlantirish, talabalarning ma'naviyatini rivojlantirish uchun zaruriy va qulay shart-sharoit yaratuvchi ijodiy muhitni yaratish, tarbiya jarayonida hamkorlikka asoslanishi, talabalarning ma'naviyatini rivojlantirishga ijobjiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarning hisobga olinishi shular jumlasidandir. Tarbiyaviy tadbirlarni loyihalash bosqichining yana bir muhim tarkibiy qismi baholash va refleksiyadir. Tadqiqot jarayonida

pedagogik baholashning ikki turi qo'llaniladi: ochiq pedagogik baholash va yopiq tarzdagi pedagogik baholash. Tadqiqot natijalari talaba shaxsining subyektiv mustaqilligini intensiv rivojlantirgani bois, yopiq tarzdagi pedagogik baholash samarali ekanligi haqida xulosa chiqarish imkonini beradi. Tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish bosqichi maqsadni ko'zlash bosqichidan keyin boshlanadi va undan faqat nazariy jihatdan farqlanadi, ammo amaliy jihatdan bu ajralmas jarayondir. Bu bosqichda tarbiyachilar oldida tarbiyalanuvchilar bilan birga faoliyat yo'naliشining barcha qismlarini aniqlash, ishtirokchilar orasida majburiyatlarni taqsimlash, ularni qanday qilib bajarish lozimligini ko'rsatish kabi muhim vazifalar ham turadi.

Talabalarning ma'naviy-ma'rifiy mavzulardagi kompyuterli muloqot dasturlaridan foydalanishga qiziqishlarini rivojlantirishning muhim shakli - virtual ekskursiyadir. Virtual ekskursiya xilma-xil axborot manbalaridan foydalangan holda talabalarni ma'naviy-ma'rifiy ishlarni loyihalashtirish faoliyatiga tayyorlash jarayonida ularning o'zaro birgalikdagi harakatga tayyorlashga yo'naltirilgan pedagogik vositani o'zida aks ettiradi. An'anaviy ekskursiyalardan farqli ravishda virtual ekskursiyalar axborot texnologiyalaridan foydalangan holda, maxsus jihozlangan o'quv xonalarida o'tkaziladi. Mazmuniga ko'ra virtual ekskursiyalar ma'naviy ma'rifiy ishlar mavzusiga mos ravishda tashkil etiladi, shuning uchun talabalarning ma'naviy dunyoqarashini boyitish va kengaytirishga xizmat qiladi.

Misol uchun, ana shunday virtual ekskursiyalar Samarqand davlat universiteti talabalarini bilan auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar jarayonida "Samarqand ma'naviyat o'choqlari" mavzusida tashkil etilishi mumkin. Mazkur jarayonda har bir talabaning alohida qadamjolar haqida ma'lumotlarni o'rganishlari vazifa sifatida belgilanadi. Virtual ekskursiyani tashkil etishga doir mashg'ulot bir nechta bosqichda amalga oshiriladi:

birinchi bosqichda talabalar bilan hamkorlikda ularning qiziqishlarini hisobga olgan holda, ekskursiyaning maqsadi aniqlandi va obyektlari belgilab olinadi. Ushbu ekskursiyaning maqsadi sifatida Samarqand shahrida joylashgan qadamjolar, ulardagagi moddiy va ma'naviy qadriyatlar haqidagi qo'shimcha ma'lumotlarni o'rganish asosida talabalarning dunyoqarashini kengaytirish belgilab olinadi;

ikkinchi bosqichda maxsus ishlab chiqilgan elektron xarita asosida talabalar mustaqil ravishda obyektlar to'g'risidagi axborotlarni izlashi, ularni o'rganib, tahlil etish asosida ma'naviyat o'choqlari haqidagi tayyorlanadigan ma'ruzaning rejasini tuzishi, so'ngra ko'rgazmali

materiallar asosida taqdimot yaratishi, kichik guruuhlarga bo'lingan holda har biri o'zi tayyorlagan ma'ruzaga tuzatishi va o'zgartirishlar kiritish maqsadida sinov tariqasidagi taqdimotlarni o'tkazishi, so'ngra umumiy o'rta ta'lif maktabalaridan taklif etilgan o'quvchi-ekskursantlar bilan birga talabalar virtual ekskursiyani amalga oshirishi mumkin. Ekskursiyaga jalb etilgan o'quvchilar tomonidan berilgan savollarga javob berishadi;

yakuniy bosqichda guruh murabbiyi tomonidan taqdim etilgan mezonlar asosida talabaarning taqdimotlari muhokama etiladi va baholanadi.

Virtual ekskursiyaga tayyorlanish ijodiy jarayon sanalib, tashabbuskorlik, nostonart fikrlashni rivojlantiradi hamda aniq natijalarini erishishni kafolatlaydi. O'z navbatida ekskursiyani tashkil etish talabalarning ma'naviy olamini yanada boyitish, milliy g'urur, iftixor tuyg'ularini rivojlantirish, ma'naviy-ma'rifiy malaka talablarini egallash, shuningdek, e'tiborlilik, xayriyohlik, tolerantlik kabi shaxsiy sifatlarni tarbiyalashga xizmat qiladi. O'quv auditoriyasidagi hamkorlikdagi faoliyat, uning natijalarini baholash talabalarga o'z imkoniyatlarini baholash, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish imkoniyatlarini taqdim etadi.

Virtual ekskursiya talabalarda nafaqat umummadaniy kompetensiyalarni, balki quyidagi kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish imkonini beradi: ma'naviy-ma'rifiy faoliyatga doir turli axborot manbalarini mustaqil izlab topish va ulardan foydalanish, ma'naviy-ma'rifiy faoliyat subyektlari bilan samarali muloqotga kirishish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda, ma'naviy-ma'rifiy faoliyatga doir va hk.

**3-masalaning bayoni:** Talabalarda ma'naviy ehtiyojni rivojlantirish uchun quyidagi jihatlarga alohida e'tibor qaratish lozim: shaxs ma'naviy ehtiyojni qondirish uchun uni o'rganish lozim. Buni anglab yetmasdan maqsadga erishish mumkin emas, ma'naviy ehtiyojni tez fursatda rivojlantirish mumkin emas, ma'naviy ehtiyojni rivojlantirish uchun har bir fuqaroda ziyolilik sifatlarini oshirish talab etiladi.

Talabalarning ma'naviyatini rivojlantirishga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni ijobjiy va salbiy turlarga ajratish mumkin. Ma'naviy ehtiyoj, ma'naviy burch va ma'naviy fazilatlar ijobjiy omillar hisoblansa, ma'naviy buzg'unchilik, ma'naviy zaiflik, ma'naviy tubanlik singari xislatlar salbiy tavsifga egadir. Talabalarda mazkur salbiy sifatlarning namoyon bo'lishiga imkon bermaslik, uning oldini olish o'ta muhimdir. Buning uchun, eng avvalo, ma'naviy tahdid, ma'naviy zaiflik, ma'naviy tubanlik singari illatlarning o'zi haqida aniq ma'lumotlarga ega bo'lish lozim.

Auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarda talabalarni ma'naviy rivojlantirish jarayoni ham o'z navbatida murakkab va ko'p qirrali bo'lib, u o'quv rejasidagi ijtimoiy-gumanitar, umumkasbiy va mutaxassislik fanlari bloklari bo'yicha auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar mazmuni va shakl, metodlarini o'zaro bog'liqlikda o'rgangan taqdirdagina samaradorligi ortishi haqidagi xulosaga kelinadi.

Auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarda talabalarni ma'naviy rivojlantirish tizimining boshqa tizimlardan ajratib turadigan xususiyati – uning muhim tarkibiy qismlarining o'zaro mustahkam aloqasi (o'zini-o'zi tashkillashtirishi) tufayli vujudga keladigan bir butunligi va yaxlitligidir. Ushbu nuqtayi nazardan talabalarni auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarda ma'naviy rivojlantirish muammosi ma'lum maqsadga qaratilgan, bir-biri bilan yaqin o'zaro uzviy aloqada bo'lgan yaxlit integrativ tizim sifatida qaralishi va o'rganilishini taqozo etadi.

Pedagogika oliv ta'lim muassasalarida ma'naviy faoliyatni samarali yo'lga qo'yilganligi ko'p jihatdan talabalarning ijtimoiy faolligi va uning darajasi bilan belgilanadi. Talabalarning pedagogik oliv ta'lim muassasadagi tahsilining yakuni ularda ma'naviy qiyofaning shakllanishi bilan tugallanishi lozim.

Auditoriyadan tashqari ishlar jarayonida talabalarning ma'naviyatini rivojlantirish texnologiyasining samaradorligi aniq metodik ta'minotning yaratilganligiga ko'p jihatdan bog'liqdir. Ana shu sababli tadqiqot doirasida ekskursiyalar, badiiy-ommaviy tadbirlarni tashkil etishga doir metodik ishlanmalarni ishlab chiqishga ham alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq.

Talabalarning ma'naviyatini rivojlantirishga doir tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish quyidagi ikki bosqichdan iborat tarzda amalga oshirilishi lozim: loyihalash – qiziqish, ehtiyoj va motivlarni aniqlashtirish, maqsad va vazifalar hamda kutiladigan natijalarni oydinlashtirish, shakl, metod va vositalarni tanlab olish; baholash va refleksiya hamda rejalashtirish – tadbirni o'tkazish bosqichlari va vaqtini taqsimlash, murabbiy-tarbiyachining vazifalari; talabaning ish tartibi, tarbiyaviy tadbir materiallari shular jumlasidandir.

### **MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR:**

1. Auditoriyadan tashqari ishlar deganda nimalar nazarda tutiladi?
2. Talabalarning ma'naviyatini rivojlantirishning texnologik modeli haqida nimalarni bilib oldinsiz?
3. Talabalarning ma'naviy-ma'rifiy mavzulardagi kompyuterli muloqot dasturlaridan foydalanishga qiziqishlarini rivojlantirishning qanday muhim shakli bor?

4. Talabalarda ma'naviy ehtiyojni rivojlantirish uchun qanday jihatlarga alohida e'tibor qaratish lozim?
5. Talabalarning ma'naviyatini rivojlantirishga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni qanday turlarga ajratish mumkin?
6. Auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarda talabalarni ma'naviy rivojlantirish jarayoni qanday taqdirdagina samaradorligi ortishi mumkin?
7. Pedagogika oliy ta'lif muassasalarida ma'naviy faoliyatni samarali yo'lga qo'yilganligi ko'p jihatdan nima bilan belgilanadi?
8. Ma'lumki, talabalarning ma'naviyatini rivojlantirishga doir tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish ikki bosqichdan iborat tarzda amalga oshirilishi lozim. Ular qanday bosqichlar?

#### **MAVZUGA OID ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 28-iyuldag'i "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida"gi PQ-3160-sон Qarori// O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 6-son, 70-modda.
2. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. (derslik) -T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2003-yil.
3. Milliy g'oya: targ'ibot texnologiyalari va atamalar lug'ati (Mas'ul muharrir I.Ergashev). -T.: Akademiya, 2007-yil.
4. Tohiriyon A., Sobirova M., Zamonov Z. Milliy g'oya turkumiga kiruvchi fanlarni o'qitishda interfaol ta'lif metodlaridan foydalanish bo'yicha uslubiy tavsiyalar. -T.: RTM, 2017.
4. Kenjayev D., Ismatova N. va boshq. TARBIYA 7 baxt va muvaffaqiyat sirlari. Umumiyl o'rta ta'lif maktablarining 7-sinf o'quvchilari uchun darslik. - T.:O'zbekiston NMU, 2020 yil.
5. Z. Zamonov, O. Maxmudov va b. TARBIYA 8 baxt va muvaffaqiyat sirlari. Umumiyl o'rta ta'lif maktablarining 8-sinf o'quvchilari uchun darslik. - T.: Zamin nashr, 2020 yil.

#### **ELEKTRON TA'LIM RESURSLARI:**

1. <http://www.lex.uz/>
2. <http://www.gov.uz/>
3. <http://www.uza.uz/>
4. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
5. [www.edu.uz](http://www.edu.uz)
6. [www.ma'naviyat.uz](http://www.ma'naviyat.uz)

## 12-MAVZU:

### MILLIY G'OYA VA MA'NAVİYATGA OID FANLARNI O'QITISHDA YANGICHA YONDASHUV VA INNOVATSIYALAR

#### REJA:

1. Milliy g'oya va ma'naviyatga oid fanlarni o'qitishda va ma'naviy-ma'rifiy ishlarda yangicha yondashuv va innovatsiyalar.
2. Kompetensiyalarga asoslangan ta'lif yondashuvi.
3. Mafkuraviy kompetensiya va uni rivojlantirishning zaruriyatni.

#### *Tayanch tushuncha va iboralar:*

*Milliy g'oya, innovatsiya, ma'naviyat, ma'rifikat, globallashuv, Respublika Ma'naviyat va ma'rifikat markazi, kompetensiya, mafkuraviy kompetensiya, ijtimoiy kompetensiya, ma'naviy asoslar, dars muqaddas, zamovaviy o'qituvchi va hk.*

**1-masalaning bayoni:** Mustaqillik yillarda mamlakatimizda jamiyat hayotining ma'naviy-ma'rifiy asoslarini mustahkamlash, milliy g'oyasining asosiy tushuncha va tamoyillarini hayotga joriy etish, ayniqsa, yosh avlod qalbida Vatanimiz taqdiri va kelajagi uchun daxldorlik va mas'uliyat hissini oshirish, yot g'oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetni kuchaytirishga yo'naltirilgan targ'ibot tizimi shakllandi.

Bugungi kunda dunyoda globallashuv jarayonlari kuchayib, tinchlik va barqarorlikka qarshi yangi tahdid va xatarlar tobora ko'payib bormoqda. Bunday murakkab va tahlikali vaziyat sohada amalga oshirilgan ishlarni tanqidiy baholab, uning faoliyatini zamon talablari asosida takomillashtirishni taqozo etmoqda.

Xususan, oila, mahalla va ta'lif muassasalarida yoshlar tarbiyasi, chekka hududlar va mahallalarda uyushmagan yoshlar bilan maqsadli g'oyaviy-tarbiyaviy ishlarning yuzaki tarzda olib borilayotgani, jinoyatchilik, diniy ekstremizm va terroristik harakatlarga adashib qo'shilib qolish, milliy qadriyatlarga e'tiborsizlik, erta turmush qurish, oilaviy ajralishlar kabi salbiy holatlarning oldini olishga qaratilgan targ'ibot ishlarning aksariyat hollarda kutilgan natijani bermayotgani bu masalalarga jiddiy e'tiborni talab etmoqda.

Mamlakatimizda qabul qilingan 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida, eng avvalo, davlat boshqaruvi organlarining quyi bo'g'lnlari faoliyatini tubdan yaxshilash, ularning xalq bilan muloqot qilishini ta'minlash, bu borada samarali ijtimoiy hamkorlik mexanizmini mustahkamlash ustuvor vazifa sifatida belgilab qo'yilgan.

2017-yil 28-iyulda Respublikamizda "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 3160-sonli Qurori qabul qilindi<sup>86</sup>. Bunda ma'naviy-ma'rifiy sohada olib borilayotgan ishlarni yanada jonlashtirish maqsadida Respublika Ma'naviyat targ'ibot markazi va Milliy g'oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi birlashtirilib, ularning negizida Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi qayta tashkil etildi.

Mazkur qaror bo'yicha mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, qabul qilinayotgan qonun hujjatlari, davlat dasturlarining mazmun va mohiyatini aholining keng qatlamlariga yetkazishga qaratilgan targ'ibot ishlarni tizimli va izchil amalga oshirish, bu borada keng jamoatchilik, olimlar, mutaxassislar, ijodkor ziyorilardan iborat "Ma'rifat" targ'ibotchilar jamiyatini shakllantirish hamda uning faoliyatini doimiy asosda yo'lga qo'yish zarurligi ta'kidlangan.

Shuningdek, ma'naviy-ma'rifiy sohada olib borilayotgan ishlarni yanada jonlantirish borasida quyidagi vazifalar belgilangan.

– dunyoda yuz berayotgan murakkab geosiyosiylari va g'oyaviy-mafkuraviy jarayonlarning mazmun-mohiyatini har tomonlama chuqur yoritib borish, terrorizm, diniy ekstremizm, aqidaparastlik, separatizm, odam savdosi, "ommaviy madaniyat", narkobiznes va boshqa tahdidlarga qarshi samarali g'oyaviy kurash olib borish;

– jamiyatimizning barqaror rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan ichki tahdidlar – el-yurt taqdiriga loqaydlik, mahalliychilik, urug'-aymoqchilik, oilaviy qadriyatlar va yoshlар tarbiyasiga e'tiborsizlik kabi holatlarga barham berishga qaratilgan kompleks tadbirlar tizimini ishlab chiqish va amalga oshirish;

– milliy g'oyani yurtimizda yashayotgan barcha millat va elatlar, ijtimoiy toifa vakillari o'rtasida keng targ'ib etish, bunyodkorlik ruhini yalpi ijtimoiy harakatga aylantirish, ertangi kunga ishonch tuyg'ularini kuchaytirish;

– targ'ibot-tashviqot ishlarida aholining hududiy, kasbiy hamda yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda mutanosib, maqsadli va mazmunli yondashuvni joriy etish;

– ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot ishlari samaradorligining ilmiy asoslangan monitoringini ta'minlashga qaratilgan sotsiologik tadqiqotlar o'tkazishni muntazam yo'lga qo'yish;

<sup>86</sup> Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori.// Xalq so'zi. 2017-yil, 28-iyul.

– yoshlarda sog'lom dunyoqarash, jumladan, kitobxonlik ko'nikmasini shakllantirish, internet, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan oqilona foydalanish madaniyatini oshirish, ularda g'oyaviy va axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetni kuchaytirish;

– mahallalarda uyushmagan yoshlar bilan ishlash, ushbu toifani ijtimoiy-iqtisodiy faollashtirishda jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish;

– xalqimizning tarixiy merosi, urf-odatlari va milliy tarbiya an'analarini asrab-avaylash, keng aholi qatlamlari, ayniqsa, yoshlarimiz o'rtaida dinlararo bag'rikenglik, millatlararo totuvlik va o'zaro mehr-oqibat muhitini mustahkamlash bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish va joriy etish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashiga, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi Raisi, viloyatlar, Toshkent shahar hamda tumanlar (shaharlar) hokimlari tegishli ravishda hududiy kengashlarga jamoatchilik asosida raislik qiladilar.

Bugungi kunda umumiy o'rta ta'lim tizimi sohasida tubdan o'zgarishlar amalga oshirilmoxda. Bu sohada mustaqillikdan buyon qo'lga kiritilgan yutuqlar, kamchiliklar, muammolar tahlil qilinib, maqbul rejalar belgilanmoqda. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'lim sohasidagi mavjud muammolar va bajarilishi lozim bo'lgan vazifalarni quyidagicha ko'rsatib o'tdi: "...umumta'lim mакtablari, litsey va kasb-xunar kollejlari, shuningdek, oliy o'quv yurtlaridagi o'qitish sifati bilan bog'liq. Zamonaviy o'quv reja va uslublarini joriy etish talab darajasida emas. Yana bir muammoni hal etish ham o'ta muhim hisoblanadi: bu – pedagoglar va professor-o'qituvchilar tarkibining professional darajasi, ularning maxsus bilimlaridir. Bu borada ta'lim olish, ma'naviy-ma'rify kamolot masalalari va haqiqiy qadriyatlarni shakllantirish jarayonlariga faol ko'mak beradigan muhitni yaratish zarur."<sup>87</sup>

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Umumiy o'rta ta'lim to'g'risidagi nizomni tasdiqlash to'g'risida"gi 2017-yil 15-martdag'i 140-sun qarori asosida Nizom qabul qilingan bo'lib, ushbu Nizom 10 ta bob, 85 ta banddan iborat. Unda O'zbekistonda umumiy o'rta ta'limning muddati 9 yil qilib ko'rsatilgan va umumiy o'rta ta'lim uzlusiz ta'lim tizimining majburiy mustaqil turi hisoblanishi ta'kidlangan. Nizomda umumiy o'rta ta'limning maqsadi va vazifalari, umumiy o'rta ta'limni

<sup>87</sup> Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. -T.: 2017, 47-bet.

tashkil etish, o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etish va uning mazmuni, umumta'lim muassasasiga o'qishga qabul qilish, o'quvchilar sog'lig'ini muhofaza qilish, pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, umumiy o'rta ta'limga boshqarish, moliyalashtirish va moddiy-texnik ta'minoti kabi boblari mavjud.

Nizomda umumiy o'rta ta'limga vazifalari quyidagilardan iborat qilib belgilangan:

- o'quvchilar tomonidan muntazam bilimlar olinishini ta'minlash, ularda bilim olish ehtiyojini rivojlantirish, bazaviy o'quv, ilmiy va umummadaniy bilimlarni shakllantirish;

- o'quvchilarda milliy hamda umumbashariy qadriyatlarini uyg'unlashtirish asosida yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarni tarbiyalash, o'z Vataniga va xalqiga sodiq fuqaroni shakllantirish;

- ta'limga uzluksizligini va izchilligini, umumta'lim muassasalarini o'quv dasturlarining o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarini o'quv dasturlari bilan uzviy bog'liqligini ta'minlash;

- ta'lim-tarbiya jarayoniga o'qitishning zamonaviy va innovatsion pedagogik uslublarini hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish orqali ta'lim sifatini oshirish;

- o'quvchilarning individual ijobjiy xususiyatlarini aniqlash, qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish, ularning yuksak darajada ta'lim-tarbiya olishlari, ijodiy imkoniyatlarini shakllantirish va rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratib berish;

- Umumiyligi o'rta ta'limga muntazam va tizimli bilimlar olinishini, keng dunyoqarash hamda ijodiy mustaqil fikrlash shakllantirilishini, o'quvchining barkamol shaxs sifatida kamol topishini, uning qiziqishlari va ijodiy qobiliyatlarining rivojlantirilishini ta'minlaydi.

Nizomning 7-bobida Pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishga alohida e'tibor qaratilgan. Bunda:

- tegishli ma'lumoti, kasb tayyorgarligi bor va yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo'lgan shaxslar pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga ega;

- pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish sud hukmiga asosan man etilgan shaxslarning umumta'lim muassasalarida bu faoliyat bilan shug'ullanishiga yo'l qo'yilmaydi.

- pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, kasb mahoratining raqobatbardosh darajada saqlab turilishi xalq ta'limi boshqaruvi organlari tomonidan tashkil etiladi va nazorat qilinadi.

– umumta'lim muassasasi pedagogik jamoa a'zolari o'qitish yo'nalishlari (tabiiy, aniq, gumanitar, ijtimoiy va boshqa fanlar) bo'yicha uslubiy birlashmalarga birlashadilar.

– umumta'lim muassasalari o'qituvchilarining (o'quv fanlari va soatlari bo'yicha) vazifasini vaqtincha bajarib turish tartibi hamda xodimlarining sinfdan tashqari faoliyatini tartibga solish O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan belgilanadi;

– umumta'lim muassasasi rahbariyati o'qituvchilarning obro'-e'tibori va ijtimoiy maqomini, ularning mas'uliyati va kasb mahoratini oshirish bo'yicha aniq yo'nalishli ishlarni amalgalashiradi, ularning tizimli ravishda malaka oshirishlari va o'z ustida ishlashlari, ta'lim jarayoniga ilg'or pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalari, shuningdek, yangi o'quv dasturlari joriy etilishi uchun shart-sharoitlar yaratadi;

– umumta'lim muassasalari va xalq ta'limi boshqaruv organlarining xalqaro hamkorligi xalqaro shartnomalar asosida xalqaro va xorijiy tashkilotlar bilan pedagogik axborot va tajriba almashish, pedagog xodimlarning malaka oshirishi hamda stajirovka o'tashi shaklida amalgalashiriladi;

– umumta'lim muassasalari o'quvchilarning ota-onalari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, boshqa ta'lim muassasalari va nodavlat notijorat tashkilotlar bilan uzviy aloqada faoliyat ko'rsatadi.

Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar turkumidagi (Odobnama, Vatan tuyg'usi, Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari) fanlari bo'yicha o'quv mashg'ulotlari olib borish jarayonida 2017-yil 28-iyulda Respublikamizda "Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3160-sonli Qarori va Umumiyligida o'rta ta'lim to'g'risidagi nizom va o'quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan davlat ta'lim standarti bo'yicha dars mashg'ulotlarini olib borish talab etiladi. Bunda o'qituvchilar dars mashg'ulotlari olib borish jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalar va interaktiv uslublardan unumli foydalanishlari lozim bo'ladi.

**2-masalaning bayoni:** Bugungi kunda umumiyligida o'rta ta'lim sifatini tubdan o'zgartirishda ta'limdagi kompetensiyaviy yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Kompetensiya bu – mavjud bilim, ko'nikma va

malakalarni kundalik faoliyatda qo'llay olish qobiliyati hisoblanadi<sup>88</sup>. "Kompetensiya" tushunchasi lotincha "campetere" – munosib bo'lmoq so'zidan kelib chiqqan bo'lib, u Yevropada birinchi marta 1596-yilda Vikipediya lug'atida ishlataligilgan. Hozirda Vikipediyada elektron lug'atda "kompetensiya" tushunchasi "bu xodimning lavozim talablariga muvofiq ishslash qobiliyatidir"<sup>89</sup>, deya izohlangan. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasida "kompetensiya" tushunchasi "Kompetensiya – (lot. compete – erishayapman, munosibman, loyiqlaman) – 1) muayyan davlat organi (mahalliy o'zini o'zi boshqarish organi) yoki mansabdor shaxsning qonun, ustav yoki boshqa hujjat bilan belgilangan vakolatlari, huquq va burchlari doirasi; 2) u yoki bu sohadagi bilimlar, tajriba"<sup>90</sup>, deya ta'riflangan. Yuqorida manbalarda "kompetensiya" tushunchasi orqali keng ma'noda umumiy masalalarni hal etishda amaliy tajribalar asosida bilim va malakalarni qo'llash, muvaffaqiyatli harakat qilish qobiliyatini nazarda tutilgan bo'lsa, yurtimizning pedagogika sohasidagi olimlari tomonidan aynan o'qituvchining kasbiy kompetentliliqi tushunchasiga ham ta'riflar berilgan bo'lib, unga ko'ra "kasbiy kompetentlik – bu o'qituvchining ma'naviy dunyoqarashi, psixologik-pedagogik va tashkiliy-texnologik salohiyati, ya'ni uning kasbiy imkoniyatlari salohiyatini tasvirlaydi. Mazkur salohiyatni pedagogik jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda o'qituvchi faoliyati jarayonining holati va samaradorligi orqali aniqlash mumkin bo'ladi"<sup>91</sup>, deya izohlangan.

Mazkur jarayonda O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek, "Uzluksiz ta'limni davlat ta'lim standartlari va tegishli ta'lim dasturlari bilan ta'minlashda, avvalo, ularning jahon talablari darajasida bo'lishiga, yuksak ma'naviyat zaminida qurilganiga asosiy e'tibor berish kerak"<sup>92</sup>

Albatta, eng avvalo, ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligi bugungi kun talabi, jamiyat ehtiyoji, fan va texnikanining rivojlanish

<sup>88</sup> [www.gov.uz](http://www.gov.uz). Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187-son Qarori.

<sup>89</sup> Qarang: <https://ru.m.wikipedia.org/wiki/Kompetensiya>.

<sup>90</sup> Узбекистон Миллий Энциклопедияси. -Т.: "Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси" нашриёти, 4-жилд 2002, 682-бет.

<sup>91</sup> Qarang: Тургунов С.Т., Дониёров Б.Х., Отажонова Д.М.. Ўқитувчиларнинг касбий компетентлилигини ривожлантириша таълим муассасаси раҳбарларининг функционал назифалари. -Т.: "Сано-стандарт", 2011, 77-бет., Тургунов С.Т., Дониёров Б.Х., Умаралиева М.А., Шодмонова Ш.С., Турғунова Ш.М., Тошибоева Н.М.. Ўқитувчиларнинг касбий маҳорат ва компетентлилигини ривожлантириш. -Т.: "Сано-стандарт", 2012, 125-бет.

<sup>92</sup> Каримов И.А. Баркамол авлод – Узбекистон тараққиётининг пойдевори. -Т.: Шарқ, 1998, 63-бет.

tendensiyalari asosida ishlab chiqilgan davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlariga bog'liq. XXI asrda dunyoning rivojlangan davlatlarida ta'lim mazmunini modernizatsiya qilishning asosiy yo'nalişlaridan biri sifatida ta'linda kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish masalasiga asosiy e'tibor qaratilmoqda. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim o'quvchilarda egallangan bilim, ko'nikma va malakalarini o'z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo'llay olish layoqatlarini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim hisoblanadi<sup>93</sup>.

Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining umumta'lim fanlari bo'yicha kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta'lim standartlarining konseptual modeling tarkibiy qismi quyidagilardan iborat bo'ldi:

1. Umumiy qoidalar.
2. Asos qilib olingen me'yoriy va qonun osti hujjatlari.
3. Standartning darajalari va nomlanishi.
4. Tayanch va fanga oid umumiy kompetensiyalar.
5. O'quv fanining maqsad va vazifalari.
6. Umumta'lim fanlarini o'rganishning mazmuni.
7. Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalari bitiruvchilariga nisbatan qo'yiladigan malakaviy talablar.

Davlat ta'lim standartining tarkibiy qismlariga quyidagicha izoh berish mumkin:

Davlat ta'lim standartining yadroси hisoblangan uzlusiz majburiy ta'lim tizimining bosqichlariga qo'yiladigan majburiy minimal talablar o'quvchi va talaalarning umuta'lim fanlari bo'yicha tayyorligi va kompetentlik darajasiga qo'yiladigan talab lar hisoblanadi.

Uzlusiz majburiy ta'lim tizimining majburiy minimal ta'lim mazmuni va egallanadigan kompetensiyalar o'quvchi va talabalarning ta'lim-tarbiya maqsadlariga qaratilgan turli xatti-harakatlarni bajarishga imkon beradigan nazariy bilimlar, amaliy ko'nikma, malaka va shaxsiy fazilatlar yig'indisidir<sup>94</sup>.

2016-yil 14-martda qabul qilingan "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining umumta'lim fanlari bo'yicha o'quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlari loyihibarini ishlab chiqish to'g'risida"gi Xalq ta'limi vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi va O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazining 16, 15-Q/Q va 26/QQ-sonli qo'shma

<sup>93</sup> Ваҳобов М. Компетенциявий ёндашувга асосланган давлат таълим стандартларини жорий этиш – замонавий таълим парадигмаси сифатида.// Замонавий таълим , 2016, 10-сон, 2-бет.

<sup>94</sup> Ваҳобов М. Компетенциявий ёндашувга асосланган давлат таълим стандартларини жорий этиш – замонавий таълим парадигмаси сифатида.// Замонавий таълим , 2016, 10-сон, 4-бет.

Qarori mazmunidan kelib chiqqan holda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi Umumiy o'rta va O'rta maxsus, kasb-hunar ta'liming Davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 187-son Qarori bilan tasdiqlandi. Unda "Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar" turkumiga kiruvchi o'quv fanlarini o'qitishning maqsad va vazifalari quyidagilar qilib belgilandi:

"Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar" turkumiga kiruvchi fanlarni o'qitishning maqsadi:

o'quvchilarni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash, o'quvchilar qalbi va ongiga ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot g'oyasining mohiyatini singdirish, ularning ma'nnaviy dunyosini boyitish va mafkuraviy immunitetini, tayanch va fanga oid kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat.

"Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar" turkumiga kiruvchi fanlarni o'qitishning vazifasi:

o'quvchilarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qilishga o'rgatish, ularda faol fuqarolik nuqtayi nazarini, milliy g'urur, bag'rakenglik va sog'lom e'tiqodni shakllantirishdan iborat.

"Milliy istiqlol g'oyasi asosiy tushuncha va tamoyillar" turkumiga kiruvchi fanlar yo'nalishi bo'yicha o'quvchilar Umumiy o'rta ta'larning davlat ta'lim standartlarida belgilangan bilim, ko'nikma va malakalarini egallashlari natijasida;

➤ **nazariy bilimlarni namoyon qilish:** o'rganilgan tarixiy voqealarni ta'riflash, ularning bashariyat rivojiga ta'sirini misollar bilan tushuntira olish.

➤ **axborotlarni mustaqil ravishda izlash:** Turli manbalar (o'quv matni, lug'at, ilmiy-ommabop adabiyotlar, kompyuter ma'lumotlari bazasi, Internet resurslari)dan foydalanib ilmiy-amaliy mazmundagi axborotlarni izlash va foydalanish.

➤ **amalda bilishi hamda qo'llay olishi kerak:** ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy sohadagi o'zgarishlar, mamalakatimiz mustaqilligining qo'lga kiritilishi, mamlakatimizning iqtisodiy salohiyati, imkoniyatlardan oqilona foydalana olish, ehtiyojlarning cheksizligi va imkoniyatlarning cheklanganligi anglash, o'zining iqtisodiy imkoniyatlaridan oqilona foydalana olish, tabbiy resurslarning isrof qilmaslik va ulardan oqilona foydalanish, soliq madaniyatiga ega bo'lish, iqtisodiy bilimlarini muntazam oshirib borish kabi bilim, ko'nikma, malakalarini shakllantirish borasida o'quvchilarda kompetentlik shakllanadi.

Bugungi kunda milliy g'oya va ma'nnaviyat asoslari turkumiga kiruvchi o'quv fanlari bo'yicha ta'lim oluvchilar tayyorgarligining zarur

va yetarlicha darajasi hamda ta'lrim muassasalari bitiruvchilariga nisbatan quyidagi talablari qo'yilmoqda:

*1. Ma'naviy-axloqiy madaniyatatlilik kompetensiyasi*

Odob-axloq (kiyinish, muomala, muloqot, jamoat joylarida o'zini tutish) madaniyatiga ega bo'ladi;

milliy va umuminsoniy qadriyatlarni anglaydi va hurmat qiladi;

oila, jamiyat, Vatan oldidagi burch hamda mas'uliyatni anglaydi va ularga rioya qiladi;

milliy va umuminsoniy qadriyatlarni, milliy-madaniy an'analar, urfodatlar, marosimlarga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo'ladi;

Vatan ravnaqi yo'lida jismoni va intellektual imkoniyatlarini safarbar eta oladi;

milliy va diniy munosabatlarda bag'rikenglikni o'zida namoyon eta oladi;

muammolarni vazminlik va tinch yo'l bilan hal etadi;

hissiyotlarga berilmaydi, har qanday jarayonda aql bilan ish yuritishga harakat qiladi;

jamoatchilik ishlarida faol bo'ladi.

*2. Mafkuraviy immunitetga ega bo'lish kompetensiyasi*

yaxshi va yomon xatti-harakatlarni farqlaydi, ularga fikrini bayon eta oladi;

yon-atrofida bo'layotgan voqeа-hodisalarga munosabat bildira oladi; ilmlilik insonning yuksak ziynati ekanini anglay boshlaydi;

O'zbekistondagi demokratik islohotlar va dunyoda kechayotgan ma'naviy-mafkuraviy jarayonlarga munosabat bildira oladi;

ma'naviy tahdidlarni anglaydi va baholay oladi;

fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish tamoyilini o'zida namoyon eta oladi;

axborot va media madaniyatga ega bo'ladi<sup>95</sup>.

Qolaversa, o'quvchilar dars mashg'uloti jarayonida o'zlashtirgan bilimlari, ko'nikmalari va malakalarini kundalik hayotiy faoliyatida duch keladigan amaliy va nazariy masalalarni yechish jarayonida foydalana olish qobiliyatlariga ega bo'lishlari lozim. Buning uchun o'qituvchilar o'zlarining o'quv mashg'ulotlarini tashkil etishda turli pedagogik texnologiyalardan, interaktiv uslublardan unumli foydalana olish ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim.

Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari turkumiga kiruvchi o'quv fanlari bo'yicha olib borilgan darslarida interaktiv uslublardan foydalanish

<sup>95</sup> Umumiyl o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'liming davlat ta'lrim standartlarini tasdiqlash to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187-sod Qarori. Manba: [www.gov.uz](http://www.gov.uz).

o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytiradi, bugungi davrning o'ziga xos jihatlarini kengroq anglashida yaqindan yordam beradi. Globallashuv jarayonida o'zini turli tahdidlardan himoya qila olish ko'nikmalari paydo bo'ladi. Internet va ommaviy axborot vositalari orqali tarqalayotgan xabarlarni to'g'ri tahlil qilib, o'zi uchun zarur ma'lumotlarni ajratish qobiyyati shakllanadi.

Interaktiv uslubdagi dars jarayonida o'qituvchi va o'quvchi birgalikda faoliyat olib boradi va bunda o'quvchi asosiy bajaruvchiga aylanadi<sup>96</sup>. Bu jarayonda o'quvchilarga shaxs sifatida qaraladi, ularning mustaqil, erkin fikrlashga, izlanishga, har bir masalaga ijodiy yondoshishiga, mas'uliyatni his qilishga imkon yaratiladi. O'quvchini mantiqiy fikrlash, umumiyl fikr doirasini kengaytirish, mustaqil ravishda adabiyotlardan foydalanishni o'rgatadi. Bu esa o'quvchilarda tayanch kompetensiyalarining shakllantirishda mupim ahamiyat kasb etadi.

Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari turkumiga kiruvchi o'quv fanlari bo'yicha darslarida ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi shakllantirish muhim hisoblanadi. Bu kompetensiyada jamiyatda bo'layotgan voqeal, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va ularda faol ishtirok etish, o'zining fuqarolik burch va huquqlarini bilish, unga rioya qilish, mehnat va fuqarolik munosabatlarida muomala va huquqiy madaniyatga ega bo'lish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi<sup>97</sup>.

Bunda, ya'ni *ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi* milliy g'oya va ma'naviyat asoslari turkumiga kiruvchi fanlarga oid darslarni shakllantirishda interaktiv uslublarning eng samaralilarini tanlay olishi lozim bo'ladi. Interaktiv uslublarni qo'llash jarayonida sinf o'quvchilarning o'ziga xos jihatlarini ham e'tiborga olish lozim. Doimo bir xil uslubdan foydanish ham kamroq samara beradi. Shu sabab mavzuning o'ziga xosligi, o'quvchilarning imkoniyati va salohiyatidan kelib chiqqan holda turli uslublardan unumli foydalanish qobiliyati o'qituvchida shakllangan bo'lishi lozim. Bu esa o'qituvchidan doimo o'z ustida ishslash, malakasini tinimsiz oshirib borishni talab etadi.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi shakllantirishda "Kichik guruhlarda ishslash" uslubi o'quvchilarning darsda faolligini ta'minlaydi, har biri uchun munozarada qatnashish huquqini beradi, bir-biridan

<sup>96</sup> Ишмуҳамедов Р. Инноватсиян технологиялар ёрдамида таълим самарадорлигини ошириш йўллари. -Т.: 2004, 10-бет.

<sup>97</sup> Umumiyl o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187-sون Qarori. Manba: [www.gov.uz](http://www.gov.uz).

sinfda o'rganishga imkoni tug'iladi, boshqalar fikrini qadrlashga o'rnatadi.<sup>98</sup>

Shuningdek, "Kichik guruhlarda ishlash" jarayonida tarixiy voqealardagi muammolarni tahlil qilish, mohiyati va sabab-oqibatlarini anglash qobiliyatlari shakllantirish va rivojlantirishda "Intervyu", "SWOT - tahlil", "Toifalash jadvali", "Tanjidiy tafakkur", "FSMU" kabi uslublar muhim ahamiyat kasb etadi. "Baliq skeleti" chizmasi, "Qanday?" diagrammasi, "Konseptual jadval", "T"-chizmalari, "Venna" diagrammasi, "Chalkashtirilgan mantiqiy zanjirlar ketma-ketligi" kabi uslublardan foydalanish ham yaxshi samara beradi. Bu uslublar ayniqsa, o'quvchi va talaba yoshlarning mustaqil fikrlarini shakllantirishda muhim ahamiyatiga ega.

Darslarda interaktiv uslublardan foydalanishning samarasi yuqori bo'lsa-da, o'ziga xos muammolari ham mavjud. Bu asosan, o'qituvchining mahoratiga bog'liq. O'qituvchi o'zining darsini metodik jihatdan qanchalik to'g'ri tashkil qila olsa, uning samarasi shunchalik yuqori bo'ladi. Aksar hollarda o'qituvchilar darsning an'anaviy uslublarini ma'qul ko'rishadi, darslarni noan'anaviy uslublardan foydalanish ko'nikmasi shakllanmagan yoki dars mashg'ulotlarini samarali tashkil qilish uchun imkoniyatlari mavjud emas.

Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari turkumiga kiruvchi o'quv fanlariga oid darslarni interaktiv uslubda tashkil qilish o'qituvchidan ijodkorlikni, doimo o'z ustida ishlashni, ilmiy yondashuvni va mas'uliyatni talab qiladi. Darslarni interaktiv uslubda tashkil qilish yuzasidan amaliy ko'nikma shakllanib, rivojlanadi. Darslarni olib borish texnikasida o'zining o'ziga xos uslublarini shakllantira olish qobiliyati rivojlanadi.

O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning Harakatlar strategiyasida uzlusiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish va umumiy o'rta ta'lim sifatini tubdan oshirish<sup>99</sup> kabi vazifalar belgilangan. Bu vazifalarning amalga oshirilishi ta'lim sifatini bugungi kun talabiga moslashuviga va har bir o'qituvchining yuksak mahoratlari bo'lishini, ta'larning sifat va samaradorligini tubdan oshirish imkoniyatini yaratadi.

**3-masalaning bayoni:** Hozirgi globallashuv va axborot almashinushi o'ta jadallahgan hamda bu jarayondan ayrim kuchlar o'z maqsadlari

<sup>98</sup> Ҳамидов А. Янги педагогик технологиялар. -Т.: 2004, 34-35-бетлар.

<sup>99</sup> O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning Harakatlar strategiyasi to'g'risida // Xalq so'zi. 2017-yil. 8-fevral.

yo'lida foydalanishga urinayotgan bir davrda O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov aytganlaridek, "dunyoda yuz berayotgan tub o'zgarishlar jarayonida egallab turgan o'rnimizni xolisona va tanqidiy baholashimiz, tobora oshib borayotgan hayot talablariga javob berishimiz, kechayotgan davr bilan hamqadam bo'lishimiz shart"<sup>100</sup>. Buning uchun, avvalo, yosh avlodning intellektual salohiyatni kuchaytirish va ayni vaqtida ularni ma'naviy va g'oyaviy jihatdan barkamol qilib tarbiyalash jarayonini to'g'ri tashkillashtirishimiz juda muhimdir.

Yosh avlodni g'oyaviy jihatdan sog'lom va barkamol qilib tarbiyalashda ta'lif muassasalarida faoliyat olib borayotgan pedagog kadrlarning mafkuraviy kompetentliligi eng asosiy omil hisoblanadi. Binobarin, ta'lif-tarbiya jarayonida pedagog kadrlarning mafkuraviy kompetentligini oshirmsandan turib yosh avlodni ma'naviy va g'oyaviy jihatdan barkamol qilib tarbiyalab bo'lmaydi. Shu ma'noda bugungi davr sharoiti va talablari xalq ta'limi tizimida faoliyat olib borayotgan barcha pedagog kadrlarda mafkuraviy kompetentlikni shakllantirish masalasini dolzarb vazifa qilib qo'ymoqda.

Mafkuraviy kompetentlik tushunchasi bugungi kun uchun yangi tushunchadir. Mafkuraviy kompetentlik tushunchasiga quyidagicha ta'rif berildi:

Mafkuraviy kompetentlik – bu shaxsning mafkura sohasida chuqr bilimga egaligi va o'zi ishongan mafkura bo'yicha kuchli e'tiqod (mafkuraviy immunitet)ning shakllanganligi hamda o'z mafkurasidagi g'oya va qarashlarni boshqa insonlarda ham shakllantira olish malakasidir.

Mafkuraviy kompetentlik yaxlit ko'rinishda bo'lsa-da, biroq unda uchta asosiy komponent mavjuddir. Ya'ni, ular:

- ❖ Mafkura sohasida chuqr ilmiy-nazariy bilimga ega bo'lish;
- ❖ Muayyan mafkura (nazariyasidagi g'oya va tamoyillar)ga nisbatan kuchli ishonch va e'tiqod (mafkuraviy immunitet)ning shakllanganligi;
- ❖ O'zi ishongan mafkuraning g'oyalarini boshqa insonlarda ham shakllantira olish uchun muayyan (ichki, ilmiy-nazariy va tashqi tashkiliy-metodik) ko'nikma va malakalarga ega bo'lish kabilardir.

Biror-bir shaxsda yuqoridagi uch komponentning birgalikda mavjud bo'lishi bu shaxsda mafkuraviy kompetentlik mavjudligini ko'rsatadi. Aksincha bo'lsa, ya'ni muayyan shaxsda yuqoridagi komponentlardan

<sup>100</sup> Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruza // "Xalq so'zi", 2010-yil 13-noyabr.

birining mavjud emasligi unda mafkuraviy kompetentlik to'la shakllanmaganligini bildiradi.

Bugungi globallashuv va axborot almashinuvi o'ta jadallahib borayotgan davrda yosh avlodning hayoti juda ko'plab foydali va foydasiz axborotlar ta'siri ostida kechayotganligini inobatga olish hamda shunda kelib chiqqan holda ta'lif-tarbiya jarayonini to'g'ri tashkil etish juda muhim hisoblanadi. Buning uchun avvalo yosh avlod ta'lif-tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi "pedagog kadrlarning mafkuraviy masalalar borasidagi bilimlarini chuqurlashtirish"<sup>101</sup> maqsadga muvofiqdir.

Pedagoglik kasbi haqida so'z borganda albatta bu kasb uchun kasbiy kompetentlik bilan birga, mafkuraviy kompetentlik ham o'ta zarur ekanligiga e'tibor qaratish juda muhimdir. Zero, kasbiy kompetentlik deganda "o'qituvchining ma'naviy dunyoqarashi, psixologik-pedagogik va tashkiliy-teknologik salohiyati, ya'ni uning kasbiy imkoniyatlari solohiyati"<sup>102</sup> tushuniladigan bo'lsa, mafkuraviy kompetentlik deganda o'qituvchining (bunyodkor va vayronkor) mafkuralar bo'yicha chuqur bilimga ega ekanligi va bunyodkor mafkura bo'yicha unda kuchli e'tiqod (mafkuraviy immunitet)ning mavjudligi va o'zi ishongan bunyodkor mafkuradagi g'oya va qarashlarni boshqa insonlar, jumladan, o'quvchi-yoshlarga ham singdira olish malakasi tushiniladi.

Pedagoglik kasbida kasbiy va mafkuraviy kompetentlikni bir-biridan ayro holda qo'yib bo'lmaydi. Chunki, o'qituvchining kasbiy kompetentliligi asosan o'quvchiga ta'lif berishga qaratilgan bo'lsa, undagi mafkuraviy kompetentlik o'quvchiga (ma'naviy va g'oyaviy) tarbiya berishga qaratilgan bo'ladi. Binobarin, yosh avlodni har tomonlama yetuk qilib tarbiyalash uchun "ta'lifni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'lifdan ajratib bo'lmaydi"<sup>103</sup>.

Insonlarda mavjud bo'ladigan mafkuraviy kompetentlik haqida so'z borganda, albatta, u faqat bunyodkor mafkuralariga asoslangan bo'ladi, deya xulosa chiqarib bo'lmaydi. Chunki, ijtimoiy hayotda boshqa mafkuralar, jumladan, vayronkor mafkuralar (diniy aqidaparastlik, "ommaviy madaniyat" va missionerlik g'oyalari)ni targ'ib etuvchi shaxslarda ham o'z mafkuralariga asoslangan kompetentlik mavjud bo'lishini yoddan chiqarmaslik kerak.

Mamlaktimizni yanada taraqqiy etishi va barqaror rivojlanishi uchun ta'lif tizimi rahbarlari hamda o'qituvchi va murabbiylardagi mafkuraviy

<sup>101</sup> G'oyibnazarov Sh. Ommaviy madaniyat. -T.: "O'zbekiston", 2012. 212-bet.

<sup>102</sup> Qarang: Турғунов С.Т., Дониёров Б.Х., Отажонова Д.М.. Ўқитувчиларнинг касбий компетентлилигини ривожлантиришда таълим муассасаси раҳбарларининг функционал вазифалари. -T.: "Сано-стандарт", 2011, 77-бет.

<sup>103</sup> Karimov I. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. -T.: "Ma'naviyat", 2008, 62-bet.

kompetenlilik albatta bizning bunyodkor mafkuramiz hisoblanmish milliy mafkuramizga asoslangan bo'lishi lozim. Binobarin, milliy mafkura deganda milliy qadriyatlarimiz va ma'naviyatimizga asoslangan, kishilarda halollik, poklik, insof, diyonat, vatanni sevish, dinlararo bag'rikenglik, millatlararo totuvlik va boshqa shu kabi fazilatlarni shakllantiradigan bunyodkor mexanizm tushuniladi.

Milliy mafkuramizga asoslangan mafkuraviy kompetenlilikka ega bo'lish orqali ta'lif tizimi rahbarlari hamda o'qituvchi va murabbiylar:

- chuqrur g'oyaviy bilim va kuchli mafkuraviy immunitetga ega bo'ladi;
- dunyoni mafkuraviy manzarasini tushinish va uni tahlil qilishda adashmaydi;
- hozirgi mafkuraviy murakkab davrda milliy mafkuramiz asosidagi pedagoglik pozitsiyasiga ega bo'ladi;
- ta'lif-tarbiya jarayonida o'quvchi-yoshlarni g'oyaviy bilimi va ma'naviyatini yanada yuksaltirish uchun yetarli darajada amaliy ko'nikma va malakaga ega bo'ladi.

Hozirda ta'lif-tarbiya jarayoni uchun mafkuraviy kompetentlikning zaruriyatidan kelib chiqib, bugungi kunda ushbu masalani tarix, sotsiologiya, ijtimoiy falsafa va boshqa shu kabi fanlarda o'rganilishidan tashqari, aynan pedagogika fani nuqtayi nazaridan ham o'rganish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Binobarin, hozirda pedagog kadrlarning mafkuraviy kompetentliligini shakllantirish orqali yosh avlodni ma'naviy va g'oyaviy tomondan barkamol qilib tarbiyalay olsak bugungi globallashuv va axborot almashinuvi o'ta jadallahish borayotgan "bunday sharoitda mafkura sohasidagi g'alabaning ahamiyati siyosat va iqtisodiyot sohasidagi g'alabanikidan kam bo'lmaydi"<sup>104</sup>.

Milliy g'oyani singdirishda ta'lif tizimi xodimlarining mafkuraviy kompetentliligiga qo'yilayotgan zamonaviy talablar ham o'ta muhim sanaladi. Ma'lumki, barcha dirlarda ibodat jarayoni va shu ibodat amalg'a oshiriladigan maskan (masjid, cherkov, sinagogiya kabi)lar muqaddas hisoblanadi. Ibodat jarayonini va ibodat qilinadigan joylarni buzish esa, barcha dirlarda katta gunoh sanaladi. Fikrimizni bunday boshlashimizning asosiy sababi, dunyoviy hayotda ham ibodatga va ibodat maskanlariga tenglashtirilgan narsalar borki, ular ham bo'lsa, dars va maktabdir.

Ta'lif muassasalaridagi dars jarayoni ibodat darajasidagi muqaddas jarayon ekan, hozirda uni buzmasligimiz, aniqrog'i dars vaqtini maqsadsiz o'tkazib yubormasligimiz kimga ko'proq bog'liq degan tabiiy

<sup>104</sup> Фойибназаров Ш. Оммавий маданият. -Т.: "Ўзбекистон", 2012, 74-бет.

savol tug'iladi. Bu savolga obyektiv va subyektiv tomonlarni hisobga olgan holda ko'plab javob berish mumkin albatta, lekin, baribir asosiy urg'u aylanib dars jarayonining shakl va mazmuniga javobgar bo'lgan shaxs - o'qituvchi va murabbiy zimmasiga kelib tushaveradi.

Darhaqiqat, maktab dunyo imoratlari ichida eng ulug'i bo'lsa, shubhasiz, undagi buyuk siymo bu o'qituvchidir. Aynan shular haqida O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov shunday degan edi: "Muxtasar aytganda, maktab degan ulug' dargohning inson va jamiyat taraqqiyotidagi hissasi va ta'sirini, nafaqat yoshlarimiz, balki butun xalqimiz kelajagini hal qiladigan o'qituvchi va murabbiylar mehnatini hech narsa bilan o'lchab, qiyoslab bo'lmaydi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, ma'rifatparvar bobolarimizning fikrini davom ettirib, agarki dunyo imoratlari ichida eng ulug'i mакtab bo'lsa, kasblarning ichida eng sharaflisi o'qituvchilik va murabbiylikdir, desak, o'ylaymanki, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz. Chindan ham, o'qituvchi nainki sinf xonasiga fayz va ziyo olib kiradigan, balki ming-minglab murg'ak qalblarga ezungulik yog'dusini baxsh etadigan, o'z o'quvchilariga haqiqatan ham hayot maktabini beradigan mo'tabar zotdir. Ona tilimizda "maktab ko'rgan", "maktab yaratgan" degan chuqur ma'noli iboralarning mavjudligi ham bu muqaddas dargohning, zahmatkash o'qituvchi mehnatining davlat va jamiyat hayotida qanchalik muhim o'r'in tutishidan dalolat beradi<sup>105</sup>.

Barchamizga ma'lumki, mamlakatni taraqqiy ettirish uchun avvalo ta'lim-tarbiya jarayoni ham shakl, ham mazmun jihatidan o'zgarishi kerak. Buning uchun esa, avvalo, bu jarayonni tashkil etuvchi asosiy shaxs - o'qituvchi o'zgarmog'i, uning kasbiy va mafkuraviy kompetentliligi zamon talablariga moslashib bormog'i lozim.

Shu nuqtai nazardan olib qaraganda, hozirda ta'lim tizimi orqali milliy g'oyani singdirishda bugungi kun o'qituvchisining mafkuraviy kompetentliligiga ko'plab talablar qo'yilmoqda. Mazkur talablarini muxtasar qilib aytganda, ular asosan quyidagi yo'nalishlardan iborat ekanligi ma'lum bo'ladi. Jumladan ular,

**Birinchidan**, har bir o'qituvchi o'z mutaxassislik fani bo'yicha chuqur bilimga va ayni vaqtida ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy va g'oyaviy tomonidan ham chuqur ilmiy-nazariy bilimga ega bo'lishi;

**Ikkinchidan**, o'zidagi ilmiy-nazariy bilimlarni o'quvchi shaxsiga yetkaza olish uchun zamonaviy pedagogik va axborot-komunikatsion texnologiyalarni amalda qo'llay olish malakasiga ega bo'lishi kabilardir.

<sup>105</sup> Karimov I. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. -T.: "Ma'naviyat", 2008, 131-bet.

Ta'kidlash lozimki, mazkur talablar hozirda qaysidir ma'muriy idora tomonidan qo'yilayotgan va bajarilmay qolgan taqdirda qandaydir ma'muriy choralar bilan bartaraf etilsa bo'ladigan talablar emas. Aksincha, bu talablar bugungi kun pedagogiga davr tomonidan qo'yilayotgan, bajarilmay qolgan taqdirda uning zararli oqibatlari bir necha avlodni hayotini izdan chiqarib yuborishi mumkin bo'lgan talablardir.

Yuqoridagi talablardan kelib chiqib aytadigan bo'lsak, hozirda mazkur talablarni qay darajada tushunib yetmoqdamiz va ularga nechog'lik amal qilmoqdamiz?

Kuzatishlar natijasiga ko'ra mazkur savolga javob beradigan bo'lsak, hozirda ham ta'lif muassasalarida yuqoridagi talablarni tushunib yetmagan yoki mazkur talablarga to'la javob bera olmaydigan pedagoglarni borligi afsuski ba'zi o'rnlarda ma'lum bo'lib qoladi. Aynan mana shunday pedagoglarning darslarida o'qituvchi quruq axborot berish, matnlarni bayon qilish, tezroq va yanada tezroq ma'ruza o'qish bilan ovvora bo'lib qolmoqda. Dars jarayonida o'quvchi va talaba yoshlarning yangiliklarni qabul qilish darjasи, har xil xohish-istiklari va ularning darsga munosabati inobatga olinmagan holda, aksincha, ularni quruq yodlatishga, qanday yo'l bilan bo'lsa-da baho olishga o'rgatib qo'yilmoqda. Asosiy muammo, qo'yilgan baholar bo'yicha kimni yaxshiroq, kimni yomonroq deb aytishda emas, balki qo'yilayotgan baholar o'quvchilarni maktab tashqarisida, real hayotda ast qotadigan qobiliyatlarni rivojlantirishga undamasligidadir. O'qituvchi tomonidan dars jarayonida shunga o'xhash muammolarni keltirib chiqarilayotganligi real hayotda maktabni bazo'r tugatgan yosh tadbirkor oliy ma'lumotli sinfdoshidan bir necha barobar ko'p pul topa olishi va yaxshi yashashi mumkinligi maktabdagи an'anaviy ta'lifni kamchiliklarini ko'rsatib qo'ymoqda. Bu jarayon maktabni bazo'r tugatgan yosh tadbirkor o'z davrida "yomon" o'qigan bo'lsa-da, hayotida mustaqil fikrlashini saqlab qola olganligi bilan izohlanadi.

Shunday ekan, hozirgi shiddatli, axborotlashgan, murakkab davrda yashayotganligimizni hisobga olsak, bugungi kun aynan shu davrning murakkab vaziyatlarida yashash malakasiga ega bo'lgan, o'z mustaqil fikrga ega avlodni tarbiyalashni taqozo etmoqda. Buning uchun barcha fan yo'nalihidagi ta'lif tizimi xodimlari kasbiy va mafkuraviy jihatdan, avvalo, o'z mutaxassisligini chuqr bilish va, ayni vaqtida, jahonda va mamlakatimizda bo'layotgan ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy va g'oyaviy jarayonlardan muntazam boxabar bo'lib borishi talab etilmoqda.

Bugungi kun ta'lismiz xodimi yosh avlod ongi va qalbiga milliy g'oyani singdirish uchun albatta axborot olish, uni qayta ishlash va ta'limgartarbiya jarayonida axborotni yoshlarga yetkazishda ishlataladigan texnika va texnologiyalardan foydalanishni bilishi lozim. Hozirgi sharoitda axborot komunikatsion texnologiyalar sohasida ta'lismiz xodimlari uchun qo'yilayotgan minimal talablar quyidagilardan iborat:

- Kompyuter va uning barcha qurilmalari (printer, skayner kabilalar)dan mustaqil foydalana olish;
- Kompyuterdagi MS Word, MS Power Point va MS Excel dasturlarini amalda ishlata olish;
- Internet tarmog'iga mustaqil kira olish va u yerdan ta'limgartarbiyaga oid materiallarni saralab olish kabilardir.

Ta'lismiz xodimlari mazkur bilimlarga ega bo'lsalar, ular o'z faoliyatida axborot olish, uni qayta ishlash va dars jarayonida axborotni o'quvchiga yetkazish ko'nikma va malakalariga ega bo'ladilar. Ta'lismiz xodimlарини bunday ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlari, albatta, darslarda milliy g'oyani o'quvchilarga singdirish jarayoni yanada jonlantiriladi va uning ta'sir quvvati yanada ortishiga olib keladi.

Har bir dars oldiga ta'limiylar tarbiyaviy va rivojlan Tiruvchi, ya'ni bir-biri bilan uzviy aloqada bo'lgan uch yoqlama maqsadlar qo'yiladi. Zamonaviy darsni tashkil qilish shartli ravishda o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro aloqalariga bog'liq bo'lib, bu jarayonda o'quv materiallari, ta'lismetodlari va axborot komunikatsion texnologiyalari ham asosiy rol o'ynaydi.

Darsni tashkil etishda o'qituvchi rahnamoligida o'quvchilar birgalikda harakat qiladilar. Bunday darslarda o'quvchiga obyekt emas, balki shu darsning ishtiroychisi – subyekti sifatida qaralishi, har bir o'quvchining individual xususiyatlarini hisobga olinishini ta'minlab berish lozim. Darsning natijasini aniqlash ham avvalo har bir o'quvchining individual o'zlashtirishidan kelib chiqqan holda guruhiy va jamoaviy natijalarni aniqlash orqali amalgalash oshiriladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, ta'limgartarbiya jarayonida o'quvchilarga milliy g'oyani singdirish uchun dars jarayoniga zamonaviy yondashuv, ya'ni ta'limgartarbiya jarayonida pedagogik va axborot texnologiyalarni qo'llash muhim ahamiyatga egadir. Binobarin, ta'limgartda o'quvchilarga milliy g'oyani singdirishdan ko'zlangan asosiy maqsad ham ularni mustaqil fikrlovchi, sobit e'tiqodli, vatanparvar, barkamol shaxs etib tarbiyalash ekanligini hozirgi kunda bu natijalarga ta'limgartda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarni qo'llamasdan turib erishib bo'lmasligini davrning o'zi ko'rsatmoqda. Shunday ekan, hozirgi zamon

ta'lim tizimi xodimlari o'z faoliyatları uchun zarur bo'lgan, o'quvchilarni fanga bo'lgan qiziqishlarini oshiruvchi, darsning maqsadiga erishishni ta'minlab beruvchi zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarni o'rganishi hamda ularni amalda qo'llay olish ko'nikma va malakalariga ega bo'lishlari zarur va dolzarb bo'lib qolaveradi.

### **MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR:**

1. 2017-yil 28-iyulda Respublikamizda "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida" qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3160-sonli Qarorida qanday asosiy masalalar o'rta tashlanadi?
2. Ma'naviy-ma'rifiy sohada olib borilayotgan ishlarni yanada jonashtirish maqsadida qanday markazlar birlashtirilib, ularning negizida Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi tashkil etildi?
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3160-sonli Qarorida qanday targ'ibotchilar jamiyatini shakkllantirish hamda uning faoliyatini doimiy asosda yo'lga qo'yish zarurligi ta'kidlangan?
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Umumiy o'rta ta'lim to'g'risidagi nizomni tasdiqlash to'g'risida"gi 140-sun Qarori qachon qabul qilingan?
5. "Kompetensiya" tushunchasi qanday ma'noni anglatadi?
6. "Kompetensiya" ilk bor qachon ishlatilgan?
7. Bugungi kunda milliy g'oya va ma'naviyat asoslari turkumiga kiruvchi fanlar bo'yicha ta'lim oluvchilar tayyorgarligining zarur va yetarlicha darajasi hamda ta'lim muassasalari bitiruvchilariga qanday talablar qo'yilmoqda?
8. Mafkuraviy kompetentlik, deganda numani tushunasiz?

### **MAVZUGA OID ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 28-iyuldagagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida"gi PQ-3160-sun Qarori// O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 6-son, 70-modda.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida// (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 6-son, 70-modda, 20-son, 354-modda, 23-son, 448-modda, 37-son, 982-modda).
3. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy

javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak.  
-T.: O'zbekiston, 2017-yil.

4. Umumiyl o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'liming davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187-son Qarori// O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 14-son, 230-modda.

5. Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. -T.: Sharq, 1998 yil.

6. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. -T.: Ma'naviyat, 2008-yil.

7. 8. Milliy g'oya: targ'ibot texnologiyalari va atamalar lug'ati (Mas'ul muharrir I.Ergashev). -T.: Akademiya, 2007 yil.

9. Tohiriyon A., Sobirova M., Zamonov Z. Milliy g'oya turkumiga kiruvchi fanlarni o'qitishda interfaol ta'lim metodlaridan foydalanish bo'yicha uslubiy tavsiyalar. -T.: RTM, 2017 yil.

10.O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. -T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" nashr. 4-jild. 2002 yil.

11. Turg'unov S.T., Doniyorov B.X., Otajonova D.M. O'qituvchilarning kasbiy kompetentiligini rivojlantirishda ta'lim muassasasi rahbarlarining funksional vazifalari. -T.: "Sano-standart", 2011 yil.

12. Turg'unov S.T., Doniyorov B.X., Umaralieva M.A., Shodmonova Sh.S., Turg'unova Sh.M., Tojiboeva N.M. O'qituvchilarning kasbiy mahorat va kompetentiligini rivojlantirish. -T.: Sano-standart, 2012 yil.

13. Vahobov M. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta'lim standartlarini joriy etish – zamonaviy ta'lim paradigmasi sifatida.//Zamonaviy ta'lim, 2016 yil.

14. G'oyibnazarov Sh. Ommaviy madaniyat. -T.: O'zbekiston, 2012 yil.

15. Ishmuhamedov R. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. -T.: 2004 yil.

16. Hamidov A. Yangi pedagogik texnologiyalar. -T.: 2004 yil.

### ELEKTRON TA'LIM RESURSLARI:

1. [www.edu.uz](http://www.edu.uz).
2. [www.uzedu.uz](http://www.uzedu.uz).
3. [www.gov.uz](http://www.gov.uz).
4. [www.lex.uz](http://www.lex.uz).
5. <https://ru.m.wikipedia.org>.

## 13-MAVZU:

# MILLIY G'OYA VA MA'NAVİYATGA OID FANLARNI O'QITISHDA IJTIMOIY FANLARDAGI SO'NGGI YANGILIKLAR VA YUTUQLARDAN FOYDALANISH

### REJA:

1. Milliy g'oya va ma'naviyatga oid fanlarni o'qitishda tarix va boshqa ijtimoiy fanlardagi eng so'nggi yangiliklar va yutuqlardan mavzu doirasida foydalanish.
2. Milliy g'oya va ma'naviyatga oid fanlarni o'qitishda Dunyo dunlari tarixi faniga oid ma'lumotlardan foydalanishning o'rni.
3. Milliy g'oya va ma'naviyatga oid fanlarni o'qitishda fanlararo integratsiyani ta'minlash orqali o'quvchi va talaba yoshlarda huquqiy bilimlarni shakllantirish.

### **Tayanch tushuncha va iboralar:**

*Tarix, davlatchilik tarixi, arxeologiya, qal'alar, musulmon, islom dini, diniy bag'rikenglik, konstitutsiya, inson huquq va manfaatlari, konferensiya va hk.*

**1-masalaning bayoni:** O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi Umumiyl o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'liming Davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 187-son qarorida o'quv fani mavzularining o'quvchi yoshi va psixo-fiziologik xususiyatlari mos holda berilishi, ma'lum faktlar, tushunchalar, qoidalar va fanlararo bog'liqlikni hisobga olgan holda tushunarli bayon qilinishi lozimligi belgilangan. Unga ko'ra o'quvchilarning yangiliklarni qabul qilish qobiliyatları, oldin olgan bilimlarni o'zlashtirganlik darajasi hisobga olingan bo'lishi lozim. Shuningdek, fanlararo uzviylikka e'tibor berish, amaliy, ijodiy mashg'ulotlarni ko'proq kiritish, bu borada mahoratli o'qituvchilarning ijodiy ish tajribalaridan keng foydalanishni yo'lga qo'yish kerak.

Milliy g'oya va ma'naviyatga oid fanlarni o'qitishda ijtimoiy fanlar – Tarix, Davlat va huquq asoslaridagi eng so'nggi yangiliklar va yutuqlardan mavzu doirasida foydalanilsa, o'quvchi va talaba yoshlarning milliy g'oya va ma'naviyat asoslari turkumidagi fanlarga qiziqishi, ularni tahlil etishi va mustaqil fikr yurita olish jarayoniga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi.

Milliy g'oya va ma'naviyatga oid darslar birinchi navbatda, yosh avlodni vatanparvarlik, el-yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalbiga milliy-ma'naviy qadriyatiimizga mos insonparvarlik va odamiylik fazilatlarini singdirishda beqiyos o'ringa ega.

Milliy g'oya Vatanimizning shonli o'tmishi va buyuk kelajagini uzviy bog'lab turishga, o'zimizni ulug' ajdodlarimiz boqiy merosining munosib vorislari deb his qilish, shu bilan birga, jahon va zamonning umumbashariy yutuqlariga erishmoqqa yo'l ohib beradigan va shu maqsadlarga muttasil da'vat qiladigan g'oyadir. Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev bu xususda shunday fikr bildirgan: "...eng avvalo, yoshlar va aholi o'rtaida mamlakatimizning boy tarixini, uning betakror madaniyatni va milliy qadriyatlarini keng targ'ib qilish, jahon ilm-fani va adabiyoti yutuqlarini yetkazish uchun zarur muhit va shart-sharoit yaratish haqida bormoqda<sup>106</sup>".

Bugungi kunda tarix fani sohasida ko'pgina yutuqlar va yangiliklar qo'lga kiritilmoqda. Bu sohada, ayniqsa, arxeologlar tomonidan olib borilayotgan tadqiqotlar diqqatga sazovordir.

Bugungi kunda ilm-fan, texnika, texnologiya va ishlab chiqarish sohalarining tez sur'atlarda jadallik bilan rivojlanib borayotganligi ta'lif muassasalarida ta'llim-tarbiya sifatini oshirishga asos bo'lgan talablarni qayta ko'rib chiqib, o'qitishning zamonaviy usul va vositalarini amaliyotga joriy etishni talab etmoqda. Tezlik va o'ta shiddat bilan o'zgarib borayotgan dunyoda globallashuv jarayonlarining ijobiy tomonlari bilan bir qatorda, uning salbiy oqibatlari ham hayotimizga kirib kelmoqda. Bunday xatarlardan hayotimizni asrash maqsadida ma'naviy bo'shliqqa yo'l qo'ymaslik, avvalambor, ezgu insoniy g'oyalarga ega bo'lgan jahon maydonida yuz berayotgan keskin aql-zakovat va iste'dod musobaqasida bellashuvga qodir bo'ladigan yoshlarni tarbiyalashni hayotning o'zi taqozo etmoqda.

O'quvchi-yoshlarga tarix fanini o'rgatish jarayonida xalqimizning, jonajon o'lkamizning tarixi haqida ma'lumot berish va bu orqali ular tarbiyasida o'zlikni anglash, milliy iftixorni tiklash, ularning ongi va shuurida globallashuvning salbiy tomonlariga qarshi turishni o'zida mujassam etgan immunitetni mustahamlash asosiy vazifa bo'lib hisoblanadi. Ushbu vazifani amalgalash oshirishda;

– buyuk ajdodlarmizning ishlari va jasoratlaridan axloqiy tarbiya va ibrat manbai sifatida foydalanish;

– o'quvchilarga insoniyatning eng qadimgi davrlaridan bugungi kunga qadar ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy rivojlanish bosqichlari sabablarini tarixiy voqealarning xodisalar asosida o'rgatish;

– tarixiy voqealar asosida voqealarning sababi, bahonasi, oqibatini tahlil qila olish;

<sup>106</sup> Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsxiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. –T.: O'zbekiston, 2017. 49-bet.

– tarixiy voqealar ketma-ketligini tushuntirish, bir voqea ikkinchisiga, ikkinchisi uchinchisiga sabab bo'lishini, jamiyat doimo rivojlanishda ekanligini, uning markazida esa doimo inson omili turishini idrok etish;

– o'quvchilarni tarixiy voqea larni analiz (voqea larni mayda tafsilotlarga bo'lish), sintez (mayda voqea larni umumlashtirish), filtr (asosiyalarini ajratib olish) yo'li bilan tahlil qilishga o'rgatish;

– o'quvchilarda o'zlikni anglash, umuminsoniy va milliy qadriyatlarga hurmat hissini shakllashtirish;

– o'quvchilarga tarixiy voqea va hodisalar asosida "Tarix – xalq ma'naviyatining asosi" ekanligini singdirish.

– o'quvchilarni ilm-fan kishilarning hayotiy ehtiyojlarini qondirish zaruratidan paydo bo'lganligini tarixiy dalillar asosida tushunishlariga erishish;

– o'quvchilarni tarixni o'qitish orqali xalqni nomi bilan emas, balki u yaratgan madaniyat, ma'naviyat orqali tanilishini anglashga yo'naltirish nazarda tutiladi.

Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari turkumidagi fanlarni o'qitishda foydalanimizning shonli tarixi, ajdodlarimizning o'tmishi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar aks etgan bo'lmosh'i lozim. O'rta asr Sharq mutafakkirlarining ilmiy, diniy asarlari, jahon falsafasi durdonalari, jadid ma'rifatparvarlarining asarlari milliy g'oyani o'rganishda va xalqimiz ongiga singdirishda alohida ahamiyatga egadir. Shuningdek, xalq og'zaki ijodi manbalaridan ham o'rinni foydalinish maqsadga muvofiqdir. Masalan, Alpomish, Go'ro'g'li kabi dostonlar shular jumlasidandir.

Xalqimizning eng qadimiy ma'naviy merosi bo'lmish birgina manba, "Avesto"ni oladigan bo'lsak, bo'lsak, unda insonning ruhiy va jismoni kamoloti ezzulikni ko'proq yoyib, yovuzlikni bartaraf etishga qaratilgan harakat sifatida hayotning bosh maqsadi ekaniga urg'u berilganligi diqqatga sazovordir. Zardushtning fikricha, o'z hayoti davomida go'zallik va yaxshilik, nur va quvonch yo'lida xizmat qilgan odam porso va haqgo'y, pok vaadolatli bo'lib, mehmonlarni beg'araz kutgan, xotinini sevib, erni, mollarni parvarish qilgan, odamlarning mol-mulkiga ko'z olaytirmagan, tabiatni asrab-avaylab undan zavq olgani uchun u o'lgandan keyin uning joni ham bitmas-tuganmas rohat va farog'atga burkanadi. Gunohkorning esa joni chiqqach, uning joni boshi atrofida tentiraydi va uch kun davomida barcha yomon odamlar tortadigan noxushlikni ko'radi. Uch kundan keyin gunohkor joni o'zi bonyod etgan yomonlik va razolatlar ustida uchadi. Gunohkorni o'limidan keyin

kutayotgan narsa uning tanasi bilan joni o'rtasidagi ixtilofdir. Qayerda ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu ish uyg'unligi bo'lsa, o'sha yerda olilianoblik va go'zallik g'alaba qozonadi, qachonki tana va jon nifoqqa uchrasa, inson hayoti tanazzulda, joni esa qilgan yomonliklari jabrini tortib, azobda qoladi. Bundan tashqari, "Avesto"da qadimgi bobokalonlarimizning hayot va inson, axloq va odob, go'zallik va ijod, qishloq xo'jaligi va jamiyatdagi adolat to'g'risidagi falsafiy mushohadalari o'z ifodasini topgan.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov hamda mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning har bir asar, nutq va ma'ruzalarida Vatan taqdiri, yurtning tinchligi, taraqqiyoti, mustaqillik va uni mustahkamlash, milliy g'oyani yoshlar qalbiga singdirish kabi dolzarb masalalar ilgari surilgan. O'z o'rnida dars jarayonida ularning bu boradagi qarashlari ilgari surilgan asar, nutq va ma'ruzalaridan unumli foydalanish zarur.

Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari turkumidagi fanlarning mavzulari bevosita shonli tariximiz bilan bog'liq. Jumladan: umumiy o'rta ta'limning 8-sinf "Tarbiya: baxt va muvaffaqiyat sirlari" fanida "Ilm va ma'rifat", Mirzo Ulug'bek faoliyati, Xorazmiy va Beruniylarning ma'naviy xazinalari, "Qat'iy fe'l-atvorning muhimligi" mavzusida Tarixiy allomalarining didaktik qarashlari, hikmatli so'zları, "Go'zal tarbiya tamoyillari" kabi mavzular borki, ularni o'tmisht tariximizning shonli sahifalari bilan bog'lagan holda o'quvchilarga yetkazish maqsadga muvofiq.

Mustaqillik yillarda tarix fanida ko'pgina yangiliklar qo'lga kiritilgan. Ayniqsa, davlatchiligidan tarixi keng va chuqur o'rganilmoqda. Qadimgi Baqtriya podsholigi O'zbekiston hududida shakllangan ilk davlat va u to'rt ming yillik tarixga ega ekanligi, mil. avv. XIX-XVIII asrlarga oid Jarqo'ton yodgorligi ham O'zbekiston hududidagi ilk shahar bo'lib, unda dastlabki davlatchilik elementlari mavjudligi tarixiy manbalarda asoslangan. O'quvchilar bular haqida albatta ma'lum bir tasavvurga ega bo'lish kerak. Faqat bu tasavvurni o'qituvchi o'z fanining bahs mavzusi doirasidan kelib chiqqan holda uyg'otishi zarur.

Bundan tashqari mustaqillik yillarda qadimiy shaharlar yubileyalarining nishonlanishi ham tariximizni ma'naviy jihatdan boyitishda muhim o'rinni egalladi. 1997-yilda Buxoro va Xiva shaharlarining 2500 yilligi, 2002-yilda Termiz shahrining 2500 yilligi va Shahrисabz shahrining 2700 yilligi, 2006-yilda Qarshi shahrining 2700 yilligi, 2007-yilda Samarqand shahrining 2750 yilligi va Marg'ilon shahrining 2000 yilligi, 2009-yilda Toshkent shahrining 2200 yilligi keng nishonlandi. Qadimiy shaharlar tarixini yoritishda yubiley munosabati

bilan tashkil qilingan xalqaro konferensiylar tarixning eng dolzarb masalalarini yoritib berdi<sup>107</sup>.

Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari turkumidagi fanlarni o'qitish jarayonida bu kabi tarixiy omillardan foydalanish orqali biz o'z xalqining tarixi, o'tmishi, bu o'tmishdagi buyuk ajdodlari bilan haqli tarzda faxrlanadigan, ularga munosib voris bo'lishga intiladigan, o'z kelajagini qura olishga qodir avlodni tarbiyalashga muvaffaq bo'lamiz.

Ma'lumki, 2017-yilda 10 jilddan iborat "O'zbekiston madaniy merosi dunyo to'plamlarida" kitob-albomi nashr qilindi. Unda dunyo muzeylarida saqlanayotgan O'zbekistonning qadimiy noyob durdonalari aks ettirilgan. Jumladan: 1-jildda "Sharq davlat muzeyi", 2-jildda "Rossiya etnografiya muzeyi", 3-jildda "Davlat Tretyakov galereyasi", 4-jildda "O'zbekiston gilamlari va kashtalari dunyo to'plamlarida", 5-jildda "Rossiya milliy kutubxonasi", 6-jildda "Glinka nomidagi Butun Rossiya musiqiy madaniyat muzeylari birlashmasi", 7-jildda "Sharq qo'lyozmalari instituti", 8-jildda "Davlat ermitaji", 9-jildda "Davlat tarix muzeyi", 10-jildda "O'zbekiston gilamchiligi – asrlar osha saqlangan an'analar", deb nomlangan. Bu kitob bilan tanishgan har bir o'quvchi-yoshlarda milliy qadriyatlar va noyob durdonalardan faxr hissi uyg'onadi.

Yuqorida keltirib o'tilgan manbalar dengizdan tomchi xolos. O'zbek xalqining oila borasida yuksak madaniyati, ming-ming yillik merosi bor. Biz esa ana shu qadimiy va muqaddas manbalardan oziqlanib, milliy an'analarga tayanib, shuningdek, umuminsoniy qadriyatlarga amal qilib yashashimiz zarur.

**2-masalaning bayoni:** Milliy g'oya va ma'naviyatga oid fanlarni o'qitishda Dunyo dunlari tarixi faniga oid ma'lumotlardan foydalanish ham darsning samaradorligini yanada oshiradi. Chunki bu turkumdag'i fanlarning mavzulari milliy urf-odat, diniy qadriyatlarimiz, ulug' allomalarimizning hayotiy faoliyatları bilan chambarchas bog'liq. O'quvchi va talaba yoshlarni boy milliy ma'naviy merosimizga sodiqlik ruhida tarbiyalashda diniy e'tiqodimiz asosi bo'lgan – islom dinining mazmun-mohiyatini davlatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan choratadbirlar asosida tushuntirib borish muhim hisoblanadi.

Darhaqiqat, mamlakatimizda muqaddas dinimiz sofligini saqlash, islom madaniyati rivojiga ulkan hissa qo'shgan ulug' allomalarining ilmiy merosini o'rganish, qadamjolarini obod etish, yangi masjid-madrasalar

<sup>107</sup> Buxoro va Xiva shaharlaringin 2500 yilligiga bag'ishlangan xalqaro simpozium tezislari. – Toshkent, 1997; Samarqand shahrining umubashariy madaniy taraqqiyot tarixida tutgan o'rni. Samarqand shaxringin 2750 yillik yubileyiga bag'ishlangan Xalqaro ilmiy simpozium materiallari. – Samarqand -2007; O'zbekiston poytaxti –Toshkent 2200 yoshda. Toshkent shahrining 2200 yillik yubileyiga bag'ishlangan Xalqaro ilmiy konferensiya materiallari. -T.:2009.

barpo etish borasida keng ko'lamlı ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Qoraqlpog'iston Respublikasida "Imom Eshon Muhammad", Xorazmda "Oxun bobo", Toshkentda "Imom Termiziy", "Suzuk ota" masjidlari bunyod etildi, Surxondaryodagi Imom Termiziy ziyyaratgohi, Qashqadaryodagi Abu Mu'in Nasafiy majmuasida qurilish-ta'mirlash, obodonlashtirish ishlari olib borildi. Buxoroda Mir Arab oliv madrasasi, Termiz shahrida Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, Samarqandda "Hadis" va "Kalom" ilmiy maktablari tashkil etildi. Ayniqsa, Prezidentimiz tashabbusi bilan Samarqandda Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, poytaxtimizda Islom sivilizatsiyasi markazi tashkil etilayotgani, ushbu markaz qoshida Islom akademiyasi ochilishi belgilangani ana shu yo'nalishdagi ezgu ishlarga yorqin misoldir.

2017-yil 23-iyun kuni Mamlakatimiz Prezidenti "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida O'zbekistondagi Islom madaniyati markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorni imzoladi.

Qarorga ko'ra, markazning asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilandi:

- mamlakat asrlar davomida jahon sivilizatsiyasining ajralmas qismi, islom madaniyati markazlaridan biri bo'lib kelganini aks ettiradigan ilmiy-tarixiy konsepsiyanı ishlab chiqish va amalga oshirish;

- markaz tarkibidagi kutubxona va arxiv, qo'lyozmalar fondlarini bugungi O'zbekiston zaminidan yetishib chiqqan buyuk alloma va mutafakkirlar, aziz-avliyolar, ular tomonidan asos solingan ilmiy va diniy maktablarga doir qadimiylar qo'lyozma va toshbosma kitoblar, tarixiy dalil va hujjatlar, arxeologik topilmalar, osori-atiqalar, shu yo'nalishdagi zamонавиyl ilmiy-tadqiqot ishlari, kitob va to'plamlar, video va foto hujjatlar hisobidan shakllantirish;

- islom dini rivojiga ulkan hissa qo'shgan Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Hakim Termiziy, Abu Mansur Moturudiy, Abu Muin Nasafiy, Qaffol Shoshiy, Abdulxoliq G'ijduvoniy, Najmiddin Kubro, Burhoniddin Marg'inoniy, Bahouddin Naqshband, Xo'ja Ahror Valiy kabi allomalarning merosini ilmiy asosda chuqr tadqiq etish, ularning ilmiy-ma'naviy jasorati, ulug' insoniy fazilatlarini keng targ'ib qilish;

- jahon ilm-fani tarixida o'chmas iz qoldirgan Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Nasr Forobi, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Mahmud Zamahshariy, Mirzo Ulug'bek, Ali Qushchi kabi olim va mutafakkirlar merosining tarixiy va zamонавиyl sivilizatsiya taraqqiyotidagi o'rni va ahamiyatini, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Kamoliddin Behzod, Mahmud Muzahhib singari

mumtoz adabiyot va san'at namoyandalari ijodining insonparvarlik mohiyatini chuqur oshib berish;

– islom dini odamlarni, barcha millat va xalqlarni hamisha nurli hayotga, ezgulik, o'zaro do'stlik va insoniylitka da'vat etishini, uning asl, gumanistik mazmunini teran tahlil etishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar, jahon ahlini bir maqsad yo'lida – jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish yo'lida birlashishga chorlaydigan turli anjumanlar, ma'rifiy tadbirlarni amalga oshirish;

– O'zbekistonning qadimiy tarixi va madaniyati, davlatchilik an'analari, xalqning turmush tarzi va dunyoqarashi islom sivilizatsiyasi bilan chambarchas bog'liq holda shakllanib, rivojlanganini Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent, Kesh, Nasaf, Termiz, Andijon, Marg'ilon, Karmana, Qo'qon singari qadimiy shaharlar, ulug' allomalar va aziz-avliyolar xotirasiga bag'ishlab bunyod etilgan yodgorlik majmualari, muqaddas qadamjolar maketlari, ulug' siymolar, noyob qo'lyozma va toshbosma asarlar, moddiy va nomoddiy meros, xususan, «Shashmaqom» namunalari kabi noyob eksponatlar orqali aks ettirish, shu yo'naliishlarda ilmiy tadqiqotlar olib borish, ularning natijalari asosida qomuslar, katalog va albomlar, ilmiy-ommabop to'plamlar, teleko'rsatuv, film va boshqa materiallar tayyorlash;

– markazda, mahalliy va chet elliq mutaxassislarni keng jalg etgan holda, ilmiy-tadqiqot ishlarini yo'lga qo'yish va ularning natijalaridan yurtimiz hamda jahon jamoatchiligini xabardor qilib borish;

– Yevropa renessansining shakllanishiga kuchli ta'sir ko'rsatgan musulmon renessansi davrida ilm-fan, madaniyat va san'at, me'morlik rivoji to'g'risidagi keng qamrovli ma'lumotlar pavilonlarini tashkil etish orqali markazda namoyish etiladigan ekspozitsiyalarini mazkur davrlarga oid eksponat va ko'rgazmali manbalar bilan boyitish;

– jahon tarixida «Amir Temur va temuriylar renessansi» degan nom bilan alohida o'rin egallaydigan davrda yaratilgan ilm-fan, madaniyat va me'morlik durdonalarini islom madaniyatining nafaqat yurtimizdagisi, balki butun musulmon olamidagi taraqqiyot va yuksalish davri sifatida ko'rsatish;

– bugungi kunda tobora katta ahamiyat kasb etayotgan dinlararo va sivilizatsiyalararo muloqotni samarali yo'lga qo'yish maqsadida O'zbekistondagi Islom madaniyati markazining jahondagi nufuzi xalqaro ilmiy muassasa va tuzilmalar, jumladan, YUNESKO, AYSESKO kabi xalqaro tashkilotlar bilan yaqin hamkorlik aloqalarini o'rnatish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot

markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2017-yil 27-martdagি PQ-2855-son Qaroriga muvofiq bugungi kunda mazkur markaz qurilishi jadal davom etib, Markaz binosida hadis, kalom va qiroat ilmini o'rganishga mo'ljallangan xonalar, qo'lyozmalar kutubxonasi, muzeysi tashkil etilgan.

Bugungi kunda turizmni rivojlantirish mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda muhim o'rın tutadi. Mamlakat o'zining salohiyati, geografiyasi, tarixi va bugungi kunidan kelib chiqib turizmning turli yo'nalishlarini rivojlantirishga urinadi. Salomatlik turizmi, tibbiyot turizmi, ekoturizm, ekskursiya turizmi, sport turizmi, ekstrimal turizm, ziyyarat turizmi singari yo'nalishlarni rivojlantirish imkoniyati yuzaga keladi.

Bugungi kunda O'zbekistonda ziyyarat turizmining rivojlanishiga katta ahamiyat berilmoqda. O'zbekiston o'zining qadimiy boy tarixi, shahar va qishloqlarida ko'plab muqaddas qadamjolar, avliyolar va ulamolarning maqbaralari, qadimiy masjid va madrasalar, muqaddas qo'lyozmalarning mavjudligi ziyyarat turizmining rivojlanishiga katta imkon beradi.

Jahonda qariyb 1,9 mlrd. kishi Islomga e'tiqod qiladi. Musulmonlarning 2/3 qismidan ko'prog'i Osiyoda yashaydi va bu qit'a aholisining 20% idan ortiqrog'ini tashkil etadi. Qariyb 30% musulmonlar Afrikaga to'g'ri keladi (qit'a aholisining deyarli yarmi). Dunyoda muslimon jamoalari mavjud bo'lgan 120 dan ortiq mamlakatdan 40 dan ziyyodida muslimonlar aholining ko'pchiligini tashkil qiladi. Jumladan, Shimoliy Afrika, G'arbiy Osiyoning barcha mamlakatlarda (Kipr, Livan, Isroil mustasno), Senegal, Gambiya, Niger, Somali, Afg'oniston, Pokiston, Bangladesh, Indoneziya va boshqa ba'zi mamlakatlarda aholining 80% dan ortig'i muslimonlardir. Bir qancha mamlakatlarda muslimonlar aholining yarmidan 80% igacha bo'lgan qismini tashkil qiladi (Gvineya, Mali, Livan, Chad, Sudan). Masalan, Malayziya va Negiriya kabi mamlakatlar aholisining qariyb yarmini, ba'zi bir mamlakatlar (Gvineya-Bisau, Kamerun, Burkina-faso, Syerra-Leone va boshqa) aholisining esa ozchiligini tashkil qilsa ham, ta'sir doirasiga kuchli. Musulmonlarning soni jihatdan eng yirik davlatlar - Indoneziya, Hindiston, Pokiston va Bangladesh; muslimonlarning anchasi Markaziy Osiyo mamlakatlari, Xitoy, Tailand, Efiopiya, Tanzaniya, Kiprda Avstraliyada, Fiji orollarida va va Yevropaning ayrimda, yashaydi<sup>108</sup>.

<sup>108</sup> Qarang: <https://uz.wikipedia.org/wiki/Islom>.

Indoneziya (260 mln.), Malayziya (32 mln.), Pokiston (150 mln.) va boshqa mamlakatlarning fuqarolarini ziyyarat turizmiga jalb etish O'zbekiston uchun ulkan imkoniyatlar yaratadi.

Jahon musulmonlarini O'zbekistonga jalb etishda quyidagilarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir:

– musulmon mamlakatlarda O'zbekiston salohiyatini ko'rsatuvchi taqdimotlar namoyish etish;

– musulmon mamlakatlarning ko'zga ko'rningan diniy ulamolarini O'zbekistonga taklif etgan holda bepul sayohatlar uyushtirish, ularga O'zbekistonni tanitish;

– musulmon mamlakatlarga imtiyozli charter reyslarni amalga oshirish;

– haj va umra safarlariga borishdan oldin O'zbekistonning muqaddas qadamjolarini ziyyarat qilishni tashkil etish;

– islom olaming yetakchi o'quv dargohlari o'rtasida o'quvchilar almashinuvini yo'lga qo'yish.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 15-iyun kuni Toshkent shahrida o'tkazilgan "Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofligini saqlash – davr talabi" mavzusidagi anjumanda diniy soha vakillari oldida turgan muhim vazifalarni belgilab berdi.

2017-yilda O'zbekiston musulmonlari idorasida o'tkazilgan yig'ilishda Samarqand viloyatida "Hadis", "Kalom", Farg'ona viloyatida "Islom huquqi", Buxoro viloyatida "Tasavvuf", Qashqadaryo viloyatida "Aqida" ilmiy maktablari faoliyatini tashkil etish bo'yicha masalalar ko'rib chiqildi. Unda aholi, ayniqsa, yoshlarni buzg'unchi yot g'oyalar ta'siridan himoya qilish, ularni milliy-diniy qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash, buyuk ajdodlarimiz qoldirgan ilmiy merosni o'rganish maqsadida, Samarqand viloyatida hadis ilmi, kalom ilmi, Farg'ona viloyatida islom huquqi, Buxoro viloyatida tasavvuf, Qashqadaryo viloyatida aqida maktablarini tashkil etish bo'yicha bergen tavsija va ko'rsatmalariga alohida to'xtalib, mazkur maktablar faoliyati haqida ma'lumotlar berib o'tdi.

2017-yil noyabr oyida Andijonda "Islom – tinchlik va ezgulik dini" mavzusida diniy soha xodimlarining respublika anjumani bo'lib o'tdi. Unda islom – tinchlik, ezgulik va bag'rikenglik dini, binobarin, uning sofligini saqlash muhim vazifa ekanini ta'kidlandi. Islom har qanday buzg'unchilik va fitnalardan xoli ekan, aksincha, bunday kuchlarga qarshi faqat ma'rifat bilan kurashish, musulmon olamida kechayotgan murakkab ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning asl mohiyatini anglatish, uning kelib chiqish sabablari va oqibatlari, diniy masalalarni hal etishda qo'shni

davlatlar o'rtasida hamkorlikni yanada mustahkamlash zarurligi qayd etildi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2017-yilning 19-sentyabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqida "Biz dinimizni zo'ravonlik va qon to'kish bilan bir qatorga qo'yadiganlarni qat'iy qoralaymiz va ular bilan hech qachon murosa qila olmaymiz. Islom dini bizni ezzulik va tinchlikka, asl insoniy fazilatlarni asrab-avaylashga da'vat etadi" degan so'zlaridan kelib, diniy soha vakillari oldida turgan aholi, ayniqsa, yoshlar o'rtasida dinimizning asl mohiyatini keng targ'ib etish, ekstremizm va terrorizmga qarshi murosasiz kurashish, yurtimizga chetdan turli yot g'oyalar kirib kelishining oldini olish borasidagi ishlar ko'lami va sifatini yanada oshirishimiz zarur.

O'zbekiston Respublikasida jami 2276 ta diniy tashkilot va 16 ta diniy konfessiya faoliyat yuritib kelmoqda. Shulardan 2093 tasi musulmon tashkiloti, 166 ta xristian tashkiloti, 8 ta yahudiy jamoasi, 6 ta Baxoiylik jamiyati, 1 ta krishnachilar jamiyati va 1 ta budda ibodatxonasi, shuningdek, O'zbekiston konfessiyalararo Bibliya jamiyati ham faoliyat ko'rsatmoqda<sup>109</sup>.

Diniy ta'limga ixtisoslashgan ta'lim muassasalari, jumladan, O'zbekiston Xalqaro islom akademiyasi, madrasalar, islom o'rta maxsus ta'lim dargohlari, xristian seminariyalarida diniy soha mutaxassislari tayyorlanadi.

Bugun yurtimizda 150 ga yaqin milliy-madaniy markaz mavjud. Ularda turli millat va elat vakillari o'z ona tili, milliy qadriyatları, tarixi, madaniyatini o'rganish, ularni yoshlarga yetkazish, millatlararo totuvlik va bag'rikenglik g'oyalarini ilgari surish borasida keng ko'lamli ishlarni amalga oshirib kelmoqda.

**3-masalaning bayoni:** Jamiyatimizda o'quvchi-yoshlarni yuksak ma'naviyatli qilib tarbiyalash jarayonida, ularda huquqiy madaniyatni rivojlantirish ham muhim hisoblanadi. Konstitutsiyamizda jamiyatimizning barcha qatlamlari qatorida yoshlarning ham siyosiy, shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy huquq va erkinliklari kafolatlangan, ularning ta'lim-tarbiya olishi, o'z iqtidorini namoyon qilishi, salomatligini mustahkamlashi belgilab qo'yilgan. Bosh qomusimizning mazmun-mohiyatini o'rganish yoshlarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish bilan birga, ularda vatanparvarlik, yurtga sadoqat tuyg'ularini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega. Bosh qomusimizda onalik va bolalik davlat himoyasida, farzandlar ota-onalarining nasl-nasabi va

<sup>109</sup> Qarang: <https://strategy.uz/index.php?news=1014&lang=uz>.

fuqarolik holatidan qat'i nazar, qonun oldida tengligi belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 65-moddasida "Farzandlar ota-onalarining nasl-nasabidan va fuqarolik holatidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar. Onalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi", - deb belgilab qo'yilgan. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar turkumidagi darslarni olib borish jarayonida Bosh qomusimizda mavzularga oid ma'lumotlarni qo'llab borish, o'quvchilarning huquqiy savodxonligi va madaniyati yuksaltirishda muhim hissa qo'shadi.

Bugungi kunda "Adolat - qonun ustuvorligida" degan tamoyil asosida jamiyatimizda qonunga hurmat, huquqbuzarlik holatlariga murosasizlik hissini kuchaytirishga qaratilgan ishlar jadal davom etib kelmoqda. Bu g'oyaning darslarda qo'llanilishi o'quvchilarni qonunga hurmat ruhida tarbiyalash va ular o'rtasida turli tartibsizliklar, e'tiborsizliklarning oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yurtimizda bolalar va yoshlar bo'yicha Ombudsmanning tashkil etilishi bolalar hayotiga doir dasturlarni izchil amalga oshirish, bolalar huquqlari bilan bog'liq vaziyatlarni kuzatib borish hamda ularning ijtimoiy munosabatlarga faol kirishishini yanada keng ta'minlashda alohida ahamiyatga ega. O'quvchilarning huquqiy bilimini boyitish, Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya qoidalaridan xabardorlik darajasini oshirish lozim. BMTning Bola huquqlari to'g'risidagi xalqaro konvensiyasida nazarda tutilgan maqsad va vazifalar hayotga izchil tatbiq etilayotgani va uning jamiyatimizda tutgan o'rini ham ko'rsatib o'tish lozim. Shuningdek, 2016-yil 15-sentyabrdan kuchga kirgan O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni mamlakatimiz yoshlari taqdirda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Uning mazmun va mohiyatini yoritish, mazkur qonunning tegishli bandlaridan 6, 7, 8, 9-sinflarda "Tarbiya: baxt va muvaffaqiyat sirlari" fanida mavzu daoirasida qo'llash muhim natijalarga olib keladi.

Bugungi kunda mamlakatimizda bola huquqlari va erkinliklarini har tomonlama himoya qilishni ta'minlaydigan yuzdan ortiq me'yoriy-huquqiy hujjatdan iborat qonunchilik bazasi shakkantirildi. Konstitutsiyamiz va boshqa qator qonunlar asosida voyaga yetmaganlarning huquqlari ta'minlanmoqda.

2017 yil sentyabr-noyabr oylarida "Ijtimoiy fikr" jamoatchilik fikrini o'rganish markazi tomonidan fuqarolarning davlatimiz Bosh qomusiga, huquqiy madaniyat va huquqiy ong tushunchalariga, Konstitutsiyada belgilab qo'yilgan inson huquqlari va erkinliklarining ta'minlanishi hamda himoya qilinishi darajasiga munosabatini aniqlash maqsadida

ijtimoiy so'rov o'tkazilgan edi. So'rov natijalari ishtirokchilarning aksariyat qismi Konstitutsiyamizga O'zbekiston mustaqilligining mustahkam huquqiy poydevori, huquq va erkinliklarning ishonchli kafolati sifatida qarashini ko'rsatdi. O'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, fuqarolarning aksariyati (90,5 foiz) suveren davlat va adolatlari jamiyat barpo etish, inson huquqlarini himoya qilish hamda demokratianing oliv maqsadlariga va ijtimoiy adolatga sodiq qolish, fuqarolar tinchligi va millatlararo totuvlikni ta'minlashning fundamental asoslari mustahkamlab qo'yilgan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini "davlatimizdagи huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi bosh hujjat", deb hisoblashi aniqlandi. So'rov ishtirokchilarining fikriga ko'ra, Konstitutsiya xalq irodasi va millat hamjihatligini ifodalovchi qonun hujjati, mustaqil huquqiy demokratik davlatimizning bosh ramzidir. So'rov natijalari fuqarolarning ko'pchiligi (86,3 foiz) Bosh qomusimiz zamon talablariga javob beradi va uzoq istiqbolga mo'ljallangan, deb hisoblashini ko'rsatdi. O'zbekistonliklar konstitutsiyaviy qoidalar mamlakatda bosqichma-bosqich, izchil amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-huquqiy islohotlarning davomiyligi, davlatimizni rivojlantirish va modernizatsiya qilish jarayonida jadallik va barqarorlik uyg'unligini kafolatlayotganiga ishonadi. Fuqarolarning Konstitutsiya o'zida vaqt sinovidan o'tgan umuminsoniy huquqiy qadriyatlar bilan birga, rivojlangan davlatlarning konstitutsiyaviy tajribasi, O'zbekiston xalqining milliy o'ziga xosligi, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini ham mujassam etganiga ishonchi komil. Bu davlat va jamiyatning tadrijiy-huquqiy rivojlanishi, ularning demokratik islohotlar sur'ati va samaradorligini oshirish yo'lida samarali hamkorlik qilishi uchun barcha zarur shart-sharoitlarni yaratadi.

So'rov ishtirokchilari yuqori huquqiy madaniyat – davr talabi ekanligini, hozirgi davrda har bir fuqaroning huquqiy ongi, huquqiy savodxonligi yuqori bo'lishi va egallagan huquqiy bilimlarini amalda qo'llay olishi kerakligini qat'iy ta'kidladi. So'rov jarayonida fuqarolarning aksariyati (92,6 foiz) o'z fuqarolik huquqlarini puxta bilishini bildirgan. Natijalar davlatimiz fuqarolarning Bosh qomusimiz mazmunidan xabardorlik darjasini yuqori ekanini ko'rsatdi. Konstitutsiyaning asosiy qoidalarini bilishini aytgan respondentlar orasida oliv ma'lumotli fuqarolar, harbiy xizmatchilar, huquq-tartibot organlari xodimlari va o'quvchilar ko'pchilikni tashkil etgan. So'rov fuqarolarimiz O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mundarijasi, yo'nalishlari bo'yicha oldingi davrlardagi bunday hujatlardan keskin farq qiladi, deb hisoblashini ko'rsatdi.

Bosh qomusimiz mustaqil demokratik davlat - O'zbekiston Respublikasiga tamal toshi qo'yilgan davrga borib taqaladi, unda jinsi, millati, irqi, yoshi, moddiy ahvoli, diniy e'tiqodidan qat'i nazar, inson huquqlarini kamsituvchi moddalar mavjud emas. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida demokratiyaning asosiy mohiyati mustahkamlab qo'yilgan. Unga ko'ra, xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbaidir. Konstitutsiyamiz inson, uning hayoti, erkinligi, nomusi, g'ururi hamda mulkchilikka, mehnat qilish va dam olishga, keksalikka doir ijtimoiy ta'minotga, malakali tibbiy xizmatga, ta'limga bo'lgan ajralmas huquqlarini oliv qadriyat hisoblovchi umuminsoniy tamoyillarga tayangani - uning yana bir kuchli jihatni ekanini bildirgan.

So'rov davomida ishtirokchilarning konstitutsiyaviy huquqlar ta'minlanganligi va himoyalanganligiga oid fikrlari bo'yicha yuqori ko'rsatkichlar qayd etilgan. Respondentlarning aksariyati (94,8 foiz) O'zbekistonda fuqarolarning asosiy konstitutsiyaviy huquqlari, qonun ustuvorligi to'laqonli ta'minlanganligini ta'kidlashgan.

Jamoatchilik fikrini o'rganish natijalariga ko'ra, xalqimiz O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rahnamoligida amalga oshirilayotgan fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, aholining huquqiy madaniyatini yanada yuksaltirish, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, aholining barcha qatlamlari konstitutsiyaviy huquqlarini ta'minlashga yo'naltirilgan chora-tadbirlarni qo'llab-quvvatlamoqda va ularga xayrixohlik bildirishmoqda.

"Inson huquqlari sohasida taraqqiyot mezonlarini o'lhash bo'yicha qiyosiy ko'rsatkichlar: xalqaro amaliyot va O'zbekiston tajribasi" mavzusidagi xalqaro konferensiya 2017-yil 22-noyabr kuni Samarqandda bo'lib o'tdi. Konferensiyada inson huquq va erkinliklarini ta'minlash bo'yicha davlat idoralari faoliyatini tashkil etish, inson huquqlari bo'yicha milliy institutlarni yanada rivojlantirish bo'yicha xalqaro hamjamiyat tomonidan indikatorlar ishlab chiqilgani qayd etildi. Bu indikatorlar ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, madaniy, qolaversa, demografik, jinoyatchilikka qarshi kurashish va odil sudlovnii amalga oshirish bilan bog'liq ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi.

Unda shuningdek, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligini takomillashtirish va inson huquqlarini himoya qilishning xalqaro mexanizmlari, inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar samaradorligini baholash, gender tengligi darajasi va inson huquqlariga rioya qilishni o'lhash indikatorlari, inson huquqlarini sudda himoya qilish darajasini

o'lchash uchun qiyosiy ko'rsatkichlar kabi yo'nalishlarda milliy va xalqaro tajriba muhokama etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov sa'y-harakatlari bilan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida "Inson va uning qadr-qimmati" degan ulug' tushuncha markaziy o'ringa qo'yildi. Buni amalda ta'minlash mexanizmi va kafolatlari qonunlarimizda mustahkamlandi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahnamoligida davlat va jamiyatning har tomonlama rivojlanishini ta'minlash, mamlakatimizni modernizatsiya qilish va hayotimizning barcha sohalarini erkinlashtirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, Prezidentimizning 2017-yil 7-fevraldagи Farmoni bilan 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi qabul qilindi. Harakatlar strategiyasini hayotga tatbiq etish doirasida o'tgan yillar mobaynida o'tgan davrda 30 dan ortiq qonun, Prezidentning 700 dan ortiq farmon va qarorlari, Hukumat hujjatlari qabul qilindi. Ushbu hujjatlardan maqsad mamlakatni yanada modernizatsiyalash, qonun va inson huquqlari ustuvorligini ta'minlash, fuqarolarning farovonligini yaxshilashdan iboratdir. O'zbekiston inson huquqlari bo'yicha 80 dan ortiq xalqaro hujjatga qo'shilgan, jumladan Birlashgan Millatlar Tashkilotining 6 ta asosiy shartnomaci va 4 ta fakultativ protokoliga qo'shilgan bo'lib, ularning amalga oshirilishi yuzasidan BMTning Inson huquqlari bo'yicha kengashi va shartnomaviy qo'mitalariga muntazam ravishda milliy ma'ruzalarni taqdim etib kelmoqda.

Mamlakatimiz inson huquqlari va erkinligiga rioya etish hamda uni himoya qilish borasidagi majburiyatlarini to'la bajarib kelmoqda. Davlatimiz BMTning ustav va shartnomaviy organlari, ixtisoslashtirilgan muassasalari va BMTning inson huquqlari bo'yicha Kengashining maxsus tartibotlari bilan faol va amaliy muloqotni qo'llab-quvvatlaydi. BMTning inson huquqlari Kengashi maxsus tartibotlari bilan hamkorlik ularning ta'sis hujjatlariga muvofiq amalga oshirilmoqda.

O'zbekistonda inson huquqlarini rag'batlantirish, himoya qilish va ularga rioya qilish masalalari davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi doirasida shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarni ta'minlash sohasida aniq maqsadga yo'naltirilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimizda inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash masalasi xalqimiz uchun farovon va munosib turmush sharoitini yaratib berishga qaratilgan demokratik islohotlarning bosh mezoniga aylanib bormoqda.

Inson huquqlari bo'yicha xalqaro standartlar milliy qonunchilikka va huquqni qo'llash amaliyotiga tizimli hamda bosqichma-bosqich implementatsiya qilingan 80 dan ortiq inson huquqlari va erkinliklari sohasidagi xalqaro hujjatlar normalari milliy qonunchilikda o'z aksini topmoqda<sup>110</sup>.

Amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar insonlar hayotini, dunyoqarashini hamda turmush tarzini o'zgartirmoqda. Jamiyatda "Yangi O'zbekistonni birqalikda barpo etamiz" degan ulug'vor maqsad shakllandi va "Jamiyat - islohotlar tashabbuskori" degan yangi g'oya kundalik faoliyatimizga faol kirib bormoqda.

2017-yilda O'zbekistonga BMT Bosh kotibi Antoniu Guterrish, BMTning Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissari Zayd Raad al-Husayn, BMTning din va e'tiqod erkinligi masalasi bo'yicha maxsus ma'ruzachisi Ahmad Shahid tashrif buyurdi. Oliy komissar tashrifi yakunlari bo'yicha mamlakatimiz parlamenti tomonidan Birlashgan Millatlar Tashkiloti Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissari boshqarmasi bilan hamkorlikni yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar rejasiga qabul qilindi. Ushbu hujjat inson huquq va erkinliklarini himoya qilish sohasida 90 dan ortiq tadbirni o'z ichiga oladi.

"2017-yil O'zbekistonda inson huquqlarini ta'minlash bo'yicha ulkan ishlar amalga oshirilgan yil sifatida tarixda qoladi, - dedi BMT Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissari boshqarmasining Markaziy Osiyo bo'yicha mintaqaviy bo'limi boshlig'i Rishard Komenda. - Ushbu yo'nalishdagagi tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar xalqaro standartlarga mosligi, ularda inson manfaatlari amalda o'z ifodasini topayotgani diqqatga sazovor. O'zbekiston parlamenti tomonidan ishlab chiqilgan Harakatlar rejasiga muvofiq o'tkazilayotgan ushbu konferensiya hamkorlikdagi ishlarni yangi bosqichda davom ettirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi".

O'zbekistonda inson huquqlari va erkinligini himoya qilish bo'yicha milliy institutlar - O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman), Inson huquqlari bo'yicha Milliy markaz, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Amaldagi qonun hujjatlari monitoringi instituti qonun ustuvorligini ta'minlash, fuqarolar

<sup>110</sup> Qarang: <https://www.lex.uz/docs/-4872355>.

huquqlarini qonunchilikka binoan himoya qilishda faol ishtirok etmoqda. Qolaversa, yana bir yangi isntitut tadbirkorlarning huquqlarini himoya qilishning sudga daxli bo'limgan yangi mexanizmi – Biznes ombudsman ham tashkil etilgan.

Mamlakatimizda fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlariga rioya etish va ularni himoya qilish, inson huquqlarining har xil toifalari ta'minlangan holda vaziyat monitoringini olib borish, inson huquqlari sohasida xalqaro majburiyatlarni bajarish bo'yicha ma'ruzalar tayyorlash, shuningdek, BMTning ustav va shartnomaviy organlari tavsiyalarini amalga oshirish bo'yicha milliy harakatlar rejalarini ishlab chiqish bo'yicha katta tajriba to'plandi.

Mamlakatimizda Harakatlar strategiyasining ikkinchi yo'nalishini amalga oshirish doirasida – qonun ustuvorligini hamda sud hokimiyatining haqiqiy mustaqilligini ta'minlash bo'yicha qonuniy va tashkiliy chora-tadbirlar qabul qilinmoqda. Juhon standartlariga muvofiq sudyalar hamjamiyatining yangi konstitutsiyaviy organi – Sudyalar oliy kengashi tashkil etildi. Sud vakolatlari muddati uzaytirildi. Sud tomonidan asossiz ravishda ishlarning cho'zilishiga yo'l qo'ymaslik uchun ishlarni ko'rib chiqish muddati tubdan o'zgartirildi. Jinoyat sodir etganlikda gumon qilinayotgan shaxslarni qamoqda saqlash muddati 72 soatdan 48 soatgacha qisqartirildi, advokatlarning sud faoliyatidagi roli kuchaytirildi. Mazkur choralar BMTning Inson huquqlari bo'yicha Kengashi va shartnoma asosidagi organlari tomonidan O'zbekistonning inson huquqlari bo'yicha yillik hisobotlarini ko'rib chiqishda bildirilgan tavsiyalarga to'la javob beradi.

Toshkent va Samarqandda 2017-yil 21-22-noyabr kunlari "Inson huquqlari sohasida taraqqiyot mezonlarini o'lhash bo'yicha qiyosiy ko'rsatkichlar: xalqaro amaliyot va O'zbekiston tajribasi" mavzuida xalqaro konferensiya bo'lib o'tdi. Xalqaro konferensiyaning maqsadi butun dunyoda inson huquqlari sohasida taraqqiyot mezonlarini o'lhash bo'yicha xalqaro amaliyotni o'rganish, milliy ko'rsatkichlarni belgilash, inson huquq va erkinliklarining alohida toifasi, jumladan, globallashuv va axborot texnologiyalari sharoitida inson huquq va erkinliklariga rioya etish va ularni himoya qilishni ta'minlashga doir indikatorlarni ishlab chiqishdan iborat bo'ldi.

Shuningdek, 2018-yil noyabr oyida Samarqand shahrida Inson huquqlari bo'yicha Osiyo forumi bo'lib o'tdi. Mazkur dolzarb mavzuga bag'ishlangan nufuzli anjuman Inson huquqlari bo'yicha milliy markaz tomonidan Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissarligi idorasining Markaziy Osiyo bo'yicha mintaqaviy

byurosi, BMTning O'zbekistondagi doimiy koordinatori vakolatxonasi, BMTTDning O'zbekistondagi vakolatxonasi, YEXHTning Demokratik institutlar va inson huquqlari bo'yicha byurosi (DIIHB), YEXHT Parlamenti assambleyasi kabi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda o'tkazildi. Unda milliy va xorijiy ekspertlar, parlamentlar, sud tizimi, huquqni muhofaza qilish organlari, hisobotlar taqdim etish va keyingi harakatlar bo'yicha davlat muvofiqlashtirish organlari, inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar, fuqarolik jamiyati tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari vakillari hamda xalqaro va mintaqaviy hukumatlararo tashkilotlarning 150 ga yaqin vakillari ishtirot etdi.

Prezidentimiz BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasi doirasida tuzilma rahbarlari bilan uchrashuvlari chog'ida 2018 yilda Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinganining 70 yilligi munosabati bilan Samarqand shahrida inson huquqlari bo'yicha Osiyo forumini o'tkazish tashabbusini bildirgan edi.

Inson huquqlari bo'yicha Osiyo forumining asosiy maqsadi bugungi kunda Barqaror rivojlantirish maqsadlarining 2030-yilgacha Dastur vazifalariga erishishda Osiyo mintaqasida Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, insoniylik mezoni sohasidagi YEXHT majburiyatları va ularning zamonaviy Osiyo mintaqasidagi ahamiyatining mosligiga yana bir bor ishonch hosil qilishdan iborat bo'ldi<sup>111</sup>.

Yoshlarning huquqlariga bag'ishlangan forumda dunyoning turli burchaklaridan 1000 dan ortiq ishtirokchilar qatnashdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017 yilda Birlashgan Millatlar Tashkilotining 72-Bosh assambleya sessiyasida yoshlar huquqlari to'g'risidagi xalqaro konvensiyani ishlab chiqish tashabbusi ushbu mavzuga turtki bo'ldi. Forum xalqaro tashkilotlarning yuqori martabali mulozimlari, yaqinda tashkil etilgan O'zbekiston Yoshlar Parlamenti, O'zbekiston Yoshlar ittifoqi kabi milliy hamkorlar, hamda turli hudud va inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar vakillari ishtirokida katta tadbirga aylandi. Tadbir davomida ishtirokchilar yoshlar huquqlariga oid xalqaro standartlarini ishlab chiqish, yoshlar huquqlari va barqaror rivojlanish maqsadlari o'rtasidagi bog'liqlik, yoshlar uchun inson huquqlari sohasidagi ta'lim, shuningdek, tinchlik va xavfsizlikda yoshlarning o'rni bilan bog'liq masalalarni muhokama qildilar. Yoshlar huquqlari to'g'risidagi konvensiya hujjati loyihasi ham muhokama markazida bo'ldi<sup>112</sup>.

<sup>111</sup> Qarang: <https://interkomitet.uz/boshqa/samarqanda-inson-huquqlari-bo-yicha-osiyo-forumi>.

<sup>112</sup> Elektron manba: <https://www.osce.org/uz/secretariat/460003>.

Biz yuqorida bejizga qonunchilik hujjatlari va mamlakatimizda oxirgi yillarda inson huquq va manfaatlarini himoya qilish borasidagi amaliy ishlarni tavslilotini berib o'tmadik. Demak, Milliy g'oya va ma'naviyatga oid fanlarning mavzulariga mos holda qonunchiligidan sodir bo'lib turgan yangiliklar bilan doimo birgalikda olib borishimiz zarur. Bu o'qituvchilardan doimo o'z ustida ishslash, tafakkur qilish va jamiyatimizda sodir bo'lib turgan yangiliklar baxobar bo'lib turishni talab etadi.

### **MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaysi qarorida o'quv fani mavzularining o'quvchi yoshi va psixo-fiziologik xususiyatlariga mos holda berilishi, ma'lum faktlar, tushunchalar, qoidalar va fanlararo bog'liqlikni hisobga olgan holda tushunarli bayon qilinishi lozimligi belgilangan?
2. Qaysi fanlar ijtimoiy fanlar turkumiga kiradi?
3. Xalqimizning eng qadimiy ma'naviy merosiga qaysi manbalar kiradi?
4. Mustaqillik yillarda qanday qadimiy shaharlarning yubileyлari nishonlandi?
5. Mamlakatimiz Prezidenti qachon "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida O'zbekistondagi Islom madaniyati markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorni imzoladi?
6. "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Imam Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qaror qachon qabul qilindi?
7. Qachon, qayerda "Inson huquqlari sohasida taraqqiyot mezonlarini o'lhash bo'yicha qiyosiy ko'rsatkichlar: xalqaro amaliyot va O'zbekiston tajribasi" mavzuida xalqaro konferensiya bo'lib o'tdi? Ushbu konferensiyadan ko'zlangan asosiya maqsad nima edi?
8. 2017-yil 25-oktyabr kuni O'zbekiston musulmonlari idorasida o'tkazilgan yig'ilishda Samarqand viloyatida, Buxoro, Qashqadaryo viloyatlarida qanday ilmiy mакtablar faoliyatini tashkil etish bo'yicha masalalar ko'rib chiqildi?

### **MAVZUGA OID ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 28-iyuldagи "Ma'naviy-ma'rifiy ishlар samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida"gi PQ-3160-sonli

Qarori:// O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 6-son, 70-modda.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida O'zbekistondagi Islom madaniyati markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida//Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 16.07.2021-y., 07/21/5186/0683-son.

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining Davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 187-son qarori// O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 14-son, 230-modda.

4. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. -T.: O'zbekiston, 2017-yil.

5. Milliy g'oya: targ'ibot texnologiyalari va atamalar lug'ati (Mas'ul muharrir I.Ergashev). -T.: Akademiya, 2007 yil.

5. Buxoro va Xiva shaharlарining 2500 yilligiga bag'ishlangan xalqaro simpozium tezislari. -T.:1997 yil.

6. Samarqand shahrining umumbashariy madaniy taraqqiyot tarixida tutgan o'rni. Samarqand shaxrining 2750 yillik yubileyiga bag'ishlangan Xalqaro ilmiy simpozium materiallari. -Samarqand -2007 yil.

7. O'zbekiston poytaxti -Toshkent 2200 yoshda. Toshkent shahrining 2200 yillik yubileyiga bag'ishlangan Xalqaro ilmiy konferensiya materiallari. -T.:2009 yil.

8. Tohiriyon A., Sobirova M., Zamonov Z. Milliy g'oya turkumiga kiruvchi fanlarni o'qitishda interfaol ta'lim metodlaridan foydalanish bo'yicha uslubiy tavsiyalar. -T.: RTM, 2017 yil.

#### ELEKTRON TA'LIM RESURSLARI:

1. <http://www.lex.uz/>
2. <http://www.gov.uz/>
3. <http://www.uza.uz/>
4. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
5. <https://uz.wikipedia.org>
6. <https://strategy.uz>
7. <https://interkomitet.uz>
8. [www.osce.org/uz](http://www.osce.org/uz)

**14-MAVZU:**  
**YOSHLARNI MILLIY G'oya RUHIDA TARBIYALASHNING**  
**INSTITUTSIONAL TIZIMI FAOLIYATINI MUVOFIQLASHTIRISH**  
**MASALALARI**

**REJA:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 28-iyuldagagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida"gi PQ-3160-tonli Qarori va undan kelib chiquvchi vazifalar.
2. Ma'naviy-ma'rifiy tarbiyani olib borishda oila, mahalla, nodavlat notijorat tashkilotlari, siyosiy partiylar, jamoat birlashmalari, Yoshlar ittifoqi bilan hamkorlik masalalari.
3. O'sib kelayotgan yosh avlodni milliy g'oya ruhida tarbiyalashda oila, mahalla va ta'lim muassasalari hamkorligidan foydalanishning pedagogik omillari

**Tayanch tushuncha va iboralar:**

*InstitutSIONAL tizim, ma'naviy-ma'rifiy tarbiya, yoshlarni milliy g'oya tarbiyalashning institutSIONAL tizimi, oila, mahalla, nodavlat notijorat tashkilotlari, jamoat birlashmalari, Yoshlar ittifoqi va hk.*

**1-masalaning bayoni:** Istiqlol yillarda Vatanimiz uchun ma'naviy tiklanish va yuksalish davri bo'ldi. Ushbu jihat o'zida milliy qadriyatlar va an'analarimizni qayta tiklanishi bilan amalda o'z ifodasini topdi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Ma'naviyat jamiyat taraqqiyotini belgilovchi muhim unsur hisoblanadi. Jamiyat ma'naviyatini rivojlantirish, uni yuksaklikka ko'tarish milliy o'zlikni, eng muhim jihat esa, globallashuv jarayonlarida aholimiz, ayniqsa, yoshlarimiz ongida har qanday ma'naviy tahdidlarga qarshi tura olish immunitetini shakllantiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 28-iyuldagagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida"gi PQ-3160-tonli Qarori ma'naviy-ma'rifiy sohada yangicha tub burilish yasadi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Qarordagi muhim jihatlardan biri, bu yoshlarda sog'lom dunyoqarash, jumladan, kitobxonlik ko'nikmasini shakllantirish, internet, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan oqilona foydalanish madaniyatini oshirish, ularda g'oyaviy va axborot xurujlariga

qarshi mafkuraviy immunitetni kuchaytirish Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markaziga asosiy vazifa sifatida yuklatilgan.

Mazkur qarorda Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi va uning hududiy bo'limganlarga dunyoda yuz berayotgan murakkab geosiyosiy va g'oyaviy-mafkuraviy jarayonlarning mazmun-mohiyatini har tomonlama chuqr yoritib borish, terrorizm, diniy ekstremizm, aqidaparastlik, separatizm, odam savdosi, "ommayiv madaniyat", narkobiznes va boshqa tahdidlarga qarshi samarali g'oyaviy kurash olib borish, jamiyatimizning barqaror rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan ichki tahdidlar – el-yurt taqdiriga loqaydlik, mahalliychilik, urug'-aymoqchilik, oilaviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasiga e'tiborsizlik kabi holatlarga barham berish qat'iy belgilab qo'yilgan. Shuningdek, targ'ibot-tashviqot ishlarida aholining hududiy, kasbiy hamda yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda mutanosib, maqsadli va mazmunli yondashuvni joriy etish ta'kidlab o'tilgan.

Xususan, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, qabul qilinayotgan qonun hujjatlari, davlat dasturlarining mazmun va mohiyatini aholining keng qatlamlariga yetkazishga qaratilgan targ'ibot ishlarini tizimli va izchil amalga oshirish, targ'ibot-tashviqot ishlarida aholining hududiy, kasbiy hamda yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda mutanosib, maqsadli va mazmunli yondashuvni joriy etish, ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot ishlari samaradorligining ilmiy asoslangan monitoringini ta'minlashga qaratilgan sotsiologik tadqiqotlar o'tkazishni muntazam yo'lga qo'yish, mahallalarda uyushmagan yoshlar bilan ishslash, ushbu toifani ijtimoiy-iqtisodiy faollashtirishda jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish, xalqimizning tarixiy merosi, urf-odatlari va milliy tarbiya an'analarini asrab-avaylash, keng aholi qatlamlari, ayniqsa, yoshlarimiz o'rtasida dinlararo bag'rikenglik, millatlararo totuvlik va o'zaro mehr-oqibat muhitini mustahkamlash bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish vazifalari yuklatilgan.

Shuningdek, Qarordagi muhim jihatlardan yana biri, bu ma'naviy tahdidlarga alohida e'tibor qaratilganligidir. Jumladan, yoshlarda sog'lom dunyoqarash, jumladan, kitobxonlik ko'nikmasini shakllantirish, internet, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan oqilona foydalanish madaniyatini oshirish, ularda g'oyaviy va axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetni kuchaytirish, dunyoda yuz berayotgan murakkab geosiyosiy va g'oyaviy-mafkuraviy jarayonlarning mazmun-mohiyatini har tomonlama chuqr yoritib borish, terrorizm, diniy ekstremizm, aqidaparastlik, odam savdosi, narkobiznes va boshqa tahdidlarga qarshi samarali g'oyaviy kurash olib borish, jamiyatimizning

barqaror rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan loqaydlik, mahalliychilik, urug'-aymoqchilik, oilaviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasiga e'tiborsizlik kabi holatlarga barham berishga qaratilgan kompleks tadbirlar tizimini ishlab chiqish va amalga oshirish, milliy g'oyani viloyatimizda yashayotgan barcha millat va elatlar, ijtimoiy toifa vakillari o'rtasida keng targ'ib etish, buniyodkorlik ruhini yalpi ijtimoiy harakatga aylantirish, ertangi kunga ishonch tuyg'ularini kuchaytirish Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markaziga asosiy vazifa sifatida yuklatilgan.

Shu o'rinda bir jihatga alohida e'tibor qaratish lozim. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashiga, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi Raisi, viloyatlar, Toshkent shahar hamda tumanlar, shaharlar hokimlari tegishli ravishda hududiy kengashlarga jamoatchilik asosida raislik qilishi mazkur sohaning hozirgi globallashuv jarayonlarida qanchalik muhim ekanligini yana bir bor ko'rsatib turibdi.

Xulosa o'rnida bir jihatni alohida ta'kidlab o'tish joizki, Vatanimiz mustaqilligi, uning ma'naviy asoslarini avaylab-asrash, aholimiz, ayniqsa yosh avlodni ongida milliy-ma'naviy qadriyat, an'analarimizga sodiqlik ruhida tarbiyalash uchun barchamiz birdek mas'ulmiz.

**2-masalaning bayoni:** Mamlakatimizda mustaqillikning ilk kunlaridanoq jismonan sog'lom, ma'naviy yetuk va barkamol avlodni tarbiyalash masalalari davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib kelmoqda. Chunki mamlakatimiz kelajagi va istiqboli ana shu avlod tarbiyasiga har tomonlama bog'liq. Zero, mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Ta'lim va tarbiya, ilm-fan, sog'liqi saqlash, madaniyat va san'at, sportni rivojlantirish masalalari, yoshlarimizning chuqur bilimga ega bo'lishi, chet tillarini va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini puxta egallashini ta'minlash doimiy ustuvor vazifamiz bo'lib qoladi"<sup>113</sup>.

Darhaqiqat, yoshlar tarbiyasi yo'lida ota-on, qo'ni-qo'shni va keng jamoatchilik, o'qituvchi va murabbiylar hamkorligi yosh yigit-qizlarning ulug' ajdodlarimizga munosib avlod bo'lishlariga munosib hissa qo'shishi shubhasiz. Shu bois mamlakatimizda ota-onalar, murabbiylar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, huquqni muhofaza qilish organlari o'rtasidagi hamkorlik muhim ahamiyatga ega. Ana shu hamkorlikni yanada kuchaytirish, har tomonlama rivojlangan avlodni tarbiyalashda oilalar, ota-onalar va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda olib boradigan

<sup>113</sup> Mirziyoyev Sh.M. "Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt tarraqiyoti va xalq farovonligi garovi" mavzusidagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bagishlangan tantanali marosimdag'i ma'ruzasi. //Xalq so'zi. 2016-yil 8-dekabr. 243-son.

faoliyatini tizimli yo'lga qo'yish, farzand tarbiyasida davlat va jamoat tashkilotlari hamda jamoatchilik faolligini oshirish – bugungi kunda eng dolzarb vazifalardan biridir.

Zero, Vatanimizning kelajagi bo'lgan farzandlarni odobli, aql-farosatli va bilmidon qilib tarbiyalash – davr talabi. Yoshlarni har tomonlama ma'naviy yetuk barkamol shaxs sifatida tarbiyalash murakkab va muhim vazifalardan bo'lib, oila, ta'lim muassasalari, mahalla va keng jamoatchilik bu yuksak maqsadni amalga oshirishda bevosita birdek mas'uldirlar. Barkamol shaxsni tarbiyalashda, bolani dunyoga kelganidan boshlab to voyaga yetguniga qadar bo'lgan davrdagi psixologik xususiyatlarini bilish, tug'ma layoqatlarini aniqlash, shuningdek, quay muhit yaratish, ta'lim tizimida faol ishtirokini ta'minlashda tarbiyachilar, pedagoglar va psixologlar, ota-onalar, shuningdek, mahalla-kuy mas'ulligini oshirish muhim ahamiyatga ega.

Jamiyatdagi ma'naviy-axloqiy steriotiplar mukammal va yaxshi bo'lmasa, jamiyatdagi kichik-kichik jamiyatni rivojlantiruvchi muassasalar rivojlanishi ham samarali kechmaydi. Buni professor M.Inomova shunday izohlaydi: "milliy axloq, milliy tarbiya natijasida tarkib topadi. Milliy tarbiya negizida oilaviy tarbiya yotadi"<sup>114</sup>.

Agar "oila ma'naviyati" tushunchasi tarixan shakllanganligiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ijtimoiy muhitda oilaning ma'naviyatni shakllantirish, rivojlantirish va takomillashtirishning o'ziga xos xususiyatlarini mujassam etgan ma'naviy-axloqiy institut sifatidagi maqomini oshirish jamiyatda oila institutining transformatsiyalashuv omilini yuzaga keltiradi. Oila mustaqil ma'naviy-axloqiy institut bo'lib shakllanganidan buyon to bugungi kungacha ko'p qirrali va murakkab yo'lni bosib o'tdi. Har bir tarixiy davrda oila a'zolarining korrelyativligi (o'zaro munosabatlari) xilma-xil mazmun bilan boyib bordi.

Vaholanki, O'zbekistonda jamiyatning ravnaq topishi, fuqarolarning baxtli hayoti mazmunini tashkil etidigan oila instituti davlat himoyasida. Asosiy qonunimizda "Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega"<sup>115</sup>, deyiladi. Haqiqatan ham, oila har qanday davlat ichidagi o'ziga xos "davlat" yacheyska, birinchi betakror, muayyan qonun-qoida va shart-sharoitlar oqibati natijasida vujudga keluvchi shunday ijtimoiy "tashkilot"ki, unda ijtimoiy hayot, avlodlar davomiyligi ta'minlanadi, urf-odatlarimiz, xotira muqaddasligi va nihoyat, etnik madaniyat saqlab kelinadi, ayni chog'da rivojlantiriladi,

<sup>114</sup>Иномова М.О. Оиладан болаларни маънавий-ахлоқий тарбиялашда миллий қадриятлардан фойдаланишининг педагогик асослари (мустақил ҳаёт бўсағасидаги ёшлар): П.ф.докт. илмий дараж. олиш учун дисс. –Т.: 1998. 279-бет.

<sup>115</sup> O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: "O'zbekiston" 2020, 21-bet, 63-modda.

avloddan-avlodga o'tib boyitilgan tajriba yangi an'analar bilan boyib, kelgusi avlodlarga uzatiladi<sup>116</sup>.

Har bir jamiyat a'zosi oila bag'rida voyaga yetadi, ijtimoiy munosabatlarni o'zlashtiradi va insoniy fazilatlarni namoyon etadi. Yoshlarni hayotga, ongli mehnat faoliyatiga tayyorlashda oila va pedagogik faoliyatning tarbiyaviy jarayonni to'g'ri tashkil etishi zaruriy vazifadir. Shu maqsadda mamlakatimizda milliy mustaqillik yillarda ma'naviyat sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, avvalo, oila qadriyatlarini eng ilg'or an'analarini tiklashga qaratilgandir.

Shulardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki:

- **birinchidan**, bugungi avlod yangi asr - "XXI asr - intellektual asr'da va sivilizatsiya davrida yashaydi. Bu sivilizatsiyada ta'limg-tarbiya olish, mehnat qilish, ijod bilan shug'ullanish o'zining ustida tinmay ishlaydigan, uzlusiz ta'limg oladigan, muntazam ravishda ma'naviy madaniyatni rivojlantirib, o'z bilim ehtiyojlarini qondirib olgan ta'limg-tarbiya natijalarini oilasi, xalqi va davlatini rivojlantirishiga sarf qila oladigan shaxsgina ushbu sivilizatsiyaning faol ishtirokchisi bo'lishi mumkin. Ana shunday sharoitda yosh avlodni har tomonlama yetuk, barkamol inson qilib tarbiyalashning eng muhim omillarini tahlil etish zarur;

- **ikkinchidan**, har bir jamiyatning, tuzumning tarixiy rivojlanishida yoshlari muammosining mavjudligi, ularda sog'lom turmush tarzini shakkantirish masalalarining yetakchiligi va bu masalaning asosiy qismining yechimlari ta'limg-tarbiya jarayoniga bog'liq ekan, bu jarayonda muhim omil bo'lgan - ota-onalar, murabbiylar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, huquqni muhofaza qilish organlari o'rtaсидagi hamkorlikni ta'minlash bugungi kunda dolzarb vazifalardan biridir;

- **uchinchidan**, ma'naviyati yetuk insonni voyaga yetkazishda ota-onalar, murabbiylar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, huquqni muhofaza qilish organlарining o'rni va ahamiyatini har tomonlama ochib berish muhim ahamiyat kasb etadi;

- **to'rtinchidan**, ota-onalar, murabbiylar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, huquqni muhofaza qilish organlari o'rtaсидagi hamkorlikni rivojlantirish zarur.

Yana bir muhim masala borki, bu ham bo'lsa oliy ta'limg tizimini isloh qilish masaladir.

Mustaqillik yillarda O'zbekistonda oliy ta'limg tizimi tubdan isloh qilindi. Bu borada "Kadrlar taylorlash Milliy Dasturi"ning qabul qilinishi

<sup>116</sup> Нажмидинова К. Оила тарбиясида миллий ва умуминсоний ахлоқий маданиятнинг ўрни. – Т.: Адолат, 2016, 34-бет.

va amaliyotda joriy etilishi ta'lim tizimining barcha bosqichlarida uzlusiz ta'limni takomillashtirishga olib keldi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha "O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni o'tgan davrda kelajakni ko'zlab amalga oshirilgan ulkan bunyodkorlik ishlarning mantiqiy davomidir.

Ushbu sohada ko'zda tutilgan barcha vazifalarni o'zida mujassam etgan bosh g'oyasi O'zbekiston Konstitutsiyasini qabul qilingan kunning 24 yilligiga bag'ishlangan anjumandagi ma'ruzada aniq ko'rsatilgan. Bu g'oya - *yosh avlodning huquq va manfaatlarini himoyalash, ularning zamonaviy bilim va kasbga ega bo'lishini, bugungi o'ta murakkab va tahlikali zamonda mavjud bo'lgan har qanday xatarlarga, zararli ta'sir va oqimlarga nisbatan ogoh, sezgir va hushyor bo'lib yashashini, jamiyatimiz hayotida munosib o'rin egallashini ta'minlashdan iboratdir*. Bunday ezgu niyat va harakatlarning negizida ayni bizning xalqimizga mansub bo'lgan kelajak avlod haqida qayg'urish, jismonan sog'lom va ma'nан barkamol avlodni tarbiyalashga intilib yashash xususiyati, shu bilan birga, mustaqillik yillarda yoshlарimizga munosib shart-sharoitlar yaratish yo'lida qilinayotgan barcha ishlар o'z ifodasini topgan.

Demak, bu borada ota-onalar, murabbiylar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, huquqni muhofaza qilish organlari o'zaro hamkorligini tashkil etishdan ko'zlangan maqsad:

- jismonan sog'lom va ma'naviy yuksak va har tomonlama yetuk barkamol avlodni tarbiyalashda ota-onalar, murabbiylar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, huquqni muhofaza qilish organlari o'rtasidagi samarali, tizimli hamkorlikni yo'lga qo'yish;

- ota-onalar, murabbiylar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, huquqni muhofaza qilish organlari hamkorligida farzandlar tarbiyasini takomillashtirishga oid usullar va tajribalarni ommalashtirish;

- talaba va yoshlarda huquqbazarlikning oldini olish, huquqiy madaniyatni takomillashtirish, yoshlarning ongi, tafakkuriga tahdid soluvchi yot g'oyalarga qarshi immunitetni shakllantirishda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, huquqni muhofaza qilish organlarining hayotiy tajribalari va imkoniyatlaridan unumli foylalanish;

- ota-onalar, murabbiylar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, huquqni muhofaza qilish organlari hamkorligini muvofiqlashtirish orqali ta'lim-tarbiya samaradorligi ta'minlash lozim bo'ladi.

Qolaversa, ota-onalar, murabbiylar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, huquqni muhofaza qilish organlari o'zaro hamkorligini tashkil etishda tomonlarning asosiy vazifalari:

### **1. Ota-onalarning vazifalari:**

- talaba bo'lgan farzandlariga OTMdagi samarali ta'lrim-tarbiya olishlari uchun oilada zarur shart-sharoitlarni yaratish;
- ta'lrim muassasasi va mahallada O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonunning ijrosiga oid ma'naviy-ma'rifiy tadbirdorda oilaning vakili faol ishtirok etishi;
- farzandi xulqi-odobi, ta'lrim muassasasidagi o'quv fanlari materialllarini o'zlashtirishi holati haqidagi ma'lumotga muntazam ega bo'lib borish;
- farzandining o'quv amaliyotidagi faoliyati va yosh mutaxasisi sifatida ish joylariga yetib borishlarini ta'minlash bo'yicha OTM ma'muriyat bilan hamkorlik qilish;
- OTMdagi tashkil etilgan "Ota-onalar Kengashi", "Ochiq eshiklar kuni", mahallada tashkil etilgan "Ota-onalar universiteti"ning yoshlar masalasiga bag'ishlangan ma'naviy-ma'rifiy tadbirdarida qatnashish;
- talabalarning qobiliyati va iqtidorini yanada takomillashtirishga shart-sharoitlar yaratish xususida OTM ma'muriyatiga takliflar, tavsiflar, tavsiyalar berish;
- farzandining xulqi-odobiyu, yurish-turishlarida g'ayri tabiiy holatlardan kuzatilganda mahalla faollari va OTM ma'muriyatini xabardor qiladi.

### **2. Murabbiylarning vazifalari:**

- o'z akadem guruhidagi talabalarning ota-onalari va ular istiqomat qiladigan mahallalar bilan o'zaro hamkorlik aloqalarini o'rnatish;
- hamkorlik ishlarini tashkil etishda jamoat tashkilotlari, jumladan "Ota-onalar Kengashi", mahallalar faoliyatidan unumli foydalanish;
- zarur holatlarda mahallalarga, ota-onalarga (oila) talabalarning ta'lrim muassasasidagi faoliyati haqidagi ma'lumotlarni berib borish;
- Akadem guruh talabalarini bilan birgalikda mahallalarda muassasalarda o'zlikni anglash, milliy va umumbashariy qadriyatlarini takomillashtirishda zarur bo'lgan takomillashtirishda zarur bo'lgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirdarini tashkil etish;
- Reja asosida guruh talabalarini mahalladagi obodonlashtirish, ko'kalamzorlashtirish ishlarida, ommaviy hasharlarga jalg etish;
- huquqbazarlikni oldini olish va huquqiy madaniyatni takomillashtirish bo'yicha soha mutaxassislari ishtirokida guruhda targ'ibot-tashviqot ishlarini tashkil etish;

– oilalarda sog'lom turmush tarzini takomillashtirish, mahallalarda jismoniy madaniyatga va sportni rivojlantirishga oid tadbirlar tashkil etish va hk.

### **3. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, mahallalarning vazifalari:**

– mahalla hududida joylashgan OTM va mahalla o'rtasida ikki tomonlama hamkorlik aloqalarini o'rnatish;

– mahalla qoshida tashkil etilgan "Ota-onalar universiteti" faoliyatini OTM bilan hamkorlik masalalari bilan uyg'unlashtirish;

– OTMga yaqin hududlarda jamoat tartibini saqlash, obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlarida ta'lim muassasasiga amaliy yordam berish;

– qonunchilik talablaridan kelib chiqib ta'lim muassasasi va unga yaqin hududlarda alkogolli va tamaki mahsulotlarini sotilishini ta'qiqlash bo'yicha jamoatchilik nazoratini o'rnatish;

– milliy va umumbashariy qadriyatlarni targ'ib etishga qaratilgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish hamda o'tkazishda OTM ma'muriyati bilan hamkorlik qilish;

– talaba-yoshlar mustaqil hayotga tayyorlash, ularda xalqimiz va davlatimiz ravnaqiga daxldorlik fazilatlarini shakllantirishga mo'ljallangan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etish;

– OTM va oilalar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik aloqalarini kuchaytirish chora-tadbirlarini amalga oshirish.

### **4. Huquqni muhofaza qilish organlarining vazifalari:**

– OTM, oila va mahallalar bilan hamkorlik aloqalarini o'rnatish;

– muayyan reja asosida OTMga huquqbazarliklar hamda jamiyatga qarshi boshqa xatti-harakatlarning oldini olish borasida ko'maklashish;

– OTMlarda fuqarolarning shaxsiy xavfsizligi, huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlashga suhbatlar tashkil etish;

– O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjalardida belgilangan doiralarda OTMlarga ularning qonuniy huquqlari va manfaatlarini amalga oshirishda yordam ko'rsatish;

– OTMlar tashkil etiladigan ommaviy tadbirlarda jamoat tartibi muhofaza qilinishi va xavfsizlik ta'minlanishida ko'mak berish;

– OTM va huquqni muhofaza qilish organlari o'rtasidagi o'zaro hamkorlik aloqalarini kuchaytirish chora-tadbirlarini amalga oshirish.

**3-masalaning bayoni:** Ma'lumki, tarbiya tushunchasi o'sib kelayotgan avlodda hosil qilingan bilimlar asosida aqliy kamolot, dunyoqarashni, insoniy e'tiqod, burch va mas'uliyatni, jamiyatimiz

kishilariga hos bo'lgan ahloqiy fazilatlarni yaratishdagi maqsadni ifodalaydi. Shu ma'noda tarbiya deb tarbiyachi o'zi xohlagan sifatlarni tarbiyalanuvchilar ongiga singdirish uchun ularning ruhiyatiga ma'lum maqsadga ko'ra tizimli ta'sir ko'rsatishiga aytildi. Tarbiya bola tug'ilganidan boshlab umrining oxirigacha davom etadigan jarayondir.

Tarbiya yuksak ma'naviy, jismoniy barkamollik, yaxshining yomondan farqini anglash, yuksak insoniy fazilatlarini shakllantirish qudratiga egadir. Tarbiya kishilik jamiyatining hamma bosqichlarida rivojlanib, o'sib, avloddan-avlodga vorislik vazifasini bajaradigan hodisa. Lekin har bir jamiyatda tarbiyaning maqsadi, vazifasi, mazmuni o'ziga xosligi bilan farq qiladi.

Har qanday izlanuvchan, ijodkor o'qituvchi samarali ishlashi uchun ilmu fan yantuqlari va ilg'or ish tajribalaridan foydalanishi, o'quv mashg'uloti jarayonida o'quvchi-talabalarni mustaqil fikrlash va erkin fikr ifodalash metodlari, usul va vositalari bilan tanishtirib borishi nihoyatda zarur.

O'quv jarayonini interfaol metodlarga asosida tashkil etish talimni takomillashtirishning muhim yo'nalishidir.

Interfaol metodlar o'quv faoliyatida ko'p qirrali obyekt bo'lib, uni tadkiq etish nihoyatda murakkab. Bunday tayyorgarlik mutaxassisning umumiyligi va maxsus tayyorgarligining ma'lum bir darajasiga erishishni, zarur kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantrishni talab etadi. Bu esa interfaol metodlar asosida ishlashga qiziqadigan, uni amalga oshirishga intiluvchan, ijodiy ishlaydigan shaxsni tarbiyalashni taqozo etadi. Bunda kasbni dildan sevish va unga oid motivlarning mavjudligidagina interfaol metodlar asosida ishlaydigan pedagog shaxsi shakllanishi mumkin.

Dars jarayonida interfaol metodlardan foydalanish o'qituvchidan katta mahoratni talab qiladi. Yana shu narsani ham ta'kidlash joizki, interfaol metodlar qo'llanilganda turli jihozlar, axborot kommunikatsiya vositalaridan foydalaniladi. Interfaol metodlar qo'llanilganda o'quvchilarning tartib-intizomi, o'zlarini tutishi, xulqi aniq qoidalarga amal qilgan holda nazorat etilishi foydali bo'ladi.

O'z ustida tinimsiz ishlaydigan, tabdirli, izlanuvchan bugungi kun o'qituvchisi nafaqat sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarda, balki, dars jarayonlarida ham oila, mahalla va ta'lim muassasalari hamkorligiga erishishi mumkin. Bunda o'qituvchi o'zining ochiq dars mashg'ulotlariga maktabdagagi o'qituvchilar bilan bir qatorda ota-onalarni ham taklif etgan holda dars jarayonlarini tashkil etadi.

Albatta bu ancha vaqt, katta sinf xonasi va alohida tayyorgarlikni talab etadi. Biroq yilda 1 marta bo'lsa ham mana shunday o'qituvchilar va ota-onalar taklif etilgan ochiq dars mashg'ulotlari tashkil etilsa, bu o'zining ijobiy samarasini berishi shubhasiz.

Bu kabi ochiq dars mashg'ulotlarida "Bahs-munozara", "Pedagogik kuzatish", "Suhbat", "Anketa", "Intervyu" kabi interfaol metodlarni qo'llash tavsiya etiladi.

Bu metodlarni tavsiya etishning o'ziga xos sabablari bor albatta. Bu metodlar qo'llanilganda o'qituvchi boshqa interfaol metodlarga qaraganda vaqtini tejash imkoniyatiga ega bo'ladi. Chunki o'qituvchi bir vaqtning o'zida barcha o'quvchilarni mavzuga jalb eta oladi, ikkinchidan "Binar ma'ruza"larni (ya'ni ikki kishidan iborat ma'rutzachi) tashkil eta oladi, yana mahalla faollari ham darsda ma'ruza bilan ishtirok etish imkoniyatlari paydo bo'ladi, uchinchidan, o'quvchi yoki talabalarni baholay oladi.

Jumladan, "Bahs-munozara" metodini qo'llash jarayonida ham yuqoridaq qulayliklarga erishiladi.

**"Bahs- munozara" metodi.** Bu metod o'quvchilarni ikki guruhga bo'lgan holda, biror mavzu bo'yicha o'zaro bahs, fikr almashinuv tarzida o'tkaziladigan interfaol metoddir. Bu metoddan foydalilanilganda o'qituvchi ziyrak turishi, har bir o'quvchining fikrini e'tibordan chetda qoldirmasligi, tuzatib, to'ldirib, to'g'ri yo'naltirib borishi zarur.

Bahs-munozaraning bosh mavzusiga aylangan savolni darsga kuzatuvchi sifatida taklif etilgan o'qituvchilar guruhi va ota-onalar guruhiga tavsiya etish mumkin.

Bunday dars juda qiziqarli chiqadi. Chunki, bir tomondan o'quvchilar, bir tomondan ota-onalar, bir tomondan o'qituvchilar jamoasining javoblari biri birini to'ldirish, fikrlarni qiyoslash, to'g'ri xulosa chiqarish imkonini beradi.

Har qanday mavzu va muammolar mavjud bilimlar va tajribalar asosida muhokama qilinishi nazarda tutilgan holda ushbu metod qo'llaniladi.

Bahs-munozarani boshqarib borish vazifasini o'qituvchilarning bajargani ma'qul bo'ladi. Bahs-munozarani erkin holatda olib borish va har bir o'quvchi yoki talabani munozaraga jalb etishga harakat qilish lozim. Ushbu metod qo'llanilganda o'quvchilar orasida paydo bo'ladigan nizolarni darhol bartaraf etish o'qituvchining zimmasidagi vazifa hisoblanadi.

Bahs-munozara metodining afzalliklari:

- o'quvchilarni mustaqil fikrplashga undaydi;

- o'quvchilar o'z fikrining to'g'riliгини isbotlashга harakat qilадилар;
- o'zgalarни fikrini to'g'ri baholashга о'рганади;
- o'quvchilarda eshitish qobiliyatining rivojlanishiga yordam berди.

Bahs-munozara metodining kamchiliklari: o'qituvchidan ziyraklik bilan boshqarish mahoratini talab etadi; o'quvchi yoki talabalarning bilim darajasiga mos va qiziqarli bo'lgan mavzu tanlash talab etiladi.

Ta'lim jarayonini interfaol metodlar asosida tashkil etish shaxsni pedagogik faoliyatga erkin kirishuvi, o'quvchi yoki talabalar bilan tez til topa bilishi, izlanishi, faoliyatga ijodiy yondashishiga yordam beradi.

**"Pedagogik kuzatish" metodi.** Uni qollash jarayonida ta'lim muassasalarining o'quv-tarbiya ishlari jarayonini o'rganish asosida tadqiq etilayotgan muammo holat aniqlanadi, tajriba- avvali va yakunida qo'lga kiritilgan ko'rsatkichlar o'rtasidagi farq to'g'risidagi Ma'lumotga ega bo'linadi. Pedagogik kuzatish murakkab va o'ziga xos xususiyatlarga ega. Kuzatish aniq maqsad asosida, uzlusiz, izchil va tizimli amalga oshirilsa, kutilgan natijani qo'lga kiritish mumkin. Olib borilayotgan pedagogik kuzatish ta'lim-tarbya sifatini oshirish, o'quvchi shaxsini shakllantirishga xizmat qilsa, mazkur metodning ahamiyati yanada oshadi.

Pedagogik kuzatuvni tashkil etishda xatoga yo'l qo'ymaslik muhimdir. Buning uchun tadqiqotchidan quyidagilar talab etiladi:

- 1) kuzatuv jarayonida aniq maqsadga egalik;
- 2) kuzatishni tizimli ravishda yo'lga qo'yish;
- 3) kuzatishning har bir bosqichida muayyan vazifalarni hal etish;
- 4) har bir holatning mohiyatini sinchiklab o'rganish;
- 5) xulosa chiharishga shoshilmaslik.

Ayniqsa darsga ota-onalar taklif etilganda o'qituvchi "Pedagogik kuzatish" metodidan unumli foydalanishi maqsadga muvofiq.

**"Suhbat" metodi.** Bu metod pedagogik kuzatish jarayonida ega bo'lingan Ma'lumotlarni boyitish, mavjud holatga to'g'ri baho berish, muammoning yechimini topishga imkon beruvchi pedagogik shart-sharoitlarni yaratish, tajriba-sinov ishlari subhektlari imkoniyatlarini muammo yechimiga jalg etishga yordam beradi. Suhbat maqsadga muvofiq holda indiviudal, guruhli hamda ommaviy shaklda o'tkaziladi. Suhbat jarayonida respondentlarning imkoniyatlari to'la-to'kis namoyon bilishga erishish muhimdir. Uning samarali bo'lishi uchun quyidagilarga amal qilish maqsadga muvoiq:

1) maqsaddan kelib chiqqan holda suhbat uchun belgilanuvchi savollarning mazmuni aniqlash hamda savollar o'rtasidagi mantiqiylik va izchillikni tahminlash;

- 2) suhbat joyi va vaqtini aniq belgilash;
- 3) suhbat ishtirokchilarining soni xususida Ma'lum to'xtamga kelish;
- 4) suhbatdosh to'g'risida avvaldan muayyan Ma'lumotlarga ega bo'lish;
- 5) suhbatdosh bilan samimiy munosabatda bo'lish;
- 6) suhbatdoshning o'z fikrlarini erkin va batatsil ayta olishi uchun sharoit yaratish;
- 7) savollarning aniq, qisqa va ravshan berilishiga erishish;
- 8) olingan Ma'lumotlarni o'z vaqtida tahlil qilish.

"Anketa" metodi (fransuzcha – tekshirish). Ushbu metod yordamida pedagogik kuzatish va suhbat jarayonida to'plangan dalillar boyitiladi. Anketa metodi ham tizimlangan savollar asosida respondentlar bilan muloqotni tashkil etishga asoslanadi. Anketa savollariga javoblar, ko'p hollarda, yozma ravishda olinadi. O'rganilayotgan jarayon mohiyatidan kelib chiqqan holda anketa savollari quyidagicha bo'ladi:

- 1) ochiq turdag'i savollar (respondentlarning erkin, bafsil javob berishlari uchun imkon beruvchi savollar);
- 2) yopiq turdag'i savollar (respondentlar "ha", "yo'q", "qisman" yoki "ijobiy", "qoniqarli", "salbiy" va hokazo tarzdagi javob variantlarini tanlash orqali savollarga javob beradilar).

Anketa metodini qo'llashda ham bir qator shartlarga amal qilish zarur. Ular quyidagilardir:

- 1) anketa savollari tadqiq etilayotgan muammoning mohiyatini yoritishga xizmat qilishi lozim;
- 2) anketa savollari yirik hajmli va noaniq bo'lmasligi kerak;
- 3) anketa savollari o'quvchilarning dunyoharshi, yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olish asosida tuzilishi zarur;
- 4) anketa savollari respondentlar tomonidan to'la javoblar berilishini tahminlovchi vaqtini kafolatlay olishi zarur;
- 5) anketa o'quvchilarning pedagogik va psixologik tavsifnomalarini tuzish manbaiga aylantirib yuborilmasligi zarur;
- 6) anketa javoblari muayyan mezonlar asosida puxta tahlil etilishi shart.

Shuningdek, bu kabi darslarda "Intervyu" metodini qo'llash ham ijobiy natija beradi. Mazkur metod respondent tomonidan tadqiq etilayotgan muammoning u yoki bu jihatini yorituvchi hodisaga nisbatan munosabat bildirilishini ta'minlaydi. Intervyu respondent e'tiboriga turkum savollarni havola etish asosida o'tkaziladi. Intervyu jarayonida olingan savollarga nisbatan tadqiqotchi tomonidan munosabat bildirilishi uning samarasini oshiradi.

Yosh avlodni vatanparvarlik, el-yurtga sadoqat,yuksak odamiylik va insoniy fazilatlar ruhida va jahonning umumbashariy yutuqlarini egallashga intiluvchan avlod qilib tarbiyalashda bir tomonidan oila, mahalla va ta'lrim muassasalarining samarali hamkorligi, ikkinchi zamon talablari darajasida kreativ yondashuv asosida tashkil etilgan darslarning o'ziga xos ahamiyati bor. Bu omillarning o'rnini boshqa biror omil to'ldira olmaydi.

### **MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR:**

1. Yoshlarni har tomonlama ma'naviy yetuk barkamol shaxs sifatida tarbiyalashda qaysi institutsional tizimlar bevosita birdek mas'uldirlar?
2. Yoshlarda sog'lom dunyoqarash, jumladan, kitobxonlik ko'nikmasini shakllantirishga oid vazifalar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaysi qarorida o'z ifodasini topgan?
3. Ota-onalar, murabbiylar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, huquqni muhofaza qilish organlari o'zaro hamkorligini tashkil etishdan qanday maqsadlar ko'zlangan?
4. Ota-onalar, murabbiylar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, huquqni muhofaza qilish organlari o'zaro hamkorligini tashkil etishda ota-onalarning qanday vazifalari bor?
5. Ota-onalar, murabbiylar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, huquqni muhofaza qilish organlari o'zaro hamkorligini tashkil etishda murabbiylarning qanday vazifalari bor?
6. Ota-onalar, murabbiylar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, huquqni muhofaza qilish organlari o'zaro hamkorligini tashkil etishda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari – mahallalarning vazifalari qanday?
7. Ota-onalar, murabbiylar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, huquqni muhofaza qilish organlari o'zaro hamkorligini tashkil etishda huquqni muhofaza qilish organlarining qanday vazifalari bor?
8. O'sib kelayotgan yosh avlodni milliy g'oya ruhida tarbiyalashda oila, mahalla va ta'lrim muassasalari hamkorligidan foydalanishning pedagogik omillariga misollar keltiring...

### **MAVZUGA OID ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. -T.: "O'zbekiston" 2020 yil, 63-modda.
4. Mirziyoyev Sh.M. "Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi" mavzusidagi

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bagishlangan tantanali marosimdag'i ma'ruzasi. Xalq so'zi. 2016-yil 8-dekabr, 243-sont.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 28-iyuldag'i "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida"gi PQ-3160-sont Qarori// O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 6-son, 70-modda.

6. Иномова М.О. Оиласда болаларни маънавий-ахлоқий тарбиялашда миллий қадриятлардан фойдаланишнинг педагогик асослари (мустақил ҳаёт бўсағасидаги ёшлар): П.ф.докт. илмий дараж. олиш учун дисс. -Т.: 1998 йил.

7. Milliy g'oya: targ'ibot texnologiyalari va atamalar lug'ati (Mas'ul muharrir I.Ergashev). -T.: Akademiya, 2007 yil.

8. Нажмидинова К. Оила тарбиясида миллий ва умуминсоний ахлоқий маданиятнинг ўрни. -Т.: Адолат, 2016 йил.

9. Tohiriyon A., Sobirova M., Zamonov Z. Milliy g'oya turkumiga kiruvchi fanlarni o'qitishda interfaol ta'lif metodlaridan foydalanish bo'yicha uslubiy tavsiyalar. -T.: RTM, 2017 yil.

#### ELEKTRON TA'LIM RESURSLARI:

1. <http://www.lex.uz/>
2. <http://www.gov.uz/>
3. <http://www.aza.uz/>
4. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
5. [www.edu.uz](http://www.edu.uz)
6. <http://www.uzedu.uz/>
7. [www.ma'naviyat.uz](http://www.ma'naviyat.uz)
8. [www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)

## 15-MAVZU:

### MILLIY G'OYA VA MA'NAVİYATGA OID FANLAR ORQALI YOSHLARNING İJTİMOİY-SİYOSİY FAOLLIGINI OSHIRISH

#### REJA:

1. O'zbekistonda ta'lif tizimiga o'ziga xos yondashuv va milliy g'oya.
2. Mamlakatimizda yuksak intellektual salohiyatlari kadrlar tayyorlash siyosatining ustuvor yo'nalishlari.
3. Milliy g'oya va ma'naviyatga doir fanlar orqali yoshlarda ijtimoiy-siyosiy faoliyikni tarbiyalash istiqbollari.

#### *Tayanch tushunchcha va iboralar:*

"Ta'lif to'g'risida"gi Qonuni, "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi", O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosati, ta'lif sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari, yoshlarining huquq va manfaatlari, yoshlarning vatanparvarlik tuyg'usi, kadrlar tayyorlash milliy modeli, uzlusiz ta'lifni isloh qilish, yoshlarning ijtimoiy faolligi, uzviylik va uzlusizlik, ijtimoiy siyosat, ma'naviy-axloqiy rivojlanish.

**1-masalaning bayoni:** Mustaqil O'zbekistonning Birinchi Prezidenti I.A.Karimov umumta'lif maktablari yoshlarining ma'naviyat va ma'rifat egasi qilib tarbiyalashdagi hissasini e'tiborga olib: "...jamiat taraqqiyotining asosi, uni muqarrar halokatdan qutqarib qoladigan yagona kuch-ma'rifikatdir. ... Aql-zakovatli yuksak ma'naviyatlari kishilarni tarbiyalay olsakkina, oldimizga qo'yilgan maqsadlarga erisha olamiz, yurtimizda farovonlik va taraqqiyot qaror topadi",<sup>117</sup> deya ta'kidlagan edi.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti tashabbusi bilan kadrlar tayyorlashni mustahkamlash, ta'lif tizimini tizimini tubdan isloh qilish yo'llari ishlab chiqilgan edi. 1997-yil 29-avgustda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 9-sessiyasida O'zbekiston Respublikasining "Ta'lif to'g'risida"gi Qonuni va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" qabul qilindi. Uning 1-moddasidayoq "Ushbu Qonun fuqarolarga ta'lif, tarbiya berish, kasb-hunar o'rgatishning huquqiy asoslarini belgilaydi hamda har kimning bilim olishdan iborat konstitusiyaviy huquqini ta'minlashga qaratilgan"ligi alohida belgilab qo'yildi<sup>118</sup>.

<sup>117</sup> Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. -Т.: Ўзбекистон, 1998, 7-бет.

<sup>118</sup> O'zbekiston Respublikasining Ta'lif to'g'risidagi Qonuni// O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997-y., 9-son, 1-modda.

“Ta’lim to‘g’risida”gi Qonunda Umumiy ta’lim uzlusiz davlat ta’limi tizimida asosiy bo‘g’in bo‘lib, ta’lim oluvchilar ilmiy bilim, mehnat va boshlang’ich kasbkor ko’nikmalari, ishbilarmonlik asoslarini egallahsharini, shuningdek, o‘z ijodiy qobiliyatlarini, ma’naviy fazilatlarini rivojlantarishlarini ta’minalashi qayd etib o’tilgan<sup>119</sup>.

“Ta’lim to‘g’risida”gi Qonunda Umumiy ta’lim uzlusiz davlat ta’limi tizimida asosiy bo‘g’in bo‘lib, ta’lim oluvchilar ilmiy bilim, mehnat va boshlang’ich kasbkor ko’nikmalari, ishbilarmonlik asoslarini egallahsharini, shuningdek, o‘z ijodiy qibiliyatlarini, ma’naviy fazilatlarini rivojlantarishlarini ta’minalashi qayd etib o’tilgan.

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” esa O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g’risida”gi Qonuni qoidalariga muvofiq, milliy tajribaning tahlili va ta’lim tizimidagi jahon miqyosidagi yutuqlar asosida tayyorlangan hamda yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faoliyka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo’ljalni to‘g’ri ola bilish mahoratiga ega bo‘lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo’naltirilgandir<sup>120</sup>.

O’zbekiston Respublikasining 2020 yilda qabul qilingan “Ta’lim to‘g’risida”gi Qonuni(yangi tahriri) ham ta’lim sohasidagi munosabatlarni tartibga solishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Mazkur qoninda ta’lim sohasidagi asosiy prinsiplar quyidagilardan iborat deb alohida mustahkamlab qo‘yilgan:

ta’lim ustuvorligining tan olinishi;

ta’lim olish shaklini tanlash erkinligi;

ta’lim sohasida kamsitishlarga yo‘l qo‘yilmasligi;

ta’lim olishga doir teng imkoniyatlarning ta’minlanishi;

ta’lim va tarbiyaga milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarning singdirilganligi;

ta’lim va tarbiyaning insonparvarlik, demokratik xususiyati;

ta’limning uzlusizligi va izchilligi;

o‘n bir yillik ta’limning hamda olti yoshdan yetti yoshgacha bo‘lgan bolalarni bir yil davomida umumiy o‘rta ta’limga tayyorlashning majburiyiligi;

davlat ta’lim standartlari va davlat ta’lim talablari doirasida ta’lim olishning hamma uchun ochiqligi;

<sup>119</sup> O’zbekiston Respublikasining Ta’lim to‘g’risidagi Qonuni// O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997-y., 9-son, 3-modda.

<sup>120</sup> Kadrlar tayyorlash milliy dasturi //Oliy ta’lim: me’yoriy hujjatlar to’plami. –T.: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati. 2001, 20-bet.

o'quv dasturlarini tanlashga doir yondashuvning yagonaligi va tabaqlashtirilganligi;

insonning butun hayoti davomida ta'lif olishi;

jamiyatda pedagoglarni ijtimoiy himoya qilishning kafolatlanganligi;

ta'lif tizimining dunyoviy xususiyatga egaligi;

bilimlilik, qobiliyatlilik va iste'dodning rag'batlantirilishi;

ta'lif tizimida davlat va jamoat boshqaruvining uyg'unligi;

ta'lif faoliyati sohasidagi ochiqlik va shaffoflik.

Shuningdek, ushbu qonunda ta'lif va tarbiyaga oid quyidagi muhim tushunchalar sharxiga ham alohida e'tibor qaratilgan:

tarbiya – aniq maqsadli hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama kamol toptirishga, ularning ongini, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar va dunyoqarashini shakllantirishga qaratilgan tizimli jarayon;

ta'lif – ta'lif oluvchilarga chuqur nazariy bilim, malakalar va amaliy ko'nikmalar berishga, shuningdek ularning umumta'lif va kasbiy bilim, malaka hamda ko'nikmalarini shakllantirishga, qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan tizimli jarayon;

ta'lif kampusi – yagona hududda birlashtirilgan o'quv binolarini, ilmiy-tadqiqot institutlarini (markazlarini), ishlab chiqarish majmualari va texnoparklarni, ta'lif-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining vaqtincha yashash joylarini, laboratoriyalarni, axborot-resurs markazlarini (kutubxonalarini), sport inshootlarini, umumiyoq ovqatlanish obyektlarini o'z ichiga olgan binolar hamda inshootlar majmuidan iborat bo'lgan, o'quv jarayoni, ma'naviy-axloqiy tarbiyaning yuqori samaradorligini ta'minlaydigan ta'lif-tarbiya muhiti;

ta'lif-tarbiya jarayoni ishtirokchilari – ta'lif oluvchilar, voyaga yetmagan ta'lif oluvchilarning ota-onalari yoki boshqa qonuniy vakillari, pedagog xodimlar va ularning vakillari;

ta'lif tashkilotlari attestatsiyasi – ta'lif tashkilotlarining faoliyatini baholash, davlat ta'lif standartlari, davlat ta'lif talablari hamda o'quv dasturlariga muvofiq kadrlar tayyorlash mazmuni, darajasi va sifatini aniqlash bo'yicha davlat nazoratining asosiy shakli.<sup>121</sup>

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yildagi "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi Farmoni<sup>122</sup>ning e'lon qilinishi ham yoshlarni birlashtiruvchi, yuksak ezgu maqsadlar sari safarbar

<sup>121</sup> O'zbekiston Respublikasining Ta'lif to'g'risidagi Qonuni// Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020-y., 03/20/637/1313-son.

<sup>122</sup> Qarang: O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi: [www.lex.uz](http://www.lex.uz).

etuvchi ittifoqning jamiyatdagi o'rnini oshirishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

O'zbekiston Yoshlar ittifoqi yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzi va oila muqaddasligi g'oyalarini keng targ'ib qilish, erta turmush qurish va yosh oilalar ajralishining oldini olishga qaratilgan samarali tadbirlarni amalga oshirish, yoshlarni, ayniqsa, ular uyushmagan qismining bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish maqsadida sport va jismoniy tarbiya bilan shug'ullanishga, ijodiy to'garaklar, jumladan, xorijiy tillarni o'rgatish o'quv kurslariga keng jalb etishda faoliyotga ko'rsatishi belgilandi<sup>123</sup>. Bu jihatlar O'zbekistonda olib borilayotgan ijtimoiy siyosat natijasida yoshlarning hayotiy qadriyatlari, axloqi va ijtimoiy kayfiyati dinamikasida yangicha tamoyillar shakllanayotganidan darak beradi.

Yoshlarning vatanparvarlik tuyg'usini, huquqiy demokratik jamiyat barpo etish borasidagi tasavvurini yanada mustahkamlash, rivojlantirish, dunyoviy, ilmiy, axloqiy saviyasini oshirishga oid tadbirlarning o'tkazilishiga bugungi kunda nafaqat umuta'lim muassasalarida, balki barcha akademik litsey va kasb-hunar kollejlari, oliv o'quv yurtlarida ham alohida ahamiyat beriladi. Zero, bugun kamol topayotgan o'g'il-qizlarning ma'nан yetuk, axloqan pok ulg'ayishlari ayni masalaga ham bog'liq.

Bundan tashqari, yoshlarning bo'sh vaqtlarini unumli va qiziqarli o'tkazish maqsadida barcha o'quv yurtlarida fan va kasb-hunar to'garaklarining faoliyati yo'lga qo'yilgan bo'lib, unda o'quvchi yoshlar o'z bilimlarini oshirish bilan birga, zarur kasb-hunarga ham ega bo'lmoqdalar. Bu ishlarning zamirida o'ziga xos ma'no bor.

Har bir tarbiya, jumladan, ma'naviy-axloqiy tarbiya asosini milliy mafkura tashkil etadi. Milliy istiqlol g'oyalarini o'quvchi yoshlar ongiga singdirishga qaratilgan o'quv, ilmiy-uslubiy va tarbiyaviy ishlarning samaradorligini ta'minlash va yanada takomillashtirish maqsadida 2001-yil 18-yanvarda "Milliy istiqlol g'oyasi: asossiy tushuncha va tamoyillar" fani bo'yicha ta'lim dasturlarini yaratish va respublika ta'lim tizimiga joriy etish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoyishi e'lon qilingan edi. Bu milliy istiqlol mafkurasini shakllantirishning nazariy, amaliy va tarbiyaviy ahamiyatini yana bir bor ko'rsatdi. Zero, ma'naviy yetuk insonlargina barkamol jamiyatni qurishi mumkin.

Qolaversa, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-avgustdagи xalq ta'limi tizimini rivojlantirish, pedagoglarning malakasi va jamiyatdagi nufuzini oshirish, yosh avlod ma'naviyatini yuksaltirish

<sup>123</sup> Fidoying bo'lgaymiz seni, O'zbekiston! [Matn]: Mualliflar jamoasi. O'quv qo'llanma/ Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi. -T.: Ma'naviyat, 2017, 68-bet.

masalalariga bag'ishlangan yig'ilishdagi topshirig'i ijrosini ta'minlash hamda "O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy g'oyani rivojlantirish Konsepsiyasi"ni hayotga tatbiq etish maqsadida Vazirlar mahkamasining Umumiy o'rta ta'lif muassasalari 1-11-sinflariga. Tarbiya fanidan darslik va o'quv-metodik majmualarni yaratish bo'yicha tuzuvchilar guruhi tasdiqlandi. Ishchi guruhga pedagog, tarixchi, dinshunos, psixolog olimlar, tajribali maktab o'qituvchilari jalb qilindi.

Tarbiya fani Konsepsiyasi, davlat ta'lif standarti, dasturlar ishlandi, darslik yozishga kirishildi. Konsepsiya mamlakat kelajagi bo'lmish yoshlarni ma'nani va jismonan barkamol qilib tarbiyalash, faol fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirish maqsadida umumiy o'rta ta'lif maktablarida o'qitilayotgan "Odobnoma", "Vatan tuyg'usi", "Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari", "Ma'naviyat asoslari", "Dunyo dinlari tarixi" fanlarini birlashtirgan yagona Tarbiya fanining asosiy yo'nalishlarini belgilab beradi<sup>124</sup>.

Tarbiya fanining bosh maqsadi – o'zida go'zal insoniy fazilatlarni mujassam etgan, ma'nani yetuk, bilimli, jismonan baquvvat, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega, o'z nuqtai nazarini himoya qila oladigan, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni xulq-atvorida uyg'unlashtirgan zamonaviy, barkamol avlodni tarbiyalashdan iborat.

Aynan Tarbiya fanini uzluksiz ta'lif tizimiga bochqichma-bosqich amalga oshirishdan ko'zlangan maqsad ham umumiy o'rta ta'lif muassasalari o'quvchilarining yoshi va psixofiziologik xususiyatlarini inobatga olgan holda ularning ongiga umuminsoniy qadriyatlar va yuksak ma'naviyatni yanada chuqur singdirish, ularni vatanparvarlik va insonparvarlik ruhida tarbiyalash, umumiy o'rta ta'lif muassasalaridagi ma'naviy-tarbiyaviy ishlarni yangicha asosda tashkil etish nazarga utiladi.

Xulosa qilib aytganda, har tomonlama yetuk, barkamol, ruhan va jismonan sog'lom avlodni shakllantirish kelajakka to'laligicha zamin hozirlash demakdir. Tabiiyki, bu boradagi vazifalarni amalga oshirish birinchi galda ma'naviyat masalasiga yuksak e'tibor qaratish bilan chambarchas bog'liqidir.

Inson tabiatdagi barcha mavjudotlarning sarvari hisoblanadi. Chunki jamiki mavjudotlardan farqli o'laroq inson ong va tafakkur sohibi, aql-idrok egasi. Bir so'z bilan aytganda, insonni jamiki boshqa jonzotlardan ajratib turuvchi xislat – bu uning ma'naviyatidir. Yuksak ma'naviyat egasi bo'la olish imkoniyati faqat insongagina in'om etilgan.

<sup>124</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-iyuldag'i "Umumiy o'rta ta'lif muassasalarida "Tarbiya" fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to'grisida"gi 422-soni Qarori. Manba: [www.lex.uz](http://www.lex.uz).

**2-masalaning bayoni:** Mamlakatimizda mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab yuksak intellektual salohiyatli kadrler tayyorlash siyosati olib borilmoqda. Xususan, 1991-yil 20-noyabrda davlat xalq manfaatlarini ko'zlab, "O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida"gi Qonunga asoslanib, respublika yoshlarning ijtimoiy hamda ma'naviy kamol topishi uchun shart-sharoit yaratib berish maqsadida 4 ta bo'lim, 21 ta moddadan iborat bo'lgan "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida"gi Qonun qabul qilingan edi.

Mazkur qonunning 1-moddasidayoq qonunning mazmun va mohiyati to'laligicha o'z ifodasini topgan: "Yoshlarga oid siyosat O'zbekiston Respublikasi davlat faoliyatining ustivor yo'nalishi bo'lib, uning maqsadi yoshlarning ijtimoiy shakllanishi va kamol topishi, ijodiy iqtidori jamiyat manfaatlari yo'lida imkonli boricha to'la-to'kis ro'yobga chiqishi uchun ijtimoiy iqtisodiy, huquqiy, tashkiliy jihatdan shart-sharoit yaratish hamda ularni kafolatlashdan iboratdir.

O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosati quyidagi qoidalarga asoslanadi:

- millati, irqi, tili, dini, ijtimoiy mavqeい, jinsi, ma'lumoti va siyosiy e'tiqodidan qat'i nazar yoshlar to'g'risida hamxo'rlik qilish;
- yoshlarni huquqiy va ijtimoiy jihatdan himoya qilish;
- milliy, madaniy an'analarning avloddan avlodga o'tishi, avlodlarning ma'naviy aloqasi;
- yoshlarning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, yoshlar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari doirasida o'z manfaatlarini amalga oshirish yo'llarini erkin tanlab olishlariga kafolat berish;
- jamiyatni rivojlantirishga, ayniqsa, respublika yoshlari hayotiga oid siyosat va dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda yoshlarning bevosita ishtirok etishi;
- huquq va burchlarning erkinlik va fuqarolik mas'uliyatining birligi".

Mamlakatimizda yuksak intellektual salohiyatli kadrler tayyorlash siyosati ta'lim sohasida zamonaviy axborot va kompyuter texnologiyalari, internet tizimi, raqamli va keng formatli telekommunikatsiyalarning zamonaviy usullarini o'zlashtirish, bugungi taraqqiyot darajasini belgilab beradigan bunday ilg'or yutuqlar nafaqat muktab, litsey va kollejlar, oliy o'quv yurtlariga, balki har qaysi oila, hayotiga keng kirib borishi uchun zamin hozirladi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarda yoshlarning faol ishtirokini ta'minlash, yuksak ma'naviyatli, mustaqil va erkin fikrlaydigan, zamonaviy ilm-fan yutuqlarini puxta o'zlashtirgan har

tomonlama sog'lom va barkamol avlodni voyaga yetkazishga qaratilgan yoshlarga oid davlat siyosatini izchil amalgal oshirish maqsadida, davlat va jamoat tashkilotlarining takliflarini inobatga olib 2014-yil 6-fevralda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-2124-sonli Qarori qabul qilindi.

"O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida"gi Qonun mamlakatimiz yoshlarining jamiyat siyosiyijtimoiy, ma'naviy sohasidagi keng qamrovli huquqlarini kafolatlab berish bilan birga, barkamol avlod tarbiyasi uchun dastlabki va hal qiluvchi huquqiy asoslarni belgilab berdi. Jumladan, qonunning **birinchi moddasida** "Yoshlarga oid siyosati O'zbekiston Respublikasi davlat faoliyatining ustuvor yo'nalishi bo'lib, uning maqsadi yoshlarning ijtimoiy shakllanish va kamol topishi, ijodiy iqtidori jamiyat manfaatlari yo'lida imkon boricha to'la-to'kis ro'yobga chiqishi uchun ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy, tashkiliy jihatdan shart-sharoit yaratish hamda ularni kafolatlashdan iboratdir", degan qoidalar belgilab qo'yilgan.

Shuningdek, 2016-yil 14-sentyabrda yangi tahrirda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosati" to'g'risidagi O'RQ-406-sonli Qonun hujjati ham bu boradagi ishlarni tizimlashtirish va barqarorlashtirishga asos bo'ldi.

Qolaversa, 2017 yilning 30 iyun kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning tashabbusi bilan "**O'zbekiston yoshlar ittifoqi**"ning tuzilishi<sup>125</sup> bilan yoshlarga oid davlat siyosatida tub burilish yuz berdi deyishimiz mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2017 yil 22 dekabr kuni Oliy Majlisga yo'llagan dastlabki Murojaatnomasida "Yoshlar haqida gap ketganda, men doim bir narsani o'ylayman. Mana, bugungi kunda qancha-qancha yoshlarimiz chet ellarda ta'lif olmoqda, mehnat qilmoqda. Albatta, ularning orasida o'z yo'lini topib, begona yurtda hyech kimdan kam bo'lmay yashayotganlari ham ko'p. Lekin Vatan sog'inchi har qanday odamni ham qiyaydi. Shuning uchun ular bilan doimiy aloqa o'rnatish, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish, yurtimizga qaytish istagida bo'lganlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha ishlarni kuchaytirishimiz zarur.

Shu maqsadda **O'zbekiston yoshlari xalqaro assotsiatsiyasini** tuzish va uning samarali faoliyat yuritishi uchun tegishli sharoit yaratib berishimiz kerak. Yoshlarimiz xorijdagi tengdoshlari bilan ilm-fan,

<sup>125</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakatining IV qurultoyidagi nutqi. 2017-yil 30-iyun.

madaniyat, tadbirkorlik, sport va boshqa sohalarda faol muloqotda bo'lishlari maqsadga muvofiq"<sup>126</sup>, deya ta'kidlab o'tadi.

Yoshlar masalalari, ularni jamiyatda faolligini oshirish va manfaatlarini himoya qilish borasida o'tgan yillar davomida sohaga oid bir qator qonun, farmon, qarori va boshqa me'yoriy hujjatlar qabul qilindi. Shuningdek, O'zbekiston bevosita yoshlarning huquq va erkinliklarini ta'minlashga qaratilgan 30 dan ortiq xalqaro huquqiy hujjatning ishtirokchisi hisoblanadi<sup>127</sup>.

2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi doirasida qabul qilingan tegishli qonunchilik hujjatlari yoshlarning jamiyatda faolligini oshirishda ma'naviy muassalarning o'rni, ularni har tomonlama himoya qilish borasida hamkor institutlar bilan ijtimoiy sherikligini mustahkamlash masalalari ham ustuvor vazifalarni keltirib chiqaradi. Xususan, Harakatlar strategiyasining to'rtinchı – Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishida yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish, xususan, jismonan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirishdek dolzARB masalalar nazarda tutiladi.

Masalaning yana bir tomoni borki, bu ham bo'lsa ta'lim tizimini takomillashtirish masalasidir. Mamlakatimizda uzlucksiz ta'limni tubdan isloh qilish ta'lim tizimini modernizatsiyalash, demokratlashtirish va insonparvarlashtirish jarayonlari bilan uzviy bog'liq. Shu ma'noda, bir so'z bilan aytganda, bugungi kungacha uzlucksiz ta'lim tizmini rivojlantirish va taraqqiy ettirish borasida qabul qilingan 100 ga yain me'yoriy-huquqiy asoslar – qonunchilik hujjatlari mamlakatimizda umumiy o'rta ta'limni rivojlantirish, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi samaradorligini oshirish, uning mehnat bozori bilan aloqasini kuchaytirish, oliy ta'lim tizimini yuksaltirish, ta'lim jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, oliy ta'lim tizimi hamda ilm-fan hamkorligini kuchaytirish va uzlucksizligini ta'minlash, ta'lim muassasalarining ilmiy-metodik, innovatsion-tadqiqotchilik va ma'naviy-ma'rifiy faoliyatiga sifatli axborot-kutubxona xizmati ko'rsatish maqsadida doimiy amal qiladigan va yangilab boriladigan o'quv-metodik, tahliliy-statistik resurslar elektron bazasini yaratish, zamon talabi deya

<sup>126</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Xalq so'zi. 2017-y. 23-dekabr soni.

<sup>127</sup> Fidoying bo'lgaymiz seni, O'zbekiston! [Matn]: Mualliflar jamoasi. O'quv qo'llanma/ Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi. -T.: Ma'naviyat, 2017 yil, 157-158 betlar.

ta'rif bergen chet tillarni o'rganish, ishlab chiqarishdan ajralmagan holda chet tillarni o'qitish tizimini tubdan qayta ko'rib chiqish va kuchaytirish borasidagi ishlarda dasturilamal bo'lmoqda.

**3-masalaning bayoni:** Yoshlarning ijtimoiy faolligini shakllantirish va yo'naltirish uchun birinchi navbatda, ularda quyidagi xususiyatlarni shakllantirish kerak:

1. Axborotni qabul qilish va tahlili fikrlash.

Har qanday jarayonda qatnashuvchi shaxs analistik fikrlashga ega bo'lishi kerak. Voqeа-hodisa haqida yetarlicha ma'lumotga ega bo'lishi, jarayonning borishini tahlil qilish hamda natijaviy ko'rinishini aniq tasavvur qila olishi kerak. Bundan tashqari, tahlillarga tayangan tarzda ma'lumotlar o'rtasidagi bog'liqliklarni aniqlay olishi hamda differensiyalashi lozim.

2. Shaxslararo munosabatlarni tashkil qilish malakalari.

Shaxs uchun eng muhim holatlardan biri – kommunikativlikdir. Chunki shaxslararo munosabatda – shaxsning kirishimligi, bemalol aloqa o'rнata olishi muhim ahamiyatga egadir.

3. Motivatsiya, tashabbus va faoliyatni tashkil eta bilish.

Ijtimoiy jamoada shaxs doimo tashabbus ko'rsatish va bunga yarasha intilishga ega bo'lishi kerak. Buning uchun shaxs yetarli bilimga ega bo'lishi bilan birga, o'z taktika va strategiyasini tashkil eta olishi kerak.

4. Nutqning rivojlanganligi.

Shaxsda ijtimoiy aloqalarini yaxshi tashkil eta olishi uchun nutq har tomonlama rivojlangan bo'lishi kerak. Ayniqsa "og'zaki" yoki "gaplashuv", "yozma" nutqni boyitish ustida tinimsiz ishslash kerak.

5. Mustaqil fikrlash.

Jamiyatda o'z o'rниga ega bo'lishi uchun shaxsdan mustaqil fikrlash kuchli talab etiladi. Bundan tashqari, mustaqil fikrlash qobiliyatiga ega shaxslar doimo ijtimoiy guruhda o'ziga xos mavqeiga ega bo'lishadi.

6. Mustaqil qaror qabul qilish.

Shaxsdan har qanday jarayonda birinchi navbatda, mustaqil fikr yuritish talab etiladi.

7. Ma'suliyatni o'z zimmasiga olish.

Shaxsda ma'suliyatni o'z zimmasiga olish shakllangan bo'lishi kerak. Hozir paytda shaxsning siyosiy faolligini boshqarish XXI asrdagi eng dolzarb muammolardan biri bo'lib, bu esa ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda inson omilining oshishi bilan izohlanadi.

Xalqimizda "Birni ko'rib fikr qil, birni ko'rib shukr qil", degan hikmatli maqol bor. Shundan kelib chiqib, hozirgi tahlikali dunyoning bir qator mamlakatlarida kuzatilayotgan to's-to' polonlar negiziga e'tibor

bersak, ularda davlatning o'sib-unib kelayotgan yoshlarga, ularning hayotdagi qiziqishlari, huquq va manfaatlariga e'tiborsizligi, ulardagi yoshlarga oid siyosatning hozirgi zamoning yangi tahdidlariga javob berolmasligi oqibatini ko'rish mumkin.

Prezidentimiz BMT yuksak minbaridan turib "Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratish, zo'ravonlik g'oyasi "virusi" tarqalishining oldini olishdir. Buning uchun yosh avlodni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, uning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasidagi ko'p tomonlama hamkorlikni rivojlantirish lozim, deb hisoblaymiz" dedi.

Mamlakatimizda mustaqillik yillarda yoshlarni ma'naviy yetuk va jismongan sog'lom, vatanparvar va fidoyi etib tarbiyalash, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Mazkur sohadagi faoliyatni tubdan takomillashtirish va yangi yuksak sifat bosqichiga ko'tarish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi farmoni qabul qilindi. Unga muvofiq, yoshlarga oid davlat siyosatini izchil va samarali amalga oshirish, yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini tubdan isloh etish maqsadida O'zbekiston "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati negizida O'zbekiston yoshlar ittifoqi tashkil etildi. O'zbekiston yoshlar ittifoqiga 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi doirasidagi islohotlarda yoshlar faolligini oshirish bilan bog'liq bir qator yangi va muhim vazifalar qo'yildi. O'zbekiston yoshlar ittifoqi respublikamizda yoshlarga oid davlat siyosatining amalga oshirilishida davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan samarali hamkorlikni ta'minlovchi, "Yoshlar — kelajak bunyodkori" shiori ostida professional faoliyatni amalga oshiruvchi tuzilmaga aylanadi<sup>128</sup>.

Respublikamizdagи amalga oshirilayotgan jadal islohotlarning asosiy maqsad va uning harakatlantiruvchi kuchi inson, shaxsning har tomonlama rivojlanishi va farovonligi hisoblanadi. O'zbekiston taraqqiyot va islohotlarning o'ziga xos jahon hamjamiyati tomonidan takrorlanmas, deb tan olingan yo'lni tanladi. Bugungi kunda inson, uning har tomonlama uyg'un kamol topishi va farovonligi, shaxs manfaatlarini ro'yobga chiqarishning sharoitlarini va ta'sirchan mexanizmlarini

<sup>128</sup> Sobirova M.A. "Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishning huquqiy asoslari" fanidan tayyorlangan O'UM. – T.: TDPU, 2020.

yaratish, eskicha tafakkur va ijtimoiy xulq-atvorning andozalarini o'zgartirish, jamiyatimzida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy dinamikasini belgilab beradi.

Insonning bir kuni yo'qki, u maqsadsiz yashagan bo'lsa, maqsadsiz hayot – besamar umrdir. Shuning uchun har bir insondan tortib, murakkab ijtimoiy hayotgacha orzu, ideal va aniqravshan maqsad bilan yashaydi. Agar alohida shaxs maksadi uning aql-idroki, turmush tarzi va salohiyatlari natijasi sifatida ko'zga tashlansa, jamiyat, mamlakat va millat maqsadi juda ko'p ijtimoiy, siyosiy, moddiy va ma'naviy jarayonlarni qamrab oladi. Jamiyat, mamlakat va millat maqsadi, ideali ana shu tariqa muayyan davrning taraqqiyot va istiqbol ko'zgusi bo'lib gavdalaniadi<sup>129</sup>.

### **MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lif to'g'risida"gi Qonuni va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" qachon qabul qilingan?
2. "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida"gi Qonun qabul qilingan sana...
3. O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni qachon qabul qilingan?
4. O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni necha bo'lim, nechta moddadan iborat?
5. O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonunini qabul qilishda qanday maqsadlar ko'zlangan?
6. Tarbiya fani qaysi fanlar negizida shakllantirildi?
7. Yoshlarning ijtimoiy faolligini shakllantirish deganda, siz nimalarni tushunasiz?
8. Yoshlarning ijtimoiy faolligini shakllantirish va yo'naltirish uchun bиринчи navbatda, ularda qanday xususiyatlarni shakllantirish kerak?

### **MAVZUGA OID ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasining Ta'lif to'g'risidagi Qonuni// O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997-y., 9-son, 3-modda.
2. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi //Oliy ta'lif: me'yoriy hujjatlar to'plami. -T.: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririysi. 2001 yil.

<sup>129</sup> Абдурахмонова Р. Ёшлар ижтимоий фаоллигининг психологияк хусусиятлари. –Андижон, 2014-йил, 47-бет.

3. O'zbekiston Respublikasining Qonuni. Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida// O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2016-y., 37-son, 426-modda.
4. O'zbekiston Respublikasining Ta'lif to'g'risidagi Qonuni// Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020-y., 03/20/637/1313-son.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida// O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 27-son, 607-modda.
6. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг "Камолот" ёшлар ижтимоий ҳаракатининг ИВ қурултойидаги нутқи. //Халқ сўзи, 2017-йил, 1 июль.
7. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси.//Халқ сўзи. 2017-йил, 23-декабрь.
8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori.// Umumiy o'rta ta'lif muassasalarida "Tarbiya" fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to'grisida. 2020-yil 6-iyul// Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 07.07.2020-y., 09/20/422/1033-son.
9. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. -Т.: Ўзбекистон, 1998 йил.
10. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. -T.: Ma'naviyat, 2008 yil.
11. Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида. -Т.: Ўзбекистон, 2011 йил.
12. Fidoying bo'lgaymiz seni, O'zbekiston! [Matn]: Mualliflar jamoasi. O'quv qo'llanma/ Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi. -T.: Ma'naviyat, 2017 yil, 68-bet.
13. Sobirova M.A. "Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishning huquqiy asoslari" fanidan tayyorlangan O'UM. – T.: TDPU, 2020 yil.

#### ELEKTRON TA'LIM RESURSLARI:

1. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
2. <http://www.gov.uz/>
3. <http://www.uza.uz/>
4. [www.ziyoronet.uz](http://www.ziyoronet.uz)
5. [www.edu.uz](http://www.edu.uz)
6. [www.ma'naviyat.uz](http://www.ma'naviyat.uz)

## GLOSSARIY

**Adolat** (arabcha – odillik, to'g'rilik) – insoniyatning azaliy orzusi, ezgu g'oyasi, ma'naviyat, axloq va huquqning me'yoriy kategoriyalardan biri.

**Avtonomiya** – yunon. autos+nomos – o'zi+qonun; 1.Yagona davlat miqyosida hududiy-milliy tuzilmalarga (viloyat, o'lka) o'zini o'zi boshqarish vakolatlarini berish; 2.Ma'muriy-hududiy birlik; 3.Qandaydir organlar (xo'jalik, davlat, partiya va boshqalar) faoliyatlaridagi o'zini o'zi boshqarish huquqi.

**Avtoritar** – lot. auctoritas – hokimiyat, ta'sir; hokimiyatning bir kishi yoki bir hokimiyat organi qo'lida to'planishi, diktatorlik uslublari bilan idora etishga asoslangan siyosiy rejim.

**Assotsiatsiya** – lot. association – qo'shilma; qo'shilish, aralashish; shaxslar birlashmasi yoki faoliyat turi bo'yicha tuzilgan muassasa.

**Aktor** – lot. "actor" – aktyor, arbob; muayyan xatti-harakatlarni amalga oshiruvchi individ, ijtimoiy guruh, institut yoki boshqa sub'ekt, ziddiyatlarda ishtirok etuvchi tomonlar. Siyosatshunoslikda aktor va sub'ekt tushunchalari sinonim sifatida ishlataladi.

**Anarxizm** – yunon. anarchia – boshliqsizlik, hokimiyatsizlik; jamiyatni davlatsiz qurish, har qanday institutlashgan hokimiyat shaklini fuqarolarning erkin va ixtiyoriy uyushmalariga almashtirish tarafidori bo'lgan siyosiy oqim.

**Antrepreneur** – fr. entrepreneur – tadbirkor, ishbilarmon; xususiy, tomosha qilish (teatr, sirk va boshq.) korxonalari egasi.

**Atribut** – lot.attributum – muhim belgi, aniqlovchi; biron-bir predmet yoki hodisaning muhim va ajralmas xususiyati, nimanidir tarkibiy qismi.

**Artikulyasiya** – lot. articulation – alohida-alohidaga bo'linish; nodavlat va jamoat tashkilotlari individlar va ijtimoiy guruhlarning tarqoq qarashlari, ijtimoiy ruhiy kechinmalari va umidlarini aniq va ma'lum siyosiy maqsadlar va talablarga aylantirish jarayonini anglatadi.

**Barqarorlik** – tinchlik, osyoishtalik va ijodiy mehnat muhiti qat'iy hamda mustahkam o'rnatilgan muhim sharoit.

**Bipolyar** – ingl. bi+polar – ikki+qutbli; ikki qutbli.

**Blokada** – ingl. blockade; block – to'sib qo'ymoq, to'sqinlik qilmoq.

**Vatan** – (arabcha – ona yurt, o'lka) kishilarning yashab turgan, ularning avlod-ajdodlari tug'ilib o'sgan joyi, hududi, ijtimoiy muhiti, mamlakatidir.

**Verbal** – lot. verbalis – so'z orqali; oo'zaki; bunda siyosiy ishtirokni shaxsning sub'ektiv jihatiga boo'liq emasligiga ishora qilinmoqda.

**Globallashuv** (lot. globus – shar, yer sayyorasi) – jahon taraqqiyotida shakllangan yangi umumsayyoraviy tartibotlar, davlatlar va kishilar o'rtaida o'zaro aloqalarning kengayishi, dunyo miqyosida axborot makoni, kapital, tovar hamda ishchi kuchi bozoridagi integratsiyalashuv, ommaviy madaniyat namunalarining keng tarqalishi ifoda etuvchi tushuncha.

**Developement** – fr. developpement – rivojlanish.

**Deviant** – lot. deviatio – chetga chiqish, oo'ish.

**Dezintegratsiya** – fr.des+lot.integratio bir butunning tarkibiy qismlarini bo'linishi, parchalanishi, integratsiyaning teskarisi.

**Diskriptiv** – ingl. descriptive – tavsif, tasviriy, ko'rsatmali, ko'rgazmali.

**Differensiatsiya** – lot. differentia – farqlash, har xillik; taqsimlanish, biron-bir narsani alohida turli xil unsurlarga ajralishi, bo'laklarga bo'linish.

**Dixotomiya** – yunon. dicha+tome – ikki qismga+kesilgan.

**Immunitet** – (lotincha – ozod bo'lishi, qutulishi) insonni turli ta'sirlardan himoyaqilishga qodir reaksiyalar majmuidir.

**Innovatsiya** (inglizcha – innovatsion) yangilik kiritish degan ma'noni bildiradi, ya'ni tizim ichki tuzilishini o'zgartirish, deb ta'riflanadi.

**Imij** (ing. image – qiyofa, tasvir) muayyan shaxs, tashkilot yoki boshqa ijtimoiy obyektga nisbatan kishilar ongida shakllangan qiyofadir. U kishilar ongiga, hissiyotlariga, faoliyatiga hamda xatti-harakatlariga ta'sir o'tkazadi.

**Inson** (arabcha – unutmoq) – olamdagi boshqa biologik mavjudotlardan ajralib turadigan muhim xususiyatlarga, ya'ni aql, ma'naviyat, madaniyat, axloq, tafakkur, til va boshqa jihatlarga ega bo'lgan ijtimoiy mavjudotdir.

**Islohot** – (arabcha "islohot" – yaxshilash tuzatish) – isloh qilish, tubdan o'zgartirish, qaytadan qurish, yangidan tashkil qilish.

**Ierarxiya** – yunon. hierarchia – mansab poo'onasi; mansab va unvonlarning pastdan yuqoriga va bo'y sunish tartibi bo'yicha joylashish qatori.

**Inklyuzivlik** – ingl. inclusive o'z ichiga olmoq, ichida, ichiga kirib borishi.

**Yoshlarga oid davlat siyosati** – davlat tomonidan amalga oshiriladigan hamda yoshlarni ijtimoiy jihatdan shakllantirish va ularning intellektual, ijodiy v boshqa yo'nalishdagi salohiyatini kamol

toptirish uchun shart-sharoitlar yaratilishini nazarda tutadigan ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy va huquqiy chora-tadbirlar tizimidir.

**Yoshlar tadbirkorligi** – yosh fuqarolar tomonidan, shuningdek, ta'sischilar yoshlar bo'lgan yuridik shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan tadbirkorlik faoliyatি.

**Kommunikatsiya** – lot. communicatio – xabar, aloqa.

**Kommunikator** – lot. o'zagi "communicatio" – "xabar"; axborot uzatishdagi vositachi.

**Kompetent** – lot. sompetents – loyiqlik, mutanosiblik; o'z bilimi yoki vakolati bilan biron-bir qarorni qabul qilish, masalani yechish yoki ular yuzasidan hukm chiqarish uchun zarur bo'lgan ilmiga yoki qobiliyatga ega bo'lishni anglatadi.

**Komillik** – insonning kamolotga erishuv jarayonidagi barkamolligi darajasini ifodalovchi tushuncha. Nodonga nisbatan oqil, loqaydga nisbatan sergak, baxilga nisbatan saxiy, tanbalga nisbatan serg'ayrat, qo'rqoqqa nisbatan botirlik kabi xislatlar o'ziga xos o'lchov vositasini o'taydi.

**Kontinuum** – lot. continuum – uzliksiz, yalpi.

**Konformizm** – lot. conformus – o'xhash, monand; moslashuvchanlik, mavjud tartibotlar va hukmron fikrlarni passiv ravishda qabul qilish.

**Korrelyativ** – lot. correlativus – o'zaro nisbat; o'zaro munosabat, munosabatdosh, munosabatdorlik.

**Legal** – lot. legalis – qonuniy; ruxsat berilgan, qonun e'tirof etgan.

**Lokal** – lot. localis – mahalliy; shu joy uchun xoslik.

**Loyallik** – fr. loyal – ishonchli, sadoqatli; shaxslarni o'zini qonun doirasida tutishi, hokimiyat organlari talab va ko'rsatmalariga amal qilishi va hokazo.

**Ma'naviy meros** – ma'naviy taraqqiyot mahsuli, inson aql-zakovati bilan yaratilgan, kelajak avlodni ezgu taraqqiyot sari yetaklash xususiyatiga ega bo'lgan, ajdodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan azaliy qadriyatlar majmuini ifodalaydigan tushuncha.

**Ma'naviyat** – (arabcha – ma'nolar majmui) kishilarning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvurlari va tushunchalari majmuidir.

**Ma'rifat** (arabcha – bilish, bilim, ma'lumot, tanish, tanishish) – tabiat, jamiyat va inson mohiyati haqidagi bilimlar, ma'lumotlar, ta'lim-tarbiyava maorif tizimi uyg'unligini ifodalovchi tushuncha.

**Mafkuraviy immunitet** – shaxs, ijtimoiy guruh, millat, jamiyatni turli zararli g'oyaviy ta'sirlardan himoya qilishga xizmat qiladigan g'oyaviy-nazariy qarashlar va qadriyatlar tizimi hisoblanadi.

**Majoritar** – fran. majoritaire – ko'pchilik; lot. major – katta, ko'p so'zidan olingan; ko'pchilikka taalluqli, tegishli; ko'pchilikka asoslangan. Ba'zan "ko'tarinki", "quvnoq kayfiyat" ma'nolarini ham beradi.

**Marginal** – fr. marginal – chekkada turuvchi; ikkinchi darajali, oxirgi; oldingi ijtimoiy aloqalarini yo'qotgan, yangi hayot shart-sharoitlariga hali moslasha olmagan, qandaydir ijtimoiy guruqlar orasida yoki eng chekkasida turgan ijtimoiy odam, jamiyatning sirtida qolgan: lyumpen, miskin va hokazo.

**Mediasavodxonlik** (lotincha – media literacy) – mediani o'rganish layoqati va ko'nimkasiga ega bo'lish. Ommaviy kommunikatsiya xabarlardan foydalanish, tahlil qilish, baholash va ularni turli variantlarda (messages) uzatish layoqatidir.

**Mentalitet** – (lotincha – "aql", "zehn", "idrok", "zakovat") jamiyat, millat, jamoat yoki alohida shahs, tarixiy tarkib topgan tafakkur darajasi va ma'naviy salohiyatdir.

**Millatlararo totuvlik** – millatlararo ahillik, xalqaro do'stlikdir. Millatlararo totuvlik milliy istiqlol mafkurasining asosiy g'oyalaridan sanalib, muayyan hudud, davlatda turli millat vakillarining hamjihatlikda yashashi, hamkorlikda faoliyat yuritishini ifodalovchi tushunchadir.

**Minimum** – lot. minimum – eng kam, eng oz.

**Milliylik** – muayyan xalqqa xos bo'lgan, uni boshqalardan farqini ko'rsatuvchi xususiyatlар majmui.

**Millat** – (arabcha – xalq) bir hududda istiqomat qiladigan, umumiy til, madaniyat, urf-odat, qadriyatlar va ruhiy yaqinlik bilan farqlanuvchi ijtimoiy birlikdir.

**Milliy o'z-o'zini anglash** – milliy etnik jamiyatning tarixi, zamonaviyligi, taraqqiyot istiqbollarining dunyo hamjamiatida tutgan o'rni va roli to'g'risidagi tushunchalarning xususiyatlari, mazmun va mohiyatini ifodalovchi qarashlar va munosabatlar majmuidir.

**Model** – fr. modele – namuna, tarh, nimanidir tasviri tavsifi.

**Modifikatsiya** – fr. modificatio – ko'rinish yoki shakl o'zgarishi.

**Nominal** – lot. nominalis – nomiga berilgan, yozilgan; rasmiylashgan, o'rnatalgan, belgilangan.

**Oligarxiya** – yunon. oligos – ozchilik, kichik, katta bo'lмаган + arche-hokimiyat, hukmronlik; siyosiy hukmronlik, ta'sirli shaxslarning tor doirasiga tegishli bo'lgan hokimiyatni idora etish shakli.

**Partikulyar** – lot. particularis – alohida; xususiy va tor guruhiy manfaatlar doirasida o'ralashib qolish.

**Partitsipatsiya** – ingl. participation – ishtirok, hamishtirok; ishtirok etmoq; fuqarolar tomonidan davlat va jamiyat ishlarini boshqarish jarayonida u yoki bu funksiyalarni bajarishini shart qilib qo'yadigan demokratianing modeliga doir nisbat.

**Permanent** – lot. permanens – doimiy, uzluksiz davom etish.

**Permanetizm** – lot. permanens – doimiylik, uzluksiz davom etishga doir qarashlar.

**Pragmatizm** – pragma – harakat, amaliyot; falsafadagi oqimlardan biri bo'lib, ob'ektiv haqiqatni bilishni inkor etadi, amaliy foydali natijalarни haqiqat sifatida tan oladi.

**Ratsional** – lot. rationalis – oqilona; maqsadga muvofiq, asoslangan, dalillangan (eng to'g'ri yo'l ma'nosida ham ishlataladi).

**Reflekc** – lot. reflectere – ifodalash, ko'zgu, aks, yoritish; odamning turli ta'sirlarga nerv tizimi orqali u yoki bu qarshi ta'sir ko'rsatish yoki hayvon organizmiga nerv tizimi orqali u yoki bu ta'sir etishga qarshi unda javob tariqasida paydo bo'ladigan hodisa.

**Restavratsiya** – lot. restauratio; biron-bir narsani dastlabki ko'rinishini tiklash; siyosiy fanlarda inqilob yoki boshqa yo'l bilan ao'darilgan eski tuzum yoki dinastiyani tiklash;

**Sotsium** – lot. socium – umumiylar; kishilar hayot faoliyati shart-sharoitlarining umumiyligini tavsiflovchi ijtimoiy birlik.

**Strategiya** – amalga oshirishi lozim bo'lgan va uzoq davrga mo'ljallangan maqsadni amalga oshirish yo'li.

**Strata** – lot. stratum – qatlam.

**Subordinatsiya** – lot. sub+ordination – taqsimlash; tartibga keltirish; xizmat intizomi qoidalariiga tegishli holda martaba darajalari bo'yicha kichik mansabdorlarning katta mansabdorlarga bo'y sunishiga qat'iy amal qilish.

**Souverenitet** – fran. souvernitdt; davlatning ichki ishlar va tashqi munosabatlarda xorijiy aralashuvlarga yo'l qo'yagan holdagi mustaqilligi va muxtoriyati.

**Tanazzul** – taraqqiyotning aksi, tabiiy-ijtimoiy o'zgarishlarning beqarorlashuvi, inson va jamiyatning zaiflashib, muammolar ichida qolganini anglatuvchi tushuncha.

**Tenglik** – odamlarning jamiyatdag'i o'rni, ularning millati, jinsi, ijtimoiy kelib chiqishi va boshqalaridan qat'i nazar bir xillagini ta'minlaydigan siyosiy va fuqarolik huquqlari, teng imkoniyatlari.

**Tolerantlik** – lot. tolerantia – chidam; begona fikrlar va dinlarga nisbatan chidamli bo'lish.

**Totalitar** – lot. totalis – to'la, butunlay; jamiyatning barcha sohalarini nazorat qilishga asoslangan, demokratik tashkilotlarni taqiqlash, inson konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari tugatilgan, taraqqiyat parvar kuchlarni quvo'in qiladigan, militaristik ijtimoiy tuzum, davlat, siyosiy rejim.

**Tranzit** – lot. transitus – o'tkinchi, o'tish; siyosatshunoslikda bir tuzumdan ikkinchisiga o'tishdagi oraliq davr yoki modernizatsiya jarayoni nazarda tutiladi.

**Transaksiya** – lot. transactio – bitim tuzish; turli shakllardagi buyurtmalarni elektron shaklda berish uchun kasbiy faoliyat yuritishga litsenziya olish va hujjatlar almashish uchun soliq deklariyalari kabilardir (masalan, masofali ta'lim berish, elektron aloqa bilan soo'liqqa doir maslahatlar berish va hokazo).

**Transformatsiya** – lot. transformatio – o'zgarish, boshqa narsaga aylanish, shakl o'zgarishi); siyosatshunoslikda siyosiy o'zgarish yoki modernizatsiya jarayoni natijasida bir holatdan ikkinchisiga o'tish ma'nosida ishlataladi.

**Universal** – lot. universalis – umumiy; har tomonlama, keng qamrovli, ko'plab maqsadlar uchun yaroqli, turli vazifalarni va funksiyalarni bajara oladigan.

**Urbanizatsiyalashuv** – lot. urbanus – shaharga taalluqli; sanoat va aholini yirik shaharlarda to'planishi, jamiyat rivojlanishida shaharlar rolining ortib borishi.

**Utilitar** – lot. utilitas – naf; foyda, amaliy foyda olishni nazarda tutish.

**Fenomen** – yunon. phainomenon – noyob; kamdan-kam uchraydigan va favqulodda yuz beradigan hodisa, noyob, o'aro'yib.

**Shaxs faolligi** – uning hayotini boshqarish bilan bog'liq bo'lgan va qadriyatlarining namoyon bo'lish xususiyatlariga aytildi.

**Sikl** – yunon. kyklos – doira; muayyan tizimni tashkil etuvchi va o'zaro bir-birlari bilan boo'liq bo'lgan hodisalar, ishlar, jarayonlar yio'indisi yoki rivojlanishning tugallangan doirasi.

**Sirkulyasiya** – lot. circulatio – aylanma harakat; uzluksiz almashinish, aylanma harakat.

**Egalitarizm** – fr. egalitarisme – tenglik; umumiy baravarlashtirishning sotsiumni tashkil etish prinsipiiga asoslanuvchi ijtimoiy fikr yo'nalishlaridan biri.

**Eklektiv** - yunon. eklektikos - tanlovchi; turli-tuman, ba'zan qarama-qarshi prinsiplar, qarashlar, nazariyalar va odatlarni mexanik tarzda qo'shish.

**Ekstraktiv** - lot. extraactus - ko'chirilgan, olingan.

**Ekumenizm** - lot. oecumenicus - jahon, yer yuzi; diniy konfessiyalarning birlashtirish harakati.

**Elektoral** - lot. elector - saylovchi; saylanadigan, tanlanadigan.

**Elektorat** - lot. elector - saylovchi; saylovchilar.

**Etiket** (frans. etiquette - ma'lum joyda o'rnatilgan tartib-qoida) - inson va jamiyat tashqi madaniyatining asosiy qismi bo'lib, asrlar davomida go'zallik, intizom, aqlva idrokning uyg'unligi asosida shakllangan estetik me'yorlar majmuyidir.

**Qadriyatlar** - borliq va jamiyat, narsalar, voqealar, hodisalar, inson hayoti, moddiy va ma'naviy boyliklarning ahamiyatini ko'rsatish uchun qo'llaniladigan tushuncha.

**O'ng** - siyosiy kuchlar joylashuvida jamiyatning ijtimoiy-siyosiy tuzilishi saqlanishini maqsad qilib olgan konservativ siyosiy oqim.

## MUNDARIJA

<b>KIRISH.....</b>	<b>3</b>
<b>1-mavzu: "Milliy g'oya, ma'naviyatning pedagogik asoslari"</b> fanining maqsad va vazifalari.....	4
<b>2-mavzu: Milliy g'oya va ma'naviyatga oid fanlarni o'qitishning nazariy-huquqiy va pedagogik asoslari.....</b>	16
<b>3-mavzu: Milliy g'oya va ma'naviyatga oid fanlarni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari.....</b>	30
<b>4-mavzu: Milliy g'oya va ma'naviy tarbiyaning asosiy yo'naliishlari.....</b>	41
<b>5-mavzu: Milliy g'oya va ma'naviyatga oid fanlarni o'qitishda shaxs xususiyatlarini hisobga olish.....</b>	53
<b>6-mavzu: Milliy g'oya va ma'naviyatga oid fanlarni o'qitishning turli metodlari.....</b>	64
<b>7-mavzu: Milliy g'oya va ma'naviyatga oid fanlarini o'qitishga pedagogik texnologiyalarni joriy qilish.....</b>	75
<b>8-mavzu: Milliy g'oya va ma'naviyatga oid fanlarni oqitishda turli vositalardan foydalanish.....</b>	85
<b>9-mavzu: Milliy g'oya va ma'naviyatga oid fanlarni o'qitishda ommaviy axborot vositalaridan foydalanish.....</b>	100
<b>10-mavzu: Milliy g'oya va ma'naviyatga oid fanlarni o'qitishda xalq og'zaki ijodi namunalarini, tarixiy bitiklar, allomalar merosi, badiiy adabiyotlardan foydalanish.....</b>	118
<b>11-mavzu: Milliy g'oya va ma'naviyatga oid fanlariga oid auditoriyadan tashqari ishlar, ularning turlari.....</b>	132
<b>12-mavzu: Milliy g'oya va ma'naviyatga oid fanlarni o'qitishda yangicha yondashuvlar va innovatsiyalar.....</b>	139
<b>13-mavzu: Milliy g'oya va ma'naviyatga oid fanlarni o'qitishda ijtimoiy fanlardagi so'nggi yangiliklar va yutuqlardan foydalanish</b>	158
<b>14-mavzu: Yoshlarni milliy g'oya ruhida tarbiyalashning institutsional tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish masalalari.....</b>	177
<b>15-mavzu: Milliy g'oya va ma'naviyatga oid fanlar orqali yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish.....</b>	191
<b>GLOSSARY.....</b>	<b>203</b>

**Sobirova Marhabo, Zamonov Zokir,  
Niyozmatov Anvar, Xo'jayev Munis**

# **MILLIY G'OYA, MA'NAVIYATNING PEDAGOGIK ASOSLARI**

## **O'QUV QO'LLANMA**

“Nodirabegim” nashriyoti  
Nashriyot litsenziyasi AI № 313. 24.11.2017 y.  
Bosishga ruxsat etildi: 8.01.2022.  
“Cambria” garniturasi. Qog'oz bichimi: 60x84 <sup>1/16</sup>  
Nashriyot bosma tabog'i 13,1. Adadi 100 nusxa.  
100129, Toshkent shahri, Shayxontohur tumani,  
Navoiy ko'chasi, 30-uy.

ООО “АКТИВ ПРИНТ” босмаксонасида чоп этиди.  
Ташкент, Чилонзор 25, Лутфий 1А.

O'QU  
ZALI

